



Tadqiqot.uz

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XORIJӢ OLİY TA'LIM MUASSASALARI
PROFESSOR-O'QITUVCHILARI, YOSH OLIMLAR, DOKTORANTLAR,
MAISTRANTLAR VA IQTIDORLI TALABALAR

MAY

No 76
TOSHKENT

DAVRIYLIGI: 2018-2025
RESPUBLIKA KO'P TARMOQLI

ILMIY KONFERENSIYA

YANGI O'ZBEKISTON: 2025

CONFERENCES.UZ

ILMIY TADQIQOTLAR

| ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES |

MATERIALLAR TO'PLAMI



CONFERENCES.UZ

**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:
ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
2-ҚИСМ**

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:
НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
ЧАСТЬ-2**

**NEW UZBEKISTAN:
SCIENTIFIC RESEARCH
PART-2**

ТОШКЕНТ-2025



УЎК 323(575.1)(063)

КБК 66.3(5Ў)я43

Й-18

DOI 10.5281/zenodo.11390854

«ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: Илмий тадқиқотлар» [Тошкент; 2025]

«Янги Ўзбекистон: Илмий тадқиқотлар» мавзусидаги республика 76-кўп тармокли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 май 2025 йил. – Тошкент: «Tadqiqot», 2025. – 140 бет.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Ҳаракатлар стратегиясидан – Тараккиёт стратегияси сари» тамоилига асосан ишлаб чиқилган еттига устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараккиёт стратегияси мувофиқ: – илмий изланиш ютукларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат килиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуклар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараккиётининг истиқболдаги режалари тахтил килинган конференцияси.

Маъсул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1.Хукукий тадқиқотлар йўналиши -

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар -

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фарғона давлат университети)

3.Тарих сахифаларидағи изланишлар -

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни -

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

5.Давлат бошқаруви -

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети
"Беш мухим ташаббус" маркази раҳбари)

6.Журналистика -

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар –

Самигова Умида Хамидуллаевна ("Kinder land of Asia" НТМ ўқув ва тарбия ишлари бўйича директор ўринбосари)

8.Адабиёт-

PhD Абдумажида Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни -

Phd Воҳидова Мехри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар -

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети, таржимонлик факультети, инглиз тили амалий таржимаси кафедраси в.б.доценти, PhD)

11.Жисмоний тарбия ва спорт-

Усмонова Дилғузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши -

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши -

Бобохонов Олтибод Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14. Тасвирий санъат ва дизайн-**

Доцент Чарис Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15. Мусиқа ва хаёт-

Доцент Чарис Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16. Техника ва технология соҳасидаги инновациялар -

Доцент Нормирзаев Абдукаюм Раҳимбердиевич (Наманган мухандислик-курилиш институти)

17. Физика-математика фанлари ютуклари -

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган мухандислик-технология институти)

18. Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар -

Зупарова Зулфия Ахрор қизи, Тошкент тиббиёт академияси фармакология кафедраси доценти, DSc (фармацевтика фанлари доктори)

19. Фармацевтика -

Жалилов Фазлиддин Содикович DSc (Альфраганус университети, фармацевтика ва кимё кафедраси мудири, фармацевтика ва кимё фанлар доктори, профессор)

20. Ветеринария -

Жалилов Фазлиддин Содикович DSc (Альфраганус университети, фармацевтика ва кимё кафедраси мудири, фармацевтика ва кимё фанлар доктори, профессор)

21. Кимё фанлари ютуклари -

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)

22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар -

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари -

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қиплок хўжалигини механизациялани мухандислари институти)

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар -

Phd доцент Қаххоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қиплок хўжалигини механизациялани мухандислари институти)

25. География -

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдор.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

Page Maker\Верстка\Сахифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000



ХУҚУҚ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

ИЛГАРИ СУДЛАНГАН ШАХСЛАРНИНГ КРИМИНОЛОГИК ТАВСИФИ ВА ПРОФИЛАКТИКАСИ

Умбаров Хуршид Саматович

Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий
кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби тингловчиси
Телефон: +998 91 904 24 39 umbarov.xurshidd@gmail.com

Аннотация: Мазкур мақолада илгари судланган шахсларнинг криминологик тавсифи таҳлил қилинган. Жиноят содир этган шахсларнинг ижтимоий-маънавий хусусиятлари, уларнинг жиноий хатти-харакатларига таъсир этувчи омиллар, шу жумладан, маънавий, ижтимоий, иқтисодий ва психологияк сабаблар ёритилган. Шунингдек, жиноятчиликнинг олдини олишга қаратилган профилактик чора-тадбирларнинг аҳамияти таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: илгари судланган шахс, рецидив жиноятчилик, криминологик тавсиф, жиноятчилик сабаблари, профилактика, ижтимоий омиллар, ҳуқуқий чоралар.

Бугунги кунда жиноят оқибатлари билан курашишни эмас, балки жиноятчиликнинг асл омилларини аниқлаш ва ўз вақтида бартараф этиш орқали унинг барвақт олдини олишни устувор мақсадга айлантириш долзарб аҳамият касб этмоқда.

Шу билан бирга Республикада кузатилаётган жиноятчилик тенденцияларини таҳлил ва прогноз қилиш, жиноятчилик омилларини илмий диагноз қилиш, қонунчилик ва ҳуқуқни қўллаш амалиётини такомиллаштириш орқали уларни бартараф этиш, шунингдек, илмий тадқиқотларни ҳуқуқ-тартибот амалиётидаги муаммоларнинг манзилли ҳал этилишига йўналтириш механизмларини тубдан ислоҳ қилиш зарурати юзага келган¹. Шу боисдан, ҳудудлардаги криминоген вазиятни чукур таҳлил қилиш, жиноятларнинг динамикаси ва содир этилишига таъсир қилаётган омилларни аниқлаш ва “илмий диагноз” қўйиш орқали жиноятчиликни прогнозлаш ва унинг олдини олишга алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Таъкидлаш керакки, илгари судланган шахслар ўртасида профилактик ишларни самарали ташкил этиш, вояга етмаганлар ва ёшларнинг бўш вақтларини мазмунли ўтказилишини таъминлаш, фуқароларнинг ҳуқуқий онги ва маданиятини юксалтириш жиноятларнинг содир этилишини барвақт олдини олишда муҳим аҳамият касб этади. Бундай ишларнинг ташкил этилиши маъмурий ҳудудларда криминоген вазиятнинг яхшилигини таъминлашга хизмат қиласди.

Бугунги кунда бозор муносабатлари жараёнида бўш иш ўринларининг яратилиши борасида мамлакатимизда олиб борилаётган кўплаб амалга оширилаётган чораларга қарамасдан ахолининг кўпчилик қисмининг ишсизлиги, шу жумладан бу ҳолатлар илгари судланган шахсларни ишга жойлаштиришдаги муаммоларни келтириб чиқараётганлиги долзарб масала ҳисобланади.

I.Илгари судланган шахслар тушунчаси ва ўзига хос хусусиятлари

Шахс, Ўзбекистон Республикаси Жиноят Кодексининг Махсус қисми моддасида назарда тутилган жиноят таркибининг барча белгилари мавжуд бўлган ижтимоий хавфли қилмишни содир этганликда айбдор деб топилиб, айблов ҳукми эълон қилингандан сўнг судланган деб ҳисобланади. Аммо ҳукм қилинишнинг ҳар қандай факти ҳам судланганликни келтириб чиқармайди. Ҳукм қилиш айбдорга жазо тайинлашда ҳам, қонунда мавжуд бўлган асосларга кўра, жазодан озод қилишда ҳам мавжуд бўлиши мумкин.

Судланганлик – бу шахснинг содир этган жинояти учун ҳукм қилинишидан келиб чиқадиган ҳуқуқий ҳолат ҳисобланади. Жазо тайинланган айблов ҳукми қонуний кучга кирган кундан бошлаб шахс судланган деб ҳисобланади. Суд томонидан жазодан озод қилинган шахс

1 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 15 январдаги «Жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликка қарши курашиш соҳасини илмий тадқиқ қилиш фаолиятини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-10-сон Фармони //URL:<http://www.lex.uz>.



судланмаган деб ҳисобланади.

Ўзбек тилининг изоҳли луғати *судланганлик* деб, — шахснинг содир этган жинояти учун ҳукм этилганлигидан келиб чиқадиган ҳуқуқий ҳолат. судланганлик *айблок* ҳукми кучга кирган кундан бошланади. суд томонидан жазодан озод қилинган *шахс* судланмаган ҳисобланади¹. и Шахсни судланган деб топишнинг бошланғич вақтини ҳукм кучга киргандан кейинги вақт деб белгилайди. жиноят-процессуал қонунга мувофиқ, ҳукм унинг апелляция шикояти бериш ёки протест билдириши муддати ўтиши билан қонуний кучга киради. апелляция шикояти берилган ёки протест билдирилган тақдирда ҳукм, агар у бекор қилинмаган бўлса, ишни юқори суд кўриб чиқсан куни қонуний кучга киради. Судланганлик Ўзбекистон Республикаси Жиноят Кодексида назарда тутилган ҳолларда шахс янги жиноят содир этганда аҳамият касб этишини белгилайди. Бунда судланганликнинг факат жиноий-ҳуқуқий аҳамияти назарда тутилади. Судланганликни жиноий-ҳуқуқий аҳамияти шахснинг олдинги жиноят учун судланганлик муддати ўтмасдан ёки қонунда белгиланган тартибда олиб ташланмасдан янги жиноят содир этганидагина вужудга келади. Судланганликнинг жиноий-ҳуқуқий аҳамияти қуидагилардан иборат: биринчидан, шахсда судланганлик ҳолатининг мавжудлиги хавфли ва ўта хавфли рецидивист деб топилишига таъсир этади (ЖКнинг 34 чоддаси); иккинчидан, шахсни жиноий жавобгарликдан озод қилишга тўсқинлик қиласи; учинчидан. қилмишни квалификация қилишгата таъсир кўрсатади (ЖКнинг 140-моддаси); тўртинчидан, жазотайинлашда оғирлаштирувчи ҳолат сифатида эътироф этилади; бешинчидан, судланганлик озодликдан маҳрум қилиш жазосини тайинлашда жазони ижро этиш муассасаси турини аниқлашга таъсир қиласи (ЖКнинг 50-моддаси); олтинчидан, алоҳида тартибда жазо тайинланишига сабаб бўлади. Шахснинг судланганлиги суд томонидан, у судланган деб топилган даврда, яъни ҳукм қонуний кучга кирган вақтдан унинг тутатилиши ёки олиб ташлангунгача бўлган даврдан кейин жиноят содир этган ҳолларда ҳисобга олинади. Судланганлик бошлангунига қадар ёки у тугагандан кейин жиноят содир этиш хеч қандай жиноий-ҳуқуқий оқибат келтириб чиқармайди.

II.Илгари судланган шахсларнинг криминологик тавсифи

Жиноятчилик ижтимоий ҳодиса сифатида ўрганилганида жиноятчи шахси ва унинг хусусиятлари ҳам ўрганилади². Маълумки, жиноятчи шахсининг ижтимоий хавфли ва айбли қилмишлари билан боғлиқ бўлган муаммоларни криминология фани тадқиқ этади. Зоро, жиноят содир этган шахсларни илмий жиҳатдан ўрганиш ўзининг мазмун ва моҳиятига эга³ бўлиб, жиноятчи шахсига оид маълумотларни ўрганишга қаратилган профилактик чоратадбирларни ишлаб чиқиша мухим аҳамият касб этади.

Маълумки, «жиноятчи шахси» кўп қиррали тушунча бўлиб, бир қатор фанларнинг ўрганиш обьекти ҳисобланади.

Криминологияда «жиноятчи» ва «жиноятчининг шахси» каби атамалар категория, яъни ҳар бири мустақил тушунча сифатида талқин қилинади. «Жиноятчи шахси» тушунчаси ўзига хос равища жиноятчининг ижтимоий белгиларини ифодалайди, яъни шахснинг «ижтимоий қиёфаси»ни очиб беришга хизмат қиласи⁴.

Жиноятчи шахсининг тузилишида қуидаги элементлар мавжуд: 1) инсоннинг ижтимоий муносабатлар тизимидағи ўрнини акс эттирадиган аломатлар (жинси, ёши, оилавий аҳволи, маълумоти ва ҳоказолар) мажмуасини ўз ичига олган ижтимоий мақоми; 2) шахснинг фаолиятнинг асосий соҳаларида ўзини реал намоён қилиш орқали ифодаланган ижтимоий функциялари (касбий-мехнат, ижтимоий-маданий, ижтимоий-маиший); 3) инсоннинг фаолиятнинг асосий турларида ўзни намойиш қилишига муносабатини акс эттирадиган ахлоқий-психологик қоидалар (қонунга, ҳукуқ тартиботга, меҳнатга, оилага, маданий қадриятларга ва ҳоказолар).⁵

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати / 80 000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти . www.ziyouz.com. – Б. 387.

² Рахмонов Р.Н., Юлдашев М.Ш. Вояга етмаганлар назоратсизлиги ва ҳукуқбузарликларининг олдини олишда ҳуқукий маданиятнинг аҳамияти: Республика илмий-амалий конференция материаллари. –Т., 2016. –Б. 134.

³ Криминология: Дарслик / З.С.Зарипов, И.Исмаилов ва бошқ. –Т., Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2007. – Б. 84.

⁴ Криминология: Дарслик / Проф. З.С.Зариповнинг умумий таҳрири остида. – Т., 2007. – 84-б.

⁵ Ратинов А.Р., Ефремова Г.Х. Правовая психология и преступное поведение- Красноярск,



Илгари судланган шахслар учун сурункали алкоголизм, гиёхвандлик, руҳий бузилишлар каби касалликлар хос ҳисобланади. Ўғирлик жиноятларини содир этган рецидив жиноятчи шахсларнинг 58% ўғирлик жиноятларини содир этишда спиртли ичимликлар таъсирида содир этишган¹. Бундан кейинги улуш гиёхвандликка ружу қўйган шасхлар ҳиссасига тўғри келмоқда. Гиёхванд моддаларга бўлган иштиёқ кўпинча одамни бошқа жиноят содир этишга ундейдиган омил ҳисобланади. Кўпинча, ҳеч қандай сабабсиз, ҳеч қандай хис-туйғулар таъсири остида бўлмасдан, оғир жиноятлар спиртли ичимлик ёки гиёхванд моддаларнинг таъсирида содир этилади. Бизнингча, суд айбордага жазо жазо тайинлашда ана шундай ҳолатларни ҳисобга олиши лозим.

Чунки, шахснинг спиртли ичимликларни истеъмол қилиши оқибатида асаб тизимиning тормозланиши, ўзини бошқара олмаслик, қилаётган ҳатти-ҳаракатининг оқибатини англаб етмаслик, айниқса, шахснинг хулқ-авторида эмоционал руҳий ҳолатларининг салбий томонга ўзгариши кузатилади². Умуман олганда, шахснинг мастлиги натижасида ўз ҳаракатларини назорат қилолмаслик, қўполлик, агрессивлик кузатилади. Бунинг натижасида маст кишининг онгида жамиятда ўрнатилган аҳлоқ-одоб нормаларига бефарқлик ва ҳурматсизлик билан қараш пайдо бўлади. Бу эса, жамиятга зид бўлган турли ғайри-ижтимоий салбий ҳусусиятларни шакллантириб шахснинг жиноят содир этишига олиб келади.

Шуни қайд этиш жоизки, шахснинг мастлик ҳолатидаги ҳаракатларида маълум бир даражада ҳукуқбузарнинг «ҳеч кимдан кўрқмайман», «ҳамма нарса мумкин» деган фикрлари уларнинг ижтимоий хавфли қилмишларида намоён бўлади.

Тадқиқот жараёнида зўравонлик жиноятларини содир этган шахслар кўп ҳолларда спиртли ичимликларни меъёридан ортиқ истеъмол қилиши натижасида ўта оғир турдаги қилмишларни ҳам содир этишганлиги маълум бўлди. Ҳусусан, қасдан одам ўлдиришнинг 36%, қасдан баданга шикаст етказишнинг 43%, номусга тегишининг 12%, безориликнинг 51% бевосита мастлик натижасида содир этилган. Айрим тадқиқотларда жиноятларни содир этилишида жиноятчи шахслар 73% маст ҳолатда эканлиги маълум бўлган³.

Тадқиқотлардан кўриниб турибдики, илгари судланган шахслар оилавий аҳволига кўра 48% оиласи, 9% бирга яшамайди, 43% турмуш қурмаган шахслардир. Илгари судланган шахсларнинг аксарият қисмини турмуш-тарзи носоғлом, вақтинча ишсиз, маълумоти юқори бўлмаган, маънавияти ривожланмаган, атрофдагиларга бўлган муносабати самимий бўлмаган, атрофидагилар билан муомалада қўпол ва жizzаки бўлган тоифадаги шахслар ташкил этади⁴.

Илгари судланган шахсларнинг тахминан 75-80% бўш вақтларини кўпинча спиртли ичимлик ёки гиёхванд моддалар истеъмол қилиш ёхуд қимор ўйинлари ўйнаш билан ўтказишини афзал кўради⁵. Бу борада рецидив хукуқбузарлик содир этган шахсларни ўз вақтида ҳисобга олиш, маъмурий назорат ўрнатиш, ишга жойлаштиришга алоҳида эътибор қаратиш лозим. Шу билан бирга, профилактика чоралари тезкор-қидириув тадбирлари билан бир вақтда амалга оширилиши керак.

Илгари судланган шахсларнинг 85% ўзининг доимий яшаш жойи ҳудудида ўша жойдаги криминоген вазиятни яхши билиши туфайли ўзининг жиноий мақсадлари йўлида жиноят содир этган.

Илгари судланган шахслар ақлли, иродаси суст, жizzаки ва ҳиссий бекарортурларга бўлинади. Масалан, иродаси суст рецидивистлар жиноятларни ижтимоий ҳаётга мослашмаганлиги, ниҳоятда ноқулай ҳаётий вазиятлар, турмушининг йўлга тушмаганлиги сабабли содир этадилар. Улар одатда ҳар хил жиноятларни содир этадиган, вазиятга боғлиқ индивидлардир.

Айрим адабиётларда илгари судланган шахслар жиноятчилигининг сабаблари мазмунига кўра, ижтимоий-психологик ҳолатларга, уларга имкон берувчи шароитларни эса иқтисодий,

1988. - 102 б.

¹ Зарипов З. С., Исмаилов И. Криминология. – Т., 1996. – 38-б.

² Попов А.Н. Насилие как основание возникновения аффекта присовершении преступлений против личности. / А.Н. Попов // Уголовное право. Киев. – 2002. – С.69.

³ Журавлева Ю.В. Виктимологическая профилактика изнасилований: Афтореф. дис. кан. юрид. наук. – М., 2007. – С. 12.

⁴ Муродов А.Ш. Ички ишлар органларининг оиладаги зўравонлик билан боғлиқ ҳукуқбузарликлар профилактикасини такомиллаштириш: Юридик фанлар бўйича фалсафа док-ри дисс. – Т., 2019. – Б. 72-73.

⁵ Гуров А. И. Профессиональная преступность. Прошлое и современность. – М., 1990. – С. 76.



сиёсий, ҳукуқий, ташкилий жиҳатдан юзага келувчи ҳолатларга ажратилади. Зеро, ҳозирги вақтда криминологик тадқиқотларда жиноятчиликка юздан ортиқ омиллар таъсир кўрсатаётганлиги таъкидланган¹.

ІІІ. Жиноятларнинг сабаблари ва олдини олиш чора тадбирлари

Жиноятчиликнинг сабаблари ва уларнинг содир этилишига имкон берадиган сабаб ва шарт-шароитларни аниклаш, ўрганиш ва тахлил қилиш асосида унинг салбий оқибатларини камайтиришга қаратилган чора-тадбирларни ишлаб чиқиш муҳим аҳамият касб этади. Зеро, «рецидив жиноятчилик муаммоси – энг аввало алоҳида жиноятчилар тоифаларининг муаммосидир»².

Илгари судланган шахслар жиноятчилиги ўзига хос хусусиятларга эга бўлиб, унинг содир этилишида ижтимоий ва ҳукуқий омиллар муҳим аҳамият касб этади. Ижтимоий омиллар ўз ичига жиноятчиликнинг сабаб ва шарт-шароитларини, жиноятчи шахсининг демографик маълумотлари, белгиларини қамраб олса, ҳукуқий омиллар – жиноят қонунчилигига асосан жиноят содир этган жиноятчи шахсга нисбатан жазонинг муқаррарлигини таъминлаш ёхуд енгиллаштириш ва қилмишни квалификация қилишдаги ёндашувларни қамраб олади.

Айrim юридик адабиётларда илгари судланган шахсларнинг жиноятларни содир этиш сабаблари ва унга имкон берган шарт-шароитлар хусусида сўз юритилганда, улар умумий маънода «жиноятларни юзага келтирувчи омиллар» сифатида ҳам эътироф этилиб, бу борада «жиноятчиликни вужудга келтирувчи омиллар», «жиноятга имкон берадиган омиллар»³, «жиноят жараёнига таъсир кўрсатувчи криминологик омиллар»⁴, «жиноятнинг сабабий омиллари»⁵ тушунчаларидан фойдаланилганлиги кўзга ташланади.

Сабаб ва шарт-шароитнинг ўзи нима? деган саволга жавоб топиш зарур. «Ўзбек тилининг изоҳли луғати»да сабаб, шароит, шарт каби тушунчаларга, «сабаб – боис, важ, баҳона; йўл, усул; алоқа каби таърифлар берилган⁶. Юридик адабиётларда эса жиноятларнинг сабаблари, уларга имкон берадиган шарт-шароитлар хусусида қўплаб фикр ва мулоҳазалар билдирилган. Н.Джураеванинг ёзишича, ҳукуқбузарликларнинг содир этилиш сабаблари ва уларга имкон берувчи омиллар муаммоси ҳар қандай криминологик тадқиқотда у ёки бу тарзда кўриб чиқлади. Чунки, у криминологиянинг муҳим муаммоларидан биридир⁷, дейди.

Ҳукуқий адабиётларда сабабнинг ўзи шарт-шароит билан ўзаро таъсир орқали намоён булади ва оқибатни келтириб чиқаради⁸ деб қайд этилган.

Фикримизча, жиноятчилик сабаблари – жиноятчиликнинг содир этилишини тақозо этадиган, уни озиқлантирадиган, кўпайишини таъминлайдиган воқеа, ҳодиса ва жараёнларнинг йифиндисидир. Жиноятчилик шароитлари деганда жиноятчиликни содир этилишини тақозо этмайдиган уни келтириб чиқармайдиган, бироқ унинг содир этилишига қўмаклашадиган

¹ Семенихин В. Подросток ждет защиты // Милиция. – 1992. – №1. – С. 13; Алексеев А.К. Криминология: Курс лекций. – М., 1999. – С.67; Абдурасулова Қ.Р. Аёллар жиноятчилигининг жиноят-ҳукуқий ва криминологик муаммолари: Монография. – Т., 2005. – Б.47; Фазилов И.Ю. Одам савдосига қарши курашнинг жиноят-ҳукуқий ва криминологик муаммолари: Монография. – Т., 2016. – Б.171.

² Алексеев А.И. Индивидуальная профилактика рецидива преступлений. – М., 1975. – С. 30

³ Фазилов И.Ю. Одам савдосига қарши курашнинг жиноят-ҳукуқий ва криминологик муаммолари: Монография. – Т., 2016. – Б.169.

⁴ Мирзараимов И.М. Жиноий фаолиятдан олинган даромадларни ошкорлаштиришни олдини олишнинг жиноят-ҳукуқий ва криминологик чоралари: Юрид. фан. номз. ... дис. автореф. – Т., 2003. – Б. 12.

⁵ Змановская Е.В. Профилактика девиантного поведения молодежи: Учебное пособие. – СПб., 2010. – С. 62.

⁶ Ўзбек тилининг изоҳли луғати / 80 000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси / www.ziyouz.com.

⁷ Джураева Н. Вояга етмаган шахсларни ғайриижтимоий хатти-ҳаракатларга жалб этишнинг сабаблари ва унга имкон берган шарт-шароитлар // Вояга етмаганларнинг ишларини юритиш масалалари: Илмий-амалий конференция материаллари. – Т., 2012. – Б. 118.

⁸ Исмоилов Н.Т. Вояга етмаганлар жиноятларининг индивидуал олдини олиш муаммолари: Юрид. фан. номз. ... дис. – Т., 2006. – Б. 44.



воқеа, ҳодиса ва жараёнлар мажмuinи тушуниш лозим.

Криминогия оид таълимотларда илгари судланган шахсларнинг жиноятчилиги сабаблари ҳақида турли қарашлар мавжуд. Ушбу қарашлар жамиятдаги ижтимоий-иктисодий, маънавий соҳаларда мавжуд муаммолар, низолар ва зиддиятлар билан изоҳланади. Уларда жиноятчилик сабаблари ва уларга имкон берган шароитларни тушунтиришда икки хил ёндашув кўзга ташланади.

Биринчиси, – жиноятчилик сабаблари ва уларга имкон берган шароитларнинг ижтимоий ҳодисалар билан боғлиқлигидир. Бунда жиноятчилик сабаблари ва унга имкон берган шароитлар объектив ва субъектив турларга бўлинади. Объектив сабаб ва шарт-шароитлар инсонинг иродаси ва онгига боғлиқ бўлмаган тарзда мавжуд бўлади, шу боис уларни бартараф қилиб бўлмайди, аммо уларни чеклаш, бир қисмини заарсизлантириш, уларнинг салбий оқибатларини камайтириш, яъни уларни назорат қилиш ва уларга таъсириш мумкин.

Субъектив сабаблар ва шарт-шароитлар одамларнинг муайян мақсад йўлидаги фаолиятига тааллуқли ва боғлиқ бўлиб, одатда ушбу фаолиятдаги камчиликларнинг оқибатида юзага келади¹.

Иккинчи ёндашувга жиноятчиликнинг содир этилиш сабаблари ва уларга имкон берган шароитлар инсон, ижтимоий гурух, жамият ҳаётининг субъектив соҳаси билан боғлиқ масалаларга бўлинади. Криминологияда сабаб ҳар доим оқибат билан бевосита боғлиқ бўлиб, ундан ҳеч қандай оралиқ бўғинлар билан ажralмаган. Оқибатнинг энг яқин (бевосита) сабабигина сабаб, деб аталишга лойиқдир. Жиноятчилик (ва жиноят)нинг бундай бевосита сабаби субъектив омил, яъни индивидумлар, ижтимоий гурухлар психологиясидаги нуқсонлардир. Айнан улар жиноятчиликнинг сабаблари сифатида қаралиши мумкин².

Юқоридаги фикр-мулоҳазалар ва криминологик тадқиқотлар натижаларига асосланган ҳолда айтиш мумкинки, илгари судланган шахслар жиноятчилигининг сабаблари деганда, жиноятчиликнинг содир этилишини тақозо қиласидиган, уларни озиқлантирадиган, кўпайишини таъминлайдиган ҳодиса, воқеа ва жараёнларнинг йигинидиси; илгари судланган шахслар жиноятчилиги шароитлари деганда ушбу турдаги жиноятларни бевосита келтириб чиқармайдиган, лекин уларнинг содир этилишига кўмаклашадиган ҳодиса, воқеа ва жараёнларнинг мажмуйи тушунилади.

Ҳар қандай жиноятлар каби, илгари судланган шахсларнинг жиноятчилигининг сабаб ва шароитларини бир-биридан ажратиш ҳам мураккаб жараён бўлиб, фақатгина муайян шахснинг қилмишини нима келтириб чиқарганини ва нима унинг келиб чиқишига кўмаклашганини аниқлаш мумкин бўлади. Чунки, у ёки бу ҳодиса, воқеа ёки жараён айрим ҳолатда сабаб сифатида ҳаракат қилса, бошқа вазиятда эса шароит сифатида намоён бўлади³.

Ҳар қандай хуқуқбузарликлар каби, рецидив жиноятчиликнинг сабаб ва шароитларини бир-биридан ажратиш ҳам мураккаб жараён бўлиб, фақатгина муайян шахснинг қилмишини нима келтириб чиқарганини ва нима унинг келиб чиқишига кўмаклашганини аниқлаш мумкин бўлади. Чунки, у ёки бу ҳодиса, воқеа ёки жараён айрим ҳолатда сабаб сифатида ҳаракат қилса, бошқа вазиятда эса шароит сифатида намоён бўлади⁴.

Айрим юридик адабиётларда рецидив жиноятчиликнинг қуидаги сабаб ва шароитлари ўрганилган: а) шахсга ижтимоий руҳий-муҳитнинг салбий таъсири; б) ишсизлик, моддий етишмовчилик; в) спиртли ичимлик ёки гиёхвандликка ружу қўйиш; д) илгари судланган шахслар билан етарли даражада профилактик ишлар олиб борилмаганлиги⁵.

Рецидив жиноятчилигининг сабабларини шартли равишда қуидаги гурухларга ажратилган: а) носоғлом маънавий-руҳий ҳолат; б) маънавий-ахлоқий тарбиянинг заифлиги ёки сустлиги; в) ғайриижтимоий хулқ-атворга эгалик; г) моддий етишмовчилик ва қийинчиликлар; д) спиртли

¹ Бу ҳақда қаранг: Сахаров А. Б., Саркисов Г. С. Проблема преступности в современных условиях. – Ереван, 1991. – С. 65–66.

² Кузнецова Н. Ф. Проблемы криминологической детерминации. – М., 1984. – С. 13.

³ Kriminologiya. Umumiy qism: IIV oliv ta’lim muassasalari uchun darslik / I. Ismailov, Q.R. Abdurasulova, I.Yu. Fazilov. – T.: O’zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. – В. 83.

⁴ Kriminologiya. Umumiy qism: IIV oliv ta’lim muassasalari uchun darslik / I. Ismailov, Q.R. Abdurasulova, I.Yu. Fazilov. – T.: O’zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. – В. 83.

⁵ Хисамутдинов Ф. Р. Особенности предупреждения профессиональной и рецидивной преступности (история и современность) / Ф. Р. Хисамутдинов, А. Е. Шалагин // Вестник Казанского юридического института МВД России. – 2014. – № 4(18) – С. 55.



ичимликка ружу қўйиш¹. Мазкур сабабларни жиноятчиликни келтириб чиқарувчи асосий сабаб ва шароитлар деб изоҳлаш мумкин.

Юқоридаги мутахассисларнинг фикрлари, жиноятчиликка оид статистик таҳлиллар, жиноят иши материаллари таҳлиллари асосида илгари судланган шахслар жиноятчилигининг асосий сабаблари қўйдагилар билан боғлиқ:

а) оиласдаги нософлом ижтимоий муҳитнинг таъсирида шахснинг маънавий-руҳий жиҳатдан шаклланишига ва унда жиноий ҳулқ-атворнинг пайдо бўлишига таъсир кўрсатади. Зеро, нософлом ижтимоий-руҳий муҳитдаги шахснинг турмуш тарзи ёки шундай ҳолатда намоён бўлувчи салбий ҳаракатлари муайян жиноятларнинг содир этилишига олиб келади.

б) шахснинг гиёхвандлик ва ичқиликбозликка ружу қўйганлиги, шахснинг таълим-тарбияси, хуқуқий онг ва маданиятининг пастлиги, масъулиятсизлик, оиласа бефарқлик, лоқайдлик;

в) ижтимоий фойдали меҳнат билан шуғулланмайдиган шахслар жамиятга зид турмуш кечириувчи ёки жиноят содир этишга мойил шахсларнинг таъсирига тушиб турли кўринишдаги жиноятларни содир этади.

г) жазони ижро этиш муассасаларидан озод этилган шахслар билан ҳудудий профилактика инспектори ва маҳалла фуқаролар йигини раислари томонидан тарбиявий аҳамиятга эга бўлган профилактик ишларнинг етарли даражада олиб борилмаслиги.

д) оила, маҳалла, корхона, ташкилот ва муассасаларда жамиятдаги ижтимоий-руҳий муҳитни соғломлаштириш, жиноят содир этишга олиб келувчи криминоген омилларнинг таъсирини ўқотиши ва кучсизлантириш борасидаги ишлар етарли даражада эмаслиги.

е) ғайриижтимоий салбий ҳулқ-атвор оқибатида шахснинг ахлоққа ва қонунга зид ҳатти-ҳаракатларни содир этишга мойиллигининг юқорилиги.

ё) ишсизлик, оиласда етишмовчилик, моддий муҳтоҷлик, шахсадаги салбий ҳулқ-атвор, агресивлик, совуққонлик.

ж) шахсадаги ғайриижтимоий салбий ҳулқ-атворни камайтириш, тузатиш, тўғри фикрлашни ўргатиш борасида маҳалла, оила аъзолари ва қўни-қўшниларининг бефарқ бўлганлигини кузатиш мумкин.

Илгари судланган шахслар жиноятчилигининг сабаблари, унинг турли салбий таъсиrlарга тез берилиши ҳар қандай ривожланган давлатлар ҳаётидаги энг катта муаммолардан бири ҳисобланади. Негаки, илгари содир этган ижтимоий хавфли қилмишидан тўғри ўзига хulosса чиқармасдан, содир этган ҳатти-ҳаракатининг моҳиятини тўлиқ тушуниб етмасдан, тўғри ўйлга ўтмасдан ёки ижтимоий воқелик таъсирида такрорий жиноя содир этиши мумкин.

Демак, илгари судланган шахслар жиноятчилигининг сабаб ва шароитларини ўрганишда шахснинг оиласвий турмуш тарзи ва жамиятдаги ижтимоий, иқтисодий жараёнларни ҳам эътибордан четда қолдириб бўлмайди. Негаки, илгари судланган шахсларнинг жиноятчилигини асосий сабабларини аниқлаш учун жамиятнинг ижтимоий, иқтисодий аҳволини, уни белгиловчи алоқа ва муносабатларни ўрганиш ҳамда уни жиноятчиликни келтириб чиқарувчи омиллар билан таҳлил қилиш зарур.

Илгари судланган шахсларнинг жиноят содир этиш сабаблари мазмун-моҳиятига кўра ижтимоий, маданий, маърифий, психологияк ҳолатларга, уларга имкон берган шарт-шароитларни эса иқтисодий, сиёсий, хуқуқий ва ташкилий жиҳатдан юзага келувчи жиҳатларга ажратилади². Баъзи юридик адабиётларда жиноятчиликни келтириб чиқарувчи юздан ортиқ омилларнинг мавжудлиги ўрганилган³.

Юқорида келтирилган жиноий қилмишларни содир этган шахсларнинг жиноят содир этишининг асосий сабаблари қўйидагилар:

- илгари жиноят содир этган шахснинг аввал содир этган жиноий қилмишида хulosса чиқариб тўғри йўл ўтмаганлиги;
- шахса жиноий-ҳулқ атвортнинг мавжудлиги;
- очкўзлик ва ғаразгўйлик ниятида бирорнинг мол-мулкини эгаллашга олдиндан режа

¹ Қаршиев F.C. Ёшлар рецидив жиноятчилигининг криминологик тавсифи ва профилактикаси: Юрид. фан. д-ри (PhD) ... дис. – Т., 2020. – Б. 39.

² Алауханов Е. О. Криминология: учебник / Е. О. Алауханов. –СПб.: Юридический центр Пресс, 2013. – С. 426.

³ Қаршиев F.C. Ёшлар рецидив жиноятчилигининг криминологик тавсифи ва профилактикаси: юрид. фанлар бўйича фалсафа док. дисс. –Т., 2020. –Б. 49.



тузилганлиги;

- осон йўл билан мол-мулк топиш ниятининг мавжудлиги;
- жамиятдаги қонун ва ахлоқ-одоб қоидаларини менсимаслиги.

Илгари судланган шахслар жиноятчилигига оид жиноят ишлари материалларини ўрганиш ва уларни таҳлил қилиш жараёнида шахснинг тақрорий жиноят содир этишига олиб келган салбий маънавий-руҳий хусусиятларга қуидагилар сабаб бўлганлигини кузатиш мумкин:

- жиноятчи шахс оиласида соғлом ижтимоий муҳитнинг мавжуд эмаслиги;
- ота ва онанинг фарзанд тарбиясида эътиборсизлик ва масъулиятсизлик билан муносабатда бўлиши;
- шахснинг спиртли ичимлик ёки гиёҳвандлик ва психотроп моддаларни истеъмол қилишга ружу қўйганлиги;
- нотаниш шахслар билан яқиндан танишиш ёки жиноят содир этишга мойил бўлган тоифадаги шахслар таъсирига тушиб қолиш натижасида;
- жиноят содир этиш орқали осон йўл билан моддий манфаатдорликка эришиш ва эҳтиёжларини қондириш;
- жиноят содир этишга мойил бўлган шахслар билан етарли даражада тарбиявий аҳамиятга эга бўлган профилактик ишларнинг олиб борилмаганлиги аниқланди.

Илгари судланган шахслар жиноятчилигининг криминологик хусусиятларини қуидаги тушунтириш мумкин. Шахсда ғайриижтимоий хусусиятлар ва жиноят содир этишга мойил ҳулқ-атворнинг шаклланишида оиладаги муҳит ва ташқи таъсирларнинг ўрни бекиёсdir. Шуниси эътиборлики, оиладаги носоғлом муҳит нафақат ҳукуқбузарликларнинг, балки оғир ва ўта оғир жиноятларнинг содир этилишини таъминловчи омил вазифасини бажаради. Зоро, «хеч ким онадан жиноятчи бўлиб туғилмайди. Жиноятчилик номақбул ижтимоий-иктисодий, маънавий-ахлоқий муҳитдагина илдиз отиши мумкин»¹.

Иккинчи сабаб сифатида шахснинг доимий иш ўрнига эга эмаслиги туфайли «бекорчи» вақт ўтказишига интилиш ҳолатлари кўп бўлади. Илгари судланган шахслар жиноятчилигининг содир этилишида, хусусун кўпчилик ёшлар ўз қилмишларини турли хил шарму-ҳаёсиз, ваҳший, зўравонлик ва шафқатсизликни тарғиб қилувчи, порнографик, жангари ва шу каби фильмларни кўплаб кўрганликларини сабаб қилиб кўрсатадилар².

Учинчи сабаб сифатида спиртли ичимликлар, гиёҳвандлик моддалари ва психотроп воситалар таъсирида шунингдек, руҳий зўришилар натижасида жиноят содир этилиши (зўрлик ишлатиб содир этиладиган жиноятларнинг ярмига яқини ушбу воситалар таъсирида содир этилган) кузатилмоқда. Айниқса, оғир ва ўта оғир турдаги жиноятларнинг мастилик ва психотроп моддаларнинг таъсири содир этилмоқда.

Таҳлилларнинг кўрсатишича, оғир ва ўта оғир турдаги жиноятларнинг содир этилишида шахснинг мастилиги ва ичкиликка ружу қўйганлилиги ҳамда гиёҳвандлик моддалари ва психотроп воситалар таъсирида бўлганлиги кўпроқ сабаб бўлмоқда.

Юқорида қайд этилган илгари судланган шахслар томонидан тақрорий жиноят содир этилишининг сабаб ва шарт-шароитларини ўрганиш ва таҳлил қилиш асосида ушбу турдаги жиноятчиликни барвакт олдини олиш ва бартараф этишга қаратилган самарали чоратадбирларни белгилаш мақсадга мувофиқ ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси // (Ўзбекистон Республикаси Қонун хужжатлари маълумотлари миллий базаси) <https://www.lex.uz/acts/6445145>. (Мурожаат этилган сана 24.02.2025 йил).
2. Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси // (Ўзбекистон Республикаси Қонун хужжатлари маълумотлари миллий базаси) <https://www.lex.uz/acts/111453>. (Мурожаат этилган сана 24.02.2025 йил).
3. Ўзбекистон Республикаси Жиноят-ижроия кодекси // (Ўзбекистон Республикаси Қонун хужжатлари маълумотлари миллий базаси) <https://www.lex.uz/acts/163629>. (Мурожаат этилган сана 24.02.2025 йил).

¹ И.А. Каримов Бунёдкорлик йўлидан. –Т.4. – Т., 1996. – Б. 147.

² Қодиров Э. Ёшлар жиноятчилигининголдини олиш масалалари. –Т.: Тошкент давлат юридик университети, 2017. – Б. 25.



4. 2024 йил 15 январдаги «Жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликка қарши курашиш соҳасини илмий тадқиқ қилиш фаолиятини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-10-сон Фармони // (Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси) [https://www.lex.uz/acts/ 6755597](https://www.lex.uz/acts/6755597). (Мурожаат этилган сана 24.02.2025 йил).

5. Рустамбоев М.Х. Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексига шархлар. Maxsus қисм. – Тошкент: Yuridik adabiyotlar publish, 2024.

Ўзбек тилининг изоҳли лугати / 80 000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти //www.ziyouz.com.

6. Криминология: Дарслик / З.С.Зарипов, И.Исмаилов ва бошқ. –Т., Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2007. – Б. 84.



Dildora Anvarovna Anvarova,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)
e-mail: hsti.anvarova@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada onalikning konstitutsiyaviy institut sifatidagi mohiyati, onalikni ijtimoiy muhofaza qilish bosqichlari, onalik muhofazasini ta'minlashning huquqiy mexanizmlarning o'ziga xos xususiyatlari, konstitutsiyaviy kafolatlar; ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarni xotin-qizlar onalik funksiyasi bilan uzbek bog'liqligi, mazkur huquqlarni amalga oshirishda kamsitishlarni bartaraf etish choralar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: onalik, bolalik, onalikni muhofaza qilish, xotin-qizlar konstitutsiyaviy huquqlari, mehnat huquqi, dam olish huquqi, mehnat qilish erkinligi, sog'lqnii saqlash huquqi, ijtimoiy himoya, ijtimoiy yordam, reproduktiv salomatlik, huquqiy kafolat, tenglik.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 42-moddasida belgilangan homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo'shatish va ularning ish haqini kamaytirishni taqiqlanishiga doir norma onalikni muhofaza qilishning fundamental metodologik asosini belgilab berdi.

Konstitusiyaning "Onalik, otalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi", – degan qoidasini tashkil etuvchi tushunchalar, ya'ni "onalik", "otalik", "bolalik" ni himoya qilish mazmun-mohiyati bir nechta ma'noda tushunish mumkin. Xususan:

- birinchidan, oila konstitutsiyaviy institutining teng huquqli subyektlari sifatida;
- ikkinchidan, oilani ijtimoiy himoya qilinishida onalik, otalik va bolalik uchun zarur shart-sharoitlarni yaratilishi;
- uchinchidan, onalik, otalik va bola huquqlari, qonuniy manfaatlari buzilganda himoya qilish kafolatlarining mavjudligi.

Demak "Onalik, otalik va bolalikni himoya qilish" tushunchasi mazmunini bir tomondan, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan kafolatlar, ikkinchi tomondan har qanday huquq buzilishidan sud yoki ma'muriy tartibda himoyalanish tashkil etadi.

Shu o'rinda "**Onalikni muhofaza qilish**" tushunchasining konstitutsiyaviy institut sifatidagi mohiyatini ko'rib chiqadigan bo'lsak.

Davlatga xotin-qizlar huquqlarini ta'minlash, onalikni muhofaza qilishning tashkiliy-huquqiy asoslarini bog'liq muammolarni hal etishga qaratilgan chora-tadbirlarni ko'rish majburiyatini yuklash, mamlakatimizda onalikni konstitusiya darajasida muhofazalash, homilador ayollarning mehnat huquqiga doir imtiyozlarini konstitutsiyaviy norma sifatida belgilash kelgusida xotin-qizlar iqtisodiy huquqlarini ta'minlashda konstitutsiyaviy normaning to'g'ridan-to'g'ri qo'llanishi huquqni qo'llash amaliyotida o'z samarasini berishi inobatga olingan.

Mamlakatimiz Konstitusiyasida onalikni konstitusiya darajasida muhofazalash, homilador ayollarning mehnat huquqiga doir imtiyozlarini konstitutsiyaviy norma sifatida belgilash kelgusida xotin-qizlar iqtisodiy huquqlarini ta'minlashda konstitutsiyaviy normaning to'g'ridan-to'g'ri qo'llanishi huquqni qo'llash amaliyotida o'z samarasini beradi.

Shu o'rinda aytish o'rinlikni Konstitusiyada xotin-qizlar mehnat huquqini amalga oshirilishida onaligi tufayli kamsitishini bartaraf etishga doir normaning belgilab qo'yilishi mohiyatida xotin-qizlarni jamiyatni passiv a'zosiga aylantiradigan, homiladorligi uchun erkin kasb tanlash hamda mehnat qilish erkinligini cheklanishiga, davlat va jamiyat boshqaruvida muhim qarorlar qabul qilinishida quyi darajalarga munosib ko'rildigan, ularni oilaviy vazifalarning asosiy bajaruvchisi deb hisoblaydigan streetiplarga, jamiyatdagi gender notenglik, diskriminasiyaga qarshi kurashning konstitutsiyaviy kafolati tashkil qiladi.

Bu norma onalikni davlat tomonidan muhofaza qilishni amalga oshirish mexanizmiga doir bo'lib, diskriminatsiyani ta'qilovchi norma sifatida konstitutsiyaviy huquqiy tartibga solishning ajralmas qismini xamda konstitutsiyaviy huquqning onalikni muhofaza qilish institutining asosiy tushunchalaridan birini tashkil etadi.

O'zbekistonda onalikni muhofaza qilishga oid bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarning bosh maqsadi, tartibga solish obyektlarining o'ziga xos jihatlari va asosan ijtimoiy himoyalashga yo'naltirilganligiga ko'ra tasniflanishi mumkin. Mazkur qonun hujjatlari maqsadiga ko'ra quydagilar:



- onalik muhofazasiga doir normativ-huquqiy hujjatlar;
- xotin-qizlar huquqlariga oid bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlar;
- xotin-qizlar ijtimoiy himoyasini amalga oshirishga oid bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlar.

Respublikamizda onalik muhofazasini ta’minlash mexanizmlarini nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjatlar jumlasiga O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi, Oila kodeksi, “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida” gi, “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida” gi, “Og‘ir ijtimoiy ahvolda qolgan xotin-qizlar huquqlari kafolatlarini ta’minlash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘srimcha va o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida” gi qonunlarni kiritish mumkin.

Yuqoridagi qonunlarda xotin-qizlarning ijtimoiy huquqlarini ta’minlash, ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlarini amalga oshirishning aniq mexanizmlari, usullari, shakllari hamda vositalari qonunosti hujjatlarining keng qatlami bilan belgilanadi.

Onalik muhofazasi yuridik tabiatining asosiy xususiyatlari:

ma’muriy – onalik muhofazasi ijtimoiy siyosatning bir qismi sifatida davlat tomonidan ma’muriy tartibda ta’minlanadi;

ijtimoiy – onalik muhofazasi xotin-qizlarning reproduktiv va ijtimoiy huquqlarini ta’minlashga xizmat qiladi;

iqtisodiy – onalik muhofazasi xotin-qizlarning mehnat huquqlarininamalga oshirishlarida imtiyozlar taqdim etadi.

Onalik muhofazasida quyidagi huquqlar kafolatlanadi:

- mehnat qilish erkinligi va teng sharoitlarda ishslash huquqi;
- dam olish va ta’tilga chiqish huquqi (tug’ruq ta’ili);
- sog’liqni saqlash va reproduktiv salomatlikni ta’minlash huquqi;
- kamsitilish va zo‘ravonlikdan himoya;

Xotin-qizlarning onalik vazifasini bajarishi ularning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlari bilan chambarchas bog’liq. Xususan:

- mehnat bozorida teng imkoniyatlarga ega bo’lishi;
- ish joyida ijtimoiy himoya;
- homiladorlikda bepul malakali tibbiy yordam olish;
- ijtimoiy nafaqalar olish orqali iqtisodiy qaramlikdan chiqish va barqarorlikka erishish.

Hukumatlar tomonidan onalar va bolalar o‘limini oldini olish, oilani oqilona rejalashtirish, xotin-qizlar reproduktiv salomatligini ta’minlash, onalikni muhofaza qilish bo‘yicha strategik dasturlar qabul qilingan.

Insonhuquqlariga oid xalqaro xujatlarda onalik muhofazasi to‘g‘risidagi qoidalarmustahkamlangan. Xususan Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktda (1966 yil 16 dekabr) onalik muhofazasiga oid quyidagi huquqlar keltirilgan - adolatli mehnat sharoitlarida ishslash huquqi, teng qiymatga ega mehnat uchun teng haq olish huquqi, yuqori mansablarga ko‘tarilishi uchun teng imkoniyat, cheklangan ish vaqtini hamda dam olish huquqi, kasaba uyushmalar tashkil qilish va uyushish huquqi, ijtimoiy ta’milot va ijtimoiy sug‘urta huquqi, ishlovchi onalarning ijtimoiy himoya huquqi, munosib turmush sharoitiga ega bo‘lish huquqi.

Xususan mehnatga oid munosabatlarda xotin-qizlarda onalik funksiyasi bilan bir paytning o‘zida oilaviy majburiyatlarning mavjudligi (bolalarni tarbiyalovchi, oilaning kasal a’zosini parvarish qiluvchi) hamda sog’ligining holati (nogironligi bo‘lgan, vaqtinchalik mehnat qobilyati pasaygan) xotin-qizlar mehnatini tartibga solishing asosiy xususiyatlari hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksida xotin-qizlarni reproduktiv funksiyasi hamda farzandlarni tarbiyalash kabi ijtimoiy vazifasini bajarishi inobatga olinib, ularga mehnat munosabatlarida qo‘srimcha kafolat va imtiyozlar hamda bir qator taqiq va cheklovlar belgilangan.

Mazkur normalarni quyidagicha tasniflash mumkin:

- xotin-qizlarga taalluqli bo‘lgan;
- homilador ayollarga taalluqli bo‘lgan;
- uch yoshga to‘limgan bolasi bor onalarga taalluqli bo‘lgan;
- o‘n to‘rt yoshga to‘limgan bolasi (o‘n olti yoshga to‘limgan nogiron bolasi) bor onalarga taalluqli bo‘lgan.

Dunyoda hukumatlar tomonidan ijtimoiy munosabatlarda gender tenglikni ta’minlash maqsadida onalikni muhofaza qilish uchun xotin-qizlarda homiladorlik fakti yuzaga kelgan paytdan boshlab



ularga huquqiy va moddiy kafolatlar qo'llash joriy etilgan. Shuningdek «homiladorlik» tibbiy kategoriya bo'lib qolmasdan, u mehnat huquqi, ijtimoiy ta'minot huquqi, ma'muriy huquq, jinoyat huquqi sohalari uchun ham muhim huquqiy kategoriya sifatida baholanadi¹.

Biz bu fikrni davom ettirgan holda aytishimiz mumkinki «homiladorlik» tushunchasi konstitusiyaviy huquq uchun ham muhim kategoriya. Mazkur tushunchani mamlakat konstitusiyasiga kiritilishi O'zbekistonda onalikni muhofaza qilinishida ijobiy qadamlardan biri bo'ldi.

Adabiyotlar:

- 1). O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T., “Adolat”, 2024
- 2). O'zbek tilining izohli lug'ati. T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti. 2007 — T-3 — B.126, 152
- 3) Yuridik atamalarning qomusiy lug'ati / Mas'ul muharrir: X.R.Rahmonqulov // — T.: «Sharq», 2003. — B.270-271.
- 4). Anvarova D. A. Analysis of theoretical and legal foundations of ensuring maternity protection// Journal of Intellectual Property and Human Rights, Vol. 4 No. 2 (2025), -P.-1-4.
- 5). Анварова Д. Ўзбекистонда оналик муҳофаза қилишнинг конституциявий-хуқуқий асослари // Siyosatshunoslik, huquq va xalqaro munosabatlar jurnali // Том 4 Номер 2 –Б.-1-3

¹ Д.Атажанова. Аёллар ва оиласи вазифаларни бажариш билан машғул шахслар меҳнатини хуқуқий тартибга солишнинг хусусиятлари. // PhD илмий даражасини олиш учун тайёрган автореферати.-Т.:ТДЮУ, 2018.-Б.-129.



ЎЗБЕКИСТОНДА ОНАЛИК МУХОФАЗА ҚИЛИШНИНГ КОНСТИТУЦИЯВИЙ-ХУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ

Дилдора Анваровна Анварова,
юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD)
e-mail: hsti.anvarova@gmail.com

Аннотация: Мақолада оналикни муҳофаза қилишининг ўзига хос хусусиятлари, хотин-қизлар репродуктив ҳуқуқлари, соғлиқни сақлаш ҳуқуқларини таъминлаш, конституциявий асосларини такомиллаштириш, ижтимоий ҳуқуқларни хотин-қизлар оналик функцияси билан узвий боғлиқлиги, мазкур ҳуқуқларни амалга оширишида камситишларни бартараф этиши чоралари ҳамда хорижий мамлакатларнинг бу борадаги қонунчилик тажрибаси таҳлил қилинади.

Калим сўзлар: оналик, оналикни муҳофаза қилиши, хотин-қизлар ижтимоий ҳуқуқлари, ижтимоий қийин вазиятдаги аёл, меҳнат ҳуқуқи, дам олиш ҳуқуқи, меҳнат қилиши эркинлиги, соғлиқни сақлаш ҳуқуқи, ижтимоий ҳимоя, ижтимоий ёрдам, репродуктив саломатлик, ҳуқуқий кафолат, тенглик.

Жаҳон ҳамжамияти томонидан хотин-қизлар масаласи ҳар доим долзарб, қизғин муҳокамага чорловчи ва конуний чоралар кўришга ундовчи масалалардандир. Хусусан Бирлашган Миллатлар Ташкилоти дунё мамлакатларидан жамиятнинг энг ёрдамга муҳтож ва камбағал қисми бўлган хотин-қизлар ҳуқуқ ва эркинликлари ҳолатига алоҳида эътибор беришни талаб қилди. Ваҳоланки хотин-қизлар жамиятдаги стереотиплардан, гендер нотенглик ва зўравонликлар, камситишлардан, қашшоқлик, шафқатсиз муомаладан жабрланадилар.

Хотин-қизлар муаммоларидан келиб чиқиб, Бирлашган Миллатлар Ташкилоти уларга ҳуқуқий ва бошқа шаклда ёрдам беришга биринчи навбатда аҳамият бериб давлатларга хотин-қизларнинг меҳнат қилиш, таълим олиш, соғлигини сақлаш ва оналигини муҳофаза қилишга бўлган ҳуқуқларини таъминлаш ҳамда хотин-қизларни ижтимоий ҳимоя қилишни давлат сиёсатининг устувор йўналишларидан бири сифатида амалга оширишлари бўйича тавсиялар беради.

Шунингдек инсон ҳуқуқларини таъминлаш билан боғлиқ масалалар халқаро даражада муҳокама қилинаётган даврда оналикни муҳофаза қилишга доир масалалар бўйича чет эллик олимлар томонидан бир қатор тадқиқотлар ўтказилиб келинмоқда. Хусусан илмий ишларда хотин-қизларнинг меҳнат ҳуқуқи, дам олиш ҳуқуқи, соғлиқни сақлаш ҳуқуқи, репродуктив ҳуқуқи, ижтимоий таъминот ҳуқуқига доир муаммолар таҳлилига бағишлиган бўлиб уларда оналик муҳофазасига доир имтиёзлар дискриминация деб қабул қилинмаслиги, маданий стереотипларга қарши курашиш, гендер тенгликни таъминлаш, ижтимоий ҳимояни такомиллаштириш, камситишларнинг ҳар қандай кўринишига нисбатан жазо чораларини кучайтириш бўйича таклифлар илгари сурилган.

Хусусан Bhumika Sharma ва Poonam Panthning хотин-қизлар меҳнат ҳуқуқларига оид миллий қонунчиликни такомиллаштиришда аёл ҳуқуқлари бўйича халқаро стандартларни татбиқ этилишига доир мақоласини^[2], Ahmad Shaikhnинг Xиндистон Конституциясида белгиланган хотин-қизлар меҳнат ҳуқуқларига оид кафолатларни қонунчиликда мустаҳкамланиши хусусан “Ҳомиладорлик ва тұғруқ учун нафақалар тұғрисида”, “Тенг ҳақ тұлаш тұғрисида”, “Фабрикалар тұғрисида” ги қонунлар таҳлилига бағишлиган мақоласини^[3], Vijayan Pillai ning ривожланган мамлакатларда хотин-қизларнинг репродуктив ҳуқуқларини таъминлаш масалалари бўйича тадқиқотини^[4], N.Martineknинг бола парвариши таътилидаги аёлларнинг ижтимоий аҳволи, яъни Германия ва Швеция давлатларидағы моддий ва ҳуқуқий кафолатлар хотин-қизларни қашшоқлик ва оила боқувчисига моддий қарамлиқдан ва бунинг оқибатларидан ҳимоя қилиши таҳлил қилинган монографиясини^[5] таҳлил қилиш мумкин.

Мамлакатимизда оналикни муҳофаза қилишининг конституциявий асослари шаклланиши аввало Ўзбекистон Республикаси Конституциясида хотин-қизлар ва эркакларнинг тенг ҳуқуқлилиги, оналик ва болаликни давлат томонидан муҳофаза этилиши каби тамойилларнинг мустаҳкамланғанлиги билан аҳамиятлидир. Ушбу тамойилларни амалга оширишда хотин-қизлар ва эркакларга ўз интелектуал салоҳиятларини рўёбга чиқаришлари учун касб ва лавозим танловида, адолатли меҳнат муҳофазасида, бир хил меҳнат учун тенг рағбатланишда,



тиббий хизматдан фойдаланишида хуқуқий имкониятлар яратилди. Ўзбекистон Республикаси Конституциясида оила, оналик ва болаликни муҳофаза қилишга доир қоидалар белгиланган.

Шу ўринда аввало, оиласиб муносабатларнинг асоси бўлган оналик тушунчасининг лугавий ҳамда хуқуқий маъноларига тўхталајлик.

Ўзбек атамашунослигига она мавқеи, унга хос хислатлар — ҳомиладорлик, болаларни тарбиялаш ва шунга боғлиқ она бурчларига оналик деб айтилади.

Юридик адабиётларда, “оналик деб ўзаро никоҳда бўлган ёки ўзаро никоҳда бўлмаган ота-онадан (эр-хотин) туғилган боланинг ҳақиқатда онаси эканлигини тасдиқлаш ва белгилаш фактига айтилади [6].

Шунингдек Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 42-моддасида белгиланган ҳомиладорлиги ёки боласи борлиги сабабли аёлларни ишга қабул қилишни рад этиш, ишдан бўшатиш ва уларнинг иш ҳақини камайтиришни тақиқланишига доир норма оналикни муҳофаза қилишнинг фундаментал методологик асосини белгилаб берди.

Асосий Қонунимизда оналик муҳофазасига доир конституциявий қоидалар ўрнатилганлиги шуни англатадики, мамлакатимизда хотин-қизлар меҳнат хуқуқлари, ижтимоий хуқуқларини давлат томонидан таъминлашнинг конституциявий кафолат ҳисобланади ҳамда ушбу соҳа муносабатларини тартибга солувчи норматив-хуқуқий хужжатларни ишлаб чиқиш ва қабул қилиш учун хуқуқий асос бўлади.

Хотин-қизлар оналигини муҳофаза қилишга доир норматив-хуқуқий хужжатларнинг бош мақсади, тартибга солиш объектларининг ўзига хос жиҳатлари ва асосан ижтимоий ҳимоялашга йўналтирилганлигига кўра таснифланиши мумкин. Мазкур қонун хужжатлари мақсадига кўра қўйидагилар:

- Оналикни муҳофаза қилишга доир норматив-хуқуқий хужжатлар;
- хотин-қизлар соғлиқни сақлаш хуқуқи, меҳнат хуқуқига оид бўлган норматив-хуқуқий хужжатлар;
- хотин-қизлар ижтимоий ҳимоясига оид бўлган норматив-хуқуқий хужжатлар.

Оналикни муҳофаза қилишга оид бўлган норматив-хуқуқий хужжатлар гурухига, Ўзбекистон Республикасининг “Хотин-қизлар ва эркаклар учун тенг хуқуқ ҳамда имкониятлар кафолатлари тўғрисида”ги, “Хотин-қизларни тазийқ ва зўравонликдан ҳимоя қилиш тўғрисида” ги, “Оғир ижтимоий аҳволда қолган хотин-қизлар хуқуқлари кафолатларини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар қабул қилинганлиги муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун хужжатларига қўшимча ва ўзгартишлар киритиш тўғрисида” ги, “Она сути билан озиқлантиришни қўллаб-қувватлаш ҳамда гўдаклар ва кичик ёшдаги болалар озиқ-овқат маҳсулотларига доир талаблар тўғрисида”ги қонунларни киритиш мумкин.

Оналикни муҳофаза қилиш, уларни ижтимоий ҳимоя қилишни тақомиллаштириш бўйича хуқуқий нормалар ижросини таъминлаш учун 40 дан зиёд Ҳукумат қарорлари ҳамда 100 дан ортиқ идоравий норматив-хуқуқий хужжатлар қабул қилинган.

Шунингдек мамлакатимизда хотин-қизлар ижтимоий хуқуқларини давлат томонидан таъминланишининг хуқуқий асосларини белгилашга бағишлиланган кўплаб норматив-хуқуқий хужжатлар қабул қилинган бўлишига қарамай, ушбу муносабатларни тартибга солишнинг бош тамойилларини белгилаб берувчи асосий қонунлар ҳали ишлаб чиқилмаган. Хусусан мамлакатимизда ҳам хорижий давлатларда бутунги кунда амалда бўлган Ижтимоий таъминот кодекси, Соғлиқни сақлаш кодекси, шунингдек “Оналикни муҳофаза этиш тўғрисида” ги, “Хотин-қизларни ижтимоий ҳимоя қилиш тўғрисида” ги, “Истеъмол савати тўғрисида” ги Қонунларни ишлаб чиқиш ва қабул қилиш зарурдир.

Адабиётлар:

- 1). Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. –Т., “Адолат”, 2024
- 2). B. Sharma & P. Pant / ASIO Journal of Humanities, Management & Social Sciences Invention (ASIO-JHMSSI), 2021, 7(1): 01-06
- 3). Shaikh, Dr. (2019). The Women’s Labour Rights as per the Indian Constitution: A Critical Analysis on Women’s Labour Rights. SSRN Electronic Journal. 10.2139/ssrn.3394423.
- 4). Anvarova D. A. Ўзбекистонда оналик муҳофазасини таъминлашнинг миллий ва ҳалқаро хуқуқий асослари таҳлили // O‘zbekiston qonunchiligi tahlili, 2018, -Б.-89-92.



О'zbekistonda ekologik xavfsizlikni ta'minlash va barqaror rivojlanish: zamnaviy yondashuvlar va strategik chora-tadbirlar

Abdimalikov Bekniyoz Ilyos o‘g‘li

Davlat boshqaruvi huquqi yo‘nalishi magistranti
Toshkent davlat yuridik universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada ekologik xavfsizlik va barqaror rivojlanish masalasi global va milliy darajadagi dolzarb muammo sifatida tahlil etiladi. Iqlim o‘zgarishi, Orol inqirozi, suv tanqisligi va havoning ifloslanishi kabi omillar O‘zbekiston uchun ham jiddiy ekologik tahdidlar keltirib chiqarayotgani ta’kidlanadi. Shuningdek, “Yangi O‘zbekiston” taraqqiyot strategiyasi hamda “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan ekologik siyosat yo‘nalishlari – daraxt ekish, chiqindilarni qayta ishslash, ekologik monitoring tizimlari joriy etilishi va xalqaro hamkorliklar misolida yoritib beriladi. Maqolada ekologik xavfsizlik inson salomatligi, iqtisodiy barqarorlik va jamiyat farovonligi bilan uzviy bog‘liq ekani asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: ekologiya, strategiya, ekologik siyosat, ekologik monitoring, ekologik inqiroz, iqtisod, taraqqiyot.

Bugungi kunda ekologik xavfsizlik va barqaror rivojlanish masalasi jahon miqyosida har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Iqlim o‘zgarishi, suv tanqisligi, yer degradatsiyasi, havo ifloslanishi, biologik xilma-xillikning yo‘qolishi kabi global ekologik muammolar nafaqat davlatlararo siyosiy muloqot markaziga aylandi, balki har bir xonardon va inson hayotiga bevosita ta’sir qilmoqda. Ayni paytda ushbu muammolarning ta’sir doirasi kengayib, ekologik xavfsizlikni ta’minalash masalasi har bir davlat uchun ustuvor vazifaga aylangan. O‘zbekiston ham global ekologik inqirozlarning salbiy ta’siridan mustasno emas. Suv resurslarining kamayib borayotgani, yerlarning cho‘lga aylanishi, havoning ifloslanishi va eng achinarlisi – Orol dengizining halokatli inqirozi mamlakatda ekologik muvozanat buzilishining yaqqol dalilidir. Bu holatlar nafaqat atrof-muhitga, balki aholi salomatligiga, iqtisodiy barqarorligiga va ijtimoiy hayotga ham jiddiy xavf tug‘dirmoqda [1].

Bunday sharoitda milliy parlamentlar, ayniqsa, muhim rol o‘ynaydi. Ular ekologik qonunchilikni takomillashtirish, atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan davlat dasturlarining ijrosini nazorat qilish va xalqaro ekologik tashabbuslarda faol ishtirok etish orqali muhim o‘zgarishlarga hissa qo‘shishi mumkin. Bugungi kunga kelib, barcha mamlakatlar ekologik muammolarga qarshi kurashish masalasida umumiyy mas’uliyatni his qilmoqda va shu asosda atrof-muhitni himoya qilishga qaratilgan huquqiy bazalar shakllanmoqda. Aynan shu jarayonlar natijasida “ekologik xavfsizlik” tushunchasi paydo bo‘ldi va xalqaro huquq tizimida o‘z o‘rnini egalladi.

“Ekologik xavfsizlik” deganda inson hayoti uchun toza, sog‘lom va qulay tabiiy muhit mavjud bo‘lgan holat tushuniladi. Bu shunchaki tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasi emas, balki jamiyatning barqaror taraqqiyoti, sog‘lom avlod tarbiyasi va inson huquqlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan muhim tushunchadir [2]. Chunki bugungi ekologik inqirozlar – bu insoniyatning o‘z qo‘li bilan yuzaga keltirgan inqirozlar bo‘lib, endilikda ushbu jarayonlar jamiyat xavfsizligiga tahdid solmoqda. Shu bois, ekologik xavfsizlikni ta’minalash masalasida har bir davlat o‘zining ekologik siyosatini ishlab chiqishi va amalga oshirishi, jahon hamjamiyati bilan hamkorlikda ishlashi shart. Ekologik xavfsizlik global masala sifatida yondashiladigan dolzarb yo‘nalish bo‘lib, uni e’tiborsiz qoldirish kelajak avlodlar taqdirini xavf ostiga qo‘yadi. Insoniyat o‘z yashash muhit uchun mas’uliyatni to‘liq anglagan holda yashashi kerak. Yuqorida keltirib o‘tilgan mulohazalar asosida prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning mazkur fikrlarini keltirib o‘tishimiz zarurdir: “Dunyo miqyosida sanoat yuqori darajada rivojlangan XXI asrda ekologiya bilan bog‘liq muammolar birinchi darajali muammo sifatida kun tartibiga chiqmoqda. Avlodlarimiz bizdan keyin ham munosib tabiiy muhitda yashashi kerak. Buning uchun biz tabiatga e’tibor berishimiz, faqat bugunni emas, yaqin va uzoq kelajakni o‘ylab ish tutishimiz zarur” [3].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” [4]gi PF-60-sonli Farmoni qabul qilingan bo‘lib, unda aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish, ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish, shahar va tumanlarda



ekologik ahvolni yaxshilash, “Yashil makon” umummilliy loyihasini amalga oshirish maqsadlari belgilab qo'yilgan.

79-maqсад doirasida aholining salomatligi va genofondiga salbiy ta'sir qiluvchi ekologik muammolarni bartaraf etish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan. Ushbu maqsad xalqaro ekologik tashabbuslarda faol ishtirok etishni, jumladan Butunjahon ekoliyiya xartiyasini ishlab chiqish bo'yicha ilgari surilgan tashabbusni ham o'z ichiga oladi. Bu, O'zbekistonning global ekologik siyosatga faol integratsiyalashuvi va xalqaro hamjamiyat bilan hamkorlikni mustahkamlashga intilayotganining isbotidir. Shuningdek, atrof-muhitga ta'sir xavfi yuqori bo'lgan sanoat obyektlarining ifloslantiruvchi manbalaridan avtomatik namunalar olish tizimini joriy etish orqali real vaqt rejimida nazorat mexanizmlari kuchaytirilmoqda. Atrof-muhit ifloslanish darajasini baholash, prognoz qilish, davlat ekologik nazoratini doimiy axborot bilan ta'minlash kabi chora-tadbirlar ham bu boradagi muhim tashabbuslardan biridir. Xo'jalik faoliyatining ekologik talablarga muvofiqligini aniqlash yuzasidan ekologik ekspertizalarning o'tkazilishi esa ushbu tizimning huquqiy asoslarini mustahkamamoqda.

80-maqсадда esa ekologik muhitni yaxshilash va “Yashil makon” umummilliy loyihasini amalga oshirishga alohida urg'u berilgan. Har yili kamida 200 million tup daraxt ekish orqali atrof-muhitni sog'lomlashtirish, havo sifatini yaxshilash va iqlim o'zgarishining oldini olishga qaratilgan faoliyatlar amalga oshirilmoqda. Bu orqali respublika bo'ylab yashil hududlarning umumiyligi hajmi sezilarli darajada oshmoqda. Ayniqsa, Orol dengizi tubida barpo etilayotgan qo'shimcha 500 ming hektar yashil hududlar 2026-yilga kelib 2,5 million gektarni tashkil etishi rejalashtirilgan. Bu esa ekologik falokat hududi bo'lgan Orolbo'yini barqaror rivojlanish yo'liga qaytarishdagi ulkan qadamdir. Maishiy chiqindilarni yig'ish va ularni qayta ishslash darajasini 2026-yilga qadar 21 foizdan 50 foizga yetkazish, daryo va ko'llarning sanitariya-muhofaza zonalarini aniqlash, aholi punktlarida jamoat parklari tashkil etish kabi tashabbuslar fuqarolarning toza va qulay yashash muhiti bilan ta'minlanishini maqsad qilgan. Bundan tashqari, Orolbo'yida bioxilma-xillik, iqlim o'zgarishi va tuproq yemirilishini oldini olishga qaratilgan xalqaro molivayi institutlar ishtirokidagi loyihalarni amalga oshirish orqali mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy tiklash ishlari davom ettirilmoqda. 300 million AQSh dollariga teng loyihalar ushbu hududni ekologik jihatdan tiklashda katta rol o'ynaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O'zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g'risida” [5]gi PF-158-sonli Farmoni qabul qilingan bo'lib, unda ushbu strategiya bo'yicha amalga oshiriladigan islohotlar qatoriga atrof-muhitni muhofaza qilishga doir chora-tadbirlar kiritilgan. Xususan:

- respublikada ekologik vaziyatni tubdan yaxshilash, inson hayotiga ta'sir o'tkazuvchi ekologik muammolarni bartaraf etish;
- ekologik vaziyatni barqarorlashtirishga qaratilgan “Yashil makon” umummilliy loyihasini kengaytirish;
- o'rmonlar maydonini kengaytirish;
- Orolbo'yini mintaqasida ekologik vaziyatni barqarorlashtirish, Orol dengizi qurishi natijasida yuzaga kelgan ekologik muammolarning salbiy ta'sirini yumshatish;
- iqlim o'zgarishi salbiy ta'sirining oldini olish;
- biologik xilma-xillik ishonchli saqlanishini ta'minlash;
- qattiq maishiy chiqindilarni toplash va olib chiqish xizmatlari sifatini yaxshilash;
- atmosfera havosi ifloslanishining oldini olish, uning tabiiy tarkibini saqlash bo'yicha keskin choralar ko'rish.

Xulosa qilib aytganda, bugungi ekologik muammolar O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida eng dolzarb masalalardan biriga aylangan. Iqlim o'zgarishi, suv tanqisligi, havoning ifloslanishi, yerlarning degradatsiyasi va ayniqsa, Orol fojiasi – bularning barchasi ekologik xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha tizimli va chuqur yondashuv zarurligini ko'rsatmoqda. Shu nuqtai nazardan qaralganda, mamlakatda amalga oshirilayotgan “Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” va “O'zbekiston – 2030” strategiyasida ekologik barqarorlikka alohida e'tibor qaratilganini ta'kidlash joiz.

Prezident tomonidan ilgari surilgan 79 va 80-maqsadlar doirasidagi aniq chora-tadbirlar – bu faqat tabiatni asrash emas, balki sog'lom avlod, xavfsiz yashash muhiti, barqaror iqtisodiyot va xalqaro hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladigan strategik yo'nalishlardir. Avtomatik monitoring tizimlari, ekologik ekspertizalar, aerobiologik kuzatuvalar, daraxt ekish kampaniyalari, chiqindilarni qayta ishslashni kengaytirish, Orolbo'yida yashil maydonlarni barpo etish kabi tadbirlar



nafaqat ekologik muhitni yaxshilash, balki fuqarolarning hayot sifatini oshirishga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Shu boisdan, ekologik xavfsizlikni ta'minlash har bir fuqaroning hayotiy manfaatlariga daxldor masala sifatida qaralishi, davlat organlari, fuqarolik jamiyati instittlari va xalqaro hamkorlarning hamkorlikdagi sa'y-harakatlari bilan amalga oshirilishi lozim. Ekologiya borasida bugun ko'rileyotgan har bir chora-tadbir – bu nafaqat bugungi kun, balki ertangi avlod uchun mustahkam va sog'lom hayot poydevorini yaratish demakdir. Bu borada davlat siyosatining izchil va uzoq muddatli yondashuvga ega bo'lishi O'zbekistonni ekologik jihatdan xavfsiz, yashash uchun qulay mamlakatga aylantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Uzbekistan accedes to the Aarhus Convention, empowering the public to shape a clean, healthy and sustainable environment // <https://unece.org/media/environment/Aarhus-Convention/press/400675>
2. To'xtayev Bobir-Mirzo Avazovich, (2025). O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK MUAMMOLARNI BARTARAF ETISHDA PARLAMENTNING O'RNI. ИКРО журнал, 15(01), 99–110.
3. Mirziyoyev Sh.M. Avlodlarimiz bizdan keyin ham munosib tabiiy muhitda yashashi kerak // <https://president.uz/oz/lists/view/4955>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni // <https://lex.uz/uz/docs/-5841063#-5844491>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli Farmoni // <https://lex.uz/ru/docs/-6600413#-6605156>
6. Sobirovich, T. B. (2023). Basic Criteria for Building the Third Renaissance in Uzbekistan. Asian Journal of Applied Science and Technology (AJAST), 7(1), 149-157.
7. Sobirovich, T. B. (2020). The criterion of human indicators in development and renewals in Uzbekistan. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR), 6(8), 509-511.



ФАЛСАФА ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

LOYIHALASHTIRISHGA SINERGETIK YONDASHUV

Tagayev Kamol Kamilovich

Navoiy davlat universiteti, mustaqil tadqiqotchisi
Navoiy, O'zbekiston

Annotatsiya: Loyihalashtirishga sinergetik yondashuv zarurati jamiyatning mavjud holati bilan rivojlanayo'tgan ijtimoiy ehtiyojlarni qondiruvchi yangi sifat holatlariga erishish zarurati o'rtasidagi ziddiyat bilan belgilanadi. Bu jarayon aslida cheksizdir, chunki jamiyatni boshqarishning yetarli darajasiga erishilgan ehtiyoj yangi, yuqoriqoq boshqaruv darajasi, yangi texnik vositalar va yangi tamoyillar asosida ijtimoiy jarayonlarni boshqarish zaruratini tug'diradi.

Kalit so'zlar: sinergetika, evolyutsiya, jamiyat, bashorat, loyihalash, yondashuv, ochiq dinamik, diversifikatsiya

Rahbar kadrlar tayyorlashda sinergetik yondashuv muhim ilmi metodologiya sifatida qilinishi muhim fundamental masala. Etiborni quyidagi ilmiy yondashularga qaratmoqchimiz. Ma'lumri XX asrning 70-80-yillarida G. Xaken ilmiy tafakkur rivojida fundamental hodisa sifatida g'oyaviy jarayonlar, ochiq dinamik tizimlar va o'z-o'zini tartibga solish hodisalarini o'rganish kashf etdi [1]. I. Prigojin fikricha bugungi kunda tabiatdagi barcha tuzilmalar o'z-o'zini tartibga soluvchi va tabiiy o'zini tashkil etish mexanizmlariga ega ekanligiga shubha yo'q. U tomonidan ishlab chiqilgan va "sinergetika" deb nomlangan o'zini tashkil etish nazariyasi fan sohasiga kirib keldi. Tengsizlik sharoitida tartiblilik paydo bo'ladigan energiya va modda oqimi hisobiga mavjud bo'lgan dissipativ tuzilmalar kontseptsiyasi; akademik A. Samarskiy [2] tomonidan g'oyaviy hodisalarini modellashtirish usullari yaratildi. N. Moiseyevning tizimlarning evolyutsiya va qonunlarini o'z-o'zini tashkil etish nuqtai nazaridan o'rganish masalasi shuni ko'rsatadiki, dissipativ strukturalardagi o'zini tashkil etish hodisalari nafaqat fizika, gidrodinamika, kimyo va biologiyada, balki ijtimoiy tizimlar kabi murakkab sohalarda ham keng tarqalgan.

E'tibor berish kerakki, sinergetik yondashuv mualliflaridan oldin ham bu g'oyalar olimlar tomonidan turli shakllarda ilgari surilgan. Masalan, A.A. Bogdanovning "Tektologiya. Umumiyy tashkiliy fan" asari, K. Popperning "Ochiq jamiyat va uning dushmanlari", M. Fukoning diskursiv amaliyotlar fa'zosi g'oyalari, shuningdek, liberal faylasuflar va iqtisodchilar Aleksis de Tokvil, Gi Sorman va Fridrix

Xayekning "sivilizatsiya'ning kengaytirilgan tartibi" yoki "ixtiyorsiz tartib" kontseptsiyalari. Aslida, F. Xayekning "ixtiyorsiz tartib" I. Prigojining "strukturaviy dissipativi" bilan juda o'xshash; "Har qanday evolyutsiya tasodify sharoitlarga, oldindan aytib bo'lmaydigan hodisalarga moslashishning uzlucksiz jarayonidir. Evolyutsiya faqat murakkab tuzilmalarda yangi evolyutsion o'zgarishlarga olib keladigan tuzatish usullari qanday rivojlanishini ko'rsatishi mumkin, ammo ularning tabiatini jihatidan oldindan aytib bo'lmaydi".

F. Xayekning qarashlaridagi eng muhim jihat, fikrimizcha, bu murakkab hodisalar uchun faqat "strukturali bashorat" doirasidagi g'oyasidir. Bular kelajakdag'i o'zgarishlar doirasidir, lekin nochiziqlilik tufayli ularni aniq oldindan aytish imkonsiz. Sinergetik loyihalash yondashuvi dunyoga muzey sifatida emas, balki eski tuzilmalarni yo'q qilib, yangilarini yaratadigan evolyutsiya sifatida qarashni talab qiladi. An'anaviy nuqtai nazarda vaqt harakati "akumulyator" sifatida qaraladi va ba'zi qismlar buzilsa ham, ularning qolgan qismlari butunlikka qaytish umidini uyg'otadi. Ammo qaytarilmaslik sharoitida jamiyat o'zining yangi holatini doimiy ravishda loyihalash va qurish jarayonida bo'ldi. Bu esa kelajakni bir martalik berilgan narsa emas, balki ehtimollik sifatida ko'rsatadi. XX asrning asosiy muammoji butunlik masalasi bo'lsa, XXI asrda u barqarorlik muammoiga aylanmoqda. Sinergetikaning o'zi – ochiq dinamik tizimlardagi nochiziqli jarayonlar korporativ xulq-atvori asosida o'zini tashkil etish nazariyasi – universal nazariyadir.

Sinergetikaning asosiy kategoriyasi "nochiziqlilik"ka asosan, rahbar kadrlarni tayyorlashning yaqin kelajakdag'i holatini aniq bashorat qilishning iloji yo'qligini (yoki cheklanganligini) anglatadi.



Bunga rahbar kadrlar tayyorlash tizimi ichidagi ko‘plab o‘zaro ta’sirlar va qarama-qarshilikli jarayonlar sabab bo‘ladi. Nochiziqlilik rahbar kadrlar tayyorlash tizimini ijtimoiy institut sifatida rivojlanish yo‘nalishini rivojlantirish imkoniyatini beradi. Tizimning nochiziqli xususiyatlari tashqi va ichki omillar bilan belgilanadi. Tashqi omillar – jamiyatning o‘zining noaniq va ko‘p omilli rivojlanishi, rahbarlarning professional faolligini shakllantirish va amalga oshirish jarayonining tizimli sharoitlariga bog‘liq bo‘ladi.

Ijtimoiy loyihalashtirish tizimida rahbar kadrlarni tayyorlash masalasini ijtimoiy munosabatlarning dinamikasiga qarab rivojlanuvchan, moslashuvchan, o‘zgaruvchan tizim sifatida ko‘rib chiqilishi kerak. U davlat, korxonalar va rahbarlarning professional tayyorgarlik darajasidagi manfaatlarini qondirishning zarur darajasini ta’minlashi lo’zim. Shuning uchun rahbar kadrlar tayyorlash reflektiv monitoring elementini o‘z ichiga olishi, ijtimoiy ehtiyojlarga yo‘naltirilishi, boshqaruvchilar va boshqariladiganlar o‘rtasidagi o‘zaro dialog rejimida ishlashi, hamkorlikdagi kollektiv hayot faoliyati dasturi sifatida qaralishi kerak. Turli ijtimoiy sharoitlarda rahbarlarning faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini anglash yuzaga keldi. Buning uchun boshqaruv tamoyillari bilan bog‘liq umumiylar masalalardan tashqari, psixologiya, marketing, menejment, statistika, xavfsizlik nazariyasi va boshqa fanlarni o‘rganish talab qilindi. Davlat va xususiy sohalarda boshqaruvning o‘ziga xos jihatlarini hisobga oladigan rahbar kadrlarni tayyorlashni diversifikatsiya qilishning obyektiv ehtiyoji paydo bo‘ldi.

ADABIYOTLAR

1. Хакен Г. Синергетика: Пер. с англ. - М.: Мир, 1980.
2. Самарский А., Курдюмов С., Ахромеева Т. Моделирование нелинейных явлений в современной науке / Информатика и научно-технический прогресс. М.: Наука, 1987.
3. Sobirovich, T. B. (2023). Basic Criteria for Building the Third Renaissance in Uzbekistan. Asian Journal of Applied Science and Technology (AJAST), 7(1), 149-157.
4. Sobirovich, T. B. (2020). The development of democratic society and spiritual renewal in the views of Eastern and Western thinkers. International journal of advanced research and review, 5(10), 60-65.
5. Turdiyev, B. S. (2019). The role of national harmony in the strategy of spiritual renewal. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(6), 229-233.



JAMIYAT TARAQQIYOTI VA SHAXS KAMOLOTIDA MADANIYATNING O'RNI VA AHAMIYATI

Djalilov Baxtiyor Xidaevich

falsafa fanlari nomzodi, Mirzo Ulug'bek

nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

"Falsafa va ma'naviyat asoslari" kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada madaniyat tushunchasining mazmuni va ahamiyati tahlil qilinadi. Madaniyat inson faoliyati va uning ma'naviy hamda moddiy jihatlarini o'zida mujassam etgan murakkab tizim sifatida ta'riflanadi. Musiqa, adabiyot, san'at, me'morchilik va turmush tarzi kabi sohalarda o'z ifodasini topadigan madaniyat, shuningdek, ijtimoiy munosabatlar va qadriyatlarini ham o'z ichiga oladi. Antropologik nuqtai nazardan, madaniyat mahsulotlar, ularni yaratish jarayoni va shu jarayonlarga bog'liq ijtimoiy munosabatlar majmuasini anglatadi. Maqola madaniyatning jamiyat va inson hayotidagi o'rni va ahamiyatini yoritishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: madaniyat, qadriyat, jamiyat, axloq, tarbiya, tafakkur, adabiyot, me'morchilik, taraqqiyot.

Madaniyat inson faoliyati va shu faoliyatning ahamiyatini belgilovchi ramziy qurilmalar va asarlar majmuidir. Bu tushuncha insoniyat tarixining turli bosqichlarida, milliy an'analarda va zamonaviy hayotda namoyon bo'ladi. Madaniyat musiqa, adabiyot, badiiy tasvir, me'morchilik, teatr, kinematografiya, va turmush tarzi kabi sohalarda o'z ifodasini topadi. Har bir jamiyatning o'ziga xos madaniyati uning ijtimoiy hayotini, qadriyatlarini va estetik qarashlarini aks ettiradi. Antropologiya fanida "madaniyat" tushunchasi mahsulotlar va ularni ishlab chiqarish, estetik ma'no berish hamda shu jarayonlarga bog'langan ijtimoiy munosabatlarni o'z ichiga oladi. Bu nafaqat moddiy, balki ma'naviy boyliklarni ham o'zida mujassam etadi. San'at, fan va ma'naviy tizimlar madaniyatning ajralmas qismidir. Ushbu jihatlar madaniyatni nafaqat ijodiy faoliyat, balki ijtimoiy munosabatlar va qadriyatlar tizimi sifatida ham anglashga imkon beradi [1].

Madaniyat, shuningdek, jamiyatning tarixiy taraqqiyotidagi muayyan bosqichni aks ettiradi. Antik madaniyat, o'rtalashtirishda yoki zamonaviy madaniyat tushunchalari orqali tarixiy davrlarning o'ziga xos madaniy yutuqlari va me'yordi tasvirlanadi. Shu bilan birga, madaniyat milliy va hududiy jihatdan ham farqlanadi: o'zbek madaniyati, fransuz madaniyati yoki Osiyo madaniyati singari.

Madaniyatning yana bir muhim jihat - uning turli faoliyat sohalarida namoyon bo'lishidir. Mehnat madaniyati, badiiy madaniyat, turmush madaniyati kabi atamalar madaniyatning keng qamrovli va murakkab tabiatini anglatadi. U nafaqat ijodiy asarlar yoki san'at namunalarida, balki kishilarning kundalik hayotida, odatlari va qadriyatlarida ham aks etadi. Madaniyat - bu insoniyatning o'zligini anglash va ifodalash vositasi bo'lib, u orqali jamiyat o'z bilimlari, tajribalari va qadriyatlarini avlodlarga yetkazadi. Har bir avlod o'ziga xos madaniyatini yaratadi va bu jarayon davomli hamda uzviydir. Madaniyat nafaqat o'tmishni aks ettiradi, balki kelajakni yaratadi.

Mustaqillik yillarda shakllangan yangicha siyosiy tafakkur va falsafiy dunyoqarash madaniyatning jamiyat va shaxs hayotidagi o'rmini yangicha tushunishga imkon berdi.

Madaniyat tushunchasining inson va jamiyat tushunchalari bilan uzviy bog'liqligi haqida yuqorida aytib o'tildi. Buyuk fransuz mutafakkiri Emil Dyurkgeymning ta'lim berishicha, madaniyat inson ongi va irodasiga bog'liq bo'limgan holda undan ilgari vujudga kelgan va insonga majbur qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. Boshqacha qilib aytganda, har bir individ madaniy olamda tug'iladi, uni o'zlashtiradi, insoniy sifatlarga ega bo'ladi (sotsiallashadi) va uning rivojiga muayyan hissa qo'shadi [2].

Madaniyat, avvalo, insoniyatning ko'p asrlik bilimlari va tajribalari yig'indisi sifatida namoyon bo'ladi. Inson aqlli mavjudot sifatida ko'p asrlar davomida jamiyat tomonidan yaratilgan bilim, tajriba, ko'nikma, xulq-atvorme'yordi, ya'ni madaniyatni o'zlashtiradi. Ubarchatirik mavjudotlardan farqli o'laroq butun hayoti davomida sotsiogenetik dasturni amalga oshirishga harakat qiladi. Sotsiogenetik dastur biogenetik dasturdan farqli ravishda avloddan avlodga irlashtiriladi, ya'ni madaniyat namunalaridir. Axloqiy tarbiyaning butun mazmuni yosh avlodning xatti-harakati, xulq-atvori va faoliyatini tartibga solishdan va uning madaniy ko'nikmalarini shakllantirishdan iboratdir [3].

Madaniyat insonni hayvondan, jamiyatni esa tabiatdan farqlaydigan sifatiy belgi, faqat insonga va jamiyatgagina xos bo'lgan, uning xatti-harakatlari, faoliyati va mehnat mahsulotlarida namoyon



bo‘ladigan bilimlar, tajribalar, ko‘nikmalar, me’yorlar majmuasidir.

Madaniyat ravnaqi va ijtimoiy munosabatlarning takomillashib borishi bir- biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan jarayonlardir. Shu o‘rinda madaniy va ijtimoiy taraqqiyotning o‘ziga xos xususiyatlari haqida qisqacha fikr yuritish maqsadga muvofiqdir. Ilgari ta’kidlab kelinganidek, madaniyat namunalari keng xalq ommasi tomonidan mexanik tarzda emas, balki ijtimoiy hayotning turli sohalarida faoliyat ko‘rsatayotgan eng ilg‘or kishilar, ziyolilar, ilm-fan ahllari tomonidan yaratiladi, jamiyatning asosiy ko‘pchilik qismi esa madaniyatning ilg‘or namunalarini o‘zlashtirish va sotsiallashtirish jarayoniga tortiladilar. Madaniyatdagi umumiy inqiroz madaniyatning ilg‘or namunalarini yaratuvchi elita – sara toifa bilan keng ommaning ma’naviy salohiyati o‘rtasidagi tafovut va ziddiyat bilan bog‘liq ravishda ro‘y beradi. Ijtimoiy-siyosiy hayotda, ilmiy va badiiy ijodda shaxs erkinligining tobora ortib borishi madaniy rivojlanishning mezoni hisoblanadi [4].

Har bir milliy madaniyat insoniyat madaniyatidan ajralgan holda rivojlana olmaydi. Milliy madaniyatlar bir-biriga ta’sir ko‘rsatadi, bir-birini boyitadi va ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni yanada takomillashtirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Har bir xalq o‘zining noyob, betakror va o‘ziga xos milliy madaniyati bilan insoniyat madaniyati tarkibida munosib o‘rin tutadi. Mamlakatimizda demokratik o‘zgarishlarning yanada chuqurlashishi va fuqarolik jamiyatni asoslарining yaratilishi, O‘zbekistonning jahon sivilizatsiyasiga qo‘shilib borishi jamiyatimizning madaniy taraqqiyoti yo‘lida paydo bo‘lgan muammolarni oqilona hal etishni, Yer yuzidagi ilg‘or xalqlar madaniyati yutuqlarini chuqur o‘rganishni taqozo etadi. O‘zbekistonning qator Yevropa mamlakatlari bilan iqtisod, siyosat, madaniyat sohasidagi o‘zaro hamkorligi, iqtidorli yoshlarimizning xorijdagi oliy o‘quv yurtlarida tahsil ko‘rishi, ilg‘or xalqlar bilan madaniy muloqotda bo‘lishi, shubhasiz, yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim tayanchi bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, madaniyat inson faoliyati va uning ma’naviy hamda moddiy jihatlarini o‘zida mujassam etgan murakkab tushunchadir. U faqat san‘at yoki adabiyot bilangina cheklanmay, balki insonning kundalik hayoti, mehnat jarayonlari, va ijtimoiy munosabatlarida ham namoyon bo‘ladi. Madaniyat, insoniyatning tarixiy tajribalarini avloddan-avlodga yetkazuvchi muhim vosita sifatida, har bir jamiyatning o‘ziga xosligini aks ettiradi. Har bir xalqning milliy madaniyati o‘zining noyoblik va betakrorlik xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Bundan tashqari, madaniyat jamiyatning rivojlanish darajasi va ijtimoiy ongning shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Mustaqillik yillarda O‘zbekistonda shakllangan yangicha siyosiy tafakkur va falsafiy dunyoqarash madaniyatga bo‘lgan yondashuvni yanada boyitdi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi, yosh avlodni axloqiy va ma’naviy jihatdan tarbiyalash, madaniyatning jamiyatda tutgan o‘rnini anglashga imkon berdi. Shunday qilib, madaniyat – bu nafaqat o‘tmishni aks ettiruvchi boy meros, balki keljakni yaratishga yo‘naltirilgan ijodiy kuch hamdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Duysenbayeva Gulbanu, & Tajigaliyeva Mariyash Jumagaliyevna. (2023). MADANIYAT TUSHUNCHASI VA UNING MAZMUN MOHIYATI. Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities, 2(11), 35–40.
2. Émile Durkheim (1858—1917) // <https://iep.utm.edu/emile-durkheim/>
3. Abdullayev M. Umarov E. Ochidliyev A. Yo‘ldoshev A. Abdullayev A. Ma’naviyatshunoslik asoslari. -T.: “Turon-Iqbol” anshriyoti, 2006. – 144 b.
4. Azimjon o‘g‘li, T. A. (2024). MADANIYATTARIXI. THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH, 3(26), 260-264.
5. Sobirovich, T. B. (2023). Basic Criteria for Building the Third Renaissance in Uzbekistan. Asian Journal of Applied Science and Technology (AJAST), 7(1), 149-157.
6. Sobirovich, T. B. (2021). Philosophical Dialectics of National and Universal Cultural Development. Irish Interdisciplinary Journal of Science & Research (IIJSR).
7. Sobirovich, T. B. (2024). Renewal of Societal Ideosphere: An Analytical Study of Medieval Philosophical Thought. Philosophy, 8(3), 12-18.



GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLAR ONGIDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISH ZARURATI

Rajabov Alisher Po'latovich

Osiyo xalqaro universiteti, Pedagogika va

Psixologiya mutaxasisligi Magistranti

Ilmiy rahbar p.f.f.d (PhD) Maximova Zulfiya Mexmonovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada globallashuv va axborot xurujlari kuchaygan davrda yoshlар ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirishning ijtimoiy-ma'naviy ahamiyati tahlil qilinadi. Maqolada milliy qadriyatlar, vatanparvarlik, axborot xavfsizligi, zamonaviy ta'lim vositalari va OAVning roli asosida mafkuraviy barqarorlikni kuchaytirish yo'llari ko'rsatilgan. Shuningdek, davlat rahbari Shavkat Mirziyoyevning g'oyalari asosida mafkuraviy tarbiya strategiyasi ishlab chiqilib, mahalla, ta'lim va jamoat institutlarining hamkorligi muhim omil sifatida yoritiladi.

Kalit so'zlar: globallashuv, mafkura, mafkuraviy immunitet, barqarorlik, tafakkur, jamiyat, mafkuraviy profilaktika.

Bugungi globallashuv jarayoni, keskin kuchayib borayotgan axborot oqimlari va turli mafkuraviy tahdidlar sharoitida yoshlар ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirish strategik ahamiyat kasb etmoqda. Zero, har qanday jamiyat taraqqiyotining zamonaviy bosqichida, ayniqsa intellektual-ma'naviy kurash kuchaygan bir davrda, yoshlarning ongini mustahkamlash, ularni g'oyaviy barqarorlikka erishishga yetaklaydigan vosita sifatida mafkuraviy immunitet ajralmas zaruratga aylanmoqda. Bu immunitet – yoshlarning o'zligini anglashga, ichki e'tiqodi va qarashlarini himoya qilishga xizmat qiladigan g'oyaviy qalqon, ruhiy barqarorlik manbaidir.

Mamlakatimizda jamiyat ma'naviy asoslarini mustahkamlash, mafkuraviy omillarni rivojlantirish, ijtimoiy shaxs maqomidagi ma'naviy sog'lom avlodni voyaga yetkazish, ular tafakkurini jamiyatdagи ijtimoiy jarayonlarga mos holda amaliy hayot tamoyillari bilan boyitish va bunga eltuvchi vositalarni takomillashtirishga alohida e'tibor berilmoqda. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini bunga asos bo'lib xizmat qiladi: "Hammamizga ayonki, bugungi murakkab globallashuv davrida jamiyatimizda milliy g'oya va mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, yoshlarni turli zararli g'oya va tahdidlardan asrash, ularni o'z mustaqil fikriga ega, irodali, fidoyi va vatanparvar insonlar etib tarbiyalash har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda" [1]. Bu vazifani to'laqonli bajarish uchun jamiyatda ma'naviy-mafkuraviy targ'ibot jarayonlarini rivojlantirish va takomillashtirish, mafkuraviy profilaktika elementlarini modernizatsiya qilish o'rganilayotgan masalaning muhim faktoriga aylanishini belgilab beradi

Yoshlар orasida mafkuraviy immunitetni shakllantirish, avvalo, ularning dunyoqarashini boyitish, milliy qadriyatlarga e'tiborini kuchaytirish va Vatanga daxldorlik tuyg'usini mustahkamlashdan boshlanadi. Yosh avlodda mustahkam g'oyaviy asos bo'limasa, yet g'oyalar va buzg'unchi qarashlarga qarshi kurashish imkonsizga aylanadi. Shuning uchun zamonaviy tafakkurga ega, ongli va bilimli yoshlarni tarbiyalash – bu faqat ta'lim emas, balki ijtimoiy barqarorlik va milliy mustaqillikning kafolatidir. O'z milliy qadriyatlariga suyanib, global tahdidlarga javob qaytara oladigan yosh – har qanday jamiyatning eng qudratlari tayanchiga aylanishi mumkin [2].

Bugungi dunyo axborot texnologiyalari orqali global raqobat maydoniga aylangan. Unda mafkuraviy kurash bilan bir qatorda intellektual bellashuvlar ham kuchaymoqda. Yoshlar ayni shunday muhitda nafaqat mafkuraviy, balki kasbiy, intellektual jihatdan ham raqobatbardosh bo'lishi lozim. Ular mustaqil fikrlovchi, tezkor qaror qabul qilish qobiliyatiga ega, har tomonlama yetuk shaxslar bo'lishi kerak. Shu sababli ta'lim-tarbiya tizimi yoshlarni faqat bilim emas, balki mafkuraviy bardamlik bilan ham qurollantirishi lozim. Har bir yoshning qalbida milliy iftixor tuyg'usining shakllanishi – bu g'oyaviy barqarorlikning eng chuqur ildizidir. O'z tarixini, tilini, dinini, urf-odat va qadriyatlarini chuqur anglashi, o'zligini faxr bilan e'tirof etishi – bu yoshni mustahkam ichki g'oyaviy asosga ega qilishda muhim o'rinn tutadi. Aynan shu ruhda ulg'aygan yoshlар har qanday buzg'unchi va yet mafkuralarga nisbatan qat'iy pozitsiyada turadi.

Bugungi raqamli asr bizga cheksiz imkoniyatlar bilan bir qatorda, jiddiy sinovlarni ham olib kelmoqda. Ayniqsa, yoshlар ongiga ta'sir qiluvchi turli yet va zararli g'oyalarning global axborot tarmoqlari orqali tezkor tarqalishi ularning g'oyaviy barqarorligiga tahdid solmoqda. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va onlayn efirlar yoshlarning fikr doirasini shakllantirishda kuchli vositaga aylangan bir



davrda, mafkuraviy immunitet masalasi dolzarb strategik vazifaga aylanmoqda. Zamonaviy yoshlar hayotining katta qismi onlayn makonda kechadi. Shunday ekan, kiberxavfsizlikni ta'minlash, bu makonda ularning axloqiy, ma'naviy va mafkuraviy pozitsiyasini himoya qilishning ajralmas qismiga aylangan. Bugungi sharoitda har bir yosh o'z e'tiqodi va qadriyatlarini internet orqali himoya qila olishi uchun vizual va interaktiv ta'limgos vositalari, sodda tilda ishlab chiqilgan axborot xavfsizligi dasturlari muhim ahamiyat kasb etadi. Bu nafaqat texnologik savodxonlikni oshiradi, balki yoshlarni g'oyaviy jihatdan mustahkam tayyorlaydi [3].

Mafkuraviy immunitetni shakllantirishda OAVning roli benihoya muhim. Televizion ko'rsatuvalar, radioeshittirishlar va onlayn kontent orqali ma'naviy-ma'rifiy g'oyalarni zamonaviy uslubda yetkazish, yosh avlod qalbiga yo'l topish imkonini beradi. Bugun ayniqsa blogerlar, ziyorilar va yosh yetakchilar tomonidan olib borilayotgan interaktiv muloqotlar, zamonaviy yosh auditoriya bilan bevosita aloqa vositasiga aylanmoqda. Bunday yondashuv yoshlar savollariga zamonaviy, asosli va ishonchli javoblar berishga xizmat qiladi.

Yoshlar ongida mafkuraviy immunitetni kuchaytirishda mahalla va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari alohida o'rinn tutadi. Har bir mahallada yoshlar bilan muloqot qilish, ularning ehtiyojlarini inobatga olgan holda maqsadli dasturlar ishlab chiqish – bu ularni jamiyat hayotiga faol jalb etishning samarali yo'lidir. Mahalla faollari ishtirokida maxsus targ'ibot guruuhlarining tuzilishi esa tizimli mafkuraviy tarbiya uchun asos bo'la oladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev: "Bugungi notinch va tahlikali zamonda yoshlarning ongi va qalbini egallashga qaratilgan turli xavf-xatarlar tobora kuchayib borayotganini barchangiz yaxshi bilasiz. Ularga qarshi kurashishda xalqimizning boy tarixi va madaniyati, buyuk ajdodlarimiz jacobati, jonajon O'zbekistonimizning milliy manfaatlari biz uchun kuch-qudrat manbai bo'lib xizmat qiladi" [4]. Zero, barqaror taraqqiyot va farovon hayotga erishish uchun bugun jamiyat o'z a'zolaridan muhim bo'lgan, samarali va tizimli reja va dasturlarni ishlab chiqib amalga qo'llashni birlamchi pog'onaga ko'tarar ekan, bu jarayonda tinchlik va osoyishtalik barcha ezgu orzular va muhim maqsadlarning ro'yobga chiqishining yagona sharti va kafolati bo'lib xizmat qilishini inkor etib bo'lmaydi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi globallashuv va axborot tezligi ortib borayotgan bir davrda yoshlar ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirish dolzarb va strategik vazifaga aylangan. Turli zararli g'oyalar, yot mafkuralar va ma'naviy tahdidlar tahdid solayotgan bir paytda, yosh avlodni intellektual, ma'naviy va mafkuraviy jihatdan barqaror tarbiyalash jamiyat taraqqiyotining zaruriy shartiga aylanmoqda. Mafkuraviy immunitet yoshlar uchun nafaqat himoya vositasi, balki ularning mustaqil fikrashi, milliy o'zlikni anglash, global tahdidlarga qarshi qat'iy pozitsiya egallashlarining kafolatidir. Davlatimiz tomonidan olib borilayotgan islohotlar va Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilayotgan g'oyaviy tamoyillar aynan ushbu jarayonni tizimlashtirish, modernizatsiya qilish va amaliyotga tatbiq etishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, yoshlar orasida milliy qadriyatlarga sadoqatni mustahkamlash, Vatanga daxldorlik tuyg'usini uyg'otish va ularning dunyoqarashini boyitish orqali mafkuraviy immunitetga asos bo'ladigan g'oyaviy barqarorlikka erishish mumkin. Bu borada uzlusiz ta'limgos vositalari, mahalla va jamoat tashkilotlarining hamkorligi, axborot xavfsizligini ta'minlovchi texnologik yechimlar, interaktiv vositalar va samarali targ'ibot-tashviqot ishlari muhim o'rinn tutadi. Ayniqsa, yoshlar ongini global tahidlardan himoya qilishda milliy tarix, madaniyat, urf-odat va buyuk ajdodlarimizning ibratli merosiga tayangan holda kuchli mafkuraviy asos yaratiladi.

Shunday ekan, mafkuraviy immunitet – bu nafaqat individual himoya tizimi, balki umumiy ijtimoiy barqarorlik va milliy taraqqiyotning garovi hamdir. Zamonaviy tafakkurga ega, milliy g'urur bilan yashovchi, mustaqil qarorlar qabul qila oladigan yoshlar – bu yurt kelajagining eng qudratli tayanchidir. Shu bois, har bir ta'limgos muassasasi, mahalla, OAV va ijtimoiy institutlar yoshlar qalbida ushbu immunitetni shakllantirish yo'lida yagona maqsad sari harakat qilishi bugunning eng muhim vazifasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. O'qituvchi va murabbiylar – yangi O'zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir // O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning o'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i nutqi. Xalq so'zi. 2020 yil 1 oktyabr, No 207 (7709). - B. 3.
2. Tashmetov, T.X. (2020). Milliy g'oyani yoshlar ongiga singdirishning zamonaviy usullari. Academic Research in Educational Sciences, 1 (3), 326-331.



3. Jamiatda mafkuraviy profilaktikani kuchaytirish yoshlar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishning muhim omili (Eshmamatov Farruh Eshqobil o'g'li, Trans.). (2025). Uz Conferences, 1(9).
4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. Tom 3. –T.: O‘zbekiston, 2019. – B. 386-387.
5. Sobirovich, T. B. (2023). Basic Criteria for Building the Third Renaissance in Uzbekistan. Asian Journal of Applied Science and Technology (AJAST), 7(1), 149-157.
6. Turdiev, B. (2025). The primacy of human interests in a democratic society of Uzbekistan. Transforming education through scientific discovery, 1(1), 374-379.
7. Turdiev, B. S. (2024). Balancing national and universal perspectives: the dialectical dynamics in society’s ideoSphere. Asian Journal of Basic Science & Research, 6(3), 59-65.
8. Sobirovich, T. B. (2024). The national idea as a driving force behind ideoSpheric transformation in Uzbekistan: Exploring its implications and impact. Asian Journal of Applied Science and Technology (AJAST), 8(3), 170-176.
9. Sobirovich, T. B. (2024). Socio-Philosophical Analysis Of Society’s Ideosphere. Indonesian Journal of Social Development, 2(1).



G'ARB FALSAFASIDA IJTIMOIY MAS'ULIYATGA DOIR ILMUY QARASHLAR VA ULARNING JAMIYAT HAYOTIDA AKS ETISHI

Sultanov Og'abek Sultan o'g'li
Ma'mun universiteti "Umumkasbiy"
fanlar kafedrasasi o'qituvchisi
Email: sultanovagabek4@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tadqiqot G'arb falsafasi doirasida ijtimoiy mas'uliyat tushunchasining shakllanishi, rivojlanishi va uning amaliy ijtimoiy hayotdagi aks etish jarayonlarini o'rganishga qaratilgan. Unda zamонави G'arb mutafakkirlarining mas'uliyat konsepsiyasini qanday talqin qilingani tahlil qilinadi. Tomas Gobbsning ijtimoiy shartnomaga nazariysi, Jon Lokkning fuqarolik erkinliklari to'g'risidagi qarashlari, Kantning kategorik imperativ yondashuvi orqali ijtimoiy mas'uliyatning nazariy asoslari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: G'arb falsafasi, ijtimoiy mas'uliyat, axloqiy nazariya, fuqarolik jamiyat, ijtimoiy shartnomaga, Kant, Jon Lokk, Tomas Gobbs, inson huquqlari, demokratik qadriyatlar.

Epistemologik bilish - bu ijtimoiy mas'uliyat tushunchasini to'laqonli tushunishning yagona yo'li. G'arbiy Yevropada XVII asrda Tomas Gobbs birinchi bo'lib "ijtimoiy mas'uliyat" iborasini ilmiy tushuncha sifatida ishlatgan. Bu so'z birinchi marta fan tarixiga kiritilganligini anglatadi. Mas'uliyatning ilk ma'nosi ijtimoiy shartnomaga nisbatan birlashgan fuqarolarning davlat harakatlari uchun mauyyan javobgarligi ma'nosida ishlatgan [1].

Insonning harakatlari uchun mas'uliyatni o'lhash zarurati irodali erkinlik va oldindan belgilanganlik o'rtaqidagi munosabatlarning falsafiy muammosini, irodadan tashqari erkinlik masalasini va insonning harakatlariga bo'lgan ehtiyojni keltirib chiqardi. Ushbu muammo paydo bo'lgan paytdan boshlab mas'uliyat iroda erkinligini zaruriy cheklash vositasi sifatida qaraldi; erkinlik asosan inson harakatlarini belgilaydigan ijtimoiy qonunlarni tan olish bilan chegaralanadi. Deterministik pozitsiyadan mas'uliyatni asoslashning yorqin misollarini XVII-XVIII asrlar G'arbiy Yevropa falsafasida T.Gobbs J.Lokk D. Yum asarlaridan topish mumkin. Mas'uliyat tushunchasiga obyektiv yondashuvchi Tomas Gobbs insonga tabiatan ijtimoiy mavjudot deya ta'rif bergan. Uning fikriga ko'ra, har bir insonning asosiy maqsadi raqiblaridan ustunlik mavqeiga erishish, deb hisoblaydi. U odamlarning qonunlarga bo'y sunmaganliklari uchun ijtimoiy mas'uliyatning qay darajada muhimligiga qattiq urg'u beradi va davlat hokimiyati organlari boshqa shaxslar ustidan nazorat o'rnatish imkoniyati va vakolatiga ega ekanligini ta'kidlaydi.

Jon Lokk esa shaxs va jamiyat mas'uliyatini ularning tabiiy holati deb hisoblaydi. Lokkning inson oldidagi ijtimoiy majburiyatlarini va axloqiy hukm muammosiga doimiy e'tibor qaratgani — ya'ni yaxshilik va yomonlikni ajratish qobiliyati sifatida tushuniladigan bu tushuncha — bizni yana bir muhim haqiqat sari yetaklaydi: jamiyatning asoslari insonning axloqiy ongiga chuqur bog'langan holda shakllangan. Garchi davlat axloqiy qonunni jamiyat miqyosida yanada aniq va samarali tarzda amalga oshirish uchun mo'ljallangan bo'lsa-da, har bir inson o'zining axloqiy qarashlari, tanlovlari va xatti-harakatlari uchun shaxsiy mas'uliyatni zimmasiga olishga majburdir. Hech qanday sharoitda — hattoki eng so'nggi chora sifatida ham — biz axloqiy hukm yuritish mas'uliyatidan voz kechishga haqli emasmiz. Bu erkinlik holati bo'lib, insonning o'zboshimchalik holatiga teng emas [2]. Misol uchun, jamiyatda har qanday inson o'zining huquqlari va o'z mulkini xohlagancha boshqarish imkoniyatiga ega bo'lsa-da, u o'zini yoki boshqa insonlarning majburiyat va erkinligini buzishi mumkin emas.

Ijtimoiy mas'uliyat toifalarini rivojlantirish masalasida faoliyat nazariyasiga asoslanish muhimdir. Bu nazariya insonning faol mavjudot sifatida o'sishida hal qiluvchi element hisoblanadi, shuning uchun bu nazariyaga asoslanish juda muhimdir. Biz insonning faoliyat mohiyati va uning erkinligi o'rtaqidagi aloqani XIX asrning nemis klassik falsafasi namoyandalari, jumladan, Gegel, Kant, F. Shelling, Fixte va boshqalar orasida kuzatishimiz mumkin. Ular insonni faqat aql va iroda egasi sifatida ko'radilar. Ushbu maktab vakillari mas'uliyat tushunchasini majburiyat bilan bog'liq holda tahlil qiladilar. Biroq, ularning fikrlari har doim bir-biriga mos kelavermaydi.

Rene Dekart (1596–1650) Yangi davr falsafasining asoschilaridan biri bo'lib, uning falsafasida mas'uliyat tushunchasi to'g'ridan-to'g'ri muhokama qilinmagan bo'lsa-da, uning epistemologiyasi va erkinlik haqidagi qarashlarida mas'uliyat mavzusi bevosita talqin etilishi mumkin. Dekartning asosiy



e'tibori bilim, shubha, aql va erkinlikka qaratilgan bo'lib, bu elementlar mas'uliyat tushunchasini ham keltirib chiqaradi. Dekart falsafasining markazida shubha va bilimni asoslash jarayoni turadi. Uning mashhur "Cogito, ergo sum" (Men o'layapman, demak, men mavjudman) formulasi orqali Dekart insonning aql-idrokini va o'z mavjudligini anglashini asosiy nuqtaga qo'yadi.

Dekartning axloqiy falsafasini "Qalbning ehtiroslari", "Aqlni to'g'ri tarzda yo'lga solish va ilmlardagi haqiqatni izlab topishga yo'naltirilgan metod haqida mulohazalar" asarlarida insonning harakati va qarorlari axloqiy jihatdan to'g'ri bo'lishi kerak, va bu yerda ham inson o'zining axloqiy tanlovlari uchun javobgar bo'lishi haqida aytilgan[3]. U axloqiy qarorlarni qabul qilishda aql-idrok va erkin iroda muhimligini ta'kidlaydi. Shaxsning axloqiy mas'uliyati uning o'z harakatlarini asoslash va ularni ongli ravishda qabul qilish bilan chambarchas bog'liqdir. Dekartning tabiiy fanlarga bo'lgan yondashuvi ham insonning mas'uliyatini ko'rsatadi. Uning "tabaqlananmagan moddiy olam" haqidagi fikri, tabiatni tushunish va undan foydalanish jarayonida insonning roli va mas'uliyatini ifodalaydi. Dekart insonni tabiatni anglashda mutlaq erkin deb bilsa-da, bu jarayonda inson tabiatni o'z maqsadlariga erishish uchun ekspluatatsiya qilishdan mas'uliyatlari bo'lishi kerakligini ham biladi. Rene Dekart falsafasida mas'uliyat tushunchasi erkin iroda, aql-idrok va bilim izlash jarayonida o'z aksini topadi. Inson o'z bilimlari va harakatlari uchun javobgar bo'lib, qaror qabul qilishda ehtiyyotkor bo'lishi kerak. Erkinlik Dekartning falsafasida markaziy o'rinni egallaydi, va inson erkin tanlov qilishda o'zining axloqiy va amaliy mas'uliyatini his qilishi lozim. Tabiiy fanlar va axloqiy masalalarda ham Dekart mas'uliyatni insonning asosiy burchi sifatida ko'radi.

Foyalanilgan adabiyotlar

1. Гоббс Т. Сочинения. в 2 Т. М.: Мысль, 1989, С.-79.
2. Greg Foster. John Locke's politics of moral consensus. –Cambridge: "Cambridge university press", 2005. –P.257.
3. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. –T.: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti", 2010. –B.102.
4. Sobirovich, T. B. (2020). The development of democratic society and spiritual renewal in the views of Eastern and Western thinkers. International journal of advanced research and review, 5(10), 60-65.
5. Sobirovich, T. B. (2024). The Dynamics of Ancient Thought: How Philosophies Shaped Changing Societal Ideospheres. Dynamics, 8(3), 19-24.
6. Sobirovich, T. B. (2024). Exploring the Ideosphere: A Comprehensive Examination of Eastern Philosophical Perspectives and Their Societal Reflections.



O'ZBEK XALQI MILLIY SPORT O'YINLARINING FALSAFIY MAZMUN-MOHIYATI

Danabayev Xurshid Napasovich

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha
mutaxassislarini qayta tayyorlash va
malakasini oshirish instituti Samarqand filiali
o'qituvchisi, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek xalqi milliy sport o'yinlarining falsafiy mohiyati bayon etilgan. Shuningdek, milliy o'yinlar ajdodlar an'anasini davom ettirishni, milliy qadriyatlarni yo'q bo'lib ketishini oldini olishi, milliy sport turlarining ijtimoiy falsafiy mohiyati kabi masalalar yuzasidan ma'lumotlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: o'zbek xalqi, milliy sport o'yinlari, sport, estetika, ijtimoiy-falsafiy.

Milliy sport o'yinlari xalqimiz madaniyati va etnopsixologiyasini yorqin namoyon etuvchi milliy qadriyatlar sifatida alohida, muhim ahamiyatga ega. Ushbu milliy an'ana va qadriyatlarni namunasidan mahallalarda yoshlar bilan milliy sport o'yinlarini tashkil etish va shu orqali ularni ma'naviyatlari, jismonan baquvvat hamda sog'lom etish tarbiyalash soha mutaxassislarining asosiy maqsadi bo'lib qoladi. An'anashaxslararo munosabatlarni tashkil etishning, jamoa ijodkorligining mahsuli, shu bilan birga, o'yinlarni jamoa holida o'ynashni saqlab qolishning ham o'ziga xos shakli hisoblanadi. Xalqning asrlar davomida shakllangan badiiy zavqi, estetik didi bor ekan, o'yin hamisha shu xalqona estetik tamoyilga amal qilib yashaydi. Bu o'yin uchun ob'ektiv qonuniyatdir.

Har bir xalqning geografik o'rni, ijtimoiy-madaniy muhiti asosida tarixan shakllangan milliy o'yinlari va sport turlari mavjud. Milliy sport turlarimizdagi eng muhim tomon haqiqat va adolatning ustuvorligida ko'rindi. Xalqimizga xos mardlik, adolatsizlikka chiday olmaslik, zo'ravonlarga qarshi kurash kabi axloqiy fazilatlarni etnosport turlarimizda ham ko'rishimiz mumkin.

Tariximizdan ma'lumki, "sport mashqlari va musobaqalari insonlar o'rtasida ezgu g'oyalarni yoyilishiga, ularni yanada jipslashishiga sabab bo'lgan. Haqiqatdan ham, sportning inson hayotidagi roli, uning jismoniy sog'lomligining asosi ekanligi, yoshlarga o'z qobiliyat va iste'dodini ro'yobga chiqarishda ahamiyati kattadir".

Xalq shuning uchun ham kurashda halol, mard polvonni, uloqda chapdas va mohir chavandozni qutlaydi. Xalq milliy o'yinlarining g'oliblarini nafaqat chiroylari harakatlari, balki, ishtirokchining tantili, mardligi, chapdastligi evaziga e'zozlaydi.

Xalq sayillari, bayramlari milliy o'yinlarsiz o'tmagan, unda yoshi ulg'ayib qolganlar o'z shogirdlariga hayot estafetasini topshirganlar. Yoshlar musobaqalarning sir-asrorlarini yaxshiroq o'zlashtirish, kundalik faoliyatlarga yordam beradigan omillariga aylantirish uchun intilganlar. Sayillarda, bayramlarda musobaqalarni tarafma-taraf bo'lib o'tkazish qatnashchilarining jamoa bo'lib harakat qilishlari ishtirokchilarining baquvvat, epchil va chaqqon, qiyinchilikka chidamli, tirishqoq va tadbirdor bo'lishlarini taqazo etgan. Milliy o'yinlar, kurash, ko'pkari va sportning ommaviy turlari halq orasida qadimdan sahovat belgisi sifatida namoyon bo'lgan. Mashhur uloqchilar, polvonlar, xalq o'yinlari ishtirokchilarini tez-tez musobaqalar o'tkazib, bellashuvlardan to'plangan mablag'ni yetim-yesirlar, ko'p bolali oilalar hamda qariyalarga hadya etganlar, ko'priklar, machitlar, madrasalar, kanallar, yo'llar va boshqa xalq hasharlariga ishtirok etganlar va xasharchilarga ilhom bag'ishlaganlar.

Milliy o'yinlar ajdodlar an'anasini davom ettirishni, milliy qadriyatlarni yo'q bo'lib ketishini oldini oladi. Ming yillik tarixga ega Alpomish dostonidan mard va jasur Alpomishni sevimli yori Oybarchinga yetishish uchun 90 qarmoq polvoni bilan kurashtushgani ma'lum. Xalq sayillari va bayramlarida kurash musobaqalari o'tkazib turmaganda yillar o'tkan sayin kurashimiz yo'q bo'lib ketgan bo'lar edi. Poygalar, qiz quvdi yoki kim uzoqqa otadi mashqlari, uloq-ko'pkari ham niyoyatda qadimiy bo'lib, milliy an'analarni evaziga saqlanib qolgan.

Ot bilan turli mashqlarni bajarish qadim-qadimdan yigitlarga xosdir. "Intizor" dostonida Avazxon G'irotni yakka g'isht ustida o'ynatar edi, deb tasvirlangan. Milliy o'yinlarturi faqatgina kurashyokiko'pkaridaniborat emas. Qiz quvdi, Quloq cho'zma, oq terakmi ko'k terak, chillak, arg'umchoq, varrak, otib qochar, do'ppi, anakay, podachi, durra, lanka, qotdi, lapar, alifbe kabi 100

¹ Столяров В.И. Теория и практика олимпийского воспитания // Вестник российского международного олимпийского университета. №3.(12). 2014.С-46-59.



dan ortiq milliy o‘yinlar turi mavjud bo‘lib ularning har birining o‘ziga xos jihatlari mavjud.

Aslida ana shu o‘yinlar zamirida kattaga hurmat, yoshlarga nisbatan mehr-shavqat, bolalar kamoli va tarbiyasida ota-onalarni aziz farzandlari oldidagi burchlari, o‘z navbatida farzandlarning mehr-sadoqatlari mujassamlashadi. Shu boisdan ota-bobolarimiz bolalariga juda yoshliklardan halq qahramonlari, ularni yovuz kuchlarga qarshi kurashlarda ko‘rsatgan jasoratlari, matonat, do‘stlik, ahillik, hamjihatlik fazilatlarini o‘zida mujassam etgan doston va ertaklar, rivoyat va to‘qimalarni so‘zlab bergenlar, milliy o‘yinlar asosida halol, rostgo‘y bo‘lish, to‘g‘ri gapirish, haqsizlikka qarshi befarq bo‘lmaslik, raqibga nisbatan hurmat fazilatlarini singdirganlar.

Xalqimiz jismoniy madaniyati hamda milliy g‘ururini yuksaltirishda etnosport turlarining ahamiyati alohida o‘rin egallaydi. Shuni hisobga olgan holda “mamlakatimizda milliy sport turlari va xalq o‘yinlarini (etnosport) targ‘ib qilish va ommalashtirish, bolalar va o‘smirlarni ularga keng jalb qilish, xalqaro aloqalarni kuchaytirish, 2023-yil 1-martdan boshlab milliy sport turlari bo‘yicha uch bosqichli umumrespublika sport musobaqlarini o‘tkazish tizimi joriy qilindi”¹.

Maxsus mashqlar doim ham jismoniy yetuklikka yoki rekordlarga olib boravermasligi mumkin. Biroq ular, maxsus mashqlar sifatida, kishida ma’lum bir maxsus sifatlarni (bilaklar va ko‘krak qafaslarni kengaytiradi, oyoqlarini chaqqon, tez chopadigan qiladi, turnikda osilishda va aylanishda mohir qiladi) shakllantiradi. Demak, maxsus mashqlar inson atropometriyasida jismoniy yetuklik belgilarini shakllantirishi bilan ajralib turadi. Shuning uchun ham jismoniy madaniyat bilan muntazam shug‘ullangan kishi bilan bunday mashqlardan uzoq kishi keskin farqlanadi, ular o‘rtasida jismoniy yetuklik, go‘zal qomat, baquvvat mushak, chaqqonlik kabi sifatlarda antropologiyaga oid belgilar darrov ko‘zga tashlanadi. Bu belgilar, mutaxassislarning ta‘kidlashicha, jismoniy madaniyatning inson organizmiga quyidagicha ta’sir etishida namoyon bo‘ladi:

- yurak qon tomir funksiyasi faollashadi;
- nafas olish yaxshilanadi;
- suyaklar mustahkamlanib, muskullar kuchli bo‘ladi, bo‘g‘inlarning harakatchanligi ortadi;
- ovqatning yaxshi hazm bo‘lishi ta’milanadi;
- ayirish organlarining faoliyati yaxshilanadi;
- asab tizimi mustahkamlanadi.

Bular esa markaziy nerv tizimida bo‘ladigan qo‘zg‘olish hodisalarining muvozanatini bir me’yorda saqlashda katta ahamiyatga ega; inson psixologiyasiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi; qaddi-qomatning to‘g‘ri shakllanishiga yordam beradi va hokazolar².

An’anaviy xalq o‘yinlarini to‘plash hamda ilmiy tahlil qilish o‘zbeklarning kelajak avlodni barkamol qilib tarbiyalashga qaratilgan qadimiyligi va ilg‘or an’analarini tiklashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan unutilgan xalq o‘yinlarini to‘plash va qayta tiklash hamda hayotga tatbiq etish barkamol avlodni voyaga etkazishda muhim ahamiyatga ega.

Etnosport estetik tarbiya vositasi sifatida yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishda muhim ahamiyatga ega. U insonning tevarak-atrofidagilar iymon-e’tiqodli va sadoqatli bo‘lishi, bardoshli va bir so‘zli bo‘lishi, sog‘lom va baquvvat bo‘lishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Etnosport bolalarning barcha a’zolari sog‘lom o‘sishini ta’minlab, ularda estetik va jismoniy barkamollikni tarbiyalaydi. Bu o‘yinlarning maqsadi avvalo, har tomonlama jismonan baquvvat, sog‘lom fikrli, mustahkam irodali, qolaversa, alp qomatli o‘g‘lonlarni, chirolyi va ko‘rkam ko‘rinishli qizlarni tarbiyalashdir.

O‘yinlar o‘zbek xalqi milliy ijodiy namunasi hisoblanib, ma’naviy boyligini o‘zida mujassamlashtirgan, atrofdagi voqelikni bilish va o‘zlashtirishning tarixiy tajribasini namoyon qiladi. O‘zbek xalq o‘yinlari o‘z tabiatiga ko‘ra, ijodiy-amaliydir. Ularda xalq badiiy madaniyatining o‘ziga xosligi, uning milliy xususiyatlari yaqqol ko‘rinib turadi. Mazkur etnosport turlarining mohiyatida xalqning madaniy boyligi, katta merosi yotadi. O‘yinlar mazmuniga e’tibor qaratsak, unda xalqning urf-odatlari, qadimiylarini, mehnat faoliyati va madaniy hayoti yoritiladi.

Yuqorida tahlillardan kelib chiqib, biz o‘zbek xalqi an’anaviy o‘yinlarini uchta guruhga bo‘ldik: 1) biror predmet asosida o‘ynaladigan o‘yinlar; 2) predmetsiz o‘ynaladigan o‘yinlar; 3) o‘rtada biror shart qo‘yib o‘ynaladigan o‘yinlar.

Qadim-qadimdan yurtimizda o‘tkazib kelingan sayil-u tomoshalarda milliy kuy va qo‘shiqlar, oqinlar aytishuvlari, shoirlar mushoiralari odamlarga estetik ozuqa, ruhiy madad bergen bo‘lsa, chavgon, kurash, uloq, kamondan otish, tosh ko‘tarish, bilak kuchini sinash musobaqlari, belbog‘li

¹ <https://lex.uz/uz/docs/-6035637>

² Содиков К. ва бошқалар. Валеология асослари (ўкув қўлланма). - Тошкент:ТДПУ, 2008. 46 б.



kurash, “tortishmachoq” kabi xalq o‘yinlari odamlarni chiniqtirib, baquvvat, epchil bo‘lishga xizmat qilgan.

Keyingi davrlarda yaratilgan o‘yinlarda garchi an’anaviy xalq o‘yinlariga xos epchillikka, mavzularga asosiy urg‘u berilsada, biroq, bu endi an’anaviy xalq o‘yinlaridagidek g‘ayritabiiylik asosida emas, balki, ob’ektivlikka asoslangan holda ifodalanadigan bo‘ldi. An’anaviy xalq o‘yinlarining ideal qahramonlari g‘ayritabiiy kuchlar madadkorligida harakat qilib g‘alaba qozonsa, yangi, zamonaviy o‘yinlarning qahramonlari mavjud tarixiy shaxslar bo‘lib, ular hozirgi voqelikka suyanib, harakat qiladi va ko‘zlangan maqsadlarga erishadi.

Foydalanaligan adabiyotlar

1. Столяров В.И. Теория и практика олимпийского воспитания // Вестник российского международного олимпийского университета. №3.(12). 2014.С-46-59.
2. Содиқов К. ва бошқалар. Валеология асослари (ўкув қўлланма). - Тошкент:ТДПУ, 2008. 46 6.
3. <https://lex.uz/uz/docs/-6035637>



ЖУРНАЛИСТИКА ЙЎЛИДАГИ
ТАДҚИҚОТЛАР

SUN'iy INTELLEKT DAVRIDA INSONIYAT: AXLOQIY VA FALSAFIY
QARASHLAR

Jartibaeva Biybisara Kuwanishbay qizi
Qoraqalpoq davlat universiteti magistranti
Telefon: +998 90 263 32 10
biybissarajartbaeva@gmail.com

ANNOTATSIYA: Maqolada zamonaviy jamiyatda sun'iy intellektning tutgan o'rni va bu texnologiyaning insoniyat hayoti, axloqiy me'yorlar, ma'naviyat va erkinlik bilan bog'liq murakkab masalalari ko'rib chiqiladi. "Ishonch" gazetasi tomonidan chop etilgan "Insoniyat ikki yo'l qarshisida turibdi" sarlavhali maqoladagi asosiy g'oyalar ilmiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Sun'iy idrok orqali shakllanayotgan yangi haqiqat, texnologik xavflar va insoniyatning bu o'zgarishlarga nisbatan pozitsiyasi keng yoritiladi.

KALIT SO'ZLAR: sun'iy intellekt, axloqiy mas'uliyat, texnotsentrizm, haqiqat, insoniyat kelajagi, algoritmik ong, madaniy xavfsizlik.

XXI asrning ikkinchi choragiga kelib, sun'iy idrok (intellekt) masalasi faqat texnologik yutuq doirasida emas, balki axloqiy, falsafiy va siyosiy masala sifatida ham ilgari surilmoqda. Global texnotsivilizatsiya sharoitida inson o'zining kimligi, vazifasi va kelajagi haqida qayta o'ylashga majbur bo'lmoqda. Shu nuqtai nazardan, 2025 yil 1 may kuni "Ishonch" gazetasi tomonidan e'lon qilingan "Insoniyat ikki yo'l qarshisida turibdi" nomli material dolzarb, og'riqli va bahsli mavzuni ilgari surdi: insoniyat ongli mavjudot sifatida o'z ixtiolariga xizmat qiladimi yoki ularning quliga aylanadimi?¹

Quyida ushbu maqoladagi g'oyalar asosida sun'iy idrok va inson o'rtasidagi munosabatlar tizimli tahlil qilinadi.

1. Sun'iy idrok – inson tafakkurining aks sadosimi yoki raqibimi?

Maqoladagi asosiy savollardan biri: texnologiya inson tafakkurining qulay vositasi bo'lib qoladimi yoki ongning alternativ shakliga aylanadimi? Sun'iy idrokning rivojlanishi, xususan generativ AI (GPT, Claude, Gemini va boshqalar) orqali nafaqat matnlar, balki axborot tizimlari, vizual kontent, hatto siyosiy muhokamalar yaratib bo'lmoqda.

Texnologik determinizm nazariyasi tarafdarları (McLuhan², Toffler³, Kurzweil⁴) bunga optimistik yondashib, inson aqlining evolyutsiyasi sifatida talqin qilishadi. Aksincha, postgumanist va madaniyatshunoslar (Harari⁵, Byung-Chul Han⁶, Shoshana Zuboff⁷) bu jarayonni insoniylikdan voz kechish, axloqiy me'yorlarning buholaydi.

Maqolada sun'iy idrok tilidan quyidagicha iqtibos keltirilgan: "Haqiqat to'lqinda g'arq bo'layapti" – bu g'oya zamonaviy informatika va axborot jamiyatni kontekstida "post-haqiqat" tushunchasi bilan bog'lanadi. Haqiqat subyektivlashtirilmoqda, algoritmlar esa bu jarayonda kuchli vositachiga aylanmoqda.

2. Texnoaxloq: sun'iy idrok va inson mas'uliyati o'rtasidagi mezonlar

Zamonaviy falsafada "technoethics" yoki texnoaxloq atamasi inson faoliyatining texnologik muhitda qanday axloqiy me'yorlar asosida shakllanishini o'rganadi. Maqoladagi sun'iy idrok "axloqiy

¹ "Insoniyat ikki yo'l qarshisida turibdi." *Ishonch* gazetasi, 2025 yil 1 may.

² Marshall McLuhan, *Understanding Media: The Extensions of Man* (New York: McGraw-Hill, 1964).

³ Alvin Toffler, *The Third Wave* (New York: Bantam Books, 1980).

⁴ Ray Kurzweil, *The Singularity is Near: When Humans Transcend Biology* (New York: Viking, 2005).

⁵ Yuval Noah Harari, *Homo Deus: A Brief History of Tomorrow* (London: Harvill Secker, 2015).

⁶ Byung-Chul Han, *In the Swarm: Digital Prospects*, trans. Erik Butler (Cambridge, MA: MIT Press, 2017).

⁷ Shoshana Zuboff, *The Age of Surveillance Capitalism: The Fight for a Human Future at the New Frontier of Power* (New York: PublicAffairs, 2019).



mezonlarni yo‘qotish xavfi” haqida ogohlantiradi. Bu fikr sun’iy idrokni shunchaki vosita emas, balki axloqiy qarorlar ta’sirchani sifatida ham ko‘rishga undaydi.

Raqamlı platformalar orqali keng miqyosda feyk axborot, manipulyatsiya, muqobil haqiqatlar yaratilmoqda. Insoniyatga “intellektual immunitet” – ya’ni kritik fikrlash, mediatahlil qilish, soxta axborotni ajrata olish qobiliyati zarur. Ayniqsa, yosh avlodga bu borada zamonaviy savodxonlik mexanizmlari o‘rgatilishi kerak.

3. Algoritmik ong va insoniy tafakkur: qarama-qarshilikmi yoki simbioz?

Maqlada ko‘tarilgan g‘oyalardan biri shuki, insoniyat texnologiyalarga berilib, o‘zining ongi, tafakkuri va axloqiy mohiyatidan uzoqlashmoqda. Shu nuqtada fransuz faylasufi Lyotar tomonidan ilgari surilgan “metanarrativlarning qulashi” nazariyasi esga tushadi – bugungi inson universal qadriyatlar, haqiqat va iyomon haqidagi yagona tasavvurdan mahrum bo‘lmoqda.¹

Sun’iy idrok esa bunday bo‘shliqni algoritmik haqiqatlar bilan to‘ldirishga urinadi.

Biroq, insoniy tafakkur ixtirochi, intuitiv, hissiy jihatdan boy. Sun’iy intellekt esa, hozircha, faqat mavjud ma’lumotlarni kombinatsiya qilishga qodir. Demak, inson va sun’iy intellekt o‘rtasidagi munosabatlар “raqobat” emas, “hamkorlik” shaklida yo‘lga qo‘yilishi kerak.

4. Madaniy xavfsizlik va insoniylikning saqlanishi masalasi

Maqlada keltirilgan fikrlardan biri “insonga xizmat qilmaydigan taraqqiyot – halokatga olib boradi” degan xulosa bilan bog‘liq. Bu degani, insoniyat texnologiyalarni ishlab chiqarishda emas, balki ularni boshqarishda mas’ul. Sun’iy idrokni insoniyat ehtiyojlariga xizmat qilishga yo‘naltirishda madaniy qadriyatlar, ijtimoiy institutlar va axloqiy nazorat mexanizmlarining roli beqiyos.

Masalan, Yaponiya yoki Janubiy Koreya tajribasida sun’iy intellekt an’anaviy madaniyat bilan uyg‘unlashgan. Bu holat texnologiya insoniyatga xizmat qilishi uchun faqat ilm-fan emas, balki madaniyat, falsafa va axloqiy nazariyalar ham zarurligini ko‘rsatadi.

Bugungi kunda insoniyat o‘z tarixidagi eng keskin burilish nuqtalaridan biriga yaqinlashmoqda. Sun’iy intellekt texnologiyalarining mislsiz sur’atlar bilan rivojlanib borayotgani nafaqat texnikaviy qulayliklarni, balki chuqur axloqiy, madaniy va mavjudotiy savollarni ham yuzaga chiqarayapti. Ayniqsa, generativ sun’iy intellekt, katta til modellari, algoritmik qaror qabul qilish tizimlari inson tafakkuri, his-tuyg‘usi va ongiga alternativ vosita sifatida maydonga chiqmoqda. Ushbu jarayonda eng muhim masala shundaki, insoniyat bu texnologiyalar oldida o‘zligini — ya’ni ongini, qadriyatlarini, axloqiy mezonlarini, ma’naviy kompasini — yo‘qotib qo‘ymasligi kerak.

“Ishonch” gazetasida chop etilgan “Insoniyat ikki yo‘l qarshisida turibdi” nomli maqlada bu muammo keng yoritiladi. Maqladagi asosiy g‘oya insoniyatning jamiyat sifatida va shaxs sifatida tanlovi borligini ta’kidlaydi: texnologiyalarga to‘liq bo‘ysunib, ularning quliga aylanishmi yoki ularni ongli ravishda boshqarib, insoniyat manfaatlariga xizmat qiladigan vositaga aylantirishmi? Bu tanlov nafaqat texnologik siyosat masalasi, balki ontologik – insonning mavjudlikdagi o‘rni, axloqiy mohiyati va kelajakdagи taqdiriga oid masaladir.

Bugun yuzaga chiqayotgan muammolar faqat innovatsiyalarni boshqarish bilan bog‘liq emas. Masala ancha chuqur – haqiqat va yolg‘on, qadriyat va manfaat, erkinlik va nazorat o‘rtasidagi murakkab muvozanatga borib taqaladi. Sun’iy idrok vositasida yaratilayotgan muqobil haqiqatlar (fake news, algoritmik manipulyatsiyalar, deepfake texnologiyalari) axborot maydonini ifloslantirib, jamiyatda ishonchsizlik va shubha muhitini kuchaytirmoqda. Bunday sharoitda “haqiqat”ni saqlab qolish, uni himoya qilish — nafaqat jurnalistlar yoki olimlar, balki har bir fuqaroga tegishli axloqiy mas’uliyatdir.

Shu sababli, ushbu murakkab holatga qarshi turishda uch tomonning uzviy hamkorligi hayotiy ahamiyat kasb etadi:

1. Ilmiy hamjamiyat — texnologiyalarni chuqur tushungan holda, ularning jamiyatga ta’siri, axloqiy chegaralari va madaniy oqibatlarini ilmiy asosda tahlil qilishi, nazariy konsepsiylar ishlab chiqishi kerak.

2. Davlat siyosati — texnologik taraqqiyotni huquqiy, axloqiy va strategik chegaralar doirasida olib borish, texnologiyalardan suiste’mol qilinishining oldini olish va fuqarolarning axborot xavfsizligini ta’minalash bo‘yicha aniq siyosat yuritmog‘i lozim.

3. Jamoatchilik — texnologiyalarni tanqidiy baholay oladigan, mediatahlilga qodir, ongli, ma’naviy yetuk fuqarolar jamiyatni shakllanishi muhim. Sun’iy idrok davrida oddiy foydalanuvchi ham jamiyatdagi haqiqat mezonlarining saqlanishida faol rol o‘ynaydi.

1 Jean-François Lyotard, *The Postmodern Condition: A Report on Knowledge*, trans. Geoff Bennington and Brian Massumi (Minneapolis: University of Minnesota Press, 1984).



Chunki haqiqatni yo‘qotish — bu nafaqat siyosiy yoki informatsion muammo, balki axloqiy inqirozning boshlanishidir. Bu inqiroz oqibatida inson o‘z qadriyatlariga, o‘z tafakkuriga va nihoyat, o‘z erkinligiga ishonchini yo‘qotishi mumkin. Bunday sharoitda texnologiyani boshqarish salohiyatini saqlab qolish — insoniyatning o‘zligini asrash deganidir.

Xulosa shuki, sun’iy intellekt va texnologik yuksalish insoniyat uchun misli ko‘rilmagan imkoniyatlar eshigini ochadi. Bu imkoniyatlar fan, tibbiyot, ta’lim, sanoat, ekologiya, axborot-kommunikatsiya va boshqa ko‘plab sohalarda ijobjiy o‘zgarishlar yaratishga xizmat qilishi mumkin. Insoniyat ilgari faqat orzu qilgan yutuqlarga erishish arafasida turibdi: kasallikkarni erta aniqlash, ekologik inqirozlarining oldini olish, resurslardan samarali foydalanish, global muammolarga intellektual yechimlar topish — bularning barchasi zamonaviy texnologiyalar vositasida haqiqatga aylanishi mumkin.

Biroq bu yutuqlar insoniyat uchun faqatgina foyda keltiradi, degan fikr biryoqlama yondashuv bo‘lib qoladi. Chunki har qanday kuch — ayniqsa, insoniyat tafakkurining mahsuli bo‘lgan sun’iy idrok kabi kuch — axloqiy va ongli nazoratdan mahrum bo‘lsa, u boshqaruvdan chiqib ketishi, insoniyatga zarar yetkazuvchi kuchga aylanishi hech gap emas. Bunday sharoitda texnologik taraqqiyot vositadan maqsadga aylanishi mumkin, ya’ni inson texnologiyalarni boshqarish o‘rniga, ularga tobe bo‘lib qoladi.

Shunday ekan, har qanday texnologik yuksalish – bu, bir tomonidan, taraqqiyotga eltuvchi qudratlari qurol bo‘lishi mumkin, biroq, ikkinchi tomonidan, insoniy qadriyatlar, axloqiy mezonlar va madaniy ong bilan uyg‘unlashtirilmagan taqdirda, bu qurol nazoratdan chiqqan xavfli kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Aynan shu sababli, texnologik rivojlanishga yondashuv mutlaqo ongli, mas’uliyatli va barqaror bo‘lishi shart. Axloqiy me’yorlar, insoniylik, madaniy qadriyatlar va ijtimoiy mas’uliyat texnologik qarorlar qabul qilishda yo‘l ko‘rsatuvchi mezon sifatida xizmat qilishi kerak.

Agar bu yondashuv inkor etilsa, sun’iy idrok va boshqa ilg‘or texnologiyalar insoniyatni insoniylikdan uzoqlashtirib, uni o‘zining ixtiolariga bo‘ysungan, ularga tobe bo‘lgan mavjudotga aylantirib qo‘yishi mumkin. Bu holat esa texnologik rivojlanish emas, balki ongli mavjudot sifatidagi insoniyatning inqirozi bo‘lib qoladi.

Shunday ekan, texnologik taraqqiyotning kelajagi insoniyatning bu imkoniyatlarga qanday munosabatda bo‘lishiga, ularni qanday yo‘nalishda rivojlantirishi va boshqarishiga bevosita bog‘liqdir.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati

1. Han, Byung-Chul. In the Swarm: Digital Prospects. Translated by Erik Butler. Cambridge, MA: MIT Press, 2017.
2. Harari, Yuval Noah. Homo Deus: A Brief History of Tomorrow. London: Harvill Secker, 2015.
3. “Insoniyat ikki yo‘l qarshisida turibdi.” Ishonch gazetasi, 2025 yil 1 may.
4. Kurzweil, Ray. The Singularity is Near: When Humans Transcend Biology. New York: Viking, 2005.
5. Lyotard, Jean-François. The Postmodern Condition: A Report on Knowledge. Translated by Geoff Bennington and Brian Massumi. Minneapolis: University of Minnesota Press, 1984.
6. McLuhan, Marshall. Understanding Media: The Extensions of Man. New York: McGraw-Hill, 1964.
7. Toffler, Alvin. The Third Wave. New York: Bantam Books, 1980.
8. Zuboff, Shoshana. The Age of Surveillance Capitalism: The Fight for a Human Future at the New Frontier of Power. New York: PublicAffairs, 2019.



MATN YARATISH VA TAHRIRLASHDA SUN'iy INTELLEKT IMKONIYATI

Abdyujanova Vazira Xusan qizi

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy

kommunikatsiyalar universiteti

"Media nazariyasи va amaliyoti kafedrasи

katta o'qituvchisi, (PhD)

E-mail: blaugranas_04@mail.ru

Annotatsiya. So'nggi yillarda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari jamiyatning deyarli barcha sohalariga kirib bormoqda. Ularning ta'siri, ayniqsa, axborot bilan ishlashda, xususan, matn yaratish va tahrirlash jarayonlarida sezilarli darajada kuchaymoqda. Sun'iy intellekt yordamida matnni tahlil va tahrir qilish, hatto avtomatik tarzda yaratish imkoniyatlari paydo bo'ldi. Ushbu maqolada matn tahririda SI texnologiyalarining imkoniyatlari va ularning amaliy qo'llanilishi yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: matn, tahrir, muharrir, sun'iy intellekt, dasturiy vositalar, "Tahrirchi.uz".

Matn keng qamrovga ega tushuncha bo'lib, odatda tilshunoslikning asosiy obyekti sifatida qaraladi. O'z o'rnida, ommaviy axborot vositalarida ham matn asosiy termin sifatida qabul qilinadi. Negaki, jamiyatga turli usul va vositalar orqali yetkazilayotgan axborot, avvalo, matn ko'rinishida yaratiladi. Bugungi kunda axborot texnologiyalarining rivojlanishi sabab matn ustida ishlash, uni yaratish va tahrirlash jarayonlari tubdan o'zgarib bormoqda. Ilgari inson aql-tafakkuri orqali amalga oshirilgan tahrir ishini endilikda sun'iy intellekt tizimlari tez, aniq va uslubiy jihatdan yuqori sifatda bajarishga qodir. Matn tahriri sun'iy intellekt tomonidan, avvalo, matnning mazmuni, grammatik tuzilishi va semantik (ma'noviy) kontekstini aniqlash orqali boshlanadi.

Matn faqat grammatik jihatdan to'g'ri bo'lishi emas, balki uslubiy jihatdan ham o'quvchi uchun qulay va tushunarli bo'lishi kerak. Sun'iy intellekt bu jihatlarni ham hisobga olgan holda matnni rasmiy yoki norasmiy uslubga moslashtirish, murakkab iboralarni soddalashtirish hamda keraksiz so'zlarni olib tashlash yoki ularning o'rnini sinonimlar bilan almashtirish kabi vazifalarni avtomatik tarzda bajaradi.

Sun'iy intellekt matn tahririni ko'p bosqichli va chuqur tahlil asosida bajaradi. U grammatik va imloviy tuzatishlardan tashqari, uslub, mazmun va o'quvchi ehtiyojini inobatga olgan holda kompleks tahrirni taqdim etadi. Bu esa nafaqat vaqt va kuchni tejash, balki matn sifati va samaradorligini oshirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Kelajakda SI texnologiyalari matn bilan ishlashda yanada aniqroq, aqli va inson intuitsiyasiga yaqin tahrir variantlarini taklif etishi mumkin deb bashorat qilish mumkin.

Bugungi kunda SI asosidagi quyidagi vositalar matn tahririda keng qo'llanilmoqda:

Grammarly – imlo va stilistik tahlil;

ChatGPT, Claude, Gemini – matn yaratish, tahrirlash, qayta yozish;

Quillbot – jumlalarni qayta yozish va soddalashtirish;

Google Docs AI Editor – avtomatik tuzatishlar va yozuv uslubini sozlash.

Ushbu vositalar katta hajmdagi matnlarni bir necha soniyada tekshiradi. Bu ayniqsa, jurnalistlar, talabalar va kontent yaratuvchilar uchun vaqtini tejash imkonini beradi. Grammarly, LanguageTool, Microsoft Editor kabi xizmatlar matndagi grammatik, imlo va stilistik xatolarni aniqlab, foydalanuvchiga bir necha tahrir variantlarini taklif qiladi. Bundan tashqari foydalanuvchi istagiga ko'ra matn rasmiy, norasmiy, akademik yoki badiiy uslubda bo'lishi kerakligi belgilanadi va SI shunga mos tahrir qiladi. Ko'plab SI vositalari foydalanuvchining tahririga munosabatiga qarab kelajakda yanada mos variantlarni taklif qilish imkoniyatiga ega.

Aytish joizki, matn tahriri — bu faqat grammatik xatolarni tuzatish emas, balki uning uslubiy, mantiqiy va semantik yaxlitligini ta'minlashdir. Zamonaviy SI vositalari matnni avtomatik tarzda tahlil qilib, uni tuzatish, soddalashtirish yoki mukammallashtirishga qodir bo'lishi bilan birga bu vositalarning muayyan kamchiliklari ham mavjud.

Sun'iy intellekt matnning ayrim qismlarini ba'zida noto'g'ri talqin qilishi mumkin. Bu, ayniqsa, badiiy yoki publisistik uslubdagi matnlarda uchraydi. Odatda standartlashtirilgan tahrirni amalga oshirgani sabab o'ziga xos fikr yoki "topilma" mulozahalarni taklif qila olmaydi. Natijada matn "quruq" yoki "sun'iy" bo'lib qoladi.

Ingliz tilida ishlab chiqilgan SI vositalari ancha mukammal bo'lsa-da, boshqa tillar, ayniqsa,



o‘zbek tilida hali yetarlicha aniqlikda ishlamaydi. Bu esa ba’zan noto‘g‘ri tahrirlarga olib kelishi mumkin. Eng asosiysi, avtomatik tarzda yaratilgan yoki tahrirlangan matnlar mualliflik masalasini noaniq qoldiradi. Bundan tashqari, SI vositalaridan haddan tashqari foydalanish fikrlash hamda yozuv madaniyatining pasayishiga olib kelishi mumkin.

Sun‘iy intellekt asosidagi vositalar bugungi kunda matn sifati, tahrir tezligi va aniqligini oshirishda katta yordam bermoqda. Biroq ularning konteksti anglash, ijodkorlik va til cheklovlar kabi kamchiliklari sabab SI vositalarini inson tafakkuri va tanqidiy nazorati bilan birgalikda foydalanish eng to‘g‘ri yondashuv hisoblanadi.

O‘zbek tilidagi matnlarni tahrir qilish uchun shu tilda yaratilgan dasturiy vositalar ham mavjud bo‘lib, bu dasturiy vositalar matn tahririni avtomatik tarzda osonlashtiradi, har bir foydalanuvchiga oson yozish, tahrirlash, formatlash, istalgan dizaynni taklif qilish imkoniyatlarini beradi.

Tahrirchi.uz – o‘zbek tilidagi matnlar uchun tarjima va tahrir qilish imkoniyatlarini taqdim etuvchi platformadir. U o‘zbek tiliga ixtisoslashgan, o‘zbek tilidagi grammatik, orfografik va uslubiy xatolarni aniqlashda yordam beradigan ilova bo‘lib, onlayn tarzda ishlaydi. Tahrirchi.uz (Tilmoch) sifatida turkiy tillar uchun maxsus yaratilgan sun‘iy idrok hisoblanib, o‘zbek, qozoq va qoraqolpoq tillariga tabiiy va sifatlari tarjima qila oladi. Sinovlardan o‘tganidan keyin mutaxassislar “Tilmoch”ni boshqa tarjimonlardan ikki hissa ustun deya baholashgan.

Bu platforma orqali matnlarni o‘zbek tiliga tarjima qilish, imlo xatolarini topish, sinonim so‘zlarga almashtirish va yozuv sifatini optimallashtirish mumkin. Bundan tashqari Tahrirchi.uz yuqori sifatda tarjima va tahrir imkoniyatlariga ega bo‘lib matnlar ustida ishlovchilarga yordam berish, vaqtini tejash, ishni osonlashtirish maqsadida yaratilgan.

Tahrirchi.uz mobil ilovalar, veb-sayt orqali erkin foydalanish uchun mo‘ljallangan. Ushbu platforma orqali har qanday matnni oson va sifatlari tarjima qilish, matn stili va matn ma’nosini ixtiyorliy tarzda optimallashtirish mumkin. Matnlarni avtomatik aniqlab tarjima qiluvchi texnologiyalar, tushuntiriish algoritmlari va xalqaro tarjimalardan samarali foydalangan. Bundan tashqari sohalarga tegishli bo‘lgan terminlar, tarjima, yozuvning avtomatik yozilishi, oddiy va tushunarli dastur interfeysi foydalanuvchilarga matnni osongina tahrir qilish imkonini beradi.

Tahrirchi.uz dasturi matn tahririni avtomatlashtirishda samarali vosita sifatida e’tirof etilgan. Biroq, dastur matnning chuqur semantik ma’nosini to‘liq anglamasligi, ijodiy uslubni saqlashdagi cheklovlar va o‘zbek tilining murakkabliklarini hisobga olmaslik kabi kamchiliklarga ega. Shuning uchun, Tahrirchi.uz dasturidan foydalanishda muharrirning nazorati muhim ahamiyatga ega.

Hozirda o‘zbek tilida matn tahriri bilan shug‘ullanuvchi bir nechta foydali vositalar mavjud. Tahrirchi.uz sohaga ixtisoslashgan eng ilg‘or platformalardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, ImloBot, Tilim.uz yoki ZiyoNet kabi dasturiy qurilmalar ham o‘zbek tilining imlo qoidalariga asoslangan lug‘aviy va grammatik tahlil, imlo va so‘z tekshiruvida foydalanuvchilarga ko‘plab imkoniyatlarni taqdim etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Teshaboyeva D.M. va boshq. Jurnalistik. Medialingvistika va tahrir. III jild. T.: O‘zbekiston, 2019. 522 b.
2. Tohirov Z.T. Adabiy tahrir. Darslik. – T.: Tafakkur bo‘stoni, 2012. – 320 b.
3. Abdyujanova V. Publisistik matn tahririda muharrir mahorati masalalari. Fil.fan.bo‘y.fal.fan. dok. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss.avtoreferati. Toshkent, 2024.



ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ
ТАДҚИҚОТЛАР

“GAKNING TARJIMA NAZARIYASI VA AMALIYOTI”

Mamatova Farog‘at Komil qizi

Samarqand davlat universiteti Kattaqo‘rg‘on filiali talabasi

Telefon raqami: +998 93 284 28 76

E-mail: mamatovafarogat97@gmail.com

Ro‘ziyeva Nasiba Kenjayevna

Samarqand davlat universiteti Kattaqo‘rg‘on filiali o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola Vladimir Gregorovich Gakning tarjima nazariyasi va amaliyotiga oid ilmiy qarashlarini chuqur tahlil qiladi. Maqolada Gakning tarjimani til birliklarini oddiy almashtirish deb emas, balki murakkab axborot va ma’no uzatish jarayoni sifatida talqin qilishi yoritiladi. Gak tarjimada semantik tenglikni, stilistik moslikni va pragmatik ekvivalentlikni saqlashni asosiy tamoyillar sifatida belgilaydi. Maqolada Gakning tarjimada semantik mazmunni, madaniy konnotatsiyalarni va stilistik xususiyatlarni to‘g‘ri uzatish usullari, badiiy va ilmiy matnlarni tarjima qilishdagi yondashuvlari hamda uning nazariy qarashlarining zamonaviy tarjimashunoslikdagi ahamiyati bataysil ko‘rsatilgan. Maqola yakunida Gakning tarjima nazariyasi va amaliyoti bo‘yicha yondashuvlarining O‘zbekiston tarjimashunosligi va ta’lim tizimiga ta’siri tahlil qilinadi.

Annotation: This article provides an in-depth analysis of Vladimir Gregorovich Gak’s views on translation theory and practice. The article explores Gak’s approach to translation, not as a simple substitution of linguistic units, but as a complex process of conveying information and meaning. Gak emphasizes the importance of maintaining semantic equivalence, stylistic consistency, and pragmatic adequacy in translation. The article examines his methods for accurately transmitting semantic content, cultural connotations, and stylistic features, focusing on his approaches to translating literary and scientific texts. It also discusses the significance of Gak’s theoretical insights for modern translation studies. In conclusion, the article assesses the impact of Gak’s theories on translation studies and education in Uzbekistan.

Kalit so‘zlar: V. G. Gak, tarjima nazariyasi, semantik tenglik, pragmatik ekvivalentlik, stilistik moslik, O‘zbekiston tarjimashunosligi.

Keywords: V. G. Gak, translation theory, semantic equivalence, pragmatic adequacy, stylistic consistency, Uzbek translation studies.

Vladimir Gregorovich Gak tarjima nazariyasi va amaliyoti bo‘yicha zamonaviy tilshunoslikda muhim o‘rin tutadi. Uning tarjimashunoslikka oid ilmiy yondashuvlari va tadqiqotlari tarjima jarayonining nazariy asoslarini ishlab chiqishga va amaliyotda qo‘llanilishiga katta hissa qo‘srgan. Gak tarjima jarayonini faqat til birliklarini almashtirish deb emas, balki semantik, pragmatik, stilistik va madaniy omillarni hisobga olgan holda axborot va ma’no uzatish jarayoni sifatida talqin qiladi. Gakning tarjima nazariyasidagi asosiy yondashuvlardan biri semantik tenglikni ta’minlashdir. U tarjimada faqat lug‘aviy ma’noni emas, balki axborotning mantiqiy va kontekstual mazmunini ham saqlashni muhim deb hisoblaydi. Masalan, rus tilidagi “бить баклушки” iborasi o‘zbek tiliga “bekorchi bo‘lish” yoki “ishsiz yurish” tarzida tarjima qilinadi, lekin bu frazeologik birlikning madaniy konnotatsiyasi ham inobatga olinishi kerak. Gak tarjimada stilistik moslikka katta ahamiyat beradi. U turli uslubiy darajadagi matnlarni tarjima qilishda ularning uslubiy o‘ziga xosligini saqlashni tavsiya qiladi. Misol uchun, badiiy matnlarni tarjima qilishda obrzlilik, ifodaviylik va emotsiyonal ta’sir saqlanib qolishi kerak. Gak, shuningdek, tarjimada pragmatik moslikni ta’minlashni ham nazarda tutadi. Ya’ni, tarjima qilingan matn maqsadli auditoriyaga mos bo‘lishi, uning madaniy va ijtimoiy foniga muvofiq bo‘lishi kerak. Bu, ayniqsa, reklama, ilmiy maqola yoki o‘quv qo‘llanmalari tarjimasida dolzarbdir. Gakning tarjima nazariyasida semantik tenglik va pragmatik moslikdan tashqari, stilistik moslik ham muhim o‘rin tutadi. Stilistik moslik deganda, Gak tarjimada matnning stilistik xususiyatlarini, ya’ni rasmiy, norasmiy, badiiy yoki ilmiy uslubni saqlashni nazarda tutadi. Masalan, ilmiy maqola tarjima qilinayotgan bo‘lsa, uning ilmiy terminologiyasi va ifoda uslubi



saqlanishi kerak. Badiiy matnlar esa o‘z obrazliligi va emotsional ta’sir kuchini saqlashi zarur. Gak tomonidan ishlab chiqilgan tarjima kurslari va darsliklari tarjimashunoslikda nazariy asos sifatida qo‘llanilmoqda. Uning “Tarjima kursi” asari ayniqsa talabalar va mutaxassislar uchun muhim manba bo‘lib, unda tarjimaning nazariy tamoyillari, amaliy metodlari, tarjima jarayonidagi xatolar va ularni bartaraf etish yo‘llari yoritilgan. Gakning tarjima nazariyasidagi yondashuvlar zamonaviy o‘quv metodikasida ham keng qo‘llaniladi. Jumladan, xorijiy tillarni o‘qtishda semantik va pragmatik tenglik, madaniy moslik, stilistik xususiyatlarni tushuntirish orqali talabalar tarjima jarayonini chuqurroq anglaydilar. Uning yondashuvlari tarjima sifatini oshirish, madaniy tafovutlarni to‘g‘ri aks ettirish va original matn mazmunini saqlashga xizmat qiladi. Shuningdek, uning semantik va pragmatik yondashuvlari tarjima jarayonida ma’no va mazmunni to‘g‘ri va aniq uzatishga yordam beradi. Gakning ilmiy yondashuvlari nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb bo‘lib, hozirgi tarjima amaliyoti va o‘quv jarayonlarida keng qo‘llanilmoqda. Vladimir Gregorovich Gakning tarjima nazariyasidagi yondashuvlar nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham o‘zining ahamiyatini saqlab qoladi. Gak o‘z asarlarida tarjima jarayonining murakkabligini va uning ko‘p qirrali ekanini ta’kidlaydi. U tarjimashunoslikni faqat lingvistik tahlilga asoslangan soha deb emas, balki madaniy, psixologik va pragmatik omillarni hisobga oladigan ilmiy yo‘nalish deb talqin qiladi. Gakning tarjima nazariyasida “semantik tenglik” tushunchasi markaziy o‘rinda turadi. Bu degani, tarjima jarayonida so‘zlarning lug‘aviy ma’nosini emas, balki ular ifodalayotgan axborot va mazmunni saqlash muhimdir. Misol uchun, rus tilidagi “вставлять палки в колёса” iborasi so‘zma-so‘z tarjimada “g‘ildiraklarga tayoq tiqmoq” degan ma’noni bildiradi, lekin bu frazeologik birlilikning mazmuni “to‘sinqinlik qilmoq” ma’nosini ifodalaydi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Gak, V. G. (1996). Kurs perevoda: uchebnoye posobiye dlya studentov. Moskva: Flinta – Nauka.
2. Gak, V. G. (2000). Vvedeniye v sopostavitelnuyu stilistiku. Moskva: Flinta – Nauka.
3. Gak, V. G. (2003). Yazyk i kul’tura: problemy i poiski. Moskva: Slovo.
4. Baker, M. (2018). In Other Words: A Coursebook on Translation. London: Routledge.



ULUG'BEK HAMDAM HIKOYALARIDAGI INDIVIDUAL O'XSHATISHLAR

Muxiddinova Durdonna Odilovna
Sharof Rashidov nomidagi SamDU
1-kurs talabasi
Tel: +998992395041

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada qalami o'tkir ijodkor Ulug'bek Hamdamning hikoyalari tahlil qilingan bo'lib, ulardag'i yozuvchining o'ziga xos o'xshatishlari va ularning sharhlari keltirilgan. Shu bilan birga hikoyalardagi asosiy g'oyalar ochib berilgan.

Kalit so'zlar: individuallik, hikoya, dunyo, bozor, nson, binafsha, yor, jannat, pillapoya, umr.

ABSTRACT. This article provides an in-depth analysis of the stories of the brilliant writer Ulugbek Hamdam, highlighting the writer's unique analogies and their interpretations. At the same time, the main ideas of the stories are revealed.

Key words: individuality, story, world, bazar, human, violet, valentine, jannah, staircase, life.

KIRISH. O'xshatishlar badiiy adabiyotimizdagi eng muhim talablardan biri bo'lib, asosan, asar tasvirini yorqin, bo'yoq dor va tushunarli bo'lishini kafolatlovchi vosita hisoblanadi. O'zbek tilshunosligida M. Mirtojiyev,

S.Karimov, M.Mukarramov, A.Rustamov, N. Mahmudov, D. Xudoyberganova, R. Qo'ng'urov kabilar tomonidan o'xshatishlar to'g'risida tadqiqotlar olib borilgan. Bugungi kunga kelib yozuvchi va shoirlarning badiiyatida qo'llangan o'ziga xos uslub va o'xshatishlarni alohida o'rghanish masalasida ilmiy ishlar olib borilmoqda. Shu bois, o'xshatishlarning uslubiy xoslanishi, ularning turlari, foydalanish qoidalari muhim hisoblanadi. Ularning badiiy adabiyotdagi o'rni, lingvistik tabiatini tilshunosligimizda ma'lum darajada o'rghanilgan. Professor S.A.Karimov: " Ko'plab misollar tahlili badiiy asardagi obrazlar dinamikasida insonlarni, ularning fazilatlarini, bugun borliqdagi narsa va hodisalarni bir-biriga qiyoslash juda muhim vosita ekanligini ko'rsatadi. Ana shu taqqoslashlar natijasida kutilmaganda go'zal obrazlar shakllanadi, tilimizning yangi-yangi imkoniyatlari namoyon bo'ldi", deya ta'kidlagan.¹ O'xshatishlarni ilk marotaba o'zbek tilshunosligida olim

M. Murakkamov turg'un va individual o'xshatishga ajratgan. Individual o'xshatishni "yozuvchining mahorati va ularda emotsiyal-ekspressivlik yaqqol ko'rindi" deb ta'riflaydi.² Shuningdek, tilshunosligimizda idiosistol tushunchasi, ya'ni individual-muallif o'xshatish uslubini S. Umirova ilmiy asosda tadqiq etgan. O'xshatishlar to'rt komponent: o'xshatish subyekti, o'xshatish etalon, o'xshatish asosi va o'xshatish vositasidan iboratligi ham ta'kidlanadi.

O'zbek adabiyoti zabardast vakillari ham o'z asarlarida o'ziga xos o'xshatishlardan keng foydalanishadi. Jumladan, Ulug'bek Hamdam hikoyalardagi individual o'xshatishlar, badiiy g'oyalar boshqa adiblarnikidan farq qiladi. Uning hikoyalarda inson shunchaki umr kechirmaydi, balki, dunyo bilan munosabat, hislar juda nafis va g'ayrioddiy tasvirlanadi. Asardagi qahramonlar reallikdan noreallikka tushib qolishadi. Yozuvchi bu bilan shovqinli dunyo va inson qalbi uyg'un bo'la olmasligini, dunyo esa insoniyatga vaqtinchalik yashash uchun berilganini qayta-qayta uqtiradi. Quyida buning isboti sifatida ayrim hikoyalardagi o'ziga xos o'xshatishlarni tahlil qilamiz.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Ijodkorning "Yaxshiyam sen borsan" hikoyasida bosh qahramonlar -- Yusuf va Zulayho bozorga boradilar. Bozorning gavjumligidan hayratda qolishadi. "Bozor ham naq dunyoning o'zginasi edi. Kirdingmi -- ko'nglingni

berasan! Kirdingmi -- chiqqinq kelmaydi! Kirdingmi – sal bo'lmasa, bozorning o'ziga aylanasan! " deya ijodkor tasavvufiy o'xshatish qilganini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni dunyo to'g'ridan to'g'ri bozorga o'xshatilgan. Dunyoga keldikmi dunyo bilan ko'nglimizni bog'laymiz, dunyonи tark etgimiz kelmaydi kabi mazmun yuzaga keladi. Hikoya davomida qahramonlar bu bozordan chiqishni xohlaydilar va to'rt tomondan chiqib ketish yo'lini so'raydilar. "Chiqishni bilmadim-u, Kirish, ana hamma joyda" , -deydi odamlar. Ya'ni dunyoga kelish chiqishdan ancha osonroqdir. Yusuf hamda Zulayho xuddi hamma odamlar singari buni anglashmaydi va bir samovarchi choldan yordam so'rashganda, Chiqish faqat qabriston orqali ekanligini aytadi. Asar syujeti davomida ayollarning

¹ Каримов С. А. Бадий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. Укув кулланмаси. - Самарканд: СамДУ нашриёти, 1994. - б. 8.

² Мукаррамов М. Узбек тилида ухшатиш. - Тошкент: Фан, 1976. - б. 28.



mol dunyoga hirs qo‘yishga moyilligini Zulayho timsolida namoyon etiladi. Mansabparastlik esa Yusuf obrazi orqali ochilgan. Chol esa donishmand mo‘ysafid, chunki u insonlarni to‘g‘ri yo‘lga boshlaydigan, haqiqatga olib borishda yordam beradigan mo‘min insonga o‘xshatilgan.

Dunyo haqida gapirganda, biz hayotning murakkabligi va kengligini tan olamiz, shu bilan birga uning ichida ajralmas qismimizni qabul qilamiz. Ogahiy o‘zining “Dahr uyi bunyodkim...” g‘azalida dunyonи omonat binoga o‘xshatadi. Ahmad Yassaviy ham dunyonи bozorga o‘xshatgan, ammo Ulug‘bek Hamdam undan faqat qabriston, ya’ni vafot etgachgina bu umr bozoridan chiqib ketish mumkinligini nazarda tutgan.

“Binafsha” hikoyasini tahlil qiladigan bo‘lsak, ijodkor binafsha gulini quyidagicha ta’riflaydi: “... shu gulning nozikkina yelkalariga ortilgan ulkan bahorni ko‘rib qoldi”. Yo‘lda binafshani ko‘rgan qahramon uni xuddi bahor faslini o‘z yelkasida ko‘tarib kelganga o‘xshatadi. Binafsha gulining yelkasi bo‘lmaydi va u bahorni ko‘tarib ham kelolmaydi. Yozuvchi metafora usuli orqali nafis o‘xshatishni keltirgan.

Fransiyada qadimdan binafsha guli qirollar hokimiyatining ramzi bo‘lib kelgan. Shunga qaramay tinchlantiruvchi ohanglari bilan binafsha gullar ham xotirjamlikni, ham tinchlikni anglatadi. Asardagi go‘zal yorning ismi ham Binafsha bo‘ladi, uning kulgulari esa “kulugulari kamalakdek tovlanadi, faqat ranglari tovush ko‘rinishida!” deya ta’rif beradi. Ma’shuqaning kulgusi kamalakka qiyoslanadi. Jamoli esa Jannatga o‘xshatiladi: “Seni uchratgunimga qadar ichimda Jannat sog‘inchi kezib yurardi, senga duch kelganimdan beri mening Jannatga ehtiyojim qolmad!” , yani sening gul yuzing misli Jannatdir, bas men o‘zga Jannatga ehtiyojmand emasman, deydi. Adabiyotshunos Rahimjon Rahmat Ulug‘bek Hamdam ijodini o‘rganish davomida uning badiiy mahoratiga tan bergenini ta’kidlaydi, zero ushbu hikoyada ham metafora usulidan foydalanganini ko‘rishimiz mumkin.

Adibning yana bir muhokamalarga sabab bo‘lgan “Pillapoya” hikoyasida pillapoyani insoniyat hayoti davomiyligi, umr yo‘liga mengzagan. Hamma mana shu pillapoyalardan yurib yuqoriga intiladi, murod-maqsadiga erishadi. Yoki buning aksi kimlardir o‘sha umr zinalaridan pastga tushib boraveradi. “Xudo degancha pillapoya bo‘ylab oldinga – yuqoriga talpindim...” Inson umri ana shunday siklda davom etadi. Pillapoyani yana hayotiy tajribaga o‘xshatamiz, uning har bir pog‘onasi insonlarning hayot mashaqqatlaridan orttirgan tajribasi, xulosasi va bilimni oshirish bosqichlarini ifodalaydi.

Filolog taddiqotchilar Ulug‘bek Hamdamning mahoratini e’tirof etishadi. Bu borada adiblik va shoirlik bilan birga adabiyotni ham qo‘shib olib borayotgan ijodkor o‘z individualligi haqida aytadi: “ Nahotki, adabiyotshunosligimizda o‘z yo‘limiz yo‘q? -- degan savol tug‘iladi. Sharq dunyoqarashi diniy, hududiy va milliy qadriyatlarga suyangan o‘zimizning adabiy-tanqidiy tafakkurimiz nahotki korimizga yaramasa? Agar hammasini chetdan -- rus, nemis, ingliz, fransuz, ispan singari ilg‘or mamlakatlarning adabiyotshunosligidan “qarz” olishda davom etaversak, oqibatda nima bo‘ladi? “ Shu bois ham Ulug‘bek Hamdam o‘z ijodini boshqalarnikiga o‘xshamaydigan tarzda yaratishni tanlagan.

XULOSA Ijodkor asarlarining bosh g‘oyasi bu o‘zlikni anglash, nafsni yengish, o‘tkinchi umrning soxta go‘zallik va boyliklariga hirs qo‘ymaslikka undashdir. Asarlarning bosh markazida insonning o‘zi turadi. Xulosa qilib aytganda, adibning hikoyalari bir o‘qilganda hammaga ham tushunarli bo‘lavermaydi. Uning mohiyatini anglab yetish uchun insondan kuchli tafakkur, idrok va mahurat kerak bo‘ladi. Hikoyalardagi individual o‘xshatishlar ramziy-majoziy ma’noda kelgan bo‘lib olamdagisi asl tushunchalarni mos timsollar orqali tushuntirib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari - T.: O‘zbekiston, 2002.
2. Hamdamov U. Binafsha // O‘zbekiston adabiyoti san’ati, 2014. - son 39
3. Hamdamov U. Pillapoya // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati, 2011.
4. Sulton I. Adabiyot nazariyasi - T.: O‘qituvchi nashriyot - Matbaa ijodiy uyi, 2005.
5. <https://w.w.w. ziyouz.com>.



AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY TA'LIM SOHALARIDA TAHLILIIY SOLISHTIRISH METODINING AHAMIYATI

Xakimbayeva Aziza Qalandarovna,
Xorijiy til va adabiyoti №1 fakulteti talabasi
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'quvchiga mavzuni har tomonlama aniq tushuntirib berish uchun eng ko'p qo'llaniladigan va samara beradigan metodlar haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, metodning asosiy maqsadi, bosqichlari, afzallikkali va boshqa qaysi jarayonlarda foydalanishi yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: Interaktiv metod, comparative analysis, bilim ombori, faol subyekt, tanqidiy fikrlash, pedagogik yondashuv.

Hozirda butun dunyoda ta'lif sohasiga katta e'tibor qaratilayotgan bir davrda o'qitishning turlicha yangi usullari paydo bo'layotgani hech kimga sir emas. Buning asosiy sabablaridan biri, har qanday bilimni olishda tezlikni oshirish. Bundan tashqari, tahliliy solishtirma metodi asosida samarali faoliyat olib borish bilan birga o'quvchida tanqidiy fikrlash qobiliyatini kuchaytirish yordamida ikki yoki undan ortiq tushuncha, qarash, yondashuv yoki muammo solishtiriladi, ularning o'xshashliklari va farqlari tahlil qilinadi, har birining afzallik va kamchiliklari ko'rsatiladi. Natijada o'quvchi o'z fikrlarini bildirib boshqalarning fikrini ham solishtirib o'zi uchun xulosa chiqaradi. Tahliliy solishtirma (comparative analysis) metodi – ilmiy izlanishlar, adabiyotshunoslik, sotsiologiya, ta'lif, falsafa va boshqa ko'plab sohalarda qo'llanilgan kuchli usuldir. Metodning asosiy maqsadi quyidagilarda ko'rshimiz mumkin. O'quvchiga mavzuni har tomonlama tushuntirish (yangi mavzuni yoki ma'lumotni har bir o'quvchiga o'rgatish juda mushkul vazifalardan hisoblanadi. Ayniqsa, mulohazali mavzular juda muhim bo'ladi va bundagi asosiy vazifa uni o'quvchiga mukammal tarzda tushuntirib berishdir). Qarama-qarshi yoki o'xshash yondashuvlarni taqqoslab, qaysi biri afzal yoki samaraliroq ekanini ko'rsatish (har bitta mavzuni aniq anglab olishda taqqoslash eng yaxshi usuldir. Bu jarayonda har bir qarashning salbiy va ijobiy tomonlari aytib o'tiladi va xulosa chiqarish osonlashadi). Mustaqil fikrlashni rivojlantiradi (hozirgi kunda ko'plab insonlarda mustaqil fikrlash qobiliyati yo'qolib bormoqda. Ehtimol, buning asosiy sabablaridan biri sun'iy intellektga qaramlikdir. Ammo bu metod orqali biz o'sib kelayotgan yosh avlodda shaxsiy fikrlash qolbiliyatini yuksaltirishimiz mumkin).

O'zining har bir izlanishlari va pedagogik yondashuvlarida tahliliy solishtirish metodini o'rganib, tajribada ko'p bora qo'llab ko'rgan Amerikalik faylasuf, pedagog, psixolog va jamiyatshunos – John Dewey fikricha "...o'quvchi passiv bilim oluvchi emas, balki bilim yaratuvchi faol subyektdir". Bu metod esa bu jarayonda asosiy vazifani bajaradi. U metodni amalda qo'llab, o'quvchi faolligi va mustaqil fikrlashni ustun qo'ygan. Boshqa tadqiqotchilar ham o'quvchi bilim ombori emas, balki bilimni yaratishda faol ishtirot etuvchi shaxs sifatida ko'riliishi tarafdir. John Dewey rasmiy "tahliliy solishtirish" metodini alohida atama sifatida kiritmagan bo'lsa-da, uning butun pedagogik faoliyati aynan shu metod asosida qurilgan. U: Mavjud metodlarni tahlil qilgan, ularni tahliliy solishtirish usuli orqali tahlil qilagan, va nihoyat, shu metod orqali yangi yondashuvlarni taklif qilgan.

So'rovnomaga o'tkazilganda shu aniq bo'ldiki, qo'llagan insonlar quyidagicha fikrlarni aytib o'tishdi: "Taqnidiy fikrlashni rivojlantiradi", "Muammolarga chuqur yondashishga yordam beradi", "Ikki yoki undan ortiq tushunchani tahlil qiloshni osonlashtiradi", "Obyektiv qaror qabu qilioshga asos yaratadi" va boshqa shunga o'xshash fikrlarni bayon qilishdi. Bunga qo'shimcha ravishda aytal olamanki, u izlanishga, tadqiqotlar bilan yuzlashishga, ularni tahlil qilishga undaydi. Qolaversa, fikrlarni dalil va misollar bilan asoslash imkonini beradi, bu esa to'g'ridan-to'g'ri ilmiy, dunyoviy biliomlarni ham o'rganib chiqishni talab qiladi. O'rganuvchi tafakkuri o'sadi, natijada yuzaki yondashuvdan saqlaydi. Misol uchun, o'quvchi uning har bir gapini eshitib, tahlil qilib turgan tengdoshlari orasida xato qilmaslik uchun har bir ma'lumotni yetti o'lchab, bir kesgan holda bayon qiladi. Har xil nazariyalarni solishtirib, eng maqbulini tanlash imkonini beradi va nazariyalarni solishtirish vaqtida diqqat jamlanadi. Shuningdek, bu metod qo'llanilayotgan vaqtida o'quvchida nutqiy rivojlanish jarayoni va tezlik ham oshadi. Sababi g'oya miyada shakllangan zahoti bahsda aktiv bo'lishni xohlagan o'quvchi o'z fikrini tez va ravon nutq orqali aniq aytishga harakat qiladi. Bundan tashqari, so'zlashuvda ko'p yo'l qo'yiladigan uslubiy yoki so'z qo'llashga doir xatoliklarga yo'l qo'ymaslikka urinadi.

Zamonaviy davrda yashar ekanmiz, bilim berishning ham zamonaviy usullaridan foylanishimiz lozim. Zero bu metodlar bilim berishda faqat yaxshilik yo'lida xizmat qiladi va nafaqat shaxsiy, balki



jamoaviy rivojlanishga olib keladi. Masalan, aynan tahliliy solishtirish metodi davomida o'quvchilarda guruh bilan ishlash ham yaxshilanadi. Ular o'zлari bilan bir xil fikr yuritayotgan tengdoshlari bilan birlashib, oradagi munosabatni yanada mustahkamlab olishadi. Boshqa tomondan olib qaraganda, jarayon davomida bilim beruvchining o'zi ham ko'plab yangiliklarga duch keladi.

Xulosa qilib aytganda, mavzularni tushuntirishda yoki o'quvchiga istalgan mavzudagi asosiy fikrni aniqlashtirib berishda tahliliy solishtirish metodi juda qo'shladi. Tadqiqot va amaliyotlar shuni ko'rsatadiki, bilim berishda bu metoddan foydalanganda ilm oluvchi har tomonlama yuksaladi hamda eng asosiyalaridan biri o'quvchida darsga nisbatan qiziqishni, bahslarda fikr bildirish orqali dunyoqarshni va shu bilan birga tez o'zlashtirish jarayonini rivojlantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Paulo Freire "Pedagogy of the Oppressed" (1970) 2-bobi "The 'Banking' Concept of Education as an Instrument of Oppression – Its Presuppositions – A Critique; The Problem-Posing Concept of Education as an Instrument for Liberation – Its Presuppositions".
2. John Dewey "Democracy and Education" (1916) 4-bobi "The Relation of Education to Philosophy" va 5-bobi "The School and Social Progress".
3. Jurnal "Educational Philosophy and Theory" (2025) <https://www.tandfonline.com/loi/rept20>
4. Jurnal "Academic Journal of Educational Research (AJER)" <https://ajeruz.com/uz/>



TOPONIMIKADA AGRONIMLARNING NAZARIY TAHLILI

Xakimbayeva Ozoda Kalandarovna

Umumiy tilshunoslik kafedrasasi o‘qituvchisi

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

E-mail: @hakimboyeva@zoda@gmail.com

Tel: +99890 904 34 42

Annotatsiya. Toponimika haqida so‘z borar ekan, bugungi kunda nafaqat O‘rta Osiyo topominikasini o‘rganish jadal sur’atlar bilan olib borilganligini, balki Yevropa topominikasi ham o‘rganilishda, tadqiq qilinishda O‘rta Osiyo topominikasidan qolishmasligini bilib olishimiz mumkin. Bilamizki, toponimika keng qamrovli soha hisoblanadi. Shu boisdan, uning hamma qismlari ham keng tadqiq qilinmaganligi bugungi tadqiqotimizning yaralishiga sabab bo‘ldi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Kalit so‘zlar: Toponimika, agronim nom, nazariy tahlil, topominik birlik, atoqli ot, tilshunoslik, ingliz tili, o‘zbek tili, semantik xususiyat, geografik obyekt, gibrild nom, xorijiy nom.

Toponim so‘zi (yunoncha topos – joy, makon, onima – nom, ism) – har qanday geografik obyektning atoqli ot, nomi, jumladan, gidronim, oykonim, oronim, urbanonim, agronim va boshqalardan iborat bo‘ladi [1; 10]. Toponimlarni o‘rganish zamonaviy tilshunoslikda katta qiziqish uyg‘otadi, chunki shahar nomlari o‘z shakllarini o‘zgartirishda davom etmoqda va bunga turli omillar ta’sir etmoqda. Shu boisdan, mazkur tadqiqotda nafaqat O‘rta Osiyo, jumladan O‘zbekiston hududidagi topominik birliklar hisoblangan agronimlar tadqiq qilingan, balki Yevropaning, jumladan Ingliz xalqining topominikasining bir qismi hisoblangan agronimlar haqida ham so‘z boradi.

Nomlar ming yillar davomida turli tillarda yaratilgan va shunday bo‘lgan inson faoliyatining turli sohalari bilan bog‘liq. Toponimlarning ayrim lisoniy shakllari asta-sekin shakllangan, boshqalar ma’lum bir obyekt uchun yaratilgan, ko‘plari esa boshqasidan meros bo‘lib qolgan edi. Bu hududda yashagan yoki bu millatdan so‘z qarz olgan xalqlarning ba’zilari bugungi kungacha saqlanib qolgan, ayrimlari esa yo‘qolib ketgan, chunki o’sha paytda mavjud bo‘lgan qadimgi so‘zlarning aksariyati yo‘qolganligi sabab bo‘la oladi. Bular haqida ko‘plab yozma manbalarda qayd etilgan.

Bugungi kunga qadar Angliya topominiyasi strukturaviy va etimologik jihatdan juda yaxshi o‘rganilgan. Bu ko‘p asrlar davomida ko‘plab tillar ta’siri ostida rivojlangan yaxlit tizimdir. Mamlakatning zamonaviy xaritasi ko‘p jihatdan yagona davlatni shakllantirish jarayonini aks ettiradi.

Angliyadagi toponimistlar uchun diaxronik tadqiqotlar ustunlik qiladi.

Ingliz topominik jamiyati vakillari D. Dodgson, K. Kemerov, A. X. Smit nomlardagi asl etimoniyarlarni aniqlash orqali etimologik tasniflash asosida ko‘plab lug‘atlar yaratgan. Bujarayonda har bir topomin kelib chiqqan paytdan boshlab ko‘rib chiqiladi, bu esa rivojlanishining turli bosqichlarida evolyutsiya jarayonida morfologik o‘zgarishlarni kuzatish imkonini beradi.

Tarixdan ma’lumki, Ingliz tilining rivojlanish bosqichlari qadimgi, o‘rta va yangi bosqichlarga bo‘linadi. Buyuk Britaniya va ingliz tili ketma-ket immigrantlar oqimiga duch keldi. Rimliklar, Anglosakslar, Vikinglar, Normanlar kabi til taraqqiyoti va joy nomlarida har birining nomi aks etgan bosqinchilik tarixiga ega desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Tilning lug‘at boyligini yaratish jarayoni va so‘z yasalish manbalarini o‘rganish etimologiyaning predmeti hisoblanadi. Etimologiya bilan shug‘ullanuvchi tilshunoslar eng qadimgi davrlardan, yozuvning tug‘ilishidan boshlab, til tarkibini iloji boricha aniqroq tiklashni maqsad qilishgan. Etimologik tahlil ma’lum bir so‘z paydo bo‘lgan so‘z yasalish modelini aniqlashga qaratilgan. Usullar orasida etimologiya genetik tahlil va qiyosiy tarixiy yondashuvni farqlashga moyil bo‘lib, ular ko‘pincha birgalikda qo‘llaniladi. Etimologiya tilshunoslikning bir tarmog‘i sifatida boshqa fanlar bilan ham bog‘liq. Bular: leksikologiya, morfologiya, semantika, dialektologiya va hk fanalarni kiritish mumkin. Etimologiya ma’lumotlarni taqdim etadi, ularsiz nutqning tarixiy-semantik rivojlanishi davrida yuzaga kelgan o‘zgarishlarni aniqlash qiyin. Etimologiya usullari yozma tarix hali mavjud bo‘limgan xronologik darajalargach tadqiq qilishga imkon beradi [8; 399]. Ushbu fan o‘z ma’lumotlari bilan insoniyat tarixi va arxeologiyasidan olgan ma’lumotlarni to‘ldiradi. Aksariyat topominlar ko‘p asrlar oldin paydo bo‘lgan. Shuning uchun geografik nomlarni quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin:

1. Ma’lum bir xalq yoki ma’lum bir hududga xos bo‘lgan nom.



2. Ma'lum bir xalq tilidan kelgan ism; lekin bilan vaqt o'tishi bilan o'zgartirilgan yoki qayta ko'rib chiqilgan.

3. Boshqa tildan kirib kelgan va ushbu hududda mavjud tilning fonetik xususiyatlari va me'yorlariga moslashgan nomlar.

4. Xorijiy nomlar.

5. Gibrid nomlar [2; 432].

Semantik xususiyatga ko'ra tasniflashda geografik obyektlarning nomlari ularni hosil qilgan so'zlarning ma'nosiga ko'ra, toponimlar keyinchalik shakllangan xususiyatlariga ko'ra gidronimlar, agronimlar, zoonimlar kabi bir qancha turlarga ajratiladi. Toponimlarni leksik-semantik tamoyilga ko'ra ajratishda ularning semantik ma'nosi va nomlarning ma'lum sinfiga mansubligi hisobga olinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ahmadaliyev Y.I. Toponimika va geografik terminshunoslik.– Farg'on'a: 2018 – 10 b.
2. Жукевич В.А. Общая топонимия. – М., 2008. – 432 с.
3. Брагилевский Д.Ю. Структурно-семантический анализ названий улиц. Минск, Ленинград. 2008. – 233 с.
4. Суперанская, А. В. Общая теория имен собственных. – М., 2012. – 370 с.



INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SALOMLASHISH BIRLIKALARINING LINGVOPRAGMATIK TAHLILI VA MADANIYATLARARO FARQLARI

Zakirova Go'zal Soyibjonovna,
Alfraganus University
2-kurs magistranti
Телефон:+998946537375
gmirzaeva@mail.ru

ANNOTATSIYA: Ingliz va o'zbek tillarida salomlashish birliklarining lingvopragmatik xususiyatlari va madaniyatlararo kommunikatsiyadagi farqlari tahlil qilinadi. Tillar orasidagi shakl, mazmun va ijtimoiy kontekstga asoslangan o'ziga xosliklar aniqlanib, muloqot madaniyatining rivojlanishidagi ahamiyati yoritiladi

KALIT SO'ZLAR: salomlashish birliklari, lingvopragmatika, madaniyatlararo kommunikatsiya, ingliz tili, o'zbek tili.

Til – bu nafaqat aloqa vositasi, balki madaniy qadriyatlar va ijtimoiy munosabatlarning ifodasi hamdir. Salomlashish birliklari esa har bir tilda kommunikatsiyaning boshlanish nuqtasi sifatida o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ingliz va o'zbek tillarida salomlashish shakllari o'zining shakliy, ma'noviy va pragmatik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Har ikki tilda salomlashish nafaqat muloqot boshlash, balki shaxslararo munosabatlarni tartibga solish, hurmat, samimiylilik va ijtimoiy maqomni ifodalash vositasidir. Biroq, bu birliklarning qo'llanilishi, konteksti va ijtimoiy anglanishi madaniy tafovutlar sababli sezilarli darajada farqlanadi. Ushbu tezisda ingliz va o'zbek tillarida salomlashish birliklarining lingvopragmatik tahlili amalga oshiriladi hamda madaniyatlararo farqlar chuqur o'rganiladi. Tadqiqot natijalari til o'rgatish, tarjima va madaniyatlararo kommunikatsiyada salomlashuv birliklarining rolini to'g'ri tushunishga xizmat qiladi. Mavzuning dolzarbli shundaki, madaniyatlararo muomala ko'nikmalarining rivojlanishi global kommunikatsiya sharoitida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda..

O'zbek tili doirasida muloqot madaniyati va salomlashish shakllari atroficha o'rganilgan. Muallif sýzlashuv nutqining etik me'yorlari va ularning ijtimoiy hayotdagi ahamiyatiga e'tibor qaratgan. Salomlashish jarayonida madaniy qadriyatlarning ifodalanishi alohida ko'rsatilgan. Asarda milliy urf-odatlar va til birliklari o'rtafigi bog'liqlik tahlil qilingan. Salomlashuvda yosh, jins, ijtimoiy maqom faktorlarining roli batafsil yoritilgan. Til orqali hurmat ifodalanishining lingvopragmatik asoslari o'z aksini topgan. Amaliy misollar bilan o'zbek tilining noverbal unsurlar bilan uyg'unligi ochib berilgan. Kitobda shuningdek, salomlashuvlarning zamonaviy shakllari ham ko'rib chiqilgan. Muloqot jarayonida kontekst va vaziyatga mos keladigan salomlashuv uslublari taqdim etilgan. Asar o'zbek tilining ijtimoiy-pragmatik tahliliga bag'ishlangan muhim manbalaridan biridir [1].

Xushmuomalalik nazariyasining umumiy nazariy asoslari ishlab chiqilgan. Mualliflar tilni muloqot vositasi sifatida emas, balki ijtimoiy o'zaro ta'sir tizimi sifatida tahlil qiladilar. Salomlashish, uzr so'rash, minnatdorchilik bildirish kabi nutq aktlari xushmuomalalik strategiyalari doirasida ko'rib chiqilgan. Asarda "face-saving acts" (obro'ni saqlash aktlari) konsepsiysi asosida tahlil kiritilgan. Madaniyatlararo farqlarning til xushmuomalaligi shakllanishiga ta'siri o'rganilgan. Ingliz va boshqa tillarda salomlashuvning ijtimoiy maqomga mos ravishda o'zgarishi ko'rsatilgan. Til va jamiyat o'rtafigi doimiy o'zaro ta'sir alohida asoslangan. Muloqotdagi odob va noaniqlikni kamaytirish strategiyalari tahlil qilingan. Kitobdagi nazariyalar tilshunoslik, sosiolingvistik va madaniyatshunoslikda keng qo'llaniladi. Asar xalqaro darajada pragmatikaning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. [2].

Zamonaviy o'zbek tilining pragmatik imkoniyatlari o'rganilgan. Muallif tilning muloqotdagi funktsional rolini pragmatik yondashuv asosida tahlil qilgan. Salomlashuv birliklarining kommunikativ yuklamasi alohida tahlil qilingan. Nutq aktlari nazariyasining o'zbek tilidagi ifodalanish shakllari ko'rsatib berilgan. Kontekst va vaziyatga bog'liq nutq aktlari tasniflab chiqilgan. Asarda salomlashish, vidolashish, minnatdorchilik bildirish kabi birliklarning madaniyatga xos xususiyatlari ochib berilgan. O'zbek tilida muloqotning emotsiyal va ijtimoiy komponentlari yoritilgan. Muloqotda intonatsiya va tana tilining roli ham ko'rsatib o'tilgan. Muallif zamonaviy til o'zgarishlari va globallashuv ta'sirini ham tahlil qilgan. Kitob o'zbek tilining pragmatik va sosiolingvistik tahliliga bag'ishlangan asosiy manbalaridan biri hisoblanadi [3].



Holmes J. asarida til va jamiyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik keng tahlil etilgan. Tilning ijtimoiy vazifasi, shu jumladan salomlashish, nutq etiketi kabi elementlar muhim rol o‘ynaydi. Muallif ijtimoiy tabaqlanish, jins, yosh, millat va vaziyat omillarining til shakllanishiga ta’sirini ko‘rsatadi. Salomlashish birliklari madaniyatlararo kontekstdagi tafovutlari bilan tahlil qilingan. Turli jamiyatlardagi til o‘zgarishlari va ularning muloqotdagi ifodasi yoritilgan. Muloqotning rasmiy va norasmiy shakllari o‘rtasidagi farqlar alohida ajratilgan. Kitobda “code-switching” va “code-mixing” hodisalari ham izohlangan. Salomlashuv va ijtimoiy identifikasiya o‘rtasidagi bog‘liqlik asoslab berilgan. O‘quvchilar uchun aniq misollar va tadqiqot natijalari keltirilgan. Kitob tilshunoslik va madaniyatshunoslik sohalarida muhim qo‘llanma sifatida tan olingan [4].

Tadqiqot davomida ingliz va o‘zbek tillarida salomlashish birliklarining lingvopragmatik xususiyatlari chuqur o‘rganildi. Salomlashish har bir madaniyatda insonlar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning boshlanishi va mustahkamlanishida alohida o‘rin tutadi. Ingliz va o‘zbek tillari o‘z muloqot madaniyatlar, qadriyatlar va nutq odoblari bilan bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Ushbu farqlar salomlashish birliklarining shakli, vazifasi va kommunikativ kontekstda qo‘llanishida yaqqol namoyon bo‘ladi.

O‘zbek tilida salomlashish muloqotning ajralmas qismi bo‘lib, ko‘pincha rasmiy va marosimiy ohangda ifodalananadi. Masalan, “Assalomu alaykum” iborasi insonlar o‘rtasidagi hurmat, ehtirom va duoni ifodalaydi. Bunda nafaqat nutqiy akt, balki diniy va madaniy qadriyatlarning aks-sadosi mavjud. Salomlashuvning yana bir xususiyati – unga javob berish majburiyligidir. “Va alaykum assalom” kabi javob shakllari o‘zaro hurmat va o‘zaro javobgarlikni ko‘rsatadi. Shuningdek, o‘zbek tilida salomlashishlar ko‘pincha kontekst va aloqa qilinayotgan shaxsning ijtimoiy maqomiga moslab tanlanadi. Keksalarga, ustozlarga yoki yuqori martabali shaxslarga murojaat etishda yanada rasmiyoq, ehtiromli shakllar qo‘llaniladi.

Ingliz tilida esa salomlashish ko‘proq soddaligi va neytralligi bilan farq qiladi. “Hello”, “Hi”, “Good morning” kabi iboralar deyarli har qanday kontekstda ishlatilishi mumkin. Ijtimoiy maqom, yosh yoki jins farqlari salomlashish shakliga katta ta’sir ko‘rsatmaydi. Salomlashish ko‘proq kommunikatsiyani boshlash vositasi sifatida xizmat qiladi va emotsiyal ifoda darajasi, odatta, past bo‘ladi. Ingliz madaniyatida shaxsiy erkinlik va masofani hurmat qilish madaniyati salomlashishdagi minimalistik uslubda o‘z ifodasini topadi.

Salomlashish shakllarining madaniyatlararo farqlari, avvalo, ularning kommunikativ funksiyalarida namoyon bo‘ladi. O‘zbek tilida salomlashish nafaqat muloqotni boshlash, balki shaxsiy hurmat, iliqlik va samimiyatni bildirish uchun xizmat qiladi. Ko‘pincha salomlashuv bilan birga hol-ahvol so‘rash (“Yaxshimisiz?”, “Ishlaringiz joyidami?”) kabilar ham aytildi. Ingliz tilida esa “How are you?” iborasi ko‘pincha rasmiy muloqot doirasida, nutqning bir qismi sifatida ishlatiladi va chin dildan hol-ahvol so‘rashni anglatmasligi mumkin.

O‘zbek tilida salomlashuv shakllari an’anaviy marosimlarga ham bog‘liq. Masalan, uzoq vaqt ko‘rishmagan insonlar bilan uchrashganda salomlashishdan oldin va keyin bir necha ijobiy iboralar aytildi. Ingliz madaniyatida esa qisqalik va samimiylilik salomlashuvning asosiy tamoyillaridan biridir. Madaniy tafovutlar nafaqat nutqiy shaklda, balki tana tili va intonatsiyada ham o‘z ifodasini topadi: o‘zbek tilida salomlashishda bosh egish, qo‘l berib ko‘rinish yoki ikki qo‘lni yurakka qo‘yish odat tusiga kirgan, ingliz madaniyatida esa bunday tana harakatlari kamroq uchraydi.

Lingvopragmatik yondashuv salomlashish birliklarini faqat tilshunoslik nuqtayi nazaridan emas, balki ularning ijtimoiy va madaniy kontekstdagi ahamiyatini tahlil qilish imkonini beradi. Pragmatika doirasida salomlashish nutq akti sifatida aloqa o‘rnatish, muloqot boshlash, shaxslararo munosabatlarni tartibga solish, hurmat va samimiyatni ifodalash kabi vazifalarni bajaradi. Shuningdek, bu birliklar muloqot jarayonida ishonch muhitini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Austin va Searle tomonidan ishlab chiqilgan nutq aktlari nazariyasiga ko‘ra, salomlashish illokutsion kuchga ega: ya’ni, muloqotni boshlash uchun biror amalni bajarish. O‘zbek tilida bu amal ko‘proq kollektiv qadriyatlar va jamiyatda o‘zaro hurmatni ta’minalash uchun xizmat qilsa, ingliz tilida shaxsiy muloqot ehtiyojiga javob beradi. Bu farq madaniyatlararo kommunikatsiya jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi, chunki noto‘g‘ri tushunilgan salomlashuv muloqotning buzilishiga olib kelishi mumkin.

Tadqiqot davomida so‘zlashuv matnlari, badiiy asarlar, kundalik muloqot namunalardan salomlashish birliklari to‘plandi va tahlil qilindi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, ingliz va o‘zbek tillarida salomlashuvlarning strukturaviy shakllari o‘xshash bo‘lsa-da, ularning madaniy kontekstdagi ahamiyati va qo‘llanish strategiyalari keskin farqlanadi. Masalan, ingliz tilida norasmiy salomlashuv



(masalan, “Hey!”) odatiy bo‘lsa, o‘zbek tilida bunday norasmiy shakl faqat yaqin do‘sstar va tengdoshlar o‘rtasida qo‘llaniladi.

Madaniyatlararo pragmatik tafovutlarni o‘rganish, ayniqsa, til o‘rgatuvchilar va tarjimonlar uchun muhimdir. Tilni o‘rgatishda faqat grammatik qoidalarni emas, balki madaniy konteksti ham o‘rgatish zarur. O‘zbek tilida salomlashuv bilan birga hurmat, minnatdorchilik va ilqlik ifodalari o‘zaro bog‘langan, ingliz tilida esa bu elementlar ko‘pincha mustaqil nutq aktlari sifatida amalga oshiriladi. Shu sababli madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirish uchun salomlashuv shakllarining madaniy farqlarini anglash juda muhimdir.

Bundan tashqari, zamonaviy global kommunikatsiya sharoitida salomlashish shakllari o‘zgarishga uchramoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda, elektron xatlarda va mobil ilovalarda salomlashish qisqa va ixcham shakllarda ifodalanmoqda. Masalan, ingliz tilida “Hi” yoki “Hey there” kabi ifodalar keng tarqagan, o‘zbek tilida esa qisqargan “Salom” shakli ko‘p qo‘llanilmoqda. Biroq, rasmiy muloqotda har ikkala tilda ham an‘anaviy salomlashuv shakllari afzal ko‘riladi.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Назаров Б.Н. Ўзбек тилида сўзлашув нутқи маданияти. Тошкент: Фан, 2001. 198-бет.
2. Brown P., Levinson S.C. Politeness: Some Universals in Language Usage. Cambridge: Cambridge University Press, 1987. 345 p.
3. Ўринбоева З.Р. Ҳозирги ўзбек тили: прагматик ёндашув асослари. Самарқанд: СДПИ нашиёти, 2018. 210-бет.
4. Holmes J. An Introduction to Sociolinguistics. London: Routledge, 2013. 376 p.



DEN BRAUNNING “FARISHTALAR VA IBLISLAR” ASARIDA RAMZLARNING GIPO-GIPERTEKSTUAL TADQIQI

Sadikova Dildora Nizomovna

Navoiy davlat universiteti, Ingliz tili
amaliy fanlar kafedrasи o'qituvchisi
<https://orcid.org/0009-0008-9762-9484>

Annotatsiya. Intertekstuallik kategoriyasining gipotekstual xususiyatlarida Dan Braunning “Farishtalar va Iblislar” asarida ilmiy, tarixiy va madaniy ramzlar mohirona qo‘llanilgan. Ambigrammalar, Illuminati, antimateriya, Katolik cherkovi va klassik elementlar kabi ramzlar orqali muallif haqiqat bilan fantastikani chatishirib, insoniyatning axloq va bilim haqidagi tushunchalarini qayta talqin qilishga undaydi.

Kalit so‘zlar: gipotekstual, ramz , Illuminati, buyuk muhr ramzi

Abstract. Within the hypertextual features of the intertextuality category, Dan Brown’s Angels and Demons skillfully employs scientific, historical, and cultural symbols. Through symbols like ambigrams, the Illuminati, antimatter, the Catholic Church, and classical elements, the author blurs the lines between fact and fiction, urging a reinterpretation of humanity’s understanding of morality and knowledge.

Key words: hypertextuality, symbol, symbolism, Illuminati, all seeing eye

Аннотация. В рамках гипотекстуальных особенностей категории интертекстуальности в романе Дэна Брауна «Ангелы и демоны» мастерски используются научные, исторические и культурные символы. Такие символы, как амбиграммы, Иллюминаты, антиматерия, Католическая церковь и классические элементы, переплетают реальность с вымыслом, побуждая переосмыслить представления человечества о морали и знании.

Ключевые слова: гипертекстуальность, символ, символизм, иллюминаты, всевидящее глаз.

Gipotekstuallik keyingi matn (gipermatn) ilgari mavjud bo‘lgan matn (gipotekst) bilan bog‘liqligini anglatadi. Ramziylik sohasida gipotekstuallik qadimiylar yangi hikoyalarga singdirish orqali ma’no shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Postmodern adabiyot ko‘pincha bu usuldan qatlamli talqinlar, ironiya va intertekstual chuqurlik yaratish uchun foydalanadi. Gipotekstuallik (Jérard Genet atamasi) – yangi matn (gipermatn) ma’nosini shakllantiruvchi asosiy manba matn (gipotekst) ni o‘z ichiga oladi, garchi u aniq keltirilmashligi mumkin. Ramzlar – madaniy, diniy yoki mifologik ahamiyatga ega bo‘lib, turli matnlar va davrlar davomida qayta ishlanadi yoki o‘zgartiriladi. Ramziy gipotekstlar (masalan, xoch, ilon yoki “hammanarni ko‘rvuchi ko‘z”) diniy, mifologik va ezoterik an’analardan intertekstual aks-sadolarni olib yuradi.(Sadikova,122)

Dan Braunning 2000 yilda chop etilgan “Farishtalar va Iblislar” romanida Vatikan va Illuminati o‘rtasidagi davom etayotgan nizo tasvirlangan. Kitobda din va ilmni ifodalovchi tashkilotlar o‘rtasidagi uzoq davom etgan ziddiyatni tasvirlash uchun bir qator tarixiy va diniy ramzlardan foydalanilgan. Ilm va imon o‘rtasidagi ulkan ziddiyatning tarixiy ildizlarini tushunish uchun bu tadqiqot sirli ramzlarning ma’nolarini ochishga harakat qiladi. Hikoya davomida , ma’lum bo‘ladiki, “Yanus” nomi bilan yashirinib olgan Illuminati yetakchisi Kamarlengo va uning yordamchisi Hassasin ushbu o‘g‘irlilik va qotillik voqealarining har birida javobgardir. Langdon “Nur yo‘li” bo‘ylab sayohat qilar ekan, bir qator ramzlarning ham dekod qilishi kerak bo‘ladi: dollar qog‘ozidagi “Hamma narsani ko‘rvuchi ko‘z”, ibridoiy elementlarning ifodalovchi ambigrammlar va boshqa ezoterik va butparastlik ramzlar. Langdon muhrlangan qabrlar, xavfli katakombalar, tashlandiq sobor va Vatikan atrofidagi eng yashirin maxfiy xonadalardan o‘tishda tegishli tarixiy va diniy ishoralardan foydalanib, bu ramzlarning ma’nosini samarali tushunishga erishadi.

Ramz - bu badiiy usul bo‘lib, u insonning ichki his-tuyg‘ularini yoki fikrlarini ifodalashda ishorat va imo-ishoralarning ahamiyatini ta’kidlaydi. Ramzlar – so‘zlar, joylar, personajlar yoki narsalarning so‘zma-so‘z ma’nosidan tashqari chuqurroq ma’nolari bo‘lib, ular orqali moddiy va ma’naviy olamlar, shuningdek, tovush, tuyg‘u va rang o‘rtasida nozik bog‘liqliklar yaratiladi. Ramz - bu noaniq tushuncha. Ramz atamasi, joy, shaxs yoki narsa bo‘lishi mumkin, lekin uning ma’nosini tashqi ko‘rinishidan ancha kengroqdir. Ramz o‘z-o‘zidan qiziqarli bo‘lishi bilan birga, u yanada katta, chuqur, ulug‘ va murakkab tushunchalar, xatti-harakatlar yoki qarashlar to‘plamini ifodalaydi yoki ularga ishora qiladi. (Liungman, 199)



Oxford Dictionary lug‘atiga ko‘ra “ramz” tushunchasi - nimadirni ifodalovchi belgi, nishon, ob‘yekt va shu kabilardir” (876), deb ta‘rif berilgan. The Bedford Glossary of Critical and Literary Terms esa uni quyidagicha izohlaydi: “Bu ko‘chma ifoda bo‘lib, unda tasvir, harakat yoki tushuncha orqali bir nechta bog‘liq mavhum narsalar (yoki asosiy ma’nolar) ifodalanadi yoki keng sharhlovchi imo-ishoralar beriladi” (391). Ramz - bu konkret tasvirlar orqali his-tuyg‘ular va mavhum tushunchalarni yetkazadigan kengaytirilgan metaforadir. Ramzlar nafaqat ma’noni ochib berish, balki uni yashirish va turli talqinlarni uyg‘otish qobiliyatiga ham egadir. Shu sababli, ular qiziqarli usul bo‘lib, qo‘shma tushunchalar va yashirin haqiqatlarni fosh etishda qo‘llaniladi.

XIX asr fransuz she’riyatining katta qismi ramzshunos (simvolist) edi. *Mallarme ramziylikni* “biror obyektni tanlab, undan «e’tat d’ame» (ruhiy holat)ni chiqarib olish san’ati” yoki “kayfiyatni ochib berish uchun obyektni asta-sekin uyg‘otish san’ati” deb ta’riflagan. Uning fikricha, bu kayfiyatga erishish uchun bir nechta talqin qilish jarayonlari zarur bo‘lgan (Cuddon, 656). Braunning “Farishtalar va Iblislar” asarida eng ko‘zga ko‘ringan mavzu - ramziylikdir. Asardagi ramzlarning aksariyati diniy va tarixiy ramzlar bilan bog‘liq. Kitob bo‘ylab haykallardan pul birligigacha bo‘lgan har bir narsada ramzlar shifrlangan va ularning ma’nosini ochilgan. Harvard ramzshunoslik professori bo‘lgan bosh qahramon Langdon bu ramzlarning ma’nolarini yaxshi biladi. U Illuminati haqida mutaxassis bo‘lib, diniy va okkult ramzlarning kelib chiqishi haqidagi bilimlarini qo’llab, sirli belgilar va ramzlarning ma’nosini ochadi. Bundan tashqari, u Rimda Illuminatining sirli “Nur yo‘li” dan boradi, ular ko‘rsatganidek.

Tanqidchilar, D.Braunning “Farishtalar va Iblislar” asaridagi hayajonli voqealar va sirli muhitni yuqori baholashgan. Bu uning shoh asari hisoblanadi. Ba’zi sharhlovchilar uni Tom Klensi va Umberto Eko bilan solishtirsa, boshqalari Maykl Krayton va Tomas Xarrisga qiyoslashgan. Kutubxona nashriyotida yozgan Nensi Pearl: “Farishtalar va Iblislar» juda bilimdonona yozilgan va puxta tadqiq qilingan asar bo‘lib, unda fizika bilan din uyg‘unlashgan”, deb Braunning aql-idrokini maqtagan. “Qiziqarli yakungacha bo‘lgan voqealar zanjiri ajoyib tarzda ishlangan va Braunning mahorati haqiqatan ham hayratlanarli”, deya ta’kidlaydi u.

Asar markazida sirli tashkilot Illuminati bo‘lib, bu yashirin tashkilot cherkovga qarshi turib fan bilan shug‘ullangan olim va san’atkorlar guruhidan tarkib topgan. Ushbu romanda ayniqsa poradaksal ramzlar xususiyatlari namoyon etilgan, cherkov va fan bir biriga qarshi kurashi ifoda etilgan. “Illuminati” so‘zi “yoritiganlar” yoki “ma’rifatli shaxslar” degan ma’noni anglatadi. Zamonaviy ramzshunoslikda Illuminati emblemalari afsonaviy ahamiyatga ega bo‘lgan.O‘rta asrlarda uyg‘onish davrida katolik cherkovi fan dinning dushmani sifatiga qaralgan bo‘lib o’sha davrdagi ko‘pgina olimlar to‘siqlarga duch kelishgan cherkov tomonidan.

Langdon Illuminatiga a’zoligini tushuntirar ekan, AQSh bir dollarlik banknotidagi “Buyuk Muhr” ga ishora qildi - bu taniqli Illuminati ramzidir. Amerika valyutasining orqa tomonidagi piramida va “hamma narsani ko‘rvuchi ko‘z” Amerikaning o‘z tarixiga aloqador emasligi sababli, ularning banknotlarda paydo bo‘lishi hayratlanarli holatdir. Aslida, bu piramida Misr okkultizmiga oid ramzdir. Bundan tashqari, u “Buyuk Muhr”ning asosiy emblemasi hisoblanadi. Langdon shunday dedi: “Piramida - bu nihoyatda nur manbasiga qarab yo’nalgan okkult ramzi bo‘lib, u yorug‘lik sari bo‘lgan yo‘lni ifodalaydi.”

Illuminati “uchburchak ichidagi ko‘z” butparastlik ramzidan foydalangan, bu birodarlikning hamma narsani ko‘ra olish va chuqur tushunish qobiliyatini ifodalaydi. Bundan tashqari, uchburchak (yunoncha Delta deb ham ataladi) ilm-fanda o‘zgarishning ramzi hisoblanadi. Yaltiroq Delta esa Illuminatining dinni xayoliy tushunchadan ilmiy haqiqatga aylantirish maqsadini ramziy ifodalaydi.

Haqiqat shundaki, “**Buyuk Muhr**”dagi “Novus Ordo Seculorum” (Asrlar Yangi Tartibi) yozuvini dunyoviy yoki diniy bo‘lmagan tamoyillarga ishora qiladi. Bu esa hukmron diniy dunyoqarash bilan keskin ziddiyat tashkil etadi va muhrning Illuminati bilan bog‘liqligi haqidagi gipotezaga qo‘sishma dalil bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda , ramzlardagi gipotekstualik badiiy matnlarni madaniy xotira va ilgari mavjud bo‘lgan ma’nolar tarmog‘iga joylashtirish orqali boyitadi. Bu postmodern yozuvchilarga o‘quvchilarni faol bo‘lishga undash , janr chegaralarini noaniq qilish va ma’no barqarorligini savol ostiga qo‘yish imkonini beradi.“Farishtalar va Iblislar” asarida intertekstuallik orqali ramzlar tarixiy, madaniy va falsafiy chuqurlikka ega bo‘ladi. Braun ilmiy haqiqatlar (CERN, Uyg‘onish davri san’ati) va badiiy fitna nazariyalarini aralashtirib, ilm bilan din, yaxshilik bilan yomonlik o‘rtasidagi chegaralarni shubha ostiga oluvchi hikoya yaratadi. Ambigrammalar, Illuminati va klassik elementlar romanni bilim, hokimiyat va axloq haqidagi keng munozaralar bilan bog‘lovchi intertekstual ko‘priklar



vazifasini o'taydi. Haqiqat va xayolning bu sintezi nafaqat syujetni rivojlantiribgina qolmay, balki tarix va haqiqat haqidagi tushunchalarimizni tanqidiy sharhlashga ham undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Brown, D. Angels and Demons. London: Pocket Books, 2009.
2. Brown, D. The Da Vinci Code. New York: Doubleday, 2003.
3. Cuddon, J.A. A Dictionary of Literary Terms. Andre Deutsch: Indian Book Company, 1977.
4. Gillies, James. "Angel or Demon?" New Scientist. 186th edition. London: Reed Business Information Ltd, 2005. 21-22.
5. Liungman, Carl G. Dictionary of Symbols. New York: Norton, 1991
6. The Oxford Dictionary of English. 2nd ed. New Delhi: Oxford Dictionary Press, 2003
7. Nizomovna, Sadikova. (2025). The intertextuality of symbols:water and fire from “angels and demons” by dan brown. International Journal Of Literature And Languages. 5. 122-126. 10.37547/ijll/Volume05Issue03-31.
8. Nizomovna S. D. The category of intertextuality: Allusion, quotation, symbol //International Journal of Literature and Languages. – 2024. – T. 4. – №. 11. – C. 46-54.



DIPLOMATIK YOZISHMALARDA QO'LLANILADIGAN DIPLOMATIK TERMINOLOGIYANING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Sadullayeva Shoxida

TATU Urganch filiali “O'zbek tili va ijtimoiy fanlar” kafedrasи o'qituvchisi

Annotatsiya: Diplomatik hujjatlar va yozishmalarda diplomatik terminologiya keng miqyosda foydalaniladi. Ularning ahamiyati leksik qatlamning ushbu qismida katta hisoblanadi. Diplomatic nutq aynan o'z qabul qiluvchisi uchun mo'ljallangan maxsus nutq turi hisoblanib, bunda aniq bir chegara va nutq qoidalariga amal qiluvchi leksika qo'llaniladi. Bunda soddalik, aniqlik va aynan shu sohaga oid atamalarni qo'llash, hujjatlarni qabul qiluvchi uchun tushunarllilik darajasini oshiradi. Shu jihatdan diplomatic terminologiyani o'rganish muhim hisoblanadi.

Kalit so'zlar: diplomatik hujjatlar, terminologiya, diplomatic yozishmalar, leksik qatlam, sinonim, semantik soha

Abstract: Diplomatic terminology is widely used in diplomatic documents and correspondence. Their importance is great in this part of the lexical layer. Diplomatic speech is a special type of speech intended specifically for its recipient, in which a lexicon is used that adheres to certain boundaries and speech rules. In this case, simplicity, accuracy, and the use of terms related to this area increase the level of comprehensibility for the recipient of the documents. In this regard, the study of diplomatic terminology is important.

Keywords: diplomatic documents, terminology, diplomatic correspondence, lexical layer, synonym, semantic field

Diplomatik hujjatlar, yozishma va shartnomalarda qo'llaniladigan diplomatik terminologiya bilan bog'liq masalalarga to'xtalib o'tishdan oldin, termin va terminologiya tushunchalarini tahlil qilib chiqishimiz kerak bo'ladi. Termin (lotincha terminusdan - "chegara, chegara") tushunchani va uning maxsus sohadagi boshqa tushunchalar bilan aloqasini aniq va aniq nomlaydigan so'z yoki iboradir. Atamalar ushbu sohaga xos bo'lgan hodisalar, ob'ektlar, ularning xususiyatlari va munosabatlarining ixtisoslashgan, chekllovchi belgilari bo'lib xizmat qiladi. Ko'pincha hissiy rangga ega bo'lgan va noaniq bo'lgan umumiy lug'at so'zlaridan farqli o'laroq, qo'llanilish doirasidagi atamalar ifodadan mahrum va bir ma'noli.

Terminologiya maxsus bilim sohasi sifatida tadqiqotchilar e'tiborini tobora ko'proq jalb qilmoqda. Bu zamonaviy ilmiy bilimlarning integratsiya jarayonlaridan kelib chiqqan xalqaro tabiat bilan izohlanadi. Shu sababli, ijtimoiy va iqtisodiy faoliyatning turli sohalarida atamalarni birlashtirish istagi mavjud¹.

Rus terminologiya maktabining asoschisi D.S.Lotte "terminologiya" ga quyidagi ta'rifni bergan: "Terminologiya - lug'at sohasi, fan, texnika, ishlab chiqarish, san'at, ijtimoiy faoliyatning ma'lum bir sohasidagi atamalar to'plami bo'lib, ular bilan bog'liq tegishli tushunchalar tizimi"².

A.A.Reformatskiy "Tilshunoslikka kirish" kitobida "terminologiya" deganda "ma'lum bir ishlab chiqarish, faoliyat, bilim sohasi atamalari to'plami, lug'atning maxsus sektorini tashkil etuvchi, ongli tartibga solish va boshqarish uchun eng qulay bo'lgan so'zlar yoki so'z birlklari majmui" deb ta'riflaydi³. Xuddi shu ta'rif O.S.Axmanova tomonidan "Lingvistik atamalar lug'ati"da ham berilgan⁴.

Terminologiya, R. Dragichevichning fikricha, "fan yoki kasbiy faoliyatda qo'llaniladigan atamalar, so'zlarni o'rganadi".

Terminologiya - bu kasbiy faoliyat sohasiga oid, bir-biri bilan konseptual, leksik-semantik, so'z

¹ Алексеева, Л. М. Проблемы термина и терминообразования/ Л. М. Алексеева. – Пермь, 1998. – 120 с.

² Лотте Д.С. Вопросы заимствования и упорядочения иноязычных терминов и терминоэлементов / Д. С. Лотте; [Предисл. Т. Л. Канделаки, С. В. Гринева]. - Москва : Наука, 1982. - 149 с.

³ Реформатский А. А. Введение в языкознание/ А. А. Реформатский, Москва: Аспект пресс, 1996

⁴ Ахманова О. С. «Словарь лингвистических терминов»/ О. С. Ахманова - 2-е изд., стер. - Москва : УРСС, 2004 (Калуга : ГУП Облиздат).



yasalishi va grammatik darajalarda bog'langan atamalar yig'indisidir.

Ko'pgina zamonaviy tilshunoslarning fikricha, terminologiya sun'iy shakllangan leksik qatlamdir, shu bilan birga uning har bir birligi mavjud bo'lish uchun maqbul sharoitlar va foydalanish uchun ma'lum cheklov larga ega.

Shuni ta'kidlash kerakki, diplomatik atamalar asosan lotin, fransuz va ingliz tillarida yaratilgan yoki fransuz va ingliz tillari orqali vositachi til sifatida olingan. Shunday qilib, diplomatiya va davlat munosabatlari bilan bog'liq bo'lган insonning aqliy faoliyati natijalari shartlar bilan belgilanadi, deb taxmin qilish mantiqan to'g'ri bo'ladi.

O'zbek terminologiyasi haqidagi prof. U.Tursunovning fikrlari bugungi tilshunosligimiz uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. K.M.Musayev terminologiyani tilning leksikasi sifatida go'yo bir shaharga qiyoslaydi. Uning fikricha, terminologiya yagona reja asosida qurilsa-da, lekin birdaniga barpo etilmaydi. U tarixiy shart-sharoit asosida shakllanadi, uni yaratishda har xil avlodga mansub bo'lган turli me'morlar, loyihachilar, kashfiyotchilar ishtirot etadi. Ular har bir qurilayotgan inshootni yaxshi o'rgangan holda barpo etadilar. Terminologiyani tartibga solishdagi o'ziga xos murakkablik ham shu bilan belgilanadi¹. Shu bilan birga N.A.Baskakov, N.K.Dmitriyev, F.S.Faseyevlarning, keyinchalik turkiy tillar materiallari asosida terminlarni o'rganish bo'yicha B.U.Oruzbayeva, R.A.Urekenova, M.Sh.Gasimovning ishlarini ko'rsatish mumkin. O'zbek tili terminologiyasining rivojiga salmoqli hissa qo'shgan olimlardanbiri professor Renat Doniyorov hisoblanadi. Uning "O'zbek tili texnik terminologiyasining ayrim masalalari" (1977) kitobida o'zbek tili texnik terminologiyasini tartibga solish, undagi qator chalkashliklarning oldini olish kabi masalalar o'rinni organ. Mazkur ish texnik terminologiyani tadqiqqlish ishiga katta hissa bo'lib qo'shildi deyish mumkin.

N.Ikromova o'zining "O'zbek taomlari leksikasi" ishida esa o'zbek taomlari nomlarining lisoniy xususiyatlari haqida so'z yuritadi. Shu bilan birga, o'zbek tili leksikasi masalalari "Hozirgi zamon o'zbek tili", "Hozirgi o'zbek adabiy tili" kabi tadqiqotlar va darsliklarda ham o'z ifodasini topgan. 1981-yilda O'zFA Til va adabiyot institutining bir guruh tilshunos olimlari tomonidan "O'zbek tili leksikologiyasi" nomli yirik ish maydoniga keldi. O'zbek tilshunosligida leksik qatlamlarni qiyosiy o'rganish masalalari bo'yicha ham ancha ishlar qilinganini kuzatish mumkin. Bu borada I.Ismoilovning 1966 yilda nashr etirgan monografiyasi muhim ishlardan biri sanaladi. Muhimi shundaki, mazkur ishda o'zbek va uyg'ur tillardagi qon-qorindoshlik terminlarilarining paydo bo'lishi va amalda qo'llanish me'yorlari atroflicha tahlil etilgan.

Fanning predmeti, shaxsdan mustaqil ravishda mavjud bo'lган ob'ektlardan farqli o'laroq, uni davrning nazariy bilimlari nuqtai nazaridan anglaydigan sub'ekt tomonidan shakllantiriladi, shuning uchun masalaning nazariy o'tmishiga murojaat qilish dolzarbdir.

Terminning ta'riflariga kelsak, vaqt o'tishi bilan ular umumiy qabul qilingan bo'lib qoladi:

- 1) atama milliy terminologiya tizimining a'zosi sifatida qaraladi;
- 2) tabiiy shakllangan terminologiyalarda ma'lum „kamchiliklar“ mavjud;
- 3) minimal birlik atama hosil qilishda ishtirot etuvchi va terminologik ma'noga ega bo'lган atama elementi;
- 4) o'z tushunchalarining shartlari tartiblangan, ya'ni tushunchalar massivini „o'z“ va „jalb qilingan“ ga o'zgartirish;
- 5) atamalarning „mutlaq“ va „nisbiy“ aniqligini farqlay olish;
- 6) atamalar tugunlarini to'g'ri qurish muhim ahamiyatga ega, chunki o'z soha terminologiyasining tuzilishi butunlay ularning tuzilishiga bog'liq;
- 7) mutaxassislarining yangi atamalar va ularni tushunishga ko'nikishi va ko'nikishi uchun tartiblangan atamalarga terminologik tavsija maqomi berilishi kerak;
- 8) mavjud va yangi yaratilgan atama bilan bog'liq bo'lган muayyan birlashmaning, ya'ni xususiy yoki tugunning paydo bo'lishi;
- 9) yangi shakllangan atama predmet yoki tushunchaning tegishli nomi bo'lishi, berilgan sohada sinonimlarga ega bo'lmasligi va omonimni ifodalamasligi kerak.

Umumiy adabiy lug'at kabi atamalar ham ma'lum darajada aniqlik va ma'nolilikni cheklab qo'yadigan noaniqlik, sinonimiya, omonimiya bilan ajralib turadi. O'xshashliklar bilan bir qatorda sezilarli farqlar ham mavjud. Eng muhim, terminologiya yopiq lug'at kontekstini qamrab oladi. Terminning o'ziga xos xususiyati semantika darajasida sezilarli darajada namoyon bo'lishi ham muhim ahamiyatga ega².

¹ Мусаев К. М. Формирование, развитие и современные проблемы терминологии. 1986. - с.163

² Большаков, И. А. О некоторых лингвистических особенностях деловой прозы. Семиотика и



Semantik nuqtai nazaridan, tegishli til birliklarining ularning leksik ma’nosiga bog’liqligi, ayniqsa, yangi terminologiyaga xosdir. Shuni ham ta’kidlash kerakki, “termin” tushunchasiga ta’rif berishda terminologik foydalanish imkoniyati ham (alohida so’zlar bilan birga) hisobga olinadi¹.

Mavjud til tajribasi asosida yangi atama yaratishda kerakli belgi ma’lumotlarini izlash, atamani maxsus “tilning axborot-terminologik sohasi”da mustahkamlash va yangi yutuqlarni bashorat qilish kabi jarayonlar kuzatiladi. Rivojlangan sanoat bazasiga ega bo’lgan mamlakatlarda chet tillari apparatini jalb qilish maqsadga muvofiq bo’ladi, chunki yangi atamaning semantik aniqligi til belgisi va u tomonidan uzatiladigan faktning aniq bog’liqligiga asoslanadi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Алексеева, Л. М. Проблемы термина и терминообразования/ Л. М. Алексеева. – Пермь, 1998. – 120 с.
2. Лотте Д.С. Вопросы заимствования и упорядочения иноязычных терминов и терминоэлементов / Д. С. Лотте; [Предисл. Т. Л. Канделаки, С. В. Гринева]. - Москва : Наука, 1982. - 149 с.
3. Реформатский А. А. Введение в языковедение/ А. А. Реформатский, Москва: Аспект пресс, 1996
4. Ахманова О. С. «Словарь лингвистических терминов»/ О. С. Ахманова - 2-е изд., стер. - Москва : УРСС, 2004 (Калуга : ГУП Облиздат).
5. Мусаев К. М. Формирование, развитие и современные проблемы терминологии. 1986. - с.163
6. Большаков, И. А. О некоторых лингвистических особенностях деловой прозы. Семиотика и информатика / И. А. Большаков. – М., 1995. – 24-33 с.
7. Лукашенец, Е. Г. О терминах и профессионализмах в специальной речи. Лингвистическая терминология в советском языкоznании / Е. Г. Лукашенец. – Н. Новгород, 1991. – 137 с.

информатика / И. А. Большаков. – М., 1995. – 24-33 с.

¹ Лукашенец, Е. Г. О терминах и профессионализмах в специальной речи. Лингвистическая терминология в советском языкоznании / Е. Г. Лукашенец. – Н. Новгород, 1991. – 137 с.



АДАБИЁТ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

BADIY ASARLARDA QUSHLAR OBRAZI (ORNITONIMLAR) VA ULARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI

Inomjon Mamatov

Chortoq tumani 29-maktabning

O'zbek tili adabiyoti o'qituvchisi

Telefon:+99894 330 85 85

michurin.85@bk.ru

Annotatsya: Ushbu maqolada milliy mumtoz adabiyotimizning buyuk nomoyondasi hazrat Navoiyning ““Lison ut-Tayr” dostonidagi qushlarga hos fazilatlarni adabiyotimizdagi muhim o'rni haqida fikr yoritmoqchimiz.

Kalit so'zlar: mustaqillik bergen erk, til ozodligi asoschisi, tarixiy asarlar, umumiyl tilshunoslik, “Lison ut-Tayr” dostoni.

Uslubiyat tilshunoslikning eng qiziqarli sohalaridan bo'lib, o'zbek tilshunoslida badiiy adabiyot tili muammolarini yechishda, badiiy tasviry vositalarini asarlarda namoyon bo'lish xususiyatlarini tobora oydin tasavvur qilishga ko'maklashmoqda.

So'z san'ati, ifoda vositalari haqidagi alohida bir fandir. Badiiy asar tiliga bag'ishlangan va uslubiyat nuqtai nazaridan bajarilgan ilmiy ishlar ichida tasviriy vositalar, ma'no ko'chishining turli yo'llari tatqiq etilgan tadqiqotlar bizning e'tiborimizni tortadi. Ayniqsa metafora, metonimiya, sinekdoxa, o'xshatish kabi tasviriy vositalarning ma'lum bir ijodkor asarlari tilidagi o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishi ham mas'uliyatli va qiziqarlidir.

Biz bugungi kichik maqolamizni mavzusini ko'chimning bir turi bo'lgan metonimiyaga bag'ishladik.

Metonimiya – grekcha so'z bo'lib, boshqacha nom berish degan ma'noni bildiradi va so'zlarning ko'chma ma'nosiga asoslanadi. Agar metaforada bir-biriga o'xhash narsalar belgilari ko'chirilsa da ikki narsa bir-biri bilan qandaydir aloqada bo'lsa ham, umuman o'zaro farqlanuvchi narsalari, belgilari chog'ishtiriladi, ko'chiriladi.

Metonimiya narsalarning nomini boshqa narsalarga o'tkazish etti xil ko'rinishlarga ega ekanligini keyingi boblarda kuzatamiz. Qushlar nomi bilan bog'liq badiiy tasvir vositalarining shoir she'riyatidanmisollar tahlili bilan isbotlaymiz. Bu boroda 50-60 dan ortiq misollarni kartochka qilaman va ularning tahlili maqolada o'z ifodasini topadi. O'zbekiston mustaqillikning 27 yillik dovonidan mislsiz muvaffaqiyatlar bilan o'tmoqda. Bu muvaffaqiyatlarning zalvorli salmog'i, hech bir istisnosiz, hayotimizning barcha sohalarida – iqtisodiyotda ham, ijtimoiy hayotda ham, ma'rifat- ma'naviyatda ham tarozi pallasini ro'yrost bosib turibdi. Ana shunday muvaffaqiyatlarning eng mustahkamlaridan biri, shubhasiz, shuki, xalqimizning aqliy va ruhiy dunyosining oynasi, dunyolarga bermaydigan bebafo boyligi bo'lgan, ammo asrlar davomida qizil va qancha ranglardagi istibdod iskanjasida to'lg'onsa-da, badiiyatning betakror bo'stonini bunyod etmoqqa tunganmas kuch topgan tilimiz – o'zbek tili o'zining erkin taraqqiyot o'zaniga hadiksiz va hormay odimlamoqda. Tilimiz qorong'u kechadan kunduzga ko'chdi. Istiqlol tufayli, me'mori bo'lgan Yurtboshimiz tufayli o'zbek tili o'z nufuzi va obro'yini tikladi. Qisqa vaqt ichida o'zbek alifbosi va imlosi isloh qilindi, o'zbek tilini ilmiy tadqiq qilish va o'qitish ishlari mustaqillik davri talablariga javob beradigan darajaga keltirildi. Endilikda mana shu tarixiy o'zgarishlarni, bu boradagi yutuq va tajribalarni umumlashtirmoq hamda galdeg'i ustuvor vazifalarni bajarmoqqa yeng shimarib kerishmoq, jadal harakat qilmoq lozimdir. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov O'zbekistonning 16 yillik mustaqillik taraqqiyot yo'liga bag'ishlangan ma'ruzasida shunday degan edi: - “Shuni ta'kidlash kerakki, mustaqillikka erishish davri haqida, eski tuzum inqirozga duchor bo'lib, sobiq ittifoq parokandalikka yuz tutgan bir paytda mamlakatimizda tobora keskin tus olgan siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy vaziyat, o'zligimizni anglash, toptalgan milliy g'ururimizni tiklashga qaratilgan intilish kuchayib borgani, Vatanimiz mustaqilligini qo'lga kiritish qanday sharoitda kechgani haqida yaxlit, yagona va xolis ko'z bilan qarab baho beradigan jiddiy



tahlil-tadqiqot hozirgacha yo'qligini afsus bilan aytishga to'g'ri keladi"

Mana shunday jiddiy tahlil qilinmagan mavzulardan biri – o'zbek tili va tilshunosligining mustabit tuzum davridagi ahvoli, o'zbek tilining erkin taraqqiyoti yo'lida olib borilgan kurashlar, o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi va uning qonun bilan mustahkamlanishi, mustaqillik davrida mamlakatimizda muvaffaqiyatlarning eng mustahkamlaridan biri, shubhasiz, shuki, xalqimizning aqliy va ruhiy dunyosining oynasi, dunyolarga bermaydigan bebaho boyligi bo'lgan, ammo asrlar davomida qizil va qancha ranglardagi istibdod iskanjasida to'lg'onsa-da, badiiyatning betakror bo'stonini bunyod etmoqqa tiganmas kuch topgan tilimiz – o'zbek tili o'zining erkin taraqqiyot o'zaniga hadiksiz va hormay odimlamoqda. Tilimiz qorong'u kechadan kunduzga ko'chdi. Istiqlol tufayli, me'mori bo'lgan Yurtboshimiz tufayli o'zbek tili o'z nufuzi va obro'yini tikladi

Til odamga tabiat in'om qilgan bebaho ne'mat, uni mahluqot to'dasidan insoniyat rutbasidagi oliy sinf o'laroq ayirgan qudratdir. Bu oliy sinfning aql va

ko'ngil mulki ayni shu tilga ko'ra munavvardir. Bashariyatning necha ming yilliklar mobaynida to'plagan butun aqliy va hissiy tajribalari ayni shu tilga ko'ra salomat saqlanib keladi. Til faqatgina muloqot quroli emas, u inson ruhiy-ma'naviy dunyosining fikr va betakror tirkagidir. Shuning uchun ham, tilsiz muhabbat, sadoqat, e'tiqod kabi bir qator tushunchalar tirkaksiz qoladi, shuning uchun ham tilga muhabbasiz Vatan, el muhabbati muallaqlashadi. Buni ulug' bobkalonimiz Alisher Navoiy ko'p va xo'p ta'kidlagan, uning – "Tilga ixtiyorsiz – elga e'tiborsiz" degan hikmatli so'zi ayni shu fikrlarning qaymog'idir.

Alisher Navoiyning teran tafakkuri va bepoyon badiiy matn mahsuli bo'lmish benazir so'z durdonalarini namoyon etuvchi ulkan qomusdir. Shuning uchun ham, Prezidentimiz aytganidek, "Ona tiliga muhabbat, uni ulug'lash, beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuyg'usi ham bizning ong-u tafakkurimizga, yuragimizga, avvalo, Navoiy asarlari bilan kirib kelgan". O'zbek xalqi o'z tilini qalbidagi tengsiz gavhar, tabiat in'om qilgan qutlug' ne'mat sifatida asrlar davomida ardoqlab, saqlab, uning boyishi, rivoji uchun qayg'urdi va kurashdi. Hazrat Alisher Navoiyning "Lison ut-Tayr" dostonida qushlar safari timsolida inson kamolotining etti bosqichi haqida so'z yuritiladi: talab, ishq, ma'rifat, istig'no, tavhid, hayrat, faqr fano. Dostonning maxsus bobbi "Ma'rifat vodiysining vasfi" deb nomlangan. Bob quyidagi baytlar bilan boshlanadi:

Ma'rifat vodiysin ondin singra bil,
Dashti bepoyonlig'in nazzora qil.
Kimki bu vodiyg'a bo'ldi muttasif,
Topti anda hollarni muxtalif.
Vodiyyadir yuz tuman ming onda yo'l,
Ul bu bir kelmay, oningdekkim bu ul.
Ixtilofi juzv ila kull mundadir –
Kim, taraqqiyu tanazzul mundadur.

Ma'rifat vodiysini "dashti bepoyon" ga qiyoslangan hazrat Navoiy unda "holler muxtalif" ekanini ta'kidlar ekan, "vodiyydur yuz tuman, ming onda yo'l" deya odamlarning ma'rifiy darajasi turlichay bo'lishiga ishora qiladi. Ulug' shoirning "juzv ila kull" – bo'lak va butun, taraqqiy va tanazzul ixtilofi haqidagi fikrlari buni tasdiqlaydi.

Mazkur bob davomida bayon etilishicha, bu vodiyyda "yuz tuman rahrav" (yo'lovchi) ni ko'rish mumkin. Pashsha ham, fil ham, jibril ham yo'lida. Muso-yu, Fira'vn, Mahdi-yu, Dajjal, Ahmad va Abu Jahl ham rahrav. Shunday bo'lg'ach, ulug' shoir ta'biri bilan aytganda: "Muxtalif bo'lmay ne bo'lsin munda ish". Ushbu mulohazalari tasdig'i uchun hazrat Navoiy hadis mazmunini keltiradi:

Mundin aytibdur nabu rahbar –
Kim, ulusqa Haq sari bo'lsa safar.
Istasang yo'l hasratig'a addu had,
Xalq anfosi bila teng bil adad.

Ya'ni haqqa eltuvchi yo'llar soni xaloyiqning nufuzu bilan barobar. Boshqacha aytganda, ma'rifati darajasiga ko'ra, har bir odam o'z yo'lini to'g'ri deb biladi. Bu mavzu doirasida ko'plab fikirlarni yurtish mumkinki, buyuk ajdodlarimizning merosi biz uchun tiganmaz tafakkur va ozuqa beradi.



ИҚТИСОД ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

ELEKTRON SAVDONI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI.

Yaqubova Xurshidabonu Davron qizi

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

Email: khurshida04.12@gmail.com

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada elektron savdo sohasini rivojlantirish mexanizmlari hamda ularning iqtisodiy o'sishga ta'siri tahlil qilinadi. Elektron to'lov tizimlari, raqamli infratuzilma, logistika xizmatlari va huquqiy me'yorlarni takomillashtirish kabi yo'nalishlardagi asosiy muammo va yechimlar yoritilgan. Shuningdek, mahalliy tadbirkorlik subyektlarini elektron savdo platformalariga jalg qilish orqali bozor faolligini oshirish bo'yicha amaliy takliflar ilgari surilgan. Maqolada xalqaro tajriba va milliy sharoitlar asosida elektron savdoni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari belgilangan.

АННОТАЦИЯ. В данной статье рассматриваются механизмы развития электронной торговли и их влияние на экономический рост. Анализируются ключевые направления — совершенствование электронных платёжных систем, цифровой инфраструктуры, логистических услуг и нормативно-правовой базы. Особое внимание уделяется привлечению местных предпринимателей к участию в электронных торговых платформах и активизации рыночной деятельности. На основе международного опыта и национальных условий определены приоритетные направления развития электронной торговли.

ANNOTATION. This article explores the mechanisms for developing e-commerce and their impact on economic growth. It analyzes key areas such as the improvement of electronic payment systems, digital infrastructure, logistics services, and the legal framework. Special attention is given to involving local entrepreneurs in e-commerce platforms and enhancing market activity. Based on international experience and national conditions, the article outlines priority directions for the advancement of electronic commerce.

KALIT SO'ZLAR: elektron savdo, elektron to'lov, tadbirkor, raqamli infratuzilma, iqtisodiyot, internet, raqamli texnologiya.

KIRISH.

Dunyo miqyosida internet-savdo hajmining izchil ortib borayotgani inkor etib bo'lmaydigan haqiqatdir. 2022-yilda pandemiya sharoitida elektron savdo yangi bosqichga ko'tarilib, iqtisodiyotning turli sohalarida rivojlanish imkoniyatini kengaytirdi. Yangi iste'molchilar sonining oshishi, onlayn va an'anaviy do'konlarda biznes jarayonlarining optimallashtirilishi, mahsulot taqdimotining innovatsion shakllari – bularning barchasi internet-savdo hajmining o'sishiga muhim omil bo'lib xizmat qildi.

O'zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirishga ko'maklashuvchi muhim omillardan biri bu sohaning qonunchilik asosida tartibga solinishidir. 2022-yilda yangilangan "Elektron tijorat to'g'risida"gi qonunni qabul qilindi. Ushbu qonun sohaga oid zarur qoidalar va me'yorlarni joriy etib, uni tartibga solish va rivojlantirishga xizmat qiladi. Qonun iste'molchilar hamda tadbirkorlarning huquqiy himoyasini ta'minlaydi, elektron bitimlarni amalga oshirish tartibini va qonunbuzarliklar uchun javobgarlik chorasi qilingan.

Qonunchilik va to'lov tizimlari ishonchli va barqaror elektron tijorat ekotizimini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ular jarayonning barcha ishtiroychilari – xaridorlar va sotuvchilar – huquq va manfaatlarini himoya qilishni ta'minlaydi. 2019-yilda qabul qilingan "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi qonun FinTech sektorining rivojlanishiga turtki berdi. Elektron to'lovlar onlayn savdoning ajralmas qismiga aylandi shuningdek iste'molchilar va tadbirkorlar uchun qulaylik va xavfsizlikni ta'minlamoqda. Ayni paytda O'zbekistonda onlayn tranzaksiyalarni soddalashtiruvchi bir nechta to'lov tizimlari faoliyat yuritmoqda.

Research Group Central Asia tadqiqot agentligi O'zbekiston aholisi o'rtaida so'rovnomaga o'tkazib, fuqarolar kundalik xaridlarni asosan qaysi platformalar orqali amalga oshirishini aniqladi. RGCA tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda 800 nafardan ortiq o'zbekistonlik ishtiroy etdi, tanlov esa



butun mamlakat aholisini vakillik darajasida aks ettiradigan tarzda tuzildi. So‘rovnama natijalariga ko‘ra, 98% ishtirokchilar Uzum Market’ni onlayn xaridlar uchun xizmatlar qatorida sanab o‘tgan. OLX’ni 69% respondent tilga olgan bo‘lsa, uchinchi o‘rinni 65% natija bilan Telegram egallagan. Shuningdek, ro‘yxatda Instagram (60%), Texnomart (43%) va Aliexpress (40%) ham qayd etilgan. Eng ko‘p foydalilanligan savdo platformalari reytingida ham Uzum Market birinchi o‘rinda turibdi (53%), bu ko‘rsatkich Telegramga nisbatan (14%) va Instagramga (10%) qaraganda ancha yuqori.

Ba’zi kompaniyalar bir vaqtning o‘zida bir nechta yo‘nalishni faol rivojlantirmoqda — bu Fintech, bozor maydoni va logistika sohalaridir. Ular shu orqali iste’molchilarga platformaviy yechimlarni taklif etishni, ya’ni to‘liq ekotizim yaratishni maqsad qilganlar.

Logistika va pochta xizmatlari ham bu muvaffaqiyatda kam bo‘lmagan muhim rol o‘ynaydi. Ularning keng tarmog‘i mahsulotlarni mamlakatning eng chekka hududlariga yetkazib berish imkonini beradi, bu esa elektron savdoni uzoq hududlarda yashovchilar uchun ham qulay va mavjud holga keltiradi. Masalan, milliy pochta xizmati 14 ta hududiy filial, 21 ta tumanlararo pochta yo‘nalishi, 143 ta tuman pochta bog‘lanmalari, 1804 ta pochta bo‘limi hamda shaharlarda va shaharcha turidagi posyolkalarda 1414 dan ortiq yetkazib berish punktlariga ega. Bu esa mamlakatda elektron tijorat uchun qulay infratuzilmani ta’minlaydi. Hozirgi vaqtida mamlakatda 78 dan ortiq elektron savdo platformalari faoliyat yuritmoqda va ularning soni doimiy ravishda ortib bormoqda. Regulyatorlikdagi o‘zgarishlar va xalqaro kompaniyalarni jalb etish mahalliy hamda xorijiy biznes uchun yangi istiqbollarni ochmoqda. Onlayn buyurtmalar mamlakat aholisi uchun tobora odatiy holga aylanib bormoqda — ofislarga tushlik yetkazib berishdan tortib, uyga oziq-ovqat mahsulotlari olib kelish yoki marketpleyslar orqali xarid qilib, mahsulotlarni o‘zi olib ketish punktlaridan olishgacha bo‘lgan xizmatlar kengaymoqda. Bu o‘sish e-commerce bozorining kengayishi hisobiga amalga oshmoqda: xalqaro kompaniyalar O‘zbekistonga faol kirib kelmoqda, mahalliy ishtirokchilar esa yangi yo‘nalishlarni rivojlantirmoqda. Infratuzilmani shakllantirish — bozorni yanada rivojlantirish uchun asosiy omillardan biridir. Mamlakatda logistika markazlari, omborxonalar, dasturiy yechimlar va marketing vositalari yetishmayotgani sezilmoqda. Logistika infratuzilmasini barpo etish jarayoni allaqachon boshlangan bo‘lsa-da, bu jarayon bir necha yilni talab qiladi. O‘zi olib ketish punktlari ham faol rivojlanmoqda, bu esa keng Mahalliy tadbirkorlarni elektron savdo platformalarida ishtirok etishga jalb qilish, xabardorlikni oshirish, o‘qitish va qulay sharoitlar yaratishni o‘z ichiga olgan kompleks yondashuvni talab qiladi. Quyidagi asosiy bosqichlarni ko‘rib chiqish mumkin:

1. Xabardorlikni oshirish va ommalashtirish

Axborot kampaniyalarini o‘tkazish (seminarlar, vebinarlar, ijtimoiy tarmoqlar, mahalliy OAV orqali). Platformalarda muvaffaqiyatga erishgan mahalliy tadbirkorlar haqidagi real hikoyalarni taqdim etish.

Onlayn savdoni boshlash bo‘yicha bukletlar, qo‘llanmalar va video yo‘riqnomalar yaratish.

2. O‘qitish va qo‘llab-quvvatlash

Elektron tijorat, marketing, logistika va platformalar (masalan, Wildberries, Ozon, Yandex.Market va boshqalar) bilan ishlash bo‘yicha bepul kurslarni tashkil etish.

“Tadbirkorga yordam markazi” orqali maslahatlar berish.

3. To‘siqlarni bartaraf etish

Platformalarda ro‘yxatdan o‘tish va YATT/Yuridik shaxs ochishda yordam ko‘rsatish.

Mahsulotlarni birinchi joylashtirish uchun subsidiya yoki grantlar ajratish.

Komissiyalarni kamaytirish yoki vaqtinchalik imtiyozlar berish (platformalar bilan kelishuvlar asosida).

4. Infratuzilmaviy qo‘llab-quvvatlash

Mahalliy hokimiyat yordami bilan logistika, qadoqlash, fotosuratga olish punktlarini tashkil etish.

Yetkazib berish, qaytarish, mahsulotlarni sertifikatlashtirish kabi masalalarda yordam ko‘rsatish.

5. Kooperatsiyaga birlashtirish

Tadbirkorlarning umumiy onlayn do‘konlari yoki vitrinalarini yaratishni rag‘batlantirish (masalan, “Hududda ishlab chiqarilgan” loyihasi). auditoriya uchun onlayn xaridlarni yanada qulayroq qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Karimov M.A., Tojiboyev N.A. Elektron tijorat asoslari. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2022.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori: “Raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali tadbirkorlikni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” — PQ-5044-son, 2021-yil 12-fevral.



3. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi (CERR): “O‘zbekistonda elektron savdo bozorining rivojlanish tendensiyalari”. Tahliliy hisobot, 2023-yil.
4. Савельев А.И. Правовое регулирование электронной коммерции в ЕАЭС и Узбекистане // Электронное право, №4, 2023.
5. Зулфия Худайбергановна Носирова ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ НА ЭТАПНОМ РАЗВИТИИ ЭЛЕКТРОННОЙ ТОРГОВЛИ В УЗБЕКИСТАНЕ // Academic research in educational sciences. 2021.
6. <https://uznews.uz/ru/posts/71460?ysclid=m5v0vpxwdp31517623>
7. <https://kapital.uz/electronaya-kommerciya-uzb/>
8. Mahalliy platformalar va xizmatlar:
uzum.uz – O‘zbekistonning elektron savdo platformasi
texnomart.uz – Onlayn do‘konlar tajribasi
mybaza.uz – Mahsulot joylashtirish xizmatlari



БАНКНИНГ МОЛИЯВИЙ АКТИВЛАРИ ВА УЛАРНИНГ БАНК ФАОЛИЯТИДАГИ ҮРНИ

Гадаев Бобуржон Хасанович
Ўзбекистон Республикаси БМА тингловчиси
Телефон: (97) 394-11-66
b_gadoev@mail.ru

Аннотация. Мазкур тезисда маҳаллий бюджетларни режалаштириш ва уни ижро этиш билан боғлиқ масалаларнинг илмий-назарий асослари таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: актив, даромад келтирувчи актив, молиявий активлар, даромад келтирмайдиган активлар, номоддий активлар, актив операциялар

Банк активлари - бу банкка тегишли ҳамда моддий қийматга эга бўлган қийматликлар: нақд маблағлар, қарзга берилган маблағлар, бинолар ва асбоб-ускуналардан ташкил топади. Булардан ташқари банкда номоддий активлар ҳам мавжуд бўлиб, булар ўзларининг моддий шаклига эга бўлмайдилар, аммо банкнинг асосий фаолиятида фаол иштирок этадилар.¹

Тижорат банкларида активлар даромадлилигини оширишнинг асосий шартларидан бири сифатида активларни тўғри таснифланиши муҳим аҳамият касб этади.

Амалиётда, тижорат банкларининг активлари ликвидлик, рискллик даражаси ва даромад келтиришига қараб таснифланади.

Хусусан, банк балансида активлар ликвидлик даражасига қараб юқори ликвидли активлар, ликвидли активлар, паст ликвидли (ноликвид) активларга ажратилади.

Бозор иқтисодиёти шароитида молия банк барқорорлигин таъминлаш, банкларнинг даромадлилик даражасини оширишда муҳим иқтисодий кўрсаткичлардан бири ликвидлилик ҳисобланади. Ушбу кўрсаткичнинг етарли даражада сақланаётгани республикамиз банкларининг халқаро миқёсдаги энг ишончли ва барқарор шериллар қаторида мустаҳкам жой олишда муҳим аҳамият касб этади. Шу сабабли, юқори ликвидлилик даражасига эга активларни таҳлил қилишга алоҳида эътибор қаратиш мақсадга мувофиқ, деб ҳисоблаймиз.

Юқори ликвидли активлар кассадаги ва йўлдаги нақд пуллар, қимматбахо тошлар, монета, чеклар ва бошқа пул ҳужжатлари, “Ностро” ва “Востро” счетларидағи қолдиқлар, мажбурий резервлар счети бўйича маблағлар қолдиги, қимматли қофозлар, хазина векселлари, давлат облигациялари киради.

Ликвид активларга, берилган кредитлар (жумладан банклараро ҳам), ўз инвестициялари, бошқа қимматли қофозлар муддати 30 кунгача бўлган дебиторлар киради.

Бундан ташқари, ноликвид (паст ликвидли) активларга, муддати ўтган кредитлар, муддати ўтган фоизлар, суд аралашуви билан ўзлаштирилиши кўзда тутилган кредитлар, тугалланмаган ишлаб чиқариш, асосий воситалар ва бошқа активлар киради.

Банк доимий тарзда ўзининг ликвидлилигини маълум бир даражада сақлаши керак, яъни ўзининг тўловга қобиллигини шубҳа остида қолдирмаслиги керак. Ликвидлиликка бўлган таълаб активлардан келадиган даромадни ошириш фаолитятига маълум даражада қарши туради. Банк активлари қанчалик ликвид бўлса шунча хатарлилик даражаси кичик бўлади, аммо мазкур активлар қисқа муддатларда сотилиш хусусиятига эга бўлганлиги сабабли, банк даромадини оширишда фаол иштирок этмайди.

Банк активлари даромадлилигига қараб даромад келтирувчи активлар ва даромад келтирмайдиган активларга бўлинади.

Даромад келтирувчи активлар қуйидагича таснифланади:²

- барча берилган кредитлар (жумладан банклараро кредитлар);
- инвестициялар;
- давлат облигациялари;
- қимматли қофозлар.

Активларнинг мақсадга мувофиқ жойлашиши бўйича умумий кўрсаткич даромад келтирувчи активларнинг умумий активлар суммасига нисбати орқали аниқланади.

¹ Абдуллаева Ш.З. Банк иш. -Т.: Молия 2003 йил, 131 б.

² Деньги, кредит и банки: учебное пособие / М.П. Владимира, А.И. Козлов – 2-е изд. – М.: КНОРУС, 2006. 288 с. С. -114



Тижорат банклари даромад келтирмайдиган активлар гурухига касса, Марказий банкдаги “Ностро” вакиллик ҳисобварағидаги маблағлар, асосий воситалар юқорида кўрсатиб ўтилди шундан хулоса қилиб банк активлари ҳажмида даромад келтирмайдиган активлар салмоғини юқори бўлиши банкнинг ресурслар базасида самарасиз ликвидлилик даражасини кўрсатади.

Бундан шуни хулоса қилиш мумкинки банк активлари тижорат банки томонидан амалга ошираётган актив операцияларига боғлиқ бўлиб, унинг кредит, инвестиция ва бошқа сиёsatларини юритиши, банкнинг стратегик мақсадлари, бизнес режаси, хизмат кўрсатилаётган мижозлар таркиби, мамлакат қонунчилиги, олиб борилаётган иқтисодий сиёsatга ва бошқа омилларга боғлиқ ҳолда шаклланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Абдуллаева Ш.З. Банк иш. -Т.: Молия 2003 йил, 131 б.
2. Деньги, кредит и банки: учебное пособие / М.П. Владимирова, А.И. Козлов – 2-е изд. – М.: КНОРУС, 2006. 288 с. С. -114



КАПИТАЛ БОЗОРИДА МОЛИЯВИЙ РЕСУРСЛАРНИ ЖАЛБ ҚИЛИШ ВОСИТАЛАРИ

Иброимов Азизжон Аламжонович
Ўзбекистон Республикаси БМА тингловчиси
Телефон: (99) 600-82-66
a_alamjonovich@mail.ru

Аннотация. Мазкур тезисда капитал бозорида молиявий ресурсларни жалб қилиш воситаларини қўллаш билан боғлиқ масалаларнинг илмий-назарий асослари таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: *капитал бозори, фонд биржаси, қимматли қоғозлар, евробондлар, акция, облигация*

Капитал бозорида узоқ муддатли ҳамда қисқа муддатли капитал ва мажбуриятлар ҳам кенг муомалада бўлади. Иқтисодий адабиётларда пул (қисқа муддатли) бозори ажратиб кўрсатилади ва ба фақат молиявий ресурсларни жалб қилиш муддати билан изоҳланади.

Молиявий воситаларни пул бозорига ёки капитал бозорига киритиш тушунчалик шартли ҳисобланиб, бозор субъектлари ўртасидаги ўзаро муносабатлар қимматли қоғозлар муомаласининг муддати ёки қарз капиталининг муддати, шунингдек жалб қилинган молиявий ресурсларнинг мақсадли йўналтирилганлиги билан белгиланади.¹

Капитал бозори инфратузилмаси субъектларининг функционал фарқланиши шартли бўлиб, бу эса иқтисодиётнинг корпоратив секторига молиявий ресурсларни жалб қилиш жараёнида ҳосил бўлган муносабатларнинг мураккаб хусусиятини намоён этади. Ушбу асосий қоидаларни умумлаштирган ҳолда қуйидагича изоҳлашимиз мумкин:

- хозирги босқичда капитал бозори репродуктив жараёнларни молиялаштиришнинг асосий манбаи ҳисобланади;

- капитал бозорининг даражаси ва ҳажми корпоратив секторнинг ривожланиш даражасига сезиллари даражада таъсир кўрсатади, чунки у: биринчидан, бизнесни ривожлантириш учун зарур бўлган молиявий ресурсларни жалб қилиш ҳамда иккинчидан молиявий ва иқтисодий фаолият жараёнида юзага келадиган рискларларни химоя қилиш механизмидир;

- капитал бозори тўғрисидаги тушунчалар маҳаллий ва хорижий муаллифларнинг асарларида турлича таснифланган бўлсада, унинг пировард моҳияти бир хил ҳисобланади. Шунинг учун, биз капитал бозорини институционал нуқтаи назардан кредит бозори ва қимматли қоғозлар бозори мажмуаси сифатида кўриб чиқишига қаратилган ёндашувни танладик. Капитал бозорининг ҳар бир тури ва унинг алоҳида сегментлари ўзига хос хусусиятларга эга бўлсада, корпоратив сектор учун молиявий ресурсларни ушбу сектор эҳтиёжларига кўра таъминлайди.

Капитал бозорининг молиявий инфратузилмасини асосий турлари бўйича қуйидагича таснифлаш мумкин:

1. Базавий инфратузилма:

- дунёнинг исталган нуқтасида корпоратив сектор учун глобал молиявий бозорнинг мавжудлиги;

- капитал бозорида пул оқимларнинг номутаносиблиги (шу жумладан давлат маблағларининг ҳам);

- кенг иштирокчилар таркиби: ТМК, МК, банклар, давлатлар, суғурта компаниялари, пенсия фонdlари, брокерлик ташкилотлари, дилерлар ва бошқалар;

- ҳосилавий қимматли қоғозлар билан операциялар ҳажмининг ўсиши.

2. Тартибга солувчи инфратузилма:

- ҳалқаро капитал бозори учун корпоратив секторнинг очиқлиги;

- тартибга солиш молиявий марказ иштирокчиларининг танлови асосида миллий тартибга солиш устидан ва миллий тартибга солиш қоидаларидан ташкил топиши;

- бозор иштирокчиларини молиявий институтлар томонидан манипуляциядан химоя қилиш даражасининг ошиши.

3. Ёрдамчи инфратузилма:

- корпоратив секторда гибрид молиявий воситаларини яратиш ва улардан фойдаланиш;

¹ Гинзбург А.И. Экономический анализ: Учебник для вузов. 3-е изд. Стандарт третьего поколения. Учебник для вузов. Издательский дом «Питер». – С. 43-45.



- дунёнинг етакчи молиявий марказларида молиявий воситачилар концентрацияси (бирлашиши);
- бозорда операцияларни амалга оширишда IT-технологиялардан фойдаланиш (масалан: Reuters, Bloomberg, CRM ва бошқалар).¹

Капитал бозорининг инфратузилмаси мамлакатда капитал бозори фаолиятини ташкил этиш ва ривожлантиришнинг фундаментлар асосини ташкил қиласи. Юқоридаги ҳар бир босқичнинг ўзаро уйғунлигини таъминлаш орқали иқтисодиётнинг корпоратив секторига молиявий ресурслар жалб қилишда жараёнида оптимал қарорлар қабул имконини яратади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Гинзбург А.И. Экономический анализ: Учебник для вузов. 3-е изд. Стандарт третьего поколения. Учебник для вузов. Издательский дом «Питер». – С. 43-45.
2. Хасанов Х.Н. Иқтисодиётнинг корпоратив секторига капитал бозоридан молиявий ресурсларни жалб қилиш амалиётини такомиллаштириш, Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (doctor of philosophy) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация иши, 2020 йил

¹ Хасанов Х.Н. Иқтисодиётнинг корпоратив секторига капитал бозоридан молиявий ресурсларни жалб қилиш амалиётини такомиллаштириш, Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (doctor of philosophy) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация иши, 2020 йил



ДАВЛАТ МОЛИЯВИЙ НАЗОРАТИНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ

Нуриддин Исмоилов
Ўзбекистон Республикаси БМА тингловчиси
Телефон: (97) 411-93-86
n_ismoilov@mail.ru

Аннотация. Мазкур тезисда давлат молиявий назоратини ташкил этиш ҳамда амалга оширишнинг илмий-назарий асослари таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: бюджет, маҳаллий бюджет, маҳаллий бюджет даромадлари, трансферлар, дотация, бюджет дефекти, Ҳисоб палатаси, молиявий назорат

Молиявий назорат молиявий менежмент тизимининг муҳим қисми бўлиб, унинг замонавий дунёда тобора ортиб бораётган аҳамияти, бошқа нарсалар қатори, аудит бўйича кўрсатмаларнинг Лима декларациясида акс эттирилган, унга кўра молиявий назорат давлат молиясини бошқаришнинг ажралмас қисми хисобланади.

Давлат молиявий назорати органларининг ишлаш тамойиллари муайян мамлакатда шаклланган молиявий назорат моделига боғлиқ. Илғор тажрибани аниқлаш мақсадида ривожланган давлатларнинг давлат молиявий назорати соҳасидаги тажрибаси, жумладан, давлатларнинг хукуқий хужжатлари, шунингдек, молиявий назорат органларининг расмий веб-сайтлари таҳлил қилинди. Тадқиқотда давлат молиявий назорати соҳасида катта тажриба тўплаган ва ушбу соҳада стандартлаштириш жараёнини фаол ривожлантиришда давом этаётган давлатлар танлаб олинди. Бунда тажрибани таққослаш бир неча даражаларда амалга оширилди: давлат молияси устидан умумий назорат, парламент ва ҳукумат давлат молиявий назорати, шунингдек, давлат органларида ички назорат ва ички аудит.

Давлат молиявий назорати давлатнинг молиявий сиёсатини амалга оширишга ва молиявий барқарорлик учун шароитларни яратишга қаратилган. Бу нарса, энг аввало, барча даражалардаги бюджетлар ва бюджетдан ташқари жамғармаларни шакллантириш, муҳокама қилиш, тасдиқлаш ва ижро этиш, корхона ва ташкилотлар, банклар ва молиявий корпорацияларнинг молиявий фаолияти устидан назоратни англатади.

Давлат молиявий назоратининг турлари қўйидаги қилиб белгиланган:
дастлабки назорат — молиявий операциялар бажарилгунига қадар амалга ошириладиган;
жорий назорат — молиявий операциялар бажарилиши жараёнинда амалга ошириладиган;
якуний назорат — молиявий операциялар бажарилганидан сўнг амалга ошириладиган назоратлардир.

Давлат молиявий назоратининг усуллари қўйидагилардир:
хужжатларни текшириш хажмига қараб:

ёппасига назорат — текширилаётган давр учун барча бухгалтерия, молия, статистика, банк хужжатлари ва бошқа хужжатларни назорат қилиш;

танлов асосидаги назорат — муайян давр учун бухгалтерия, молия, статистика, банк хужжатлари ва бошқа хужжатларнинг айrim қисмларини назорат қилиш;

назоратнинг мақсадга йўналтирилганлиги ва предметига қараб:

комплекс назорат — молиявий назорат объектининг муайян давр учун молиявий-хўжалик фаолиятининг барча йўналишларини назорат қилиш;

мавзули назорат — молиявий назорат объектининг муайян давр учун айrim масалалар бўйича фаолиятини назорат қилиш;

муқобил назорат — операциялар ягоналиги билан ўзаро боғлиқ бўлган ва турли молиявий назорат обьектларида турган хужжатларни солиштиришни ўз ичига олган текшириш.¹

Қонунчилигимизга асосан давлат молиявий назорати тафтиш, текшириш (шу жумладан бюджет тўғрисидаги қонун хужжатларининг аввалги тафтишда ёки текширишда аниқланган бузилиши ҳолларини бартараф этиш юзасидан назорат тартибидаги текшириш) ва ўрганиш шаклида амалга оширилади.

2021 йил 27 августда Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан “Давлат молиявий назорати”
1 Ваҳобов А., Срожиддинова З. Ўзбекистон Республикаси Давлат бюджети – Т.: Молия, 2005. -360 б.



назорати тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони қабул қилинди.

Бунда, Давлат молиявий ресурсларини самарали бошқариш ҳамда давлат маблағларидан мақсадли ва оқилона фойдаланиш борасида ривожланган давлатлар тажрибасидан келиб чиқиб, давлат молиявий назорати тизимини янада такомиллаштириш назарда тутилмоқда.¹

Давлат бюджети давлат молияси тизимида марказий ўринни эгаллайди. Иктисодиёт ривожланишини турли босқичларида бюджет давлат сиёсатини амалга ошириш қуроли, мўлжалланган дастурлар ва тадбирларни амалга ошириш учун пул маблағларининг асосий манбаи ҳисобланади. Шундай экан, бюджет ижроси устидан назорат-тафтиш ишларини ташкил этиш давлат ўз олдига қўйган вазифаларини бажаришида катта аҳамият касб этади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ваҳобов А., Срожиддинова З. Ўзбекистон Республикаси Давлат бюджети – Т.: Молия, 2005. -360 б.

2. 2021 йил 27 августда Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан “Давлат молиявий назорати тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони

¹ 2021 йил 27 августда Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан “Давлат молиявий назорати тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони



**ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ ФОЙДА ТАҚСИМОТИДА ФОЙДАЛАНИЛАДИГАН
АХБОРОТ МАНБАЛАРИ**

Мамиров Мухаммад Тоирович
 Ўзбекистон Республикаси БМА тингловчиси
 Телефон: (94) 241-41-14
 m.toirovich@mail.ru

Аннотация: Мазкур тезисда тижорат банклари фойда тақсимотида банкнинг молиявий ҳолатини акс эттирувчи ахборот манбаларидан фойдаланиш масалалари ёритилган.

Калит сўзлар: *фойда, рентабеллик, дивиденд, дивиденд сиёсати, молиявий ҳисоботлар, режалаштириши, назорат риски, топа омласлик риски*

Банк фаолияти ва унинг фаолияти натижалари ҳақида кенгроқ ва умумлашган маълумотлар молиявий ҳисоботларда акс эттирилади. Шу сабабли, банк ҳисоботларининг асосий моҳияти - банк фаолияти ҳақида тўғри, тўлиқ ва ишончли иқтисодий маълумотлар манбаси бўлиб ҳисобланишидир. Банк ҳисоботлари инвесторлар, кредиторларга ва бошқа банк мижозларига тушунарли бўлиши, уларга жалб қилинаётган ресурсларнинг таркиби, турлари ва жойлашиши, кутилаётган даромадларнинг суммаси ва вақти, кредитлар ва бошқа активлар бўйича кўрилиши мумкин бўлган заарларни қоплаш захираларининг мавжудлиги, банк капитали таркиби ва бошқалар тўғрисида тегишли маълумотларни бериши лозим.

Банк эгалари учун, шу билан бирга унинг ҳиссадорлари учун бу маълумотлар банк маблағларининг қандай жалб қилинаётганлиги, улардан қай усулда фойдаланилаётганлиги, банк актив операциялардан қандай молиявий натижалар кутилаётганлигини билиш учун жуда муҳимдир. Бундан ташқари, бухгалтерия ҳисоби маълумотлари банк раҳбарлари, унинг ходимлари, айни чоғда банк мижозлари учун ҳам қизиқарлидир. Чунки банк раҳбарлари ва барча ходимлари банкнинг қунлик активлари ва мажбуриятларининг ҳолати, даромадлари ва харажатларининг структураси билан қизиқсалар, банк мижозлари эса банк ликвидлиги ва унинг барқарорлик даражасини билишни истайдилар. Банк молиявий ахволи ёмонлашувини сезган мижозлар бошқа барқарор банкка ўз маблағларини ўтказиб унинг хизматидан фойдаланишни афзал кўрадилар.¹

1-жадвал

Банк фойда кўрсаткичларидан манфаатдорлар ва уларнинг манфаати учун зарур бўлган маълумотлар

№	Фойдаланувчилар	Фойдаланувчиларнинг манфаати учун зарур бўлган маълумотлар
1	Акциядорлар	Банкнинг молиявий ҳолати ва дивидендлар фоизи бўйича келгусидаги дивиденд сиёсати
2	Инвесторлар	Маблағларни сарфлашдан кўриладиган иқтисодий самарадорлик ва таваккалчилик даражаси
3	Кредиторлар ва депозиторлар	Банкнинг молиявий барқарорлиги, яъни кредиторлар ва депозиторларни ва уларга ҳисобланган фоизларни тўлаш имконияти ва ҳоказо.
4	Хорижий банклар	Банк корреспондентнинг ишончлилиги
5	Марказий банк	Банкнинг самарали бошқарилётганлиги тўғрисидаги маълумотлар
6	Давлат солиқ қўмитаси	Активлар, даромад, харажатлар ва солиқ тўланиши бўйича маълумотлар
7	Бошқа давлат органлари	Миллий даромадлар тўғрисидаги маълумотлар, харажатлар ва бошқа статистик маълумотлар
8	Ходимлар	Мехнат ҳақини тўлаш қобилияти

Манба: Муаллиф томонидан ишилаб чиқилган.

Агар маъмурий - режали иқтисодиёт шароитида давлат бошқаруви органлари банк ахборотининг асосий истеъмолчилари ҳисобланган бўлса, ҳозирда банк ҳисоботнинг тамомила янги фойдаланувчилари - акционерлар, инвесторлар, кредиторлар, депозиторлар, чет эл банклари, молия муассасалари ва бошқаларнинг жадал кўпайишига олиб келди. Акционерлар банкни бошқариш ҳамда банк бошқаруви тўғрисидаги ҳисоботлар ҳақида, банкларнинг

¹ Смирнова Л.Р.Банковский учет : / Л.Р.Смирнова; Ред. М.И.Баканов. -М: Финансы и статистика, 2010. 432с.



дивиденdlар тўлаш қобилияти ҳақида, инвесторлар - ўз қўйилмалари билан боғлиқ хатар, берган инвестицияларидан олинадиган даромадлар тўғрисида, кредиторлар ва депозиторлар - банк берилган суммалар бехавотир турганидан ва қайтарилишидан далолат берувчи банк молиявий кучи ва фаолияти ҳақида маълумот олишга муҳтожлар.¹

Чет эл банклари вакил банк ишончлилигини тасдиқлайдиган ахборот олишдан манфаатдордирлар. Давлат солик қўмитасига солик низомлари ва қонунларини ишлаб чиқиша фойдаланиш мумкин бўладиган банк активлари, даромадлари ва харажатлари тўғрисида, марказий банкка банкларни бошқариш сифати тўғрисида хуносалар чиқариш учун зарур маълумотлар керак. М.Марпатов молиявий ҳисоботда тақдим қилиниши лозим бўлган ахборот тизими қуидаги расмга туширган.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Смирнова Л.Р.Банковский учет : / Л.Р.Смирнова; Ред. М.И.Баканов. -М: Финансы и статистика, 2010. 432с.
2. Ибрагимов А.К, Марпатов, Н.Ризаев. (2010) Халқаро молиявий ҳисобот стандартлари асосида банкларда бухгалтерия ҳисоби. Ўқув қўлланма. Тошкент, Молия, 272 б.

¹ Ибрагимов А.К, Марпатов, Н.Ризаев. (2010) Халқаро молиявий ҳисобот стандартлари асосида банкларда бухгалтерия ҳисоби. Ўқув қўлланма. Тошкент, Молия, 272 б.



МОДЕРНИЗАЦИЯ ШАРОИТИДА МИЛЛИЙ ИҚТИСОДИЁТНИ ДАВЛАТ ТОМОНИДАН ТАРТИБГА СОЛИНИШИ

Наврӯзбек Озодов
Ўзбекистон Республикаси БМА тингловчиси
Телефон: (99) 734-43-39
navruz_ozodov@mail.ru

Аннотация. Мазкур тезисда миллий иқтисодиётнинг давлат томонидан тартибга солинишининг илмий-назарий асослари тадқиқ этилган.

Калит сўзлар: *модернизациялаш, миллий иқтисодиёт, хусусийлаштириши, иқтисодиётни тартибга солиши, Ҳаракатлар стратегияси*

Иқтисодиётда давлат ролини камайтириш, энг аввало, хусусий мулк хуқуқини ҳимоя қилиш ва унинг устувор мавқеини янада ошириш, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик ривожини рағбатлантиришга қаратилган институционал ва таркибий ислоҳотларни давом эттириш мақсадида 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси қабул қилинди. «Ҳаракатлар стратегиясининг мақсади олиб борилаётган ислоҳотлар самарадорлигини тубдан оширишдан, давлат ва жамиятнинг ҳар томонлама ва жадал ривожланишини таъминлаш учун шартшароитлар яратишдан, мамлакатни модернизациялаш ва ҳаётнинг барча соҳаларини эркинлаштиришдан иборатдир»¹ Ушбу стратегик ҳаракатнинг учинчи устувор йўналиши бевосита иқтисодиётни ривожлантириш ва либераллаштиришга бағишлиланган.

Мамлакатимиз Президенти Шавкат Мирзиёев иқтисодиётни тартибга солишида давлатнинг роли масаласига алоҳида эътибор қаратиб, «2017 йилда иқтисодиёт соҳасида замон талабларига жавоб берадиган, янгича маъно-мазмундаги ва самарали ислоҳотларни амалга ошириш йўлида биринчи қадамларни қўйдик. Иқтисодиётимизни мутлақо янги асосда ташкил этиш ва янада эркинлаштириш, унинг хукуқий асосларини такомиллаштириш, ишлаб чиқаришни модернизация ва диверсификация қилиш бўйича қатор қонунлар, фармон ва қарорлар, пухта ўйланган дастурлар қабул қилинди ва улар изчил амалга оширилмоқда», дея таъкидлаган.²

Давлатнинг иқтисодиётни тартибга солиш масаласига узоқ йиллар давомида иқтисодчи олимлар томонидан эътибор қаратиб келинган. Мазкур муаммога нисбатан турли илмий мактаблар ва йўналишлар амалиётчиларнинг ўзаро кескин, зиддиятли қарашлари, ёндашувларининг тадрижий кураши асосида шаклланган. Иқтисодиёт ривожланишида давлатнинг роли масаласида ҳозирги замон иқтисодиёти назарияси асосчилари ҳисобланган олимлар А.Смит (1723-1790) ва Д.Рикардо (1772-1823)ларнинг қарашлари давлатнинг ҳар қандай аралашуви натижада иқтисодий тараққиётни секинлаштиради, деган фикрлар билан изохланади. Масалан, А.Смит ғояси қўйидаги: «Бозор иқтисодиёти ўзини-ўзи бошқаришга мослашган, унинг асосида кўпроқ фойда олишга ҳаракат қилиш билан боғлиқ «кўринмас қўл», яъни шахсий манфаат ётади». А.Смит холосасига кўра, иқтисодиётни тартибга солишида давлат аралашуви камайтирилса, иқтисодиёт самарали амал қиласи ва бозор бутунлай эркин бўлиши зарур, деб таъкидлайди.

Инглиз иқтисодчиси Ж.М.Кейнс (1883-1946) таклиф этган концепция иқтисодиётни тартибга солишида давлатнинг роли ҳақидаги қарашлар ривожланишида янги ва муҳим босқич ҳисобланади. У тартибга солишнинг бозор механизми билан мувофиқлаштирилган иқтисодиётда давлат аралашувисиз иқтисодиёт самарали ривожлана олмаслигини қўрсатиб беради, бандлик даражаси ва иқтисодий ўсишни фақат давлатнинг иқтисодиётга фаол аралашуви таъминлай олади, деган ғояларни илгари суради.

Иқтисодиётни давлат томонидан тартибга солиш қўйидаги қоидаларга асосланади:

– давлат иқтисодиётни тартиблаганда жамият манфаатларини кўзлаши, умуниқтисодий аҳамиятга эга бўлган чора-тадбирларни кўллабқувватлаши зарур;

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги ПФ-4947-сон фармони.

² Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. // «Халқ сўзи», 2017 йил 23 декабрь



- давлат иқтисодиётни тартиблашда маъмурий воситалардан эмас, балки хилма-хил иқтисодий воситалар мажмуудан фойдаланиши зарур;
- давлат тадбиркорларнинг эркин, ўзаро рақобат қилишлари учун шароит яратиши талаб қилинади, давлат ракобат кураши иштирокчиси эмас, балки унинг олий ҳаками вазифасини бажаради;
- давлат сиёсати мамлакатда ижтимоий барқарорлик, ҳамкорлик ва ҳамжихатликни таъминлаш орқали иқтисодий ўсиш ва оммавий фаровонликни таъминлашга қаратилиши зарур.

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, бугунги кунга келиб давлат томонидан иқтисодиётни тартибга солиш зарурлиги деярли барча иқтисодчи олимлар ва мутахассислар томонидан ётироф этилмоқда. Миллий тараққиёт моделимизнинг асосий тамойилларидан бири – давлат бош ислоҳотчилик роли ҳисобланиб, мавжуд иқтисодий салоҳиятдан тўлиқ фойдаланган ҳолда барча кучларни ягона мақсад сари йўналтиришда давлатнинг тартибга соловчи вазифасидан самарали фойдаланиш мақсадга мувофиқдир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги ПФ-4947-сон фармони.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. // «Халқ сўзи», 2017 йил 23 декабрь



МАҲАЛЛИЙ БЮДЖЕТНИНГ ҚЎШИМЧА ДАРОМАДЛАРИНИ ШАКЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ

Сотвoldиев Дилмурод Анваржон ўғли
Ўзбекистон Республикаси БМА тингловчиси
Телефон: (91) 159-80-88
d_sotvoldiev@mail.ru

Аннотация. Мазкур тезисда маҳаллий бюджетнинг қўшимча даромад манбаларини шакллантиришнинг илмий-назарий асослари таҳлил килинган.

Калит сўзлар: бюджет, маҳаллий бюджет, маҳаллий бюджет даромадлари, трансферлар, дотация, бюджет дефекти

Маҳаллий бюджетларнинг солиқдан ташқари тушумларининг таркиби ва таснифи нафақат назарий, балки амалий характерга ҳам эга. Хусусан, маҳаллий бюджетнинг солиқдан ташқари тушумлари таркиби қайси даромадлар маҳаллий мустақиллигини таъминлашини белгилаб беради ва уларни таснифлаш маҳаллий давлат ҳокимияти органлари фаолияти самарадорлигини тўғри баҳолашга ёрдам беради. Шу муносабат билан давлат бюджети сиёсатининг муҳим таркибий қисмларидан бири бу барча даражадаги бюджет даромадларининг таркиби ва таснифини уларда муассасаларнинг содир бўлаётган энг муҳим иқтисодий жараёнларни акс эттириш ва стратегик давлат вазифалари ижросини таъминлаш мақсадида оптималлаштириш ҳисобланади.¹

Бугунги кунда маҳаллий бюджетларнинг солиқдан ташқари тушумларига қўйидагилар киради:

1) ҳокимиятга тегишли мол-мулқдан фойдаланишдан олинган даромадлар, бюджет ва автоном муассасаларнинг мол-мулки, шунингдек, муниципалитет унитар корхоналари, шу жумладан давлат мулки мулки бундан мустасно;

2) ҳокимиятга тегишли бўлган мол-мулкни (улушлар ва капиталда иштирок этишнинг бошқа шаклларидан ташқари) сотищдан олинган даромадлар, бюджет ва автоном муассасаларнинг мол-мулки, шунингдек, ҳокимият унитар корхоналари, шу жумладан давлат мулки бўлган мулк бундан мустасно;

3) давлат муассасалари томонидан кўрсатиладиган пуллик хизматлардан олинган даромадлар;

4) фуқаролик, маъмурий ва жиной жавобгарлик чораларини қўллаш натижасида олинган маблағлар, шу жумладан жарималар, мусодара, компенсациялар, шунингдек ҳокимиятларга этказилган заарнинг ўрнини қоплаш учун олинган маблағлар ва бошқа мажбурий олиб қўйиш суммалари;

5) фуқароларнинг ўз-ўзини солиқка тортиш воситалари;

6) бошқа солиқ бўлмаган тушумлар.

Ҳокимиятга тегишли мулқдан фойдаланишдан олинадиган солиқ бўлмаган тушумларнинг таркиби:²

1) коммунал мулкни ҳақ тўланадиган фойдаланишга топшириш учун ижара ёки бошқа тўловлар шаклида олинган даромадлар, бюджет ва автоном муассасаларнинг мол-мулки, шунингдек, муниципал унитар корхоналарнинг, шу жумладан давлат мулки бўлган корхоналарнинг мол-мулки бундан мустасно;

2) банк ҳисобварақларидаги бюджет маблағларининг қолдиқлари бўйича фоизлар шаклида олинган маблағлар;

3) бюджет ссудаларидан фойдаланганлик учун тўловлар;

4) қонунларда белгиланган ҳоллар бундан мустасно, хўжалик ширкатлари ва жамиятларининг устав капиталидаги улушларга ёки маҳаллий бошқарув органларига тегишли улушлар бўйича дивидендларга тегишли фойда кўринишидаги даромадлар;

1 Денисов Я.А Пути совершенствования бюджетной политики – М.: Экономика и политика, 2013. № 8 15-16 с.

2 Қосимова Г. Маҳаллий бюджетларни тузиш ва ижросини таъминлаш.–Т.: Фан ва технологиялар, 2007. 268 б.



5) муниципал унитар корхоналар фойдасининг солиқлар ва бошқа мажбурий тўловлар тўланганидан кейин қолган қисми;

6) Конунларда назарда тутилган муниципал мулқдаги мол-мулқдан фойдаланишдан олинган бошка даромадлар, бюджет ва автоном муассасаларнинг мол-мулки, шунингдек, муниципал унитар корхоналарнинг, шу жумладан давлат мулки мулки бундан мустасно.

Бугунги кунда маҳаллий бюджетнинг коммунал мулк объектларини сотишдан тушадиган даромадлари таркибига мулкни сотишдан олинган даромадлар (солиқ бўлмаган тушумлар) ва муниципалитетга тегишли бўлган улушлар ва капиталдаги иштирокнинг бошқа шаклларини сотишдан олинган даромадлар (маҳаллий бюджет такчиллигини молиялаштириш манбай) киради.

Таклиф этилаётган тавсиялар жамланган ҳолда, амалдаги бюджет таснифида маҳаллий бюджетлардаги ҳақиқий иқтисодий жараёнларни акс эттириш ва маҳаллий бюджетларнинг мавжуд солиқ бўлмаган тушумларини янада аниқроқ ҳисобга олиш ва янгиларини ишлаб чиқиши орқали муниципалитетларнинг мустақиллигини ошириш имконини беради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Денисов Я.А Пути совершенствования бюджетной политики – М.: Экономика и политика, 2013. № 8 15-16 с.

2. Қосимова Г. Маҳаллий бюджетларни тузиш ва ижросини таъминлаш.–Т.: Фан ва технологиялар, 2007. 268 б.



МАҲАЛЛИЙ БЮДЖЕТЛАРНИ РЕЖАЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ

Хожиев Шоҳрӯз Ҳаётзода
Ўзбекистон Республикаси БМА тингловчиси
Телефон: (99) 647-06-00
sh_xojoiev@mail.ru

Аннотация. Мазкур тезисда маҳаллий бюджетларни режалаштириш ва уни ижро этиш билан боғлиқ масалаларнинг илмий-назарий асослари таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: бюджет, маҳаллий бюджет, маҳаллий бюджет даромадлари, трансферлар, дотация, бюджет дефекти

Маҳаллий бюджет – Давлат бюджетининг тегишли вилоят, туман, шаҳар пул маблағлари жамғармасини ташкил этувчи бир қисми бўлиб, унда даромадлар манбалари ва улардан тушумлар миқдори, шунингдек, молия йили мобайнида аниқ мақсадлар учун ажратиладиган маблағлар сарфи йўналишлари ва миқдори назарда тутилади. Маҳаллий бюджет асосий молиявий режа сифатида тегишли худуднинг иқтисодий ва ижтимоий тараққиётнинг барча соҳалари ҳамда йўналишларини тўла қамраб олади. Маҳаллий бюджетлар маҳаллий ҳокимият органлари нинг фаолият кўрсатишларида молиявий манба бўлиб хизмат қиласи.

Бюджетни режалаштириш - бу меъёрий-хукуқий база ва ташкилий асослардан фойдаланган холда турли даражадаги бюджетларни тузиш ва ижро этиш тартиби, бюджетлаштириш назарияси ва методологияси масалалари.

Бюджет жараёни бюджетни режалаштиришнинг асосий шакли бўлиб, федерал, минтақавий ва маҳаллий бюджетларни тузиш, кўриб чиқиши, тасдиқлаш ва ижро этиш бўйича қонун билан тартибга солинадиган давлат органлари фаолиятидан иборат.¹

Режалаштирилган бюджет кўрсаткичларини ҳисоблаш усуллари ва усулларини ифодаловчи бир канча бюджет режалаштириш усуллари мавжуд.

Бюджетни режалаштириш усуллари:

Иқтисодий таҳлил - бу муносабатлар, таъсиrlар ва ривожланиш тенденцияларини аниқлаш мақсадида иқтисодий жараёнлар ва ҳодисаларни ўрганиши. У ўтган даврдаги бюджет ижросини таҳлил қилиш, даромадларни ошириш захираларини аниқлаш ва бюджет маблағларини сарфлашнинг мақбуллигини аниқлаш учун ишлатилади. Бу усул иқтисодий жараёнлар ҳақида тушунчага эга бўлиш ва асосланган қарорлар қабул қилиш имконини беради.

Индекс усули - иқтисодий кўрсаткичлар (инфляция, олинган даромад, иш ҳақи) ўзгаришини прогноз қилиш учун индекслардан фойдаланиши. Инфляция ва бекарор иқтисодиёт шароитида қўлланилади. Ушбу усулдан фойдаланиши осон ва ўзгаришларнинг бюджетга таъсирини тезда баҳолайди. Аммо битта камчилик бор: агар асосий кўрсаткичлар объектив бўлмаса, у нотўғри бўлиши мумкин.

Норматив усул - бюджет кўрсаткичларини ҳисоблаш учун норма ва стандартлардан фойдаланиши. У бюджет муассасалари ва ижтимоий дастурларни саклаш харажатларини ҳисоблаш учун ишлатилади. Ушбу усул харажатларни ҳисоблашда ягона ёндашувни таъминлайди ва улардан фойдаланиши осон.

Баланс усули ресурсларга бўлган эҳтиёж ва молиялаштириш манбалари ўртасидаги боғлиқликдир. Бюджет маблағларини ҳудудлар ўртасида тақсимлаш учун фойдаланилади. Шунингдек, у бюджет балансини ва ресурсларни самарали тақсимлашни таъминлайди.

Дастурий-мақсадли усул - бу аниқ мақсад ва муддатларга эга давлат дастурларини ишлаб чиқиши ва амалга оширишдир. Ривожланишнинг устувор йўналишларини (фан, таълим, соғлиқни сақлаш) молиялаштириш учун фойдаланилади. Бу усул муаммоларни ҳал қилишда комплекс ёндашувни таъминлайди ва бюджет маблағларини сарфлаш самарадорлигини оширади.

¹ Абулқосимов Х.П., Абулқосимов М.Х. Иқтисодиётга оид атама ва тушунчаларнинг изоҳли луғати. – Т.: “ABU MATBUOT-KONSALT”, 2017. – 628 б.



Иқтисодий
тахлил усули

Индекс усули

Норматив усул

Баланс усули

Дастурий-
мақсадли усул

1-расм. Бюджетни режалаштириш усуллари¹

Бюджетни режалаштириш усуллари мослашувчан, иқтисодиёт ва ижтимоий соҳадаги ўзгаришларга мос бўлиши керак. Шуни таъкидлаш керакки, амалда аниқ вазифалар ва шартларга қараб бюджетни режалаштиришнинг бир эмас, балки бир нечта усуллари кўпинча қўлланилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Абулқосимов Ҳ.П., Абулқосимов М.Ҳ. Иқтисодиётга оид атама ва тушунчаларнинг изоҳли луғати. – Т.: “ABU MATBUOT-KONSALT”,2017. – 628 б.
2. Қосимова Г. Маҳаллий бюджетларни тузиш ва ижросини таъминлаш.–Т.: Фан ва технологиялар,2007. 268 б.

¹ Қосимова Г. Маҳаллий бюджетларни тузиш ва ижросини таъминлаш.–Т.: Фан ва технологиялар,2007. 268 б.



XORAZM VILOYATIDA XALQARO TURIZM XIZMATLARIDAN FOYDALANISH HOLATI

Salayeva Dilrabo Abdullayevna,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xorazm viloyati mintaqasida xalqaro turizm xizmatlarining zaruriyati, mavjud imkoniyatlari, o‘ziga xos xususiyatlari va undan foydalanish holati yoritilgan hamda ushbu samarali amalga oshirish yuzasidan xulosalar bayon etilgan.

Аннотация. В статье рассматривается потребность в услугах международного туризма в Хорезмской области, их современные возможности, особенности и использование, а также делаются выводы об их эффективной реализации.

Abstract. This article discusses the need for international tourism services in the Khorezm region, their current capabilities, specific features and the state of their use, and draws conclusions about their effective implementation.

Kalit so‘zlar. Turizm, xalqaro turizm, mintaqa, xizmat, holat.

Ключевые слова. Туризм, международный туризм, регион, услуга, ситуация.

Key words: Tourism, international tourism, region, service, state.

Bugungi kunda xizmat ko‘rsatish sohasi vaziyat uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Avvalo, ushbu soha sanoati rivojlangan mamlakatlar yirik qismini ifodalab, jami ishlab chiqarish tizimiga tezda o‘zlashtiriladi. Bu modernizm va bozor integratsiyasi uchun muhim ahamiyatga ega [1]. Xizmatlar sohasining tarkibida xizmat ko‘rsatish amalga oshiriladi va turizm sohasida ushbu xizmat ko‘rsatish o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ladi. Bu borada xalqaro turizm xizmatlari turli xizmat turlaridan iborat bo‘ladi. Xalqaro turizm xizmatlari o‘z ichiga sayyoohlarga turli mamlakatlarda dam olish, sayohat qilish va turli xil qiziqarli faoliyatlar bilan shug‘ullanish imkoniyatini beruvchi xizmatlar majmuini oladi. Ushbu faoliyatning asosiy maqsadi sayyoohlarga qulay va maroqli sayohat qilishlari uchun barcha zarur xizmatlarni taqdim etishdir [2].

Xizmatlar jahon iqtisodiyotiga xos tushuncha sifatida savdo-sotiq munosabatlarni amalga oshirishda ham alohida o‘rin tutadi. Ya’ni, xizmatlar xalqaro savdoning eng muhim segmentlaridan biri bo‘lib, asosiy tovarlar narxlarining o‘zgarishiga qarab, ularning ulushi jahon eksporti va importi hajmining taxminan 1/5 qismini tashkil qiladi [3]. Turizm sohasidagi xizmatlar turistlar ehtiyojlarini qondirishga qaratiladi. Xususan, turistik xizmatlar joylashtirish, ovqatlantirish, transport, ekskursiya va maslahat xizmati ko‘rsatish bo‘yicha xizmatlar, shuningdek turist va ekskursantning ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan xizmatlardan tarkib topadi [4].

Xalqaro munosabatlarda turistik xizmatlar xilma-xil bo‘lib, turistlarni belgilangan manzilga yetkazish va turli transport turlarida mamlakat ichida harakatlanishini tashkil etish, turar joy xizmatlarini ko‘rsatish, turistlarni oziq-ovqat bilan ta’minlash, madaniy ehtiyojlarni qondirish (muzeylarga, teatrarga, ko‘rgazmalarga tashrif buyurish), ilmiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlash (simpoziumlar, konferensiylar va kongresslarda ishtirok etish), ish safarlarida yordam berish (muzokaralarda, yarmarkalarda, ko‘rgazmalarda ishtirok etish), esdalik sovg‘alari, otkritkalar, albomlar, slaydlar savdosini amalga oshirish, kerakli hujatlarni tayyorlash (pasportlar, vizalar, sug‘urta polislari va boshqalar) kabi sohalarni o‘ziga qamrab oladi.

Mintaqada xalqaro turizm xizmatlaridan foydalanish holati dinamik ravishda rivojlanib bormoqda. Ushbu sohada yangi iqtisodiy rivojlanish, raqamlı texnologiyalar ta’siri, barqaror turizmga qiziqish va sayyoohlarning o‘zgaruvchan ehtiyojlari bevosita turizm industriyasi kelajagini shakllantirmoqda. Ushbu tendensiyalarni tahlil qilish xalqaro turizm xizmatlarini rejalashtirish, taklif qilish va boshqarish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur xizmatlar o‘zgarishi raqamlashtirish (onlayn bron qilish, mobil ilovalar, virtual sayohatlar kabi raqamlı texnologiyalarning turizmga ta’siri), barqaror turizm (ekologik toza mehmonxonalar, mahalliy aholi bilan hamkorlik va atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan sayohatlar kabi barqaror turizmga qiziqish), individualizm (sayyoohlар manfaatlariga moslashtirilgan individual sayohatlarni afzal ko‘rishlari) va xavfsizlik va sog‘liqqa e’tibor (sayyoohlар xavfsizlik, sanitariya-gigiena va tibbiy sug‘urta masalalariga e’tibor berish) kabi unsurlardan tarkib topadi.

Shuningdek, Xorazm viloyatida xalqaro turizm xizmatlari holatini tahlil qilish SWOT-tahlil sifatida quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi:



1) Kuchli tomonlari (Strengths):

- tarixiy va madaniy boylik: YuNESKO Jahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan Ichan Qal’a shahri, qadimiy obidalar va milliy madaniyatning boyligi turistlarni o‘ziga jalg qiladi.

-jozibadorlik: Xorazmning o‘zigaxos arxitekturasi, folklori, milliy taomlari va hunarmandchiligining turistlar uchun qiziqarli bo‘lishi.

- rivojlanayotgan infratuzilma: Mehmonxonalar, restoranlar va transport xizmatlarining asta-sekin yaxshilanib borishi.

- xalqaro aloqalar: Xalqaro aviaqatnovlar, temir yo‘l va avtomobil yo‘llari orqali bog‘lanishlar mavjudligi.

- davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash: Turizmni rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlari va investitsiyalar.

- xavfsizlik: Turistlar uchun xavfsizlik ta’minlanganligi.

2) Kuchsiz tomonlari (Weaknesses):

- mehmonxonalar soni va sifati: Xalqaro standartlarga javob beradigan mehmonxonalarning yetarli emasligi.

- xizmat ko‘rsatish sifati: Ba’zi joylarda xizmat ko‘rsatish sifatining (personalning bilimi va til bilish darajasi) xalqaro talablarga javob bermasligi.

- transport muammolari: Aeroportdagи yuklarga xizmat ko‘rsatish, transport qatnovi va taksi xizmatlari bilan bog‘liq muammolar.

- marketing va reklamaning yetarli emasligi: Xorazm viloyatining turizm imkoniyatlari to‘g‘risida xalqaro miqyosda ma’lumot yetarli emasligi.

- mavsumiylik: Turizmning asosan bahor va kuz oylarida jadallahishi va turizm biznesi barqarorligiga ta’sir qilishi.

- qimmat narxlar: Ba’zi xizmatlar, ayniqsa, xorijiy valyutada hisoblangan narxlar nisbatan qimmatlishi.

3) Imkoniyatlar (Opportunities):

- turizmni diversifikasiya qilish: Madaniy-tarixiy turizmdan tashqari, ekoturizm, gastronomik turizm va ziyorat turizmini rivojlantirish.

- yangi mehmonxonalar qurish va mavjudlarini modernizatsiya qilish: Turizm sohasiga investitsiyalarni jalg qilish.

- personalni o‘qitish va malakasini oshirish: Xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash.

- marketing va PR faoliyatini kuchaytirish: Xorazmni jahon miqyosida turizm markazi sifatida tanishtirish.

- qo‘srimcha turistik mahsulotlar yaratish: Suvenirlar va qo‘l hunarmandchiligi mahsulotlarini ko‘paytirish.

- mavsumiylikni kamaytirish: Turli mavsumlarda turistlarni jalg qilish uchun tadbirlar va dasturlar ishlab chiqish.

- raqamlashtirish: Onlayn bron qilish tizimlarini joriy etish, raqamlı marketing va axborot texnologiyalaridan foydalanish.

4) Tahdidlar (Threats):

- raqobat: O‘rta Osiyodagi boshqa davlatlarning turizm sohasidagi raqobati.

- siyosiy beqarorlik: Mintaqadagi siyosiy beqarorlik turistlar oqimini kamaytirishi mumkinlini.

- ekonomik inqirozlar: Jahon iqtisodiy inqirozlar turistlar xarajatlariga ta’sir qilishi.

- tabiiy ofatlar: Seysmik xavflar va suv toshqinlari.

Mazkur xizmatlar turizm industriyasining asosiy qismini tashkil etadi va quyidagi xizmat turlaridan iborat bo‘ladi (1-jadval):



Xalqaro turizm xizmatlari tarkibi va tasnifi

№	Turizm xizmatlari turlari	Xizmat tarkibi
1	Transport xizmatlari	<ul style="list-style-type: none"> - avia qatnovlar: Uzoq masofalarga sayohat qilish uchun eng keng tarqalgan usul. Aviachiptalarni bron qilish, ro'yxatdan o'tish va parvoz davomida xizmat ko'rsatish kiradi. - temir yo'l transporti: Turli mamlakatlarda poezdlar bilan sayohat qilish, ayniqsa, qit'alararo sayohatlarda mashhur bo'ladi. - avtobuslar: Shahar ichida va shaharlарaro sayohat qilish uchun arzon va qulay transport turidir. - avtomobillar ijarasi: Turistlarga o'zlarining harakatlanish erkinligini ta'minlaydi
2	Turar joy xizmatlari	<ul style="list-style-type: none"> - mehmonxonalar: Turli darajadagi qulayliklarga ega bo'lgan turar joylar (5 yulduzli, butik mehmonxonalar, arzon mehmonxonalar va boshqalar). - hostellar: Arzon turar joy variantlari, odatda umumiylar xonalarda joylashganligi. - apartamentlar: Turistlarga mustaqil yashash uchun qulay shart-sharoit yaratishi. - dam olish uyлari va villalar: Oila yoki katta guruh bilan dam olish uchun ideal variant bo'lishi
3	Turistik operatorlar va agentliklar xizmatlari	<ul style="list-style-type: none"> - turparketlar: Sayyoхlar uchun sayohat, turar joy, ovqatlanish va ekskursiyalarni o'z ichiga olgan tayyor paketlardan iboratligi - individual sayohatlarni tashkil etish: Sayyoхlarning talablariga moslashtirilgan sayohatlarni yaratish. - viza va sug'urta xizmatlari: Viza olishda yordam berish va sayyoхlarni sug'urta bilan ta'minlash
4	Ekskursiya va dam olish xizmatlari	<ul style="list-style-type: none"> - ekskursiyalar: Shahar bo'ylab, tarixiy joylarga, muzeylarga va boshqa qiziqarli joylarga sayohatlar uyushtirish. - qiziqarli tadbirdilar: Konsertlar, festivallar, sport tadbirdilar va boshqa ko'ngilochar tadbirdarga chiptalar olish. - aktiv dam olish: Tog'larda sayr qilish, suzish, sport bilan shug'ullanish va boshqa faoliyat turlari. - spetsifik xizmatlar: Masalan, turli suvenir do'konlari, restoranlar va oziq-ovqat xizmatlari
5	Qo'shimcha xizmatlar	<ul style="list-style-type: none"> - pul almashinivi: Valyuta ayirboshlash punktlari. - telefon va internet xizmatlari: Sayyoхlar uchun aloqa vositalari. - tillar biladigan xodimlar: Turli tillarda xizmat ko'rsatuvchi xodimlar. - transport xizmatlari: Aeroportlardan mehmonxonalar va boshqa joylarga transferlar

Ushbu 1-jadvalga asosan, mintaqada xalqaro turizm xizmatlari sifatini oshirish eng muhim masala sifatida qaralishi lozim bo'lib, uning asosiy omillari quyidagi yo'naliшhlardan iborat bo'ladi:

- xizmat ko'rsatish standarti: Xizmatlar yuqori sifatini ta'minlash.
- xodimlar malakasi: Turizm sohasida malakali xodimlar tayyorlash.
- qulayliklar: Sayyoхlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish.
- xavfsizlik: Sayyoхlar xavfsizligini ta'minlash.
- marketing va reklama: Turistik xizmatlarni targ'ib qilish.
- raqamlashtirish: Onlayn bron qilish, mobil ilovalar va boshqa raqamli texnologiyalarni qo'llash.

Xulosa shuki, Xorazm viloyati xalqaro turizmni rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega. Ammo, bu sohani rivojlantirish uchun kuchli va kuchsiz tomonlarni hisobga olgan holda imkoniyatlardan samarali foydalanish va tahdidlarni oldini olish choralarini ko'rish zarur. Bunda davlat, xususiy sektor va mahalliy aholi o'rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, turizm infratuzilmasini takomillashtirish, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, marketing strategiyasini kuchaytirish va turizmnning diversifikatsiyasiga alohida e'tibor qaratish zarur. Chunki, xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiy o'sish va bandlikka ijobji hissa qo'shadi. Bu esa samaradorlik va barqarorlikni oshirishga qaratilgan siyosatni amalga oshirish orqali ishlab chiqarish sohasi bilan bir qatorda ushbu sohani ham ilgari surish zarurligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, ushbu soha taraqqiyotida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, ayollarning ishchi kuchi ishtiropi va maktabga kirish ham iqtisodiy o'sish va bandlik darajasini oshirish uchun potentsial omillar bo'lib xizmat qiladi. Shunga asosan, xalqaro turizm xizmatlaridan foydalanish holati turli omillarga bog'liq bo'lib, u geografik mintaqaga, iqtisodiy rivojlanish darajasiga, siyosiy barqarorlikka, mavsumga va boshqa ko'pgina omillarga qarab o'zgarib turadi. Hamda xalqaro turizm xizmatlari chet elga sayohatlarni tashkil qilish uchun shart-sharoitlarni ta'minlaydigan maxsus faoliyat sohasidan tarkib topadi. Ushbu turizm xizmatlari sayyoхlarning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bo'lib, turizm industriyasining rivojlanishi va mamlakatlar iqtisodiyotiga hissa qo'shadi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Rozina Sadiq, Sahar Sheraz, Mahnaz Muhammad Ali, Shabnam Nazeer. Exploring the Contribution of the Service Sector to Economic Growth and Job Creation: Empirical Evidence from South Asia. // Review of Applied Management and Social Sciences (RAMSS) Vol. 6, (2) 2023. - pp. 202.
2. <https://zaochnik.com.com/spravochnik/ekonomika/mezhdunarodnye-ekonomicheskie-otnoshenija/mezhdunarodnye-turisticheskie-uslugi/>
3. Савинов Ю.А., Скурова А.В., Уткин А.А. Роль туризма в международной торговле услугами. // Российский внешнеэкономический вестник, 1, 2016. - с .43.
4. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 18-iyuldagи “Turizm to‘g‘risida”gi O‘RQ-549-son Qonuni. Manba: <https://www.lex.uz/uz/docs/4428097>



TO‘QIMACHILIK KORXONALARIDA STRATEGIK BOSHQARISH JIHATLARI

Shavkatov Shaxzod,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti “Iqtisodiyot”
mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada to‘qimachilik korxonalarida strategik boshqarish jarayoni, holati va tahlili hamda eng muhim jihatlari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar. To‘qimachilik, korxona strategik boshqarish, strategiya, boshqarish.

Strategiya yunoncha strategia so‘zidan olingan bo‘lib, “generallik” degan ma’noni anglatadi. Harbiy strategiyada dushman ustidan g‘alaba qozonish uchun rejalashtirilgan tarzda qo‘sishnlarni joylashtirish tushuniladi. Dushman jangga kirishgandan so‘ng, asosiy e’tibor taktikaga qaratiladi va xuddi harbiy kuchlar dushman bilan jang qilishdan oldin baland joyni egallashi mumkin. Strategiya yunoncha strategia so‘zidan olingan bo‘lib, “generallik” degan ma’noni anglatadi. Harbiy strategiyada dushman ustidan g‘alaba qozonish uchun rejalashtirilgan tarzda qo‘sishnlarni joylashtirish nazarda tutiladi. Dushman jangga kirishgandan so‘ng, asosiy e’tibor taktikaga qaratiladi va xuddi harbiy kuchlar dushmanni qo‘lga kiritishdan oldin yuqori o‘rinlarni egallashi mumkin bo‘lganidek, biznes arzon narxlardagi ta’minotchi mavqeini egallashi yoki uchtadan birini taqdim etishi mumkin. Unga asosan, strategik menejment - tashkilotga o‘z maqsadlariga erishishga imkon beradigan o‘zaro faoliyat qarorlarni rejalashtirish, amalga oshirish va baholash san’ati, fan va mahoratidan foydalangan holda keng qamrovli rejadir. Bu kompaniyaning maqsadlarini belgilash va keyin siyosat, rejalar, loyihamlar va dasturlarni amalga oshirish uchun resurslarni taqsimlash jarayonidir. Strategik menejment biznes maqsadlariga erishish uchun tashkilotlarning turli funktsional sohalari faoliyatini muvofiqlashtirish va birlashtirishga intiladi. SWOT tahlili, marketing strategiyasining foyda ta’siri kabi turli usullar biznesning o‘z maqsadiga erishish jarayonini baholash uchun qo’llaniladi.

Strategik rejalashtirish korxona boshqaruvining eng muhim tarkibiy qismi bo‘lib, bu holda bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonaning muvaffaqiyatlari ishlashi deyarli mumkin emas [1]. Bugungi shiddat bilan o‘zgarib borayotgan iqtisodiy vaziyatda o‘z harakatlaringizni rejalashtirmasdan va oqibatlarini prognoz qilmasdan turib, ijobjiy natijalarga erishish mumkin emas. “Strategiya” tushunchasi strategik menejment nazariyasiga XX asrning 50-yillarida, tashqi muhit o‘zgarishlariga zudlik bilan javob berish muammozi muhim bo‘lgan davrda kirib keldi. Dastlab, «strategiya» atamasini faqat harbiy sohada ishlatilgan va «jangga qo‘sishnlarni joylashtirish san’ati» sifatida ta’riflangan.

Strategik menejment tashkilotning maqsad va vazifalariga erishish uchun resurslarini boshqarish hisoblanadi [2]. Strategik boshqaruvning asosiy elementlari: maqsadlarni belgilash, raqobat muhitini tahlil qilish, tarmoq va tashkiliy tahlil, strategiyani shakllantirish, uni amalga oshirish, o‘lchash, monitoring va nazorat qilish. Kompaniyalar o‘z maqsadlariga erishish uchun ko‘p yillar davomida strategiyalarni ishlab chiqadilar. Masalan, daromadni uch baravar oshirish yoki butun dunyo bo‘ylab ofislar tarmog‘ini ochish. Ta’limni rejalashtirish yoki martaba yo‘lini o‘zgartirishda siz strategik menejmentga ham murojaat qilishingiz mumkin.

Boshqaruv funktsiyasi sifatida strategik rejalashtirish barcha boshqaruv funktsiyalari uchun asos bo‘lib xizmat qiladi va boshqaruv tizimlarining funktsional tuzilishining asosini tashkil qiladi [3]. Shuningdek, u tashkiliy maqsadlarga erishishda asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Strategik rejalashtirish korxonaning rivojlanish maqsadlariga erishishini ta’minalash uchun strategiyalar ishlab chiqiladigan jarayonlar va qarorlarni o‘z ichiga oladi.

Umuman olganda, to‘qimachilik korxonalarida strategik boshqaruvning holati va tahlili murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1) Strategik boshqaruvning mohiyati va muhimligi: To‘qimachilik korxonalarining uzoq muddatli maqsadlariga erishish uchun samarali rejalar ishlab chiqish va ularni amalga oshirish. Bu korxona uchun barqaror raqobat afzalliklarini yaratishga qaratilgan.

Shuningdek, to‘qimachilik sektorida strategik boshqaruvning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat bo‘ladi:

Strategik tahlil bosqichlari quyidagi yo‘nalishlarga asoslanadi:

- 1) Tashqi muhit tahlili;
- 2) Ichki muhit tahlili;



- Bo'shliqlarni tahlil qilish. Bu kompaniyaning hozirgi holatini orzu qilingan kelajak bilan taqqoslashdir. Professionallar biznes maqsadlariga erisha oladimi yoki yo'qligini tushunish uchun tashkilotning haqiqiy faoliyatini baholaydilar. Aks holda, bo'shliqlarni to'ldirish uchun chora-tadbirlar rejasidir ishlab chiqiladi. Faraz qilaylik, taksiga buyurtma berish xizmatida buyurtmalar soni kamaydi va mijozlarning xizmat sifati bo'yicha shikoyatlari ko'paydi. Bo'shliqlar tahlilini o'tkazgandan so'ng, menejerlar ishlayotgan narsa va o'zgarishlar o'rtasidagi muvozanatga erishish uchun qanday qadamlar qo'yish kerakligi strategiyasini ishlab chiqadilar. Yechim taksi haydovchilarini qo'shimcha o'qitish va sertifikatlash yoki qo'llab-quvvatlash xizmatiga botni kiritish bo'lishi mumkin.

- To'rt tomonlama tahlil. Tashkilotga boshqa biznes, uning niyatlari va strategiyasini tushunishga yordam berish uchun mo'ljallangan. Maqsadlar daromadni oshirish, franchayzing ochish yoki shahar ichidagi do'konlar tarmog'inining geografiyasini kengaytirishni o'z ichiga olishi mumkin. Raqobat tahlili bozor ulushi uchun kurashda strategik qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Misol uchun, bozorlarda to'rt tomonlama tahlilni qo'llash asosiy ishlash ko'rsatkichlarini aniqlashga yordam beradi: mijozlarning umumiy soni, savdo hajmi, mijozlar ehtiyojini qondirish, konversiya.

- SWOT tahlili. Bu tashkilotning kuchli, zaif tomonlari, imkoniyatlari va kamchiliklarini aniqlash va tahlil qilishning bir usuli. Asbob yordamida kompaniya o'z yo'nalishlarini olishi mumkin - biznes rivojlanishiga qanday ichki va tashqi omillar ta'sir qiladi, qanday o'zgarishlar zarur va ularga tezda moslashish kerak.

- 5 ta Porter kuchlari. Porter modelining mohiyati shundan iboratki, biznesning rentabelligiga bir vaqtning o'zida bir nechta kuchlar ta'sir qiladi: mijozlar, etkazib beruvchilar, mavjud va potentsial raqobatchilarining bosimi, shuningdek, o'rnini bosuvchi tovarlarning paydo bo'lishi tahdidi. Asbob bosimning qanchalik muhimligini va yuqori daromad olish uchun uni qanday kamaytirishni tahlil qilishga yordam beradi.

- PESTEL tahlili. Bu biznesda uzoq muddatli rejalshtirish uchun marketing vositasi bo'lib, tashqi muhit omillarining ta'sirini hisobga olishga imkon beradi.

Xulosa shuki, to'qimachilik korxonalarida strategik boshqaruv dinamik va murakkab jarayondir. Uning samaradorligi korxonaning raqobatbardoshligini, barqarorligini va uzoq muddatli muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Strategik tahlil, to'g'ri tanlovlar, samarali amalga oshirish va doimiy monitoring to'qimachilik korxonalarining strategik maqsadlariga erishishga yordam beradi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kadirkhodjaeva N. Ways to Improve the Functional Strategy in Textile Industry Enterprises. // Asian Journal of Technology & Management Research (AJTMR) ISSN: 2249 –0892 Vol13 Issue–01, June -2023. – p. 22.

2. <https://practicum.yandex.ru/blog/chto-takoe-strategicheskij-menedzhment-i-gde-emu-obuchitsya/>

3. Madartov B.Q., Xolmurodova G.R. Improving strategic planning in textile enterprises based on interrelationships. // Galaxy international interdisciplinary research journal (GIIRJ) ISSN (E): 2347-6915, Vol.13, Issue 5, May (2025). - p. 66.



YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISHDA DAVLAT BOSHQARUVINING STRATEGIK VAZIFALARI

Sharopov Nurmuhammad Bobirovich

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurudagi Davlat boshqaruvi akademiyasi Menejment kafedrasи tadqiqotchisi
sharopovnurmuhammad319@gmail.com
tel:+998934552332

Yashil iqtisodiyotga o‘tish, bugungi global muammolar, jumladan, iqlim o‘zgarishi, resurslar taqchilligi va ekologik ifloslanishning oshishi fonida dunyoning ko‘plab davlatlari uchun dolzarb muammoga aylanmoqda. Bu jarayon, nafaqat atrof-muhitni himoya qilish, balki barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minalashga qaratilgan keng qamrovli siyosatlarni o‘z ichiga oladi. Davlat boshqaruvi, bu jarayonda asosiy rolni bajaradi, chunki u yashil iqtisodiyotga o‘tishni tashkil etish, amalga oshirish va nazorat qilishda markaziy o‘rin tutadi. Ushbu maqolada, davlat boshqaruvining yashil iqtisodiyotga o‘tishda qanday strategik vazifalarni bajarishi kerakligi va bularni amalga oshirishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar tahlil qilinadi.

Yashil iqtisodiyot - bu resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish orqali iqtisodiy o‘sishni amalga oshirishga qaratilgan modeldir. Ushbu iqtisodiyotning asosiy maqsadi - ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik barqarorlikni ta’minalash, shu bilan birga global iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashishdir.

BMTning Barqaror Taraqqiyot Maqsadlari (SDGs) doirasida yashil iqtisodiyotning o‘rni alohida ahamiyatga ega. Bu maqsadlar, ayniqsa, **7-maqsad (Qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish)** va “13-maqsad (Iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish)”ni amalga oshirishga qaratilgan muhim vosita bo‘lib, davlatlar uchun yangi iqtisodiy va ijtimoiy o‘sish imkoniyatlarini yaratadi.

Yashil iqtisodiyotga o‘tishning birinchi va asosiy bosqichi — bu to‘g‘ri huquqiy va strategik ro‘yxat. Davlat tomonidan ishlab chiqilgan milliy strategiyalar va qonunchilik yordamida yashil iqtisodiyotga oid prinsiplar, normalar va talablar belgilash kerak. Buning uchun:

- Yashil iqtisodiyotga oid mustaqil dasturlar va strategiyalar ishlab chiqish,
- Ekologik axborot va statistikalarni jamlash va taqdim etish uchun maxsus tahliliy markazlarni tashkil etish zarur.

Yashil iqtisodiyotga o‘tishning moliyaviy asoslarini yaratish zarur. Davlat ekologik va energetik infrastrukturani rivojlantirish uchun turli moliyaviy instrumentlarni, shu jumladan:

1. **Yashil soliq siyosati** (masalan, ekologik soliq va karbon izini kamaytirishga qaratilgan soliq imtiyozlari),
2. **Yashil obligatsiyalar** (davlat tomonidan chiqarilgan, ekologik loyihalarni moliyalashtirishga qaratilgan obligatsiyalar),
3. **Suv, havo va yer resurslari bo‘yicha normativlar** kiritishni nazarda tutadi.

Bundan tashqari, davlat-xususiy sherikchilik (PPP) mexanizmlarini rivojlantirish orqali yashil loyihalar uchun xususiy investitsiyalarni jalb qilish zarur.

Yashil iqtisodiyotning amalda qo‘llanilishi uchun iqtisodiyotning asosiy sohalarini “yashil” texnologiyalar va usullar orqali modernizatsiya qilish talab etiladi. Bu jarayonda davlatning roli:

1. **Sanoat va energetika sektorini** qayta tashkil etish va ularni qayta tiklanadigan energiya manbalariga yo‘naltirish,
2. **Qishloq xo‘jaligi va suv resurslarini boshqarishni** ekologik jihatdan barqaror qilish,
3. **Transport tizimini** elektralashtirish va uglerod chiqindilarini kamaytirish.

Aholining yashil iqtisodiyotga oid bilimlarini oshirish, ekologik madaniyatni rivojlantirish va korxonalarni “yashil” texnologiyalarni joriy etishga undash davlatning asosiy vazifalaridan biridir. Buning uchun:

1. **Eko-tarbiya va ekologik ta’lim tizimini** kengaytirish,
2. **Korxonalar va sanoatni** yashil sertifikatlash va ekologik barqarorlikni ta’minalashga undash,
3. **Yashil kreditlar va yashil raqamli platformalar** orqali ekologik risklarni kamaytirish.

Yashil iqtisodiyotga o‘tishning samarali strategiyasi, xalqaro tashkilotlar bilan yaqin hamkorlikni talab qiladi. Xalqaro tashkilotlar, masalan, **BMT, Jahon banki va Evropa Ittifoqi** tomonidan taqdim etilgan texnologiyalar va moliyaviy resurslar, davlatlarga yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida



yordam berishi mumkin.

Shu bilan birga, davlatlar o‘rtasidagi **xalqaro hamkorlik** iqlim o‘zgarishi va ekologik barqarorlik masalalarida birlashish zarur.

Yashil iqtisodiyotga o‘tishning asosiy qiyinchiliklari quyidagilardan iborat:

1. **Texnologik tarmoqlarning yoshi va energiya samaradorligi** masalalari. Yangi texnologiyalarga o‘tish ko‘pincha yuqori boshlang‘ich xarajatlarni talab qildi.

2. **Moliyaviy resurslarni taqdim etishning qiyinchiliklari.** Yashil iqtisodiyotga o‘tish uchun katta investitsiyalar kerak, ammo ko‘p mamlakatlar bunday sarmoyalarni o‘z ichiga olmaydi.

3. **Ijtimoiy qarshiliklar.** Yashil iqtisodiyotga o‘tish ba’zan ish o‘rinlarining qisqarishiga olib keladi, bu esa ijtimoiy qarshiliklarga sabab bo‘lishi mumkin.

Yashil iqtisodiyotning asosiy tamoyillari

Resurslarning samarali ishlatalishi: Yashil iqtisodiyotning markazida resurslardan samarali va uzoq muddatda foydalanish yotadi. Bu quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

Barqaror ishlab chiqarish va iste’mol – tabiatga zarar keltirmasdan, ishlab chiqarish jarayonlari va iste’molni boshqarish.

Qayta tiklanadigan energiya – quyosh, shamol, gidroenergetika va boshqa qayta tiklanadigan energiya manbalariga o‘tish.

Kam uglerodli iqtisodiyot – uglerod chiqindilarini kamaytirish va iqlim o‘zgarishini cheklashga qaratilgan siyosatlar.

O‘zbekistonning yashil iqtisodiyotga o‘tishidagi tajribasi

Yashil energiya loyihalari: O‘zbekiston 2020 yilda “Qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish strategiyasi”ni tasdiqladi. Bu strategiya quyosh va shamol energiyasiga oid yangi loyihalarni amalga oshirishni ko‘zda tutadi.

2021 yilda, O‘zbekistonda jami 2000 MW quvvatga ega bo‘lgan **quyosh energetikasini** ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan loyiha ishga tushirildi.

2023 yilda esa, O‘zbekiston Shamol energiyasini ishlab chiqarishni 1,000 MW ga oshirishga qaratilgan yangi loyihalar boshladи.

Yashil iqtisodiyotga qadamlar: 2022 yilda Yashil iqtisodiyotga o‘tish uchun milliy strategiya ishlab chiqildi. Ushbu strategiya, ayniqsa, quyidagi sohalarda amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan:

Barqaror qishloq xo‘jaligi: Iqlim o‘zgarishiga qarshi turish va atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadida qishloq xo‘jaligi texnologiyalarini “yashil” qilish.

Yashil moliya: Davlat tomonidan yashil investitsiyalarni rag‘batlantirish va moliyaviy mexanizmlarni joriy etish.

Yevropa Ittifoqining Yashil bitimi (Green Deal): 2019 yilda Yevropa Ittifoqi yashil iqtisodiyotga o‘tishning global lideriga aylanishni maqsad qilib qo‘yan. Yevropa yashil bitimi (European Green Deal) 2050 yilga qadar Yevropa Ittifoqi hududida iqlim neytral iqtisodiyot yaratishni nazarda tutadi.

Bu strategiya quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Uglerod chiqindilarini 55% ga kamaytirish (2020-2030 yillar oralig‘ida),
2. Yashil moliya tizimini rivojlantirish,
3. Yashil ish o‘rinlarini yaratish.

Xalqaro hamkorlik va texnologiya almashish: Yashil iqtisodiyotga o‘tishning muvaffaqiyatli bo‘lishi, ayniqsa, texnologiya va ilmiy ishlanmalarni almashish orqali amalga oshadi. Masalan, **Xalqaro energetika agentligi (IEA)** qayta tiklanadigan energiya texnologiyalarini rivojlantirishda ilg‘or tajribalarni almashish uchun muhim platforma hisoblanadi.

Yashil iqtisodiyotning ijtimoiy-iqtisodiy ta’sirlarini quyidagilarda ko‘rishimiz mumkin:

Yashil ish o‘rinlari: Yashil iqtisodiyotga o‘tish ko‘plab yangi ish o‘rinlarini yaratadi, xususan, qayta tiklanadigan energiya, ekologik dizayn, energiya samaradorligini oshirish, chiqindilarni qayta ishslash va ekologik monitoring sohalarida. Xalqaro tashkilotlar, jumladan, **BMT** va **Jahon banki** tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yashil iqtisodiyotga o‘tish natijasida millionlab yangi ish o‘rinlari yaratilmoqda.

Ijtimoiy barqarorlik: Yashil iqtisodiyot, nafaqat ekologik manfaatlar, balki ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda ham muhim rol o‘ynaydi. Aholi salomatligini yaxshilash, energiya ta’mintonining ishonchliliginini oshirish va ijtimoiy tenglikni ta’minlash kabi ijtimoiy jihatlar yashil iqtisodiyotga o‘tishning asosiy yo‘nalishlaridan biridir.

“Global Green Growth Institute” (GGGI), Jahon banki va **BMT** tomonidan olib borilgan tadqiqotlar yashil iqtisodiyotga o‘tishning iqtisodiy samaradorligini, resurslar samaradorligini



oshirish va ijtimoiy-iqtisodiy farovonlikka ta'sirini o'rganadi. Masalan:

GGGI tomonidan taqdim etilgan 2021-yildagi hisobotda yashil iqtisodiyotga o'tishning nafaqat atrof-muhit, balki iqtisodiyot va jamiyatga ta'siri haqida keng tahlil berilgan.

Jahon banki tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar yashil iqtisodiyotga o'tishning iqtisodiy o'sish va innovatsiyalarni rag'batlantirishdagi o'rmini ko'rsatadi.

Texnologik barqarorlik va innovatsiyalarni joriy etishdagi to'siqlar: O'zbekiston va boshqa rivojlanayotgan mamlakatlar uchun yangi texnologiyalarni tatbiq etish va mavjud infratuzilmani "yashil" qilish katta moliyaviy sarmoyalarni talab qiladi.

Ijtimoiy qarshiliklar: Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida, ayniqsa, sanoat va ish o'rinalining qisqarishi, ijtimoiy qatlamlar orasida qarshiliklarga olib kelishi mumkin. Shu bois, davlat siyosatida bu masalalarni hal qilish uchun barqaror ijtimoiy siyosatni yaratish zarur.

Yashil iqtisodiyotga o'tishning davlat boshqaruvi tomonidan amalga oshiriladigan strategik vazifalari, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik barqarorlikni ta'minlash uchun asosiy vositadir. Bu jarayonda davlat siyosati, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, innovatsion texnologiyalar va xalqaro hamkorlik muhim rol o'yaydi. Shuningdek, bu jarayonning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun xalqaro tajriba va o'zaro fikr almashish zarur. Shunday qilib, davlat boshqaruvining yashil iqtisodiyotga o'tishdagi strategik vazifalari jamiyatning ekologik va iqtisodiy farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Yashil iqtisodiyotga o'tishning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi davlat boshqaruvi tomonidan ko'plab strategik qarorlar va tashabbuslarni talab qiladi. Bu jarayon nafaqat ekologik, balki ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda ham muhim ahamiyatga ega. Davlatlar o'rtaisdagi xalqaro hamkorlik, ilmiy va texnologik yutuqlarni almashish, yashil moliya tizimlarini rivojlantirish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash orqali yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni yanada samarali amalga oshirilishi mumkin. O'zbekistonning bu yo'nalishda erishgan yutuqlari va qarorlar, boshqa mamlakatlar uchun ham muhim tajriba bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Sobirovich, T. B. (2023). Basic Criteria for Building the Third Renaissance in Uzbekistan. Asian Journal of Applied Science and Technology (AJAST), 7(1), 149-157.
2. Sobirovich, T. B. (2021). The implementation of human indicator reforms in Uzbekistan. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(9), 197-202.
3. Sobirovich, T. B. (2024). The national idea as a driving force behind ideospheric transformation in Uzbekistan: Exploring its implications and impact. Asian Journal of Applied Science and Technology (AJAST), 8(3), 170-176.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Vaxabov A.V. «Yashil» iqtisodiyot. Oliy ta'lif muassasalarining talabalari uchun darslik / Sh.X. Xajibakiev, Sh.A. Toshmatov , M.N. Butaboyev. – T.: «Universitet», 2020. – 296 b.
2. Vaxabov A.V. «Зеленая экономика». Oliy ta'lif muassasalarining talabalari uchun darslik / Sh.X. Xajibakiev. – T.: Toshkent, 2023.– 286 b.
3. Green Economics: An Introduction to Theory, Policy and Practice. Molly Scott Cato First published by Earthscan in the UK and USA in 2009 Copyright © Molly Scott Cato, 2009
4. Razzoqov A. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. Oliy ta'lif muassasalarining talabalari uchun darslik / A.A.Razzoqov, Sh.H.Tashmatov, N.T.O'rmonov. – T.: Iqtisod-moliya, 2007. – 320 b. 54.
5. O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariysi: Darslik. – T.: «SHarq» nashriyot-matbaa aktsiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2006. – 480 b. 55.
6. Shodmonov Sh.Sh., G'afurov U.V. Iqtisodiyot nazariysi (darslik). – T., «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2005. – 784 b. 56.
7. Simkina L.G. Ekonomicheskaya teoriya. 2-e izd. – SPb.: Piter, 2008. – 384 s. 57.
8. Brown L.R. Eco-Economy. Building an Economy for the Earth. Earth Policy Institute. W.W. Norton&Company. New York, London, 2019.
9. <https://www.project-syndicate.org/commentary/the-green>
10. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/ecology-2>
11. www.uznature.u



MINTAQAVIY IQTISODIYOTIDA TARKIBIY O'ZGARISHLAR (Xorazm viloyati misolida)

Yuldosheva Dilsora

Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Urganch davlat universiteti birinchi bosqich
“Iqtisodiyot” mutaxassisligi magistratura talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada mintaqaviy iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va ularning iqtisodiy natijalari Xorazm viloyati misolida yoritib berilgan.

Аннотация. В данной статье рассматривается реализация структурных изменений в экономике региона и их экономические результаты на примере Хорезмской области.

Abstract. This article examines the implementation of structural changes in the regional economy and their economic results using the example of the Khorezm region.

Kalit so‘zlar. Mintaqaviy iqtisodiyot, iqtisodiyotning tarkibiy o'zgarishi, iqtisodiyotning diversifikasiyalashuvi, sanoat, turizm.

Ключевые слова. Региональная экономика, структурные изменения экономики, диверсификация экономики, промышленность, туризм.

Key words. Regional economy, structural change of the economy, diversification of the economy, industry, tourism.

Hozirgi kunda mamlakatimizda mintaqalarni iqtisodiy rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki mintaqaviy iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlar olib borish iqtisodiyotning zamon talabiga aylanib ulgurdi. Mintaqaviy iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar deb, ma'lum bir hudud iqtisodiyotining tuzilishidagi vaziyatning o'zgarishiga, unda turli sektorlarning ulushi, texnologiyalar, mahsulotlar turi va boshqa ko'rsatkichlar o'zgarib borishiga aytildi. So'nggi yillarda Xorazm viloyati iqtisodiyotida ham turli islohotlar olib borilishi natijasida iqtisodiyotning tarkibiy o'zgarishi kuzatilmoqda. Jumladan, iqtisodiyotning diversifikasiyalashuvi, sanoatning o'sishi, turizmnинг rivojlanishi va qishloq xo'jaligida o'zgarishlar ro'y berdi.

“Iqtisodiyotning diversifikasiyalashuvi” mintaqaviy iqtisodiyot tarkibining o'zgarishiga katta ta'sir ko'rsatadi. “Iqtisodiyotning diversifikasiyalashuvi” deganda mamlakat, mintaqqa yoki korxonaning iqtisodiyotini bir nechta turli xil tarmoqlar, mahsulotlar yoki xizmatlar bo'yicha rivojlantirish tushuniladi. -Boshqacha qilib aytganda, iqtisodiyotni faqat bitta yoki bir nechta dominant sohalarga haddan tashqari bog'liq bo'lishdan xalos etish jarayonidir. Diversifikatsiyaning muhimligi esa iqtisodiyotda barqarorlikni oshirishida, iqtisodiy o'sish imkoniyatlarini kengaytirishida va raqobatbardoshlikni kuchaytirishida ko'rindi. Masalan, qishloq xo'jaligiga asoslangan mintaqqa o'z iqtisodiyotini oziq-ovqat sanoati, agroturizm va boshqa xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirish orqali yoki faqatgina avtomobil ishlab chiqarishga ixtisoslashgan shahar o'z iqtisodiyotini axborot texnologiyalari, tibbiyat va ta'lim kabi boshqa sohalarni rivojlantirish orqali diversifikasiya qilishi mumkin. Xorazm viloyatida ham oldinlari iqtisodiyot asosan paxtachilikka yo'naltirilgan edi. Endilikda mintaqada turizm, sanoatning boshqa tarmoqlari, masalan, to'qimachilik va oziq-ovqat va xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirish orqali diversifikasiya qilishga harakat qilinmoqda. Bu viloyat iqtisodiyotining barqarorligini oshirishga va yangi o'sish nuqtalarini yaratishga yordam beradi.

Sanoat tarmoqlarini isloh qilish, tarkibiy o'zgartirish va diversifikasiyalash dasturlarining amalga oshirilishi, moddiy-texnika bazasini mustahkamlanishi, respublika sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishiga zamin yaratdi.¹ Chunki sanoatning o'sishi mintaqaviy iqtisodiyotning tarkibiy o'zgarishlariga bandlikning o'zgarishi, YaHM tarkibining o'zgarishi, urbanizatsiya va texnologik taraqqiyot o'zgarishi orqali sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Sanoat rivojlanishining bandlikka va urbanizatsiyaga ta'sirini quyidagicha izohlash mumkin: yangi zavod va fabrikalar ishga tushirilishi ishchi kuchining qishloq xo'jaligidan sanoat va xizmat ko'rsatish sohalariga ko'chishiga olib keladi, ya'ni ko'proq odamlar ishlab chiqarish sektorida band bo'ladi. Natijada, sanoat markazlarining paydo bo'lishi va rivojlanishi qishloq aholisining shaharlarga migratsiyasini kuchaytiradi. Bu esa urbanizatsiya jarayonini tezlashtiradi va shaharlarning o'sishiga olib keladi. Shuningdek, mintaqada

1 Yakubov I.O., Islomov A.A., Sunnatov M.N. Mintaqaviy iqtisodiyot: Darslik. – T.:2019.-228 b.



sanoat o'sishi yalpi hududiy mahsulot (YaHM) tarkibida sanoatning ulushini oshiradi va natijada mintaqaviy iqtisodiyotning agrar tuzilmadan industrial tuzilmaga o'tishini ko'rsatadi. Xorazm viloyatining sanoat sektorida, ayniqsa, qayta ishlash sanoati va qurilish materiallari ishlab chiqarish kabi sohalarda o'sish kuzatilmoqda, jumladan, statistic ma'lumotlarga ko'ra viloyatda 2024-yilda o'tgan yilga nisbatan 2.9% o'sish qayd etildi. Ayniqsa, avtomobilsozlik sanoatining viloyatda paydo bo'lishi muhim o'zgarishlardan biri bo'ldi. Bu esa o'z navbatida yuqorida sanab o'tilgan tarkibiy o'zgarishlarga: bandlikning oshishi va YaHM tarkibida sanoat ulushining ko'payishiga olib keldi.

Mintaqaviy iqtisodiyotning tarkibiy o'zgarishi turizmning rivojlanishi bilan bevosita bog'liq. Chunki mintaqada turizm rivojlanishi uning iqtisodiyotiga quyidagi yo'nalishlarda ta'sir o'tkazadi: a) xizmat ko'rsatish sohasining o'sishi;

b) bandlikning o'zgarishi; c) infratuzilmaning rivojlanishi; d) mahalliy iqtisodiyotning jonlanishi; e) valyuta tushumlarining ko'payishi. Xizmat ko'rsatish sohasining o'sishi mintaqada yangi mehmonxonalar, restoranlar, ko'ngilochar maskanlar paydo bo'lishi va transport aloqalari (yo'llar, aeroportlar), kommunal xizmatlar (suv, elektr ta'minoti), aloqa vositalari kabi infratuzilmaning rivojlanishi bilan belgilanadi. Natijada, turizm sohasida ko'plab ish o'rirlari yaratiladi va aholi bandligi ko'rsatkichi oshadi. Chunki, turistlar mahalliy mahsulotlar va xizmatlarga talabni oshiradi. Bu mahalliy hunarmandchilik, qishloq xo'jaligi mahsulotlari va boshqa kichik biznesning rivojlanishiga turtki beradi va mamlakatga valyuta oqimini ta'minlaydi. Viloyatda turizm sohasini isloh qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning ijobiy natijalari turistik xizmatlar hajmining o'sishida o'z aksini topmoqda.¹ Yangi mehmonxonalar, restoranlar va turistik xizmatlar paydo bo'lishi buning yaqqol isbotidir. Viloyatda savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar ko'rsatkichi 2024-yilda o'tgan yilga nisbatan 3.7% o'sishni ko'rsatdi.

Shuningdek, qishloq xo'jaligidagi o'zgarishlar mintaqqa iqtisodiyotining boshqa tarmoqlari bilan o'zaro bog'liq holda umumiyligi tarkibiy o'zgarishlarga olib keladi. So'nggi yillarda Xorazm viloyati qishloq xo'jaligida o'zgarishlar kuzatilmoqda. Jumladan, mintaqqa qishloq xo'jaligida mevasabzavotchilik va chorvachilik salmog'i oshishi kuzatilmoqda. Suv resurslaridan oqilona foydalanish va zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etishga harakat qilinmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yakubov I.O., Islomov A.A., Sunnatov M.N. Mintaqaviy iqtisodiyot: Darslik. – T.:2019.-228 b.
2. Mintaqaviy turizm. A.N.Norchayev, T.B.Sadikov, M.Z.Nurfayziyeva. Toshkent-Iqtisodiyot-2019, 224-b

¹ Mintaqaviy turizm. A.N.Norchayev, T.B.Sadikov, M.Z.Nurfayziyeva. Toshkent-Iqtisodiyot-2019, 224-b



ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

O'QUV MASHG'ULOTLARINI TASHKILLASHTIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI O'RNI.

Rajabov Alisher Po'latovich

(BDPI Harbiy ta'lif fakulteti tyutori)

alisher01@mail.ru (97) 3098584

Maqolada axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib ta'lif va tarbiya samaradorligini oshirish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lif, axborot, yangi pedagogik texnologiyalar; internet, elektron pochta, kompyuter, kadrlar tayyorlash milliy dasturi.

Hozirgi davrda ta'lifni axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi, mana shu sababli barchamiz “yangi pedagogik texnologiyalar” atamasini ishlata boshladik. Bir misol, shaxsiy kompyuter ta'lifning imkoniyatlarini butunlay o'zgartirib yubordi. Internet leptoplari ta'lif tizimiga yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish bo'yicha yanada kattaroq imkoniyatlar yaratib berdi. O'zbekistonning mustaqilligi sharoitlarida ta'lif tizimini isloh qilish birinchi navbatda ta'lif va tarbiya tizimiga ilg'or axborot texnologiyalarning tatbiq etish bilan bog'liq.

Bilamizki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari mikroelektronika, hisoblash texnikasi (apparatli vositalar va dasturiy ta'minotlar), elektroaloqa va antoelektronika-mikroprosessorlar, yarimo'tkazgichlar va optik-tolali kabellar sohalariagi kashfiyotlar bilan bog'liq.

Bunday kashfiyotlar ulkan axborotlarni ishlab chiqish va saqlashga hamda ularni kommunikasiya tarmoqlari orqali tez tarqatish imkonini beradi. Kompyuterlarni bir-biriga ularni bir-biri bilan aloqa qilishga sozlash yangi kuchli texnologik tizimni umumiyl protokoldan foydalanuvchi tarmoq axborot sistemalarini yaratishga imkon beradi. Ular odamlarni, ularning uylarini va idoralarni birlashtiradi hamda juda qisqa vaqt ichida ulkan topshiriqlar sonini ishlab chiqadi va bajaradi. Bu axborotlardan foydalanish xususiyatini va kommunikasiya tuzilishini tubdan o'zgartiradi. Shu bilan birga kompyuter tarmoqlari yer sharining barcha nuqtalari bilan aloqa qilish imkonini beradi. Ta'lif tizimi uchun bu o'qituvchilar va talabalar o'rtaida kommunikasiya uchun yangi imkoniyatlar yaratib beradi.

Internet texnologiyalarning yangiligi va o'ziga xosligi insoniyat rivojlanishi nuqtai nazaridan ular deyarli insoniyat faoliyati barcha sohalariga kirib borishi, ulardan cheklanmagan joylar va maqsadlarda foydalanish mumkinligidan iborat. Shu kabi axborot-kommunikasiya texnologiyalari uch yo'nalishda ilgari bo'lмаган juda katta samara bilan insoniyat rivojlanishi jarayonidagi to'siqlarni yengib o'tish imkon beradi:

1) Bilimlarni egallash yo'lidagi to'siqlarni yengish. Axborotlardan foydalanish natijasida ta'lif olish yo'lidagi inson imkoniyatlarini shakllantirish uchun katta ahamiyatga ega. Agar ta'lif kognitiv ko'nikmalarini rivojlantirishga olib kelsa, axborotlar bilimlar toplash jarayonining mazmunli jihatini ta'minlash uchun kerak b'ladi. Internet va «Butun jahon tarmog'i» barcha ijtimoiy qatlAMDAGI insonlar uchun birdek axborot izlash kanali bo'lib xizmat qiladi.

2) Ijtimoiy hayotda ishtiroy etish yo'lidagi to'siqlarni yo'qotadi. Internet tarmog'i orqali butun dunyo bilan aloqa qilish imkoniyati oxirgi yillarda ko'plab global fuqarolik tashabbuslarini tarqatishga imkon berdi. Misol uchun, ta'lif tizimida qayta aloqani ta'minlash harakati.

3) Iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish yo'lidagi to'siqlarni yo'qotadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalar va ular bilan bog'liq sohalar hamda ta'lif tizimi eng jadal rivojlanayotgan sektorlar hisoblanadi. Yangi axborot texnologiyalari axborotlar va aloqadan foydalanish imkoniyatini keskin kengaytiradi. Elektron pochta, elektron kutubxonalar — saytlar ta'lif tizimi uchun cheksiz imkoniyatlar beradi, har qanday chegaralarni yo'qotadi, dunyoning har qanday nuqtasidan o'quv va ilmiy axborotlarni olish imkonini yaratadi.

Bugungi kunda Internetga simsiz ulanishni ta'minlovchi, shu jumladan, mobil telefonlar soni Internetga ulanadigan shaxsiy kompyuterlar sonidan ortib ketdi. Ta'lif sifatini, ma'naviy-g'oyaviy tarbiyasi darajasini oshirish vazifasi hisoblanadi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish



so‘zsiz yangi axborot texnologiyalariga asoslanishi zarur. Ta’lim tizimini rag‘batlantirmay turib, fuqarolik jamiyatini qurib bo‘lmaydi. Ta’lim tizimi yopiq nuqtai nazarlar, qarashlar statik tizimi emas, bir uzlusiz jarayondan iborat bo‘lishi kerak. Mustaqil Respublikamizning rivojlanishini kafolatlash uchun ta’lim tizimi dinamik, mukammal bo‘lishi kerak. Gumanitar ta’lim tizimi — bu shaxsiy fikrlashini qayta anglab yetish, yangi o‘quv dasturlarini ishlab chiqish, doimiy fikr almashish doimiy jarayonidir. Hozirgi paytda kompyuter tarmoqlari davrida yangi texnologiyalarni yaratish va tarqatish xususiyatlari o‘zgarmoqda hamda bu quyidagi yo‘nalishlarda sodir bo‘lmoqda: birinchidan, yuksak raqobatchilik hukm surishi bilan ajralib turadigan zamонави global bozorda ko‘nikmalar har qachongidan ham katta ahamiyatga ega. Texnologiyalarni uzatish va tarqatish juda murakkab jarayon. Ikkinchidan, texnologiyalar qimmatligini tan olinishini aks ettiruvchi yangi global normalarni ishlab chiqish ham katta ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Deyarli barcha mamlakatlar tomonidan maqullangan yangi qoidalari intellektual xususiylikni himoya qilish rejimlarini barcha yerda kuchaytirmoqda. Uchinchidan, butun dunyoda ilmiy tadqiqotlar va tajriba-konstrukturlik loyihalashtirish sektorida xususiy sektor yetakchi rol o‘ynaydi. Bu sektorda yangi texnologiyalarni ishlab chiqish uchun zarur moliyaviy mablag‘lar, bilimlar va kadrlar katta qismi jamlangan. To‘rtinchidan, eng yuksak malakali texnik mutaxassislarni ish bilan ta’minlovchi global mehnat bozori shakllanadi. Beshinchidan, yangi kompaniyalar, ilmiy-tadqiqotchilik laboratoriylari va moliyalashtiruvchilar hamda korporasiyalar yangi texnologiyalar ishlab chiqarish global markazlariga birlashmoqdalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI .

1. Aripov M. Internet va elektron pochta asoslari.- T.; 2000.
2. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta’limda innovatsion texnolo-giyalar (ta’lim muassasalari pedagog-o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). T: —Iste’dod jamg’armasi 2008.
3. F.B. Raximov, E.Sh. Niyazov, K.Q. Hamroyev, T.T. Nazarov. Chaqiriqqacha boshlang‘ich tayyorgarlikni o‘qitishda axborot-kommunikatsion texnologiyalari. B.; Kamolot nashriyoti. 2023.



TASK BASED LANGUAGE TEACHING (TBLT) AND ITS IMPACT ON LANGUAGE ACQUISITION

No'monjonova Begoyim Shuhratovna

Student of Uzbekistan State World Language University

Tel: 948991594

numanjonovabegoyim@gmail.com

Scientific supervisor: Senior teacher. Kh. M. Urinboeva

Uzbekistan State University of World Language

Education is the foundation of our nation's future. We must bring up a generation who are creative, well-versed in modern knowledge, and fluent in foreign languages.

Sh.M. Mirziyoyev

Abstract: This article explores the theoretical foundations of Task-Based Language Teaching (TBLT) and its impact on language acquisition. It also outlines solutions to TBLT-related challenges through teacher training, development of appropriate materials, and improvement of assessment systems.

Key words: Task-Based Language Teaching, Language Acquisition, Communicative Approach, Learner Autonomy, Pedagogical Challenges, Second Language Learning.

Nowadays, language learning and teaching is one of the pressing issues in our society. It has not only been important recently but has been a focus of our state for the past 34 years. During this period, strong institutions, fundamental reforms, and significant changes have been carried out. You might ask, «What is the goal?» The goal is to see Uzbekistan among the developed countries and to elevate our homeland. However, achieving this goal is very difficult if efforts are insufficient. Taking this into consideration, our country has chosen the path of education to reach the aforementioned goal. In this process, the concept of education naturally leads to the concept of language in people's minds. Indeed, we cannot imagine this field without language learning or teaching. In this point it should be underlined that teaching language which is task-based is more effectful than other methods.

Task Based Language Teaching has transformed approaches toward language teaching and emphasized the need for authentic communication through tasks instead of featuring grammar exercises. This stems from the assumption that new languages are best acquired when they serve the purpose of real communication. In TBLT classes, learners participate in authentic world-related tasks which involve problem-solving, information exchange, and opinions articulation in the second language. For instance, instead of rote-learning food-related vocabulary, students could devise menus, evaluate restaurants, or role-play ordering in a café. These tasks have clear non-linguistic objectives which encourage language use. Studies indicate that TBLT has a positive impact on second language acquisition in numerous ways. It improves communicative fluency by providing opportunities for unplanned speech. It enhances learners' motivation because activities in the class relate to their everyday language use. It fosters a language user's implicit knowledge of a language, which allows for the effortless use of language in an instinctive manner.

A standard TBLT lesson has three phases: a pre-task phase that sets the stage by presenting the topic and activating relevant schemata; the main task cycle in which students cooperatively achieve the goal; and a language focus phase in which students are attracted to some of the linguistic features that arose from the task completion. TBLT is one approach to L2 instruction that requires a great deal of preparation and specialized instruction before it can be effective in the classroom. Task selection, control of student activity—encouraging rather than leading—adequate form-focused feedback, and the blending of meaning and form within feedback all require substantial attention. TBLT, if thoughtfully designed and implemented, has the potential to create environments in which students naturally acquire language during authentic interactions and are more competent to tackle communicative hurdles awaiting them outside the classroom.

Used literature:

1. Ellis, R. (2003). Task-based language learning and teaching. Oxford University Press.
2. Long, M. H. (2015). Second language acquisition and task-based language teaching. Wiley-



Blackwell.

3.Skehan, P. (2018). Second language task-based performance: Theory, research, assessment. Routledge.

4.Bygate, M., Skehan, P., & Swain, M. (Eds.). (2001). Researching pedagogic tasks: Second language learning, teaching and testing. Longman.



МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNING NUTQ BOYLIGINI OSHIRISHDA ERTAKLARNING AHAMIYATI

Abdullayeva Sabohat G‘ayratullayevna
Profi University Navoiy filiali o‘qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning nutq boyligini oshirishda ertaklarning ahamiyati, bolalarga ertak tanlashda nimalarga e’tibor berilishi, ertak turlari haqida ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘z – maktabgacha yoshdagi bolalar, ertak, ertak turlari, sahna faoliyati

Maktabgacha yosh — bu bolaning shaxs sifatida shakllanishida muhim bosqichlardan biri bo‘lib, aynan shu davrda uning nutqiy rivojlanishi, dunyoqarashi, fikrlash qobiliyati va ijtimoiy munosabatlari asos solinadi. Nutq esa bolaning atrof-muhit bilan aloqasini ta’minlovchi, o‘z fikr va his-tuyg‘ularini ifoda etish vositasi sifatida alohida ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan qaraganda, bolalar nutqining boyligi nafaqat til o‘rganish, balki tafakkur, xotira va muloqot madaniyatining rivojlanishida ham muhim rol o‘ynaydi.

Mazkur jarayonda xalq og‘zaki ijodining bebafo namunalaridan biri bo‘lgan ertaklar o‘ziga xos tarbiyaviy va nutqiy ahamiyatga ega vosita sifatida ajralib turadi. Ertaklar nafaqat bolalarning fantaziya va tasavvurini kengaytiradi, balki ularning lug‘at boyligini oshiradi, to‘g‘ri va aniq fikr bildirishga, savol-javobga kirishishga, ohangdor va ifodali gapirishga o‘rgatadi.

Maktabgacha yoshdagi bola eshitgan, ma’nosini tushunadigan, eslab qoladigan hamda qo‘llaydigan so‘zlarni asta-sekin tevarak atrof bilan tanishish jarayonida ota-onalari, tengdoshlarining axborotlari orqali, shuningdek, o‘zining uncha ko‘p bo‘lmagan so‘z zahirasida tayanib bilib oladi. Bola o‘sib boradi, uning ehtiyojlari ko‘payadi, yangi istaklari, qiziqishlari paydo bo‘ladi.

“Bola, - degan edi K.D.Ushinskiy ilk yoshlik chog‘ idanoq xalq madaniyati elementlarini o‘zlashtira boshlaydi, bularni avvalo ona tilini bilish yo‘li bilan o‘rganadi. Shu bois, bizning fikrimizcha, oilada, bolalar bog‘chasida ta’lim-tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda ona tilidan o‘rinli foydalanmoq zarur”.

Maktabgacha yosh - bu ertak yoshi. Bu yoshda bola ajoyib, g‘ayrioddiy, ajoyib hamma narsaga kuchli intilishni namoyon qiladi. Ertak har bir bolajonlarning to‘liq rivojlanishining eng maqbul vositalaridan biridir. Ko‘p yillar davomida shunday bo‘lgan, va shunday bo‘ladi ham. Siz ertakning bolalar hayotidagi rolini e’tiborsiz qoldirmasligingiz kerak - to‘g‘ri tanlangan ertak bolaning hissiy holatiga ijobjiy ta’sir qiladi, uning xatti-harakatlarini to‘g‘rilaydi va yaxshilaydi, shuningdek, bolaning o‘zidagi qobiliyatlarini rivojlantiradi va o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi. Bolalar ertaklardan juda ko‘p bilim oladilar: vaqt va makon haqidagi dastlabki bilimlar; inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlar haqida; obyektiv dunyo bilan munosabat; hamda ertaklar bolaga yaxshilik va yomonlikni ko‘rish imkonini beradi.

Ertak - bu bola bilan unga tushunarli va tanish tilda muloqot qilish usuli, bu hayotdagi birinchi xavfsiz darslar sanaladi. Ertak o‘qish bolaning so‘z boyligini kengaytiradi, nutqining rivojlanishiga yordam beradi. Ertak tinglab, bola xalq og‘zaki ijodi bilan tanishadi, maqollarni, matallarni eslaydi. Bola uchun ertak shunchaki o‘ylab topilgan voqealar, fantastika emas, bu o‘zigaxos voqelik, tuyg‘ular olamidir. Ertak bola uchun oddiy hayot haqidagi bilimlarini kengaytiradi. Bolalar ertaklarni tinglab, qahramonlar hayotida yashaydilar, qahramonlarga chuqur hamdard bo‘ladilar ularga yordam berish va himoya qilish uchun ichki tuyg‘ular shakillanadi. Maktabgacha yoshda ertakni idrok etish bolaning o‘ziga xos faoliyatiga aylanadi, bu ajoyib jozibali kuchga ega bo‘lib, bolaga erkin orzu qilish va xayol surish imkonini beradi.

Pedagogik jarayonda ertaklardan foydalanish

Ertaklardan dars jarayonida samarali foydalanish uchun turli metodlar mavjud:

- Dramatizatsiya: Ertak qahramonlarini rolli o‘yin tarzida gavdalantirish.
- Savol-javoblar: Bolalarning fikrini bilish va rivojlantirish.
- Rasm chizish yoki sahna ko‘rinishlari:

Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutq boyligini oshirishda ertaklarning roli beqiyosdir. Ertaklar bolalarda og‘zaki nutqni rivojlantirish, so‘z boyligini kengaytirish, fikrlashni faollashtirish va estetik didni shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Ertaklar orqali bola nafaqat til o‘rganadi, balki



milliy qadriyatlar, axloqiy tushunchalar va ijtimoiy munosabatlar haqida ham tasavvurga ega bo‘ladi.

Tarbiyaviy jihatdan boy, obrazlar bilan boyitilgan ertaklar bolani o‘z fikrini ifodalashga, tinglaganlarini tahlil qilishga, voqealar ketma-ketligini tushunishga o‘rgatadi. Shuningdek, ertaklar orqali bolalarning ijodiy tafakkuri rivojlanib, ularning o‘z fikrini mustaqil bayon eta olish ko‘nikmalari shakllanadi.

Ertaklar — maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda eng samarali, tabiiy va zavqli vositalardan biridir. Ularni tarbiya jarayoniga to‘g‘ri va samarali yo‘naltirish esa pedagog va ota-onalarning asosiy vazifalaridan biri sanaladi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. «Ilk qadam» Davlat o‘quv dasturi.
2. Karimova, Z. (2020). *Bolalar adabiyoti va badiiy nutq*. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.
3. Yusupova, M. (2019). *Maktabgacha ta’limda nutqni rivojlantirish metodikasi*. Toshkent: Fan va texnologiya.
3. Nutq o‘stirish uslubiyoti. Q.Shodiyeva “O‘qituvchi” Nashriyot-Matbaa Ijodiy uyi. Toshkent-2008



O'QUVCHILARDA STRESS VA ASABIYLIKNI KAMAYTIRISH BO'YICHA AMALIY MASHG'ULOTLAR

Ashirova Oydin Rashid qizi,
Urganch tuman 18-sون мактаб
Nurjonova Shoira Hamdamovna,
Urganch tuman 27-sон мактаб

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy mактаб o'quvchilari orasida uchraydigan stress va asabiylik muammolari, ularning asosiy sabablari va oqibatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, o'quvchilarning psixologik salomatligini mustahkamlash, ularning ruhiy bosimlarga bardoshini oshirish maqsadida qo'llanilishi mumkin bo'lgan amaliy mashg'ulotlar va metodlar yoritib beriladi. Mazkur maqola psixolog o'qituvchilar, sind rахbarlari va ota-onalar uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar. Stress, asabiylik, mактаб o'quvchilari, psixologik salomatlik.

Bugungi kunda ta'lrim jarayonida o'quvchilarning psixologik salomatligi va emotsiyonal barqarorligini ta'minlash dolzarb masalalardan biriga aylangan. Tezkor hayot tarzi, ta'limga qo'yilayotgan yuqori talablar, imtihon va nazorat ishlari, o'zaro munosabatlardagi muammolar natijasida o'quvchilarda stress va asabiylik darajasi ortib bormoqda. Natijada, bolalarda o'qishga bo'lgan qiziqishning pasayishi, o'zlashtirish ko'rsatkichlarining kamayishi, ruhiy noqulayliklar va sog'liq muammolari yuzaga keladi.

Mактаб psixologlari va o'qituvchilar zimmasiga o'quvchilarga stress va asabiylikni yengishda, ruhiy muvozanatni saqlashda yordam berish vazifasi yuklatilgan. Stress va asabiylik darajasini aniqlash uchun "Stress darajasini aniqlash testi" (hamda Zarubin testlari)dan, shuningdek, o'quvchilarning emotsiyonal holatini baholash uchun maxsus so'rovnomalardan foydalanildi.

Tadqiqot ishlari Xorazm viloyatidagi Urganch tumanidagi 18-27 - maktablarda 2025-yil aprel-may oylarida olib borildi. Tajribada 6-8-sinfda o'qiydigan 45 nafar o'quvchi (23 nafar qiz va 22 nafar o'g'il bola) ishtiroy etdi. Tajriba ishtiroychilari tasodifiy tanlab olindi va ular bilan dastlabki suhbatlar o'tkazilib, stress va asabiylik darajasi maxsus test va so'rovnomalardan yordamida aniqlab olindi.

Tajriba uch bosqichda amalga oshirildi:

1. Dastlabki diagnostika: O'quvchilarning dastlabki psixologik holatini baholash uchun Zarubin testi va emotsiyonal holat so'rovnomasidan foydalanildi. Natijada, ko'pchilik o'quvchilarda o'rtacha va yuqori darajadagi stress va asabiylik aniqlangan.

2. Amaliy mashg'ulotlar o'tkazish: O'quvchilar ikki guruhgа bo'lindi: Eksperimental guruh: Bu guruhda haftasiga ikki marta, jami 4 hafta davomida relaksatsion mashqlar, chuqur nafas olish texnikalari, emotsiyonal muvozanatga oid o'yinlar va psixologik treninglar o'tkazildi.

Nazorat guruh: Bu guruh uchun oddiy o'quv jarayoni davom ettirildi, maxsus mashg'ulotlar o'tkazilmadi.

Amaliy mashg'ulotlar quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oldi:

- ✓ Kichik guruhlarda dam olish va relaksatsiya mashqlari
- ✓ Rang-terapiya (ranglar bilan chizish va emotsiyalarni ifodalash)
- ✓ Chuqur nafas olish va musiqiy relaksatsiya
- ✓ "O'zini ifodalash" va "Hissiyotlarni bo'lishish" texnikalari
- ✓ O'zini ijobiy baholash va o'z-o'ziga ishonchni oshirish bo'yicha topshiriqlar

3. Yakuni va natijalar: Tajriba yakunida barcha ishtiroychilar qayta test va so'rovnomalardan o'tkazildi. Eksperimental guruhda o'quvchilarning stress va asabiylik darajasida sezilarli pasayish, kayfiyat va o'zlashtirish ko'rsatkichlarida esa ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Nazorat guruhida esa deyarli sezilarli o'zgarishlar qayd etilmadi.

Olingan natijalar amaliy mashg'ulotlarning samaradorligini tasdiqladi hamda bu yo'nalishdagi ishlarni mактаб amaliyotiga keng joriy etish zarurligini ko'rsatdi.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Azizova, G. S. (2020). O'quvchilarda stress va emotsiyonal zo'riqishlarni kamaytirish usullari. – Toshkent: Innovatsion pedagogika journali, №2, 45–50-betlar.
2. Xolmatova, D. (2022). Amaliy psixologiya: metodlar va mashg'ulotlar. – Toshkent: «Ilm ziyo» nashriyoti.



Jumamuratova Sevara Saparbaevna,
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti,
Ta'lif va tarbiya nazariyasi va metodikasi
o'zbek tili ixtisosligi 3-kurs doktoranti
+99893-164-22-00
sjumamatova@list.ru

Annotations

Ushbu maqolada o'zbek tili ta'lida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish va ularning rivoji haqida to'xtalgan. Zamonaviy til ta'limini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning samarali usullari haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Raqamli texnologiya, til, ta'lif, elektron dastur, elektron mashqlar, pedagogika, multimedia, dastur, axborot texnologiya, interfaol

Zamonaviy texnologiyalarning rivojlanish holati, birinchi navbatda, jamiyatning intellektual salohiyatiga, jumladan, ta'lif masalalari jamiyatda ustuvor yo'nalish sifatida qaratilmoqda. Dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarida ta'limni axborotlashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ta'limni rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish yo'llari izlanmoqda, ta'linda yangi axborot texnologiyalarini joriy etish ta'lif sohasidagi islohotlarning diqqat markazidan o'rinn olgan. Jahonda masofaviy o'qitish ochiq ta'lif tizimining muhim bo'g'ini sifatida keng quloch yoymoqda.

Bugungi kunda eng ommabop mavzu – ta'lif resurslarini, multimediali darslarni yaratish. Bu yerda har kim o'zining bor ijodiy o'ziga xosligini, aql-zakovatini, bilimini, nozik didini namoyon qilishi mumkin. Afsuski, taqdimot tayyorlash va ma'lumotlar bazasi yaratish bilimlariga ega bo'lmasdan multimediali loyiha tayyorlab bo'lmaydi, shunga qaramasdan maxsus dasturiy vositalar borki, ularning ishslash texnologiyasini o'rganib, ko'p funksiyali ishslash vositalariga ega bo'lish mumkin.

O'qitish nazariyasida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini bir-biridan ajratish mumkin emas, chunki yangi pedagogik texnologiyalarning keng joriy etilishi ta'lif paradigmاسini o'zgartiradi va faqat zamonaviy axborot texnologiyalarigina yangi pedagogik texnologiyalarning imkoniyatlaridan samarali foydalanishni ta'minlaydi.

Multimedia vositalari asosida o'qitish jarayonida aniq fanlarni kompyuter asosida to'liq o'qitish, ma'ruza matnlarini tahrir qilish, talabalar axborot texnologiyalarini multimedia vositalari asosida animatsiya elementlarini dars jarayonida ko'rishi, eshitishi va mulohaza qilish imkoniyatlariga ega bo'ladi. Ta'lif tizimida axborot texnologiyalarining jadal sur'atlar bilan joriy etilishi zamonaviy texnologiyalarning qo'llanish sohalarini kengaytiradi. Ayni paytda ta'lifda zamonaviy axborot texnologiyalarini rivojlanayotgan yo'nalishlarini alohida ta'kidlash mumkin. Ular:

1. O'quv maqsadlaridagi dasturiy vositalarining imkoniyatlarini o'qitish vositasi, o'rganish ob'ekti va axborotlarni qayta ishslash vositasi sifatida joriy etish.

2. O'quv-metodik majmualar yaratishda, o'quv-namoyish asboblari va kompyuter vositalari imkoniyatlarining integratsiyasi. Bunday majmualardan foydalanish o'quvchiga o'rganilayotgan jarayon haqidagi axborotlarni jamlash, saqlash, jarayonlarning qonuniyatlarini mohiyatlarini ochib berishga yordam beradi. Zamonaviy texnologiyalar negizidagi o'quv-namoyish majmualarining qo'llanilishi individual va jamoaviy eksperiment faoliyatni tashkil etishga zamin yaratadi. Bu esa, o'quvchida intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirish va mustaqil bilim olish imkoniyatini yaratadi.

3. Multimedia tizimlarini yaratishda, kompyuterlar va audio-video axborotlarni uzatish vositalari imkoniyatlarining integratsiyaga erishish. Bunday tizimlar o'zida dasturiy-apparat vositalar va asboblar majmuasini majmuasini mujassamlashtirib, axborotning turli (matn, grafika, ovoz, tasvir) ko'rinishlarini birlashtiradi va foydalanuvchi bilan interfaol muloqotni tashkil etadi. Multimedia tizimlaridan foydalanish, faol o'qitish metodlari va shakllarini joriy etishni ta'minlaydi, axborotlarning qabul qilinish darajasini oshiradi.

Yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini bir-biridan ajratish mumkin emas, chunki yangi pedagogik texnologiyalarning keng joriy etilishi ta'lif paradigmасini o'zgartiradi va faqat zamonaviy axborot texnologiyalarigina yangi pedagogik texnologiyalarning imkoniyatlaridan samarali



foydalanishni ta'minlay oladi.

Ta'limni axborotlashtirish - ta'lim-tarbiyaning pedagogik-psixologik maqsadlarini amalga oshirishga yo'naltirilgan zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishni, ta'lim sohasida ularni yaratish amaliyoti va metodologiyasi bilan ta'minlashni nazarda tutadi. Bu jarayon, birinchidan, ilmiy-pedagogik ma'lumotlar bazasidan foydalanish asosida ta'lim tizimini boshqarish mexanizmini takomillashtirishni, ikkinchidan, zamonaviy axborot jamiyatida, shaxsni rivojlantirish maqsadlarida ta'lim-tarbiyaning tashkiliy shakllari, metodlari, mazmunini tanlash va metodologiyasini takomillashtirishni, uchinchidan, o'quvchini intellektual salohiyatini rivojlantirishga, unda mustaqil bilim olish malakasini shakllantirishga yo'naltirilgan o'qitishning metodik tizimini yaratishni va nihoyat to'rtinchidan, o'quvchilar bilimini nazorat qilish va baholashning diagnostik metodlarini, xususan kompyuter testlarini yaratishni va ulardan foydalanishni maqsad qiladi.

Kompyuterlar vositasida o'qitish o'quv jarayonining barcha jabhalariga samarali ta'sir ko'rsatadi. Kompyuterlarning o'qitish mazmuniga ta'siri o'quvchilarga ko'plab imkoniyatlarni ochib beradi. Bu kompyuterlarning o'quv materiallarini namoyish etish imkoniyatlarining yuqoriligi, sun'iy intellekt g'oyalalarini joriy etilishi, o'quvchilarga ko'plab axborotlarni yetkazish vositasi ekanligi bilan bog'liqdir. Ikkinci tomondan kompyuterlar o'qitish mazmuniga har xil yevristik vositalarni kiritadi. Kompyuterlarning muhim ahamiyatli tomonlaridan biri ularning - integratsiyalashgan o'quv fanlarini yaratishga real imkoniyat yujudga keltirishidir. O'quv maqsadlarida kompyuterlardan foydalanish o'quvchilarning faoliyatini o'zgartiradi. Endi o'quvchi pedagogga murojaat etmasdan turib zarur axborotlarni mustaqil izlab topishga, ya'ni mustaqil tadqiqot olib borish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Kompyuter o'qitishning ikkinchi yo'nalishi kompyuterlarni o'rghanish ob'ekti sifatida qo'llashdir. Kompyuterlarning o'quv jarayonida o'qitish vositasida qo'llanilishi didaktika va pedagogik psixologiyaning ko'pgina nazariy asoslarni qayta ko'rishni taqozo etadi. Jumladan, ekspert tizimlar o'quvchini istalgan murakkablikdagi masalani yechishda to'g'ri yechimga olib kelish, gipermatn o'rgatuvchi tizimlar esa o'quvchiga o'quv materiallarini o'zlashtirish ketma-ketligini tanlash imkoniyatlarini beradi.¹

Zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanish orqali o'quvchilar auditoriyasining tayyorlarlik darajasiga qarab didaktik materiallarni shakllantirish mumkin. Yaxshi ulguruvchi o'quvchilar uchun murakkabroq topshiriqlar tayyorlash yoki murakkab testlar berish imkoniyatlari yaratiladi. Didaktik materiallarni tayyorlashda pedagog o'zining kasbiy vazifalarini bajarishga qaratilgan materiallar tayyorlayotganini esda tutishi lozim.²

Xulosa. O'rjanilgan adabiyotlardan ma'lum bo'ldiki, interfaol resurslar foydalanuvchining o'zaro aloqa, muloqot rejimida bo'lishiga imkon beruvchi axborot elementlari bilan ta'minlanishidir. Elektron ta'lim resurslari tarkibiga interfaol elektron ta'lim resurslari kiradi, chunki «interfaollik» elektron ta'lim resurslarining majburiy didaktik xossasi hisoblanadi. Inretaktiv elektron axborot ta'lim resurslari ta'lim resusrlarining yangi, alohida turi emas, balki ta'lim resusrlarining o'ziga xos xususiyatini aks ettiruvchi vositadir. O'zbek tilini ona tili va davlat tili sifatida o'qitishda interfaol elektron axborot ta'lim resusrlarining tasniflanishiga ko'ra turlariga e'tibor qaratish, imkon qadar faol, ishchan va tadqiqotchilik turlariga murojaat qilish zarur. Buni jahonda til o'qitish sohasida to'plangan tajribalar ham ko'rsatib turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Begimkulov U.SH. Zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida pedagogik ta'limni tashkil etish. "Pedagogik ta'lim" jur, № 1, 2004 - 25-25 betlar.
2. Mengliyev Sh. "Multimedia ilovalarining turlari". Toshkent-2014. 36-bet
3. U.Sh.Begimqulov Pegagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. Toshkent O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashiyoti. 2007. 47-bet

¹ U.Sh.Begimqulov Pegagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. Toshkent O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashiyoti. 2007. 47-bet

² Begimkulov U.SH. Zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida pedagogik ta'limni tashkil etish. "Pedagogik ta'lim" jur, № 1, 2004 - 25-25 betlar.



ВО'ЛАЈАК БОШLANG'ICH СИНФ О'QUITUVCHILARINING МАТЕМАТИК ТАYYORGARLIGINI ТАКОМILLAШТИРИШДА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИYALARINING АHAMИYATI

Quvondiqov Shamshodjon Husniddin o'g'li

Profi nodavlat oliv ta'lim muassasi
Boshlang'ich ta'lim mutaxasislik fanlar o'qituvchisi
shamshodquvondiqov94@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada mamlakatimizda matematika sohasini rivojlantirishga qaratilayotgan e'tibor, matematika fanini o'qitishdan ko'zlangan zamonaviy maqsad va vazifalar, matematikani o'qitish jarayonining eng asosiy yo'nalishlari masalalari yoritilgan. Shuningdek, matematika o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish ahamiyati haqida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, matematika, axborot texnologiyalari, kompyuter, mantiqiy va tanqidiy fikrlash, matematik madaniyat, taqdimot, interaktiv o'qitish.

Matematika olamni, dunyoni bilishning asosi bo'lib, tevarak-atrofimizdag'i voqe'a va hodisalarning o'ziga xos qonuniyatlarini ochib berishda juda katta ahamiyatga egaki, matematik bilimlarsiz ishlab chiqarish va fanning rivojlanishini tasavvur qilib bo'lmaydi. Shuning uchun ham matematik madaniyat – umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Matematika fanini o'qitishdan ko'zlangan zamonaviy maqsad va vazifalar quyidagilardan iborat:

- o'quvchilarda kundalik faoliyatda qo'llash, fanlarni o'rganish va ta'lim olishni davom ettirish uchun zarur bo'lgan matematik bilim va ko'nikmalar tizimini shakllantirish va rivojlanish;
- jadal taraqqiy etayotgan jamiyatda muvaffaqiyatlari faoliyat yurita oladigan, aniq va ravshan, tanqidiy hamda mantiqiy fikrlay oladigan shaxsni shakllantirish;
- milliy, ma'naviy va madaniy merosni qadrlash, tabiiy-moddiy resurslardan oqilona foydalanish va asrab-avaylash, matematik madaniyatni umumbashariy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida tarbiyalashdan iborat.

Matematikani o'qitish jarayonining eng asosiy yo'nalishlari quyidagi to'rt qismdan iborat:

- matematik tushunchalar to'plamini bilish;
- matematik mulohaza yurita olish;
- matematik masala va muammolarni yechish;
- matematik tilni egallash.

Axborot texnologiyalari deganda, axborot yetkazishning turli vositalari – yozuv, qog'ozning ixtiro etilishi, bosma yozuv, radio, ovoz yozish texnik qurilmalari, kompyuterlar nazarda turiladi. Psixologik va pedagogik tadqiqot ishlarida shu narsa ta'kidlamoqdaki, axborot texnologiyalari o'quvchilarning nazariy, ijodiy va refleksiv tafakkuri rivojlanishiga kuchli ta'sir etadi. O'quvchining xotirasida u yoki bu hodisa, jarayonning obrazli ifodalaniши o'quv materialini boyitib, uning ilmiy jihatdan o'zlashtirilishiga yordam beradi.

"Matematika" o'quv jarayonida axborot texnologiyalarini qo'llash uchun katta imkoniyatlar yaratadi Bunda o'quv jarayonining turli bosqichlarida (yangi materialni o'rganish, ilgari o'rganilgan bilimlarni mustahkamlash va tizimlashtirish, bilimlarni va o'rganilgan faoliyat usullarini nazorat qilish, materialni umumlashtirish va takrorlash) darsning turli bosqichlarida. (bilimlarni yangilashda, yangi materialni taqdim etishda va hokazo) va, o'quv jarayonining ajralmas qismi bo'lgan auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda foydalanish mumkin.

Interaktiv o'qitish yordamida o'quvchilar o'rtaida muloqotni va hamkorlikni rivojlanish orqali bilimni boyitishga erishiladi. Bu usul o'quvchilarni guruhlarda ishlashga, fikrlarini erkin bildirishga va birgalikda yechim topishga undaydi. Interaktiv o'qitishda har bir o'quvchi faol ishtirot etadi va yangi bilimlarni samarali o'zlashtiradi. Bir masalani bir necha guruhga bo'lib berish kerak va ularni o'z usullari bilan yechish jarayonini kuzatish kerak. Har bir guruh o'z natijalarini boshqa guruhlarga taqdim etadi va ularning fikrlarini muhokama qiladi. Har bir guruh boshqa guruhlarning yechimlarini tahlil qiladi va qiyoslaydi.

Masalan, "Bir qishloqda har 10 kunda bir marta bozor tashkil etiladi. Agar bu qishloqda har 3 oyda bir marta asosiy bozor ham bo'lsa, 1 yilda necha marta bozor tashkil etiladi?"

Guruhlar har xil yondashuvlardan foydalanib yechim topishga harakat qiladi. Ular 1 yilda 365 kun borligini va har 10 kunda bir marta bozor bo'lishini muhokama qiladilar. Har bir guruh o'z yechimini



taklif etadi: oddiy bozor 36 marta, asosiy bozor 4 marta, jami 40 marta bo‘ladi.

Hujjatda asosan muloqotni rivojlantirishga qaratilgan(matematik kommunikatsiya strategiyalaridan kengroq darajada foydalanish imkoniyati kasbiy faoliyat uchun yetarli, bo‘lajak o‘qituvchining odatiy matematik muammolarni yechish qobiliyati. Uning bazasi qobiliyatidan iborat bo‘lib, ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- a) odatiy yechish algoritmlarini amaliy qo‘llash imkoniyati muammolar;
- b) yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolar kontseptsiyasini qayta yaratish imkoniyati individual va ijtimoiy amaliyotda va odatiy muammolarga kamayadi;
- c) odatiy muammolarni tizimlashtirish, kamaytirish mezonlarini topish odatiy muammolarga muammolar;
- d) odatiy muammoni tan olish yoki aniq bir ozishga qodirligi odatiyiga muammo;
- e) turli axborot manbalaridan foydalanish imkoniyatidan odatiy muammolarni hal qilish tartib-taomillarini topish.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash lozimki, matematika faning oldiga qo‘yilgan yuqorida maqsad va vazifalarni amalga oshirishda innovatsion va raqamli texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. PQ-4708-sон. 07.05.2020 yil. <https://lex.uz/docs/-4807552>
2. Abduraxmonov A.G. Matematikani o‘qitishda axborot texnologiyalarining ahamiyati/ Chirchik State Pedagogical University Effectiveness of Introduction of Digital Technologies in the Educational Process, 2023.
3. Dehqonova M.Sh., Axmedova U.Y. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini matematik savodxonligini oshirish jarayonida ularning tafakkuri, qobiliyati va intellektual rivojlanish/ Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. April, 2023
4. Djumayev M., “Mathematical regularity and development of creative thinking of students”., Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Tashkent.(Uzbekistan)., German International Journal of Modern Science No28, 2022., 26-28 pages.



ТА’ЛИМ ТАШКИЛОТИДА ИНКЛЮЗИВ МУХИТНИ ЛОYИHALASH.

Abdusalomova Madinaxon Toxirjon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti Uzb-AU-23-guruh talabasi

E-mail: abdusalomovamadina082@gmail.com

Ro‘ziyeva Durdona Baxtiyorjon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti Uzb-AU-23-guruh talabasi

E-mail: roziyevadurdona019@gmail.com

Annotatsiya:

Ushbu maqolada ta’lim tashkilotlarida inklyuziv muhitni shakllantirish va loyihalash jarayonlari yoritilgan. Muallif inklyuziv ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalar uchun qulay, teng imkoniyatlari, qo‘llab-quvvatlovchi o‘quv muhiti yaratish zarurligini ta’kidlaydi. Shuningdek, muhitni rejalashtirishda pedagogik yondashuvlar, jismoniy sharoitlar, psixologik qulaylik va jamiyat bilan hamkorlik muhim omil sifatida ko‘rib chiqiladi. Maqolada O‘zbekiston sharoitida inklyuziv muhitni muvaffaqiyatli loyihalash yo‘llari, amaliy tajribalar va takliflar asosida tahlil qilinadi.

Kalit so’zlar: Kalit so’zlar: inklyuziv ta’lim, loyihalash, ta’lim muhiti, maxsus ehtiyoj, pedagogik yondashuv, psixologik qulaylik, teng imkoniyat, o‘zaro hamkorlik, o‘quvchilarga moslashtirish, ijtimoiy integratsiya.

Annotation:

This article explores the processes of forming and designing an inclusive environment in educational institutions. The author emphasizes the necessity of creating a comfortable, equitable, and supportive learning environment for children with special educational needs. The importance of pedagogical approaches, physical conditions, psychological comfort, and collaboration with the community in designing such an environment is also discussed. The article analyzes practical experiences and suggestions for successfully implementing inclusive environments in the context of Uzbekistan. Keywords: inclusive education, design, educational environment, special needs, pedagogical approach, psychological comfort, equal opportunities, collaboration, student adaptation, social integration.

Аннотация:

В данной статье рассматриваются процессы формирования и проектирования инклюзивной среды в образовательных организациях. Автор подчеркивает необходимость создания комфортной, равноправной и поддерживающей учебной среды для детей с особыми образовательными потребностями. Также акцентируется внимание на важности педагогических подходов, физических условий, психологического комфорта и сотрудничества с обществом при проектировании среды. В статье анализируются пути успешного проектирования инклюзивной среды в условиях Узбекистана на основе практического опыта и предложений. Ключевые слова: инклюзивное образование, проектирование, образовательная среда, особые потребности, педагогический подход, психологический комфорт, равные возможности, сотрудничество, адаптация учеников, социальная интеграция.

Mamlakatimizda ta’lim masalasiga davlat siyosatining eng muhim yo’nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. O’tgan yillar davomida o’sib kelayotgan yosh avlodni sog’lom va har jihatdan barkamol etib tarbiyalash, ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy va samarali usullar hamda shakllarni joriy etish maqsadida maktabgacha ta’limning yaxshi tizimini yaratish bo'yicha katta ishlar qilindi.

Shu bilan birga, o’tkazilgan tahlillar shuni ko’rsatdiki, bolalarning maktabgacha ta’limga qamrab olinishini ta’minalash, maktabgacha ta’lim muassasalarini zamonaviy o‘quv-metodik materiallar va bolalar adabiyoti bilan boyitish, sohaga yetuk pedagog va boshqaruv kadrlarini jalb qilish kabi masalalarni hal qilish zarur.

Bolalar bog’chalarini yaxshilash va ularga hamma bolalar bir xilda bora olishi uchun davlatimiz Prezidentining maxsus qarori chiqdi. Bu qarorda kelajakda, 2030-yilgacha bolalar bog’chalari qanday rivojlanishi haqida reja tuzilgan[1].

Bolalar bog’chalariga oid qonun-qoidalarni yanada yaxshilash, kichkintoylarning aqliy, axloqiy, go’zallik va jismoniy jihatdan har tomonlama o’sishi uchun imkoniyatlar yaratish, ularning hammasi sifatli bog’chaga bora olishini ta’minalash maqsad qilindi.

O‘zbekiston Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi farmoniga ko’ra, O‘zbekistonda nogironligi bor bolalar kabi alohida ehtiyoji bo‘lgan bolalarning ta’lim olishi uchun sharoitlarni yaxshilash, ularga



berilayotgan ta’lim sifatini oshirish maqsadida 2020-yildan 2025-yilgacha xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish rejasи tuzildi[2].

2020-yildan boshlab 2025-yilgacha xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish Konsepsiyasini 2020-2021-yillarda hayotga tatbiq etish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” tuzildi. Alovida ta’limga muhtoj bo‘lgan bolalarning ta’limini 2025-yilgacha rivojlantirishning aniq maqsadli ko‘rsatkichlari (indikatorlari) tasdiqlandi.

Konsepsiya erishilgan natijalar, belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlar va kelgusi davrga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlardan kelib chiqib, 2022-yildan e’tiboran har yili tasdiqlanadigan alohida “Yo‘l xaritasi” asosida bosqichma-bosqich amalga oshirilishi belgilab qo‘yildi[3].

Konsepsiyanı ikki bosqichda amalga oshirish rejalashtirilgan, jumladan:

2020-yildan 2022-yilgacha bo‘lgan davrda:

Inklyuziv ta’lim tizimi sohasidagi me’yoriy hujjatlar bazasini yaxshilash;

Inklyuziv ta’lim tizimi uchun yetuk pedagog kadrlarini tayyorlash, ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlash[4];

Inklyuziv ta’lim joriy etilgan muassasalarning moddiy-texnika ta’minotini kuchaytirish, ularni maxsus moslamalar (ko‘tarish qurilmalari, panduslar, tutqichlar va boshqalar), zarur adabiyotlar, metodik qo‘llanmalar, turli kasblarga o‘qitish uchun asbob-uskunalar bilan ta’minalash;

Inklyuziv ta’lim sohasiga zamонавиҳи axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va yangi loyihalarni tatbiq etish;

Alovida ta’limga muhtoj bo‘lgan bolalarning bilim olish huquqini tushuntirish, inklyuziv o‘qitishning mohiyatini aholi o‘rtasida targ‘ib qilish orqali ijtimoiy muhitni shakllantirish;

Alovida ta’limga muhtoj bo‘lgan bolalarni kamsitish, ularga nisbatan salbiy munosabatda bo‘lishning oldini olishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish;

Inklyuziv ta’lim tizimini tajriba-sinov tariqasida ayrim maxsus ta’lim muassasalarining ish faoliyatiga joriy etish;

2023-yildan 2025-yilgacha bo‘lgan davrda:

Inklyuziv ta’lim tizimini bosqichma-bosqich boshqa umumiyo‘ o‘rta ta’lim muassasalarida ham joriy etish;

Alovida ta’limga muhtoj bo‘lgan har bir bolaning inklyuziv ta’lim olish huquqini ta’minalashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

Inklyuziv ta’limda o‘qitish usullarini takomillashtirish hamda ta’lim jarayoniga bosqichma-bosqich individuallashtirish tamoyillarini joriy etish;

Inklyuziv ta’lim jarayonida o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashga, ularning jismonan sog‘lom va kuchli bo‘lib voyaga yetishiga qaratilgan tadbirlarni ko‘rish;

O‘quvchilarning jismoniy va aqliy ehtiyojlaridan hamda ta’lim muassasalarining joylashuvidan kelib chiqib, alovida ta’limga muhtoj bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta’lim muassasalari sonini maqbullashtirish belgilab qo‘yildi.

Inklyuziv ta’limning asosiy maqsadi bolalarning qobiliyati va holatidan qat’i nazar, ularning har biriga sifatli ta’lim berishdir. Bunda inklyuzivlik tamoyili imkoniyati cheklangan bolalarning ruhiy va ijtimoiy jihatdan yaxshi rivojlanishi uchun ular oilasida yashashi va o‘z tengdoshlari bilan birga oddiy maktabda bilim olishi kerakligini ta’kidlaydi. Inklyuziv ta’lim tizimi nogironlik aravachasidagi bola o‘zi yashaydigan joyga yaqin bo‘lgan istalgan maktabda o‘qishi, agar o‘zlashtirishda qiyinchilikka duch kelsa, o‘qish va yozishni o‘rganishi uchun maxsus yordam olishi, darslarga kelmay qo‘ygan bolaga esa maktabga qaytishi uchun zarur ko‘rsatilishini kafolatlaydi.

Maktabgacha ta’lim tizimida inklyuziv ta’limning ahamiyati shundaki, imkoniyati cheklangan bolalarni erta yoshdan boshlab sog‘lom bolalar bilan birga qo‘shib o‘qitish orqali ularning ruhiy va jismoniy hissiyotlari hamda harakatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Inklyuziv ta’lim imkoniyati cheklangan bolalarga nimalar beradi?

O‘z qobiliyatlarini mustaqil ravishda kashf etish imkoniyatini yaratadi[4].

Mustaqil harakat qilish, birgalikda va hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Dunyoviy qarashlarini kengaytiradi, hayotiy tajribalarini oshiradi.

O‘qishga bo‘lgan ehtiyoj va qiziqishlarini kuchaytiradi.

O‘zini jamiyatning to‘laqonli a‘zosи sifatida his qilishga yordam beradi.

Ilgari sezilmagan qobiliyatlarini ochib beradi.

Yotsirash va yolg‘izlik kabi tuyg‘ularini yo‘qotadi.

Inklyuziv ta’lim sog‘lom bolalar hayotiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?



O‘zlariga o‘xshamagan tengdoshlari va ularning hayoti, ehtiyojlarini chuqurroq his qilishga o‘rgatadi.

Tengdoshlariga nisbatan g‘amxo‘rlik tuyg‘usini uyg‘otadi.

Ularni qo‘llab-quvvatlash va yordam berishga intilish orqali insonparvarlik hissini tarbiyalaydi.

O‘quvchilarda atrofdagi insonlarga, imkoniyati cheklanganlarga nisbatan ijobiy munosabat va o‘zaro hurmatni shakllantiradi.

Yordamga muhtoj insonlarga befarq bo‘lmaydigan mehribon shaxslar bo‘lib yetishishlariga zamin yaratadi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda inklyuziv ta’limga yo‘naltirilgan maktabgacha ta’lim tashkilotlari soni tobora ko‘payib va sifat jihatdan yaxshilanib bormoqda.

Adabiyotlar:

1. Axmedova, M. (2023). *Inklyuziv ta’lim asoslari*. – Toshkent: O‘qituvchi.
2. Soliyev, A., Hamidova, N. (2022). *Maxsus pedagogika va inklyuziv ta’lim*. – Toshkent: TDPU nashriyoti.
3. Karimova, D. (2021). *Ta’limda teng imkoniyatlar: inklyuziv yondashuvlar*. – Toshkent: Fan va texnologiya.
4. Toshxo‘jayev, B. (2020). *O‘zbekiston ta’lim tizimida inklyuziv muhitni shakllantirish*. – Toshkent: Ilm Ziyo.
5. Bobojonova, S. (2022). *Pedagogik texnologiyalar va inklyuziv ta’lim*. – Toshkent: Yangi asr avlod.



CHET TIL LINGVISTIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA KOMMUNIKATIV VA DIFFERENSIAL YONDASHUV TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA

Sindarova Nargiza Abdumajidovna
Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy
pedagogika universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotation

Mazkur maqolada chet tilni o'qitishda lingvistik kompetensiyani shakllantirish va rivojlanirishda kommunikativ hamda differensial yondashuvlarning o'rni va ahamiyati yoritib beriladi. Zamonaviy til o'qitish usullari doirasida o'quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda kommunikativ va differensial yondashuvni qo'llash, shuningdek, tilni har qanday kommunikativ vaziyatlarda qo'llashni rivojlaniruvchi usullar orqali o'rgatishning ta'lif samaradorligiga ijobiy ta'siri tahlil etildi.

Kalit so'zlar: chet til, lingvistik kompetensiya, kommunikativ yondashuv, differensial yondashuv, ta'lif samaradorligi, til o'rganish usullari, til ko'nikmalar rivoji, pedagogik texnologiyalar

Globallashuv jarayonlari ta'lif tizimiga ham o'z ta'sirini ko'rsatib, bugungi kunda chet tillarni o'qitish metodikasida yangi, turli yondashuvlar joriy etilishini taqozo etmoqda. Xorijiy tillarni o'rganish nafaqat kommunikativ ehtiyoj, balki shaxsiy va kasbiy rivojlanishning ajralmas qismiga aylamoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, chet til lingvistik kompetensiyasini rivojlanirishda samarali metodlarni qo'llash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Ta'lif jarayonida kommunikativ va differensial yondashuvlar bu boradagi asosiy metodik tamoyillar sifatida alohida e'tibor qozonmoqda. Kommunikativ yondashuv orqali o'quvchilar chet tilida erkin muloqot qilish ko'nikmasini shakllantirsa, differensial yondashuv individual yondashuv asosida har bir o'quvchining til o'zlashtirish darajasini hisobga olib, ta'lif samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari chet tillarni o'rganish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Jumladan, O'zbekiston, Qozog'iston, Rossiya va boshqa mamlakatlarda erta yoshdan chet tilini o'rgatish (boshlang'ich muktab bosqichidan bosholab ingliz tili, rus tili va boshqa xorijiy tillar o'qitish), integrallashgan ta'lif (turli fanlar (matematika, informatika) chet tilida o'qitish) va STEM va CLIL metodikasini qo'llash asosida o'qitish (lingvistik kompetensiyani mazmunli fanlar orqali rivojlanirish) kabi tendensiyalar yanada kengaymoqda. Chet til lingvistik kompetensiyani baholashda xalqaro bilimni baholash standartlaridan CEFR (A1-C2), IELTS, TOEFL, DELF, TestDaF kabi tizimlar til bilish darajasini aniq belgilab bermoqda. Shu bilan birga, lingvistik kompetensiyani shakllantirishda an'anaviy yondashuvlar o'rniga kommunikativ va differensial yondashuvlarning joriy etilishi ta'lif jarayonining mazmunini tubdan yangilashga xizmat qilmoqda. Bugungi globallashuv davrida xorijiy tillarni o'rgatish bo'yicha yondashuvlar tubdan yangilanmoqda. An'anaviy grammatik tarjima metodlariga qarama-qarshi ravishda, til o'rganishni hayotiy muloqot jarayoni sifatida tasavvur etish g'oyasi kuchaymoqda. Aynan shu jarayonda kommunikativ yondashuv va differensial yondashuv tushunchalari ta'lif jarayoniga faol kirib kela boshladi.

Kommunikativ yondashuv tushunchasi 1960-70 yillarda britaniyalik lingvistlar Dello Hymes, Michael Halliday, John Munby va David Wilkins tomonidan chet til o'qitish metodikasida ilmiy muomalaga kiritilgan, til o'rgatishni shakllantirishda muloqotga qodir shaxsni qo'yishni taklif etdi. Bu yondashuv ta'lifni grammatik qoidalar asosida emas, balki til orqali muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirish orqali olib borishni maqsad qilgan. Dell Hymes – "kommunikativ kompetensiya" (ya'ni faqat grammatik emas, balki muloqotga asoslangan til bilimi) tushunchasini ilgari surgan. U Noam Chomskyning "lingvistik kompetensiya" konsepsiyasini kengaytirgan. David Wilkins esa grammatik asosga emas, balki til mazmuniga asoslangan darsliklar yaratish tarafdoi bo'ldi. Michael Halliday – tilning funksional (ya'ni ijtimoiy muloqotdagi vazifasi) xususiyatlariga urg'u bergan. John Munby – til o'rganishni ehtiyojga asoslash, ya'ni communicative needs (aloqa ehtiyojlari) asoslangan holda o'quv dasturlarini tuzish g'oyasini ilgari surgan. 1972-yilda Dell Hymes tomonidan taklif etilgan "kommunikativ kompetensiya" atamasi kommunikativ yondashuvning ilmiy asosini yaratdi. Bu yondashuv 1980-yillarga kelib keng tarqaldi va hozirgi kunda ham ko'plab mamlakatlarning chet



tillarini o‘qitish metodikasida asosiy tamoyil sifatida qabul qilingan. Differensial yondashuv esa ta’lim jarayonida har bir o‘quvchining individual xususiyatlari, bilim darajasi, qiziqishi va o‘rganish sur’atlarini hisobga olishga asoslanadi. Bu yondashuv pedagogik jarayonda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiysi bilan bevosita bog‘liqdir. Til o‘rganishda differensial yondashuv o‘quvchilarni guruhlarga bo‘lib, ularning bilimga mos topshiriqlarni berish, turli usullardan foydalanish asosida til o‘rganish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilganda, chet til lingistik kompetensiyasini rivojlantirishda kommunikativ va differensial yondashuvlardan foydalanish zamонавија та’лим jarayonida muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuvlar o‘quvchilarning individual xususiyatlari, til o‘rganishdagi ehtiyojlari va qobiliyatlarini hisobga olib, ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi. Kommunikativ yondashuv tilni muloqot vositasi sifatida o‘rgatishga yo‘naltirilgan bo‘lib, o‘quvchilarda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Differensial yondashuv esa har bir o‘quvchining bilim darajasi va o‘zlashtirish sur’atlariga mos ta’lim strategiyalarini ishlab chiqishga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati:

1. John T.R. The Communicative Approach to Language Teaching: The King is dead! Long live the King! University of Essex. International journal of English studies. IJES, vol. 4 (1), 2004, pp. 1-37
2. Azimova S. The communicative approach in English language teaching. Bulletin of science and Practice, 5(4), 2019. 471-475.
3. Wilkins, D. A. (1974b). A communicative approach to syllabus construction in adult language learning. Modern Languages in Adolf Education, EESI Symposium 57, 10. Strasbourg: Council of Europe.



ILMIY MATNLARDA EKSPRESSIVLIK VA EMOTSIONALLIKNI MUHIM JIHATLARI

Urinboyeva Sarvinoz G‘ayratjon qizi

Samarqand davlat chet tillari instituti

2-bosqich magistranti

Email:: urinboyevasarvinoz17@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ilmiy matnlardagi ekspressivlik va emotzionallikni muhim jihatlari o‘rganilgan, uning birqancha, matnning o‘quvchilar tomonidan qabul qilinishiga, qiziqish uyg‘otishiga va fikrlarning ta’sirchanligini oshirishga yordam berish jihatlari ko‘rib chiqilgan. Ilmiy matnda ekspressivlik va emotzionallikni o‘rganish tarixi, lingvistika, psixologiya va adabiyot nazariyasi rivojlanishi hissa qo‘shgan olimlar haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Ilmiy matn, ekspressivlik, emotzionallik, his-tuyg‘ular, fikrlar, g‘oyalar, metafora, struktura, usul va stil, interaktivlik, grammatik, konstruktsiyalar, rag‘batlantirish.

Abstract: This article studies the important aspects of expressiveness and emotionality in scientific texts, considers its several aspects, helping to increase the acceptance of the text by readers, arouse interest and increase the impact of ideas. The history of the study of expressiveness and emotionality in scientific texts, information about scientists who contributed to the development of linguistics, psychology and literary theory are presented.

Keywords: Scientific text, expressiveness, emotionality, feelings, thoughts, ideas, metaphor, structure, method and style, interactivity, grammar, constructions, motivation.

Аннотация: В данной статье изучаются важные аспекты экспрессивности и эмоциональности в научных текстах, рассматриваются ее несколько аспектов, помогающих повысить принятие текста читателями, вызвать интерес и усилить воздействие идей. Представлены история изучения экспрессивности и эмоциональности в научных текстах, сведения об ученых, внесших вклад в развитие лингвистики, психологии и теории литературы.

Ключевые слова: Научный текст, экспрессивность, эмоциональность, чувства, мысли, идеи, метафора, структура, метод и стиль, интерактивность, грамматика, конструкции, мотивация.

Ilmiy matnlarda emotzionallik va ekspressivlikni shakllantirishning lingvistik vositalari tilning his-tuyg‘ularni qanday yetkazishi va ilmiy aloqaning ta’sirini kuchaytirishi mumkinligini o‘rganadigan muhim tadqiqot sohasidir. Ushbu kontekstdagi emotzionallik tilning his-tuyg‘ularni uyg‘otishi, aloqalar yaratishi va o‘quvchilarni shunchaki faktik taqdimotdan tashqari jalb qilish usullarini anglatadi. Ushbu tadqiqot ilmiy yozishda emotzionallikni singdirish uchun qo‘llaniladigan turli lingvistik strategiyalarni o‘rganadi, ularning ahamiyati va samaradorligini ta’kidlaydi.

Ommaviy ilmiy adabiyotning maqsadi ilmiy bilimlarni, shu jumladan faktlar va ma’lumotlarni keng auditoriya uchun ochiq bo‘lgan tarzda taqdim etishdir. Bizning fikrimizcha, bu nafaqat ma’lumot taqdimotini soddalashtirish, balki hikoyani hissiy joziba va yorqin ta’svir bilan ta’minalashni ham o‘z ichiga oladi. Bunday matnlarda emotisional ohang va obrazlilikka erishiladi turli stilistik vositalar, jumladan nutq figuralari, troplar, suhbat tili, stilistik jihatdan yaxshilangan kuchaytirigichlar, miqdoriy ifodalar va hatto grafik elementlar orqali. Ushbu vositalar hikoyani jonlantirish, o‘quvchini jalb qilish, aniq tafsilotlarni yoki xulosalarni ta’kidlash va muallifga o‘quvchilarning hamdardligi va ishonchini qozonish uchun individuallikni etkazishga xizmat qiladi.

M.B.Vorobieva ta’kidlaganidek, hissiy ohanglar ko‘pincha materialning asosiy maqsadiga erishishga yordam beradi, bu esa o‘quvchilarni harakatga undashdir. Bu ko‘rsatadi hissiy joziba va tasvirlar ilmiy-ommabop yozishda o‘quvchiga ta’sir qilishning hayotiy va ajralmas vositalaridir. Metaforik vositalar tildagi eng muhim tasvirlash vositalaridan biridir. Ular majoziy so‘zlardan foydalanishning barcha turlarini, jumladan, turli xil majoziy iboralarni o‘z ichiga oladi va tushunishga yordam beruvchi vositalari, shu bilan ma’lumotni idrok etishni osonlashtiradi. Bundan tashqari, yuqorida aytib o‘tilganidek, metafora hissiyot va tasvirni yaratishda muhim rol o‘ynaydi va shu bilan matnning estetik ta’siriga hissa qo‘shadi.

Metaforik vositalar orasida metafora, shaxs va shunga o‘xshatish kabi bir qancha shakllarni ajratib ko‘rsatishimiz mumkin.

«Nutq birinchi marta paydo bo‘lganida, bu odamlar o‘rtasida qandaydir ko‘prik edi, lekin



keyinchalik u qayta-qayta ular o‘rtasida devor bo‘ldi»

“Havo kemasida uchyapsan, boshqaruvchini kimligini bilasan lekin ko‘rmaysan hayot ham shunday”

”Ko‘z yumib ochguncha, dunyo va asta-sekin o‘zgardi”

Stilistik vositalardan ehtiyyotkorlik bilan foydalanish ommabop ilmiy matnlar nafaqat ilmiy narsalarni etkazishini ta‘minlaydi. bilim lekin shuningdek shug‘ullanish the o‘quvchi orqali hissiy murojaat, jonli tasvir, va kuchaytirilgan ifodalilik, natijada materialni tushunish va undan zavq olishga yordam beradi.

Metaforalar ilmiy-ommabop matnlarda hissiy aloqalarni yaratish uchun yana bir kuchli vositadir. Ular mualliflarga murakkab ilmiy g‘oyalarni ko‘proq tanish atamalarga tarjima qilish imkonini beradi, bu esa ularni o‘quvchilarining tushunishini osonlashtiradi. Masalan, inson miyasini «bir-biriga bog‘langan katta yo‘llar tarmog‘i» deb ta‘riflash o‘quvchilarga uning murakkabligini tasavvur qilishda yordam beradi va shu bilan birga uning imkoniyatlari haqida hayrat tuyg‘ularini uyg‘otadi. Metaforalar xayoliy fikrlashni rag‘batlantirishi, o‘quvchilarni ilmiy tushunchalarni ijodiy va shaxsan o‘rganishga undashi mumkin.

Bundan tashqari, rivoyat tuzilmalari ilmiy-ommabop yozishda hissiy faollikni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ilmiy ma’lumotni jozibali doirada shakllantirish orqali qahramonlar, ziddiyatlar va qarorlar bilan to‘la hikoyalar - mualliflar o‘quvchilar e’tiborini o‘ziga tortadigan hikoya yoyi yaratishlari mumkin. Masalan, muhim to‘siqlarni yengib o‘tib, yangi kashfiyatga erishgan olimning sayohati haqida hikoya qilish nafaqat o‘quvchilarni tadqiqot haqida ma’lumot beradi, balki qat’iyat va qat’iyatni ta‘kidlab, ularni ruhlantiradi. Ushbu hikoya qilish yondashuvi ilm-fanni insonparvarlashtiradi, uni o‘zaro bog‘liq va qiziqarli qiladi.

Jonli tasvirlar va ijodiy analogiyalar kabi tasavvur vositalari ommabop ilmiy matnlarning hissiy ta’sirini yanada kuchaytiradi. Mualliflar ko‘pincha aqliy tasvirni tasvirlovchi parchalardan foydalanadilar rasmlar uchun kitobxonlar, ruxsat berish ular to tasavvur qilish mavhum tushunchalar ko‘proq aniq. Misol uchun, kvant mexanikasini tushuntirayotganda, muallif zarrachalarni «bashorat qilib bo‘lmaydigan naqshlarda harakatlanuvchi mayda raqqosalar» bilan solishtirishi mumkin, bu esa o‘quvchilarga kvant xatti-harakatlaridagi noaniqlikni tushunishga yordam beradi va ularning tasavvurini uyg‘otadi.

Hazildan foydalanish o‘quvchilarni ilmiy-ommabop yozishda hissiy jihatdan jalb qilishning yana bir samarali strategiyasıdir. Yengil latifalar yoki hazil-mutoyiba kuzatuvlari murakkab mavzularni yanada qiziqarli va bir-biriga bog‘lab qo‘yishi mumkin. Hazil bir vaqtning o‘zida potentsial zich yoki qiyin materialdan xalos bo‘lish bilan birga o‘quvchilarni o‘ziga tortadigan hissiy ilgak bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Mualliflar hazilni informatsion mazmun bilan muvozanatlashtirib, ilmiy g‘oyalarni doimiy ravishda o‘rganishga undaydigan qiziqarli o‘qish tajribasini yaratishi mumkin.

Biroq, hissiy va xayoliy vositalar ommabop ilmiy matnlarni yaxshilash uchun kuchli vosita bo‘lsa-da, ulardan oqilona foydalanish kerak. Haddan tashqari emotsiyonal til yoki ortiqcha bezak, agar faktik dalillar bilan asoslanmagan bo‘lsa, ilmiy ma’lumotlarning ishonchliligini pasaytirishi mumkin. Mualliflar o‘z auditoriyasida ishonchni saqlab qolish uchun qiziqarli til va qat’iy ilmiy aniqlik o‘rtasida muvozanatni saqlashlari kerak.

Bundan tashqari, madaniy mulohazalar hissiy va xayoliy elementlarning turli auditoriyalar tomonidan qanday qabul qilinishida muhim rol o‘ynaydi. Bir guruhsda hissiy jihatdan aks-sado beradigan narsa boshqa bir guruhga bir xil ta‘sir ko‘rsatmasligi mumkin, chunki turli xil madaniy asoslar va tajribalar. Shuning uchun mualliflar hissiyotli hikoyalar yaratishda yoki tasavvurga asoslangan analogiyalardan foydalanishda o‘z tinglovchilari kontekstini yodda tutishlari kerak.

Ilmiy matnlarda emotsiyonallikni ifodalashning asosiy lingvistik vositalardan biri lug‘atni sinchkovlik bilan tanlashdir. So‘zlarning tanlovi matnning hissiy ohangiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Misol uchun, hissiy tildan foydalanish - kuchli aloqalarni o‘z ichiga olgan so‘zlar - o‘quvchida o‘ziga xos his-tuyg‘ularni uyg‘otishi mumkin. «Vayronagarchilik», «shoshilinch» yoki «e’tiborga loyiq» kabi atamalar muayyan masala atrofida shoshilinchlik yoki muhimlik tuyg‘usini yaratishi va shu bilan o‘quvchining his-tuyg‘ularini jalb qilishi mumkin.⁴⁰ Aksincha, neytral yoki texnik shartlar har qanday hissiy munosabatni keltirib chiqara olmasligi mumkin, bu esa materialdan ajralib chiqishga olib kelishi mumkin.

Ilmiy matnlarda ifodalilikni oshirishda lug‘atdan tashqari obrazli til ham hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Metaforalar, o‘xshatishlar va o‘xshatishlar tushuntirishga yordam beradi murakkab g‘oyalarni o‘zaro bog‘lash mumkin, bu ularni o‘quvchilarga yanada qulayroq qiladi. Misol uchun, iqlim o‘zgarishi



jarayonini «soatli bomba» deb ta’riflash nafaqat shoshilinchlikni bildiradi, balki tomoshabinlar bilan hissiy aks-sado beradigan yorqin rasmni ham chizadi. Bunday majoziy iboralar mavhum ilmiy tushunchalar va real dunyo ta’siri o‘rtasidagi tafovutni yo‘qotib, chuqurroq tushunish va hissiy aloqani kuchaytiradi.

Lingvistik ekspressivlikning yana bir muhim jihatni ilmiy yozishda hikoya tuzilmalaridan foydalanishdir. Hikoya texnikasi quruq ma’lumotlarni o‘quvchilarini hissiy darajada jalb qiladigan jozibali hikoyalarga aylantirishi mumkin. Tadqiqot natijalarini xarakterlar, mojarolar va qarorlar bilan to‘liq bayon kontekstida shakllantirish orqali olimlar o‘z ishlarini yanada mos va ta’sirli qilishlari mumkin. Misol uchun, tadqiqot haqida shaxsiy latifalar bilan bo‘lishish tajribalar yoki ta’kidlash hol o‘rganish bu tasvirlab bering the inson ta’sir ning ilmiy topilmalar o‘quvchilarda hamdardlik va qiziqish uyg‘otishi mumkin.

Bundan tashqari, og‘zaki tilda prosodiyadan foydalanish - ritm, urg‘u va intonatsiya naqshlari ham ilmiy muloqotda hissiy ekspressivlikka yordam berishi mumkin. Yozma matnlarda ovozli intonatsiya bo‘lmasa-da, mualliflar tinish belgilaridan strategik ravishda pauza yaratish yoki ba’zi iboralarni ta’kidlab, o‘quvchilarning emotsiyal javoblariga yo‘naltirishlari mumkin. Misol uchun, ellips yoki undov belgilaridan foydalanish shoshilinchlik yoki hayajonni anglatishi mumkin, bu o‘quvchining matnni hissiy jihatdan talqin qilishiga ta’sir qiladi.

Vizual elementlar, shuningdek, ilmiy aloqada hissiylikni etkazishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Infografika, diagrammalar va tasvirlar hissiyotlarni uyg‘otadigan vizual tasvirlarni taqdim etish orqali yozma tarkibni to‘ldirishi mumkin. Effektlarni aks ettiruvchi kuchli tasvir of ifloslanish ustida yovvoyi tabiat keltirib chiqarishi mumkin hamdardlik va tashvish tomoshabinlardan, matn orqali etkazilgan xabarni mustahkamlash. Vizual elementlarning integratsiyasi tushunishning kognitiv va affektiv o‘lchovlariga murojaat qilish orqali umumiyligi ekspressivlikni oshiradi.

Tadqiqotchilar bilimdagi bo‘shliqlar haqida qiziqish uyg‘otadigan yoki tabiat hodisalarining murakkabligi haqida hayrat uyg‘otadigan ma’lumotlarni taqdim etish orqali ushbu his-tuyg‘ularni rivojlantirishga da’vat etiladi. Tadqiqot savollarini qiziqarli jumboqlar sifatida belgilash yoki mavjud paradigmalarni shubha ostiga qo‘yadigan yangi kashfiyotlarni ta’kidlash orqali olimlar o‘quvchilarni yanada chuqurroq o‘rganishga va material bilan chuqurroq shug‘ullanishga ilhomlantirishi mumkin.

Ilmiy matnlardagi ekspressivlikning lingvistik vositalarini muhokama qilishda tinglovchilarning xabardorligi rolini e’tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi. Maqsadli auditoriyaning asosiy bilimlarini tushunish, manfaatlar, va qadriyatlar imkon beradi mualliflar to‘tikuvchi ularning til shunga ko‘ra. tomonidan Siyosatchilar, o‘qituvchilar yoki keng jamoatchilik kabi muayyan auditoriyaga mos keladigan o‘xshash misollar yoki analogiyalardan foydalangan holda, olimlar aniqlik va tushunishni ta’milagan holda hissiy ishtirokni kuchaytirishi mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ilmiy matnlarda emotsiyonallik va ekspressivlikni shakllantirishning lingvistik vositalari o‘rtasida ishtirok etish va tushunishni kuchaytirishga qaratilgan bir qator strategiyalarni o‘z ichiga oladi. kitobxonlar. orqali ehtiyyotkor lug‘at tanlash, majoziy til foydalanish, hikoya tuzilmalar, prozodik mulohazalar, vizual elementlarning integratsiyasi, epistemik his-tuyg‘ularga murojaat qilish va tomoshabinlarning xabardorligi - barchasi hissiy rezonansli ilmiy aloqani yaratishga yordam beradi. Sifatida fan davom etadi rivojlanmoqda ichida borgan sari murakkab ijtimoiy Tez texnologik taraqqiyot bilan ajralib turadigan kontekstlarda va jamoatchilikning ekspertiza haqidagi tasavvurlarini o‘zgartirish - ajralmas komponent sifatida his-tuyg‘ularni qamrab olish olimlarning ishi va umuman jamiyat o‘rtasida mazmunli aloqalarni mustahkamlash uchun muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Abrams, M. H. (2005). A Glossary of Literary Terms. Cengage Learning
2. Arnold I.V. Stylistics. Modern English: a textbook for universities. 5th ed., ispr. and add. M.: Flint; Nauka, 2002.
3. Avanesova N.V. Emotionality and expressivity - categories of communicative linguistics// Bulletin of the SOUTH. 2010. No.2 (17). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/emotsionalnost-i-ekspressivnost-kategorii-kommunikativnoy-lingvistiki> (accessed 12.04.2020).
4. Babenko L.G. Lexical means of indicating emotions in the Russian language // Sverdlovsk: Ural Publishing House. Un-ta. 1989. – 184 p.
5. Bakiyev, F.J.(2023). TRANSLATION STRATEGY AS A BASIC CONCEPT OF TRANSLATING SUBTITLES. *GOLDEN BRAIN*, 1(15), 220–223. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/>



goldenbrain/article/view/3795

6. Balli, Sh. (1961). Frantsuzskaya stilistika [Stylistics of the French language]. Moskva: Izdatelstvo inostrannoj literature
7. Bohn-Gettler C. M., Rapp D. N. Emotion during reading and writing //International handbook of emotions in education. – Routledge, 2014. – С. 437-457.
8. Bootzin R. R. Examining the theory and clinical utility of writing about emotional experiences //Psychological Science. – 1997. – Т. 8. – №. 3. – С. 167-169.
9. Cameron J., Nairn K., Higgins J. Demystifying academic writing: Reflections on emotions, know-how and academic identity //Journal of Geography in Higher Education. – 2009. – Т. 33. – №. 2. – С. 269-284.
10. Carter, R., & Nash, W. (1990). Seeing Through Language: A Guide to Styles of English Writing. Wiley-Blackwell.



INDEPENDENT LEARNING AND LEARNER AUTONOMY IN LANGUAGE LEARNING

Sulaymonova Yoqutxon

Group number: 2130

Foreign language and literature faculty

Uzbekistan State University of World Language

Scientific supervisor: Senior teacher. Kh. M. Urinboeva

Uzbekistan State University of World Language

ABSTRACT

Through the following article, the author explores the definition and concepts of «learner autonomy and independent learning». Apart from that, the article aims at classifying the benefits and pitfalls of those ways of learning and teaching mentioned above, coupled with determining the ways by which they are applied.

Key words: learner autonomy, independent learning, language, self-assessment, learning activities, target language.

Developing learner independence has an important role in the theory and practice of language teaching. Language learning is a lifelong endeavour, not one that begins and ends in a language class room. Most learners and teachers feel that language learning consumes a considerable amount of time. Learners have to work within and beyond the class room to develop their language skills. The notion of learner independence or learner autonomy moves into an area where learners can direct their own learning. It could mean those learning activities which take place without the immediate intervention of the teacher. In this scenario, learners set their own objectives and follow strategies devised by themselves to fulfil them. This is in turn facilitates the learner to become more efficient and effective when they study independently. Learners are compelled to assume responsibility for their own learning. Learner independence demands learner involvement and such involvement may lead to a deeper and better learning. Thus it can be said that the fostering of learner independence may start in a class room environment and extend beyond it.

If the learning environment is comfortable where the learners feel encouraged, they are more likely to experiment with different learning strategies and not be afraid to ask questions and to ask for assistance when necessary. Learners also need to be given the skills to be able to seek out materials and resources outside the classroom to enable them to improve their recognition of what is relevant and what is not.

They need to be able to recognize that these research skills are important and transferable and can be utilized when they go on to further study.

The concepts of independent learning and learner autonomy have received growing attention in language education since the late 20th century. Theoretical frameworks by Holec (1981) laid the foundation for understanding autonomy as the ability to take charge of ones own learning, highlighting that autonomy is not a product but a process that develops over time. This has since influenced language policy, curricula, and pedagogical practice globally.

Little (1991) builds upon Holecs work, emphasizing that autonomy does not imply learning in isolation but involves meaningful interaction, reflection, and strategic decision-making. He argues that autonomy requires metacognitive awareness, including learners' ability to plan, monitor, and evaluate their language learning. Similarly, Benson (2001) identifies three interrelated dimensions of autonomy: control over learning management, cognitive processes, and learning content. His work presents various models of autonomy in practice, including resource-based, classroom-based, and technology-enhanced learning approaches.

In recent years, the rise of digital technology has expanded the scope of independent learning. Reinders and White (2011) explore how mobile-assisted language learning (MALL) and virtual learning environments foster autonomy by giving learners access to self-paced, customizable materials. They also caution that technology alone is not sufficient support structures such as tutor guidance and peer collaboration remain essential.

Strategies for successful autonomisation include the use of the target language as the preferred medium of teaching and learning from the very beginning; the gradual development by the learners of



a repertoire of useful learning activities; and ongoing evaluation of the learning process, achieved by a combination of teacher, peer and self-assessment. Posters and learner logbooks play a central role in three ways: they help learners to capture much of the content of learning, support the development of speaking, and provide a focus for assessment.

CONCLUSION

In short, Independence and autonomy can be encouraged by giving the learners tools for success in their further study. These tools include helping the learners to understand their real goals and to develop skills to enable them to find the answers and information they need in order for them to be successful in reaching these goals. Learners need to be able to be aware of and understand their own learning styles and to use these to their advantage. At the same time, they should be willing to adapt to a more autonomous method of learning. As they gain confidence they will be more able to monitor their own learning which will in turn make them confident and give them a sense of achievement.

References:

1. Allwright, D. (1990). Autonomy in language pedagogy in CRILE Working Paper 6. Centre for Research in Education: University of Lancaster.
2. Aoki, N. (2002). Aspects of teacher autonomy: Capacity, freedom, and responsibility. In P. Benson and S. Toogood (eds), Learner Autonomy 7: Challenges to Research and Practice. Dublin: Authentik.



Xudayberganova Gulgora Tuxtabayevna
Osiyo xalqaro universiteti 1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada an'anaviy va onlayn ta'limga zaruriyat, mavjud imkoniyatlari, o'ziga xos xususiyatlari hamda ular o'rtasidagi farqlar yoritilgan.

Kalit so'zlar. Ta'limga, an'anaviy ta'limga, onlayn ta'limga, farq, talaba.

Ta'limga turli usullar, tajriba va o'qitish amaliyoti yordamida bilim, ko'nikma va qadriyatlarni olish jarayoni sifatida tavsiflanadi. Zamonaviy modernizatsiya dunyosida ta'limga shaxsning shaxsiy va kasbiy o'sishini ta'minlashda juda muhim rol o'ynaydi va texnologiyaning rivojlanishi bilan ta'limga olish imkoniyatlari sezilarli darajada kengaydi. Bu borada ta'limga an'anaviy va zamonaviy ta'limga shakllari farqlanadi [1]. An'anaviy ta'limga o'quvchilar darslarga jismoniy qatnaydigan va xodimlar yoki o'qituvchilar ularni shaxsan o'rgatadigan o'quv jarayoni shakli sanaladi. An'anaviy ta'limga sinfga asoslangan ta'limga sifatida ham tanilgan. An'anaviy ta'limga ko'p asrlar davomida amalga oshirilgan ta'limga shaklidir. Bugungi kunda ko'p kishilar o'qitish uchun xodimlarning mavjudligi va shubhalarni darhol bartaraf etish tufayli an'anaviy ta'limga ko'proq ishonadilar. An'anaviy ta'limga davomida talabalar boshqa darsdan tashqari mashg'ulotlar bilan shug'ullanishlari mumkin.

Onlayn ta'limga noutbuklar, ish stollari, planshetlar va mobil qurilmalar kabi elektron qurilmalardan foydalangan holda Internet va turli raqamli platformalar orqali tarkibni yetkazib berish jarayonidir. Ushbu yo'nalish oliy ta'limga muassasalaridagi talabalar va o'qituvchilar nuqtai nazaridan onlayn ta'limga yordam beruvchilar va muammolarni o'rganish uchun sifatli tematik analistik yondashuvni o'z ichiga oladi [2]. Onlayn ta'limga elektron yoki masofaviy ta'limga sifatida ham tanilgan. Onlayn ta'limga talabalar yoki o'quvchilarga mobil qurilmalar yordamida uzoq joylardan o'rganish imkoniyatini beradi. Talabalar o'quv materiallariga kirishlari, shubhalarni bartaraf etishlari, topshiriqlarni topshirishlari va imtihonlarni sinfda jismonan qatnashmasdan onlayn tarzda topshirishlari mumkin.

An'anaviy ta'limga muassasalarini birinchi bo'lib onlayn ta'limga sohasida o'zlarini sinab ko'rishni boshladilar. Onlayn ta'limga turli shakllari allaqachon minglab ta'limga muassasalarini o'zehtiyojlariga moslashtirgan. Gollandiyadagi Delft texnologiya universitetining virtual almashinuv dasturi инновацион yondashuvning yorqin namunasidir. Bu talabalarga sheriklik universitetlarining onlayn kurslaridan o'tish orqali kerakli kreditlarni olish imkonini beradi.

Anderson va Garrison (2003) ning "Community of Inquiry" modeli onlayn ta'limga uch asosiy omilini – kognitiv, ijtimoiy va o'quv muhitlarini integratsiya qilish zarurligini ta'kidlaydi. Bu jarayon bilim olish va talabalarning ijtimoiy rivojlanishini ham ta'minlashi kerak.

Onlayn ta'limga turli toifadagi kishilarga bilimdagagi bo'shliqlarni yopish va yangi ko'nikmalarga ega bo'lish imkonini beradi: yosh bolali ota-onalar, sog'lig'i cheklangan kishilar, to'liq vaqtda ishlaydigan yoki kasbini o'zgartirmoqchi bo'lganlar yoki o'z vaqtida ta'limga ola olmaganlar.

Onlayn kurs tinglovchilarining aksariyati kollej diplomiga ega bo'lgan kattalar ishchilaridan iborat: 75 foizgacha 25 yoshdan oshgan talabalaradir. Zamonaviy mehnat bozori ko'pchilikni o'qishni davom ettirishga undaydi. Onlayn ta'limga ishlaydigan mutaxassislar va yoshlar uchun ham jozibali alternativaga aylanmoqda. AQShda onlayn talabalar soni universitet va kollejlarda yangi kunduzgi abituriyentlar soniga teskari proporsional ravishda o'sib bormoqda. 2017-yilda AQShda 6,7 mln. talabalarning umumiyligi sonining deyarli uchdan bir qismi kamida bitta onlayn kursga yozildi. Natijada, onlayn ta'limga nafaqat o'quv jarayonining mohiyatini, balki boshqa o'rnatilgan ta'limga sxemalarini ham to'g'ridan-to'g'ri o'zgartiradi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, talabalarning qariyb 70 foizi kurslarni o'tash uchun smartfonlardan foydalanadilar. Shu sababli, kurslarning mobil versiyalari va ilovalari MOOC muvaffaqiyati uchun yana zarur talabga aylanadi.

Zamonaviy onlayn trening interaktiv videolar, gamifikatsiya, ilovalar, simulyatsiya va hikoya formatidagi materialni tushuntirishdan foydalanadi. Masalan, keljakdagi shifokorlar uchun Osmosis virtual adaptiv platformasi yoki patologlar uchun Tata Interactive Systems - bu hatto 3D-da jinoyat joyini simulyatsiya qilishni o'z ichiga oladi. Shunda talabalar olgan bilimlarini amalda qo'llashlari mumkin. SB Studio yoki Elucidat kabi ba'zi kompaniyalar turli xil interaktiv onlayn o'qitish usullarini qo'llagan holda tayyor shablonlardan foydalanadilar.

Yaqinda MOOC platformalari boshqa yirik texnologik ishlanmalarni ommaviy ravishda qabul qiladi: ya'ni, sun'iy intellekt, kengaytirilgan va virtual haqiqat, robotlar va nutq texnologiyalari. Canvas,



ta’limni boshqarish platformasi virtual sinflarni tashkil qilish uchun joy beradi. O’tgan yili Canvas va Amazonning Alexa ovozli yordamchisi ko‘nikmalarini yaratish bo‘yicha qo‘shma loyihasi ishga tushirilishi e’lon qilindi. Muvaffaqiyatli bo‘lsa, talabalar Alexa-ni o‘quv jarayoniga ulashlari mumkin: undan ma’ruzaning asosiy fikrlarini umumlashtirishni so‘rash, imtihon oldidan savol-javob sessiyasini o‘tkazish, yangilanishlar yoki uy vazifalari to‘g‘risida xabar olishdir.

Onlayn ta’lim va an’anaviy ta’lim o‘rtasida bir qator farqlar mavjud bo‘lib, ular ta’lim jarayonining mohiyati va shakllanishi bilan bog‘liq. Quyidagi jadval (1-jadval) ushbu ikki shaklning asosiy farqlarini ta’kidlaydi:

1. Joylashuv: An’anaviy ta’lim sinfxonada o‘tiladi, onlayn ta’lim esa masofadan turib amalga oshiriladi.

2. Muloqot turi: An’anaviy ta’limda jonli muloqot mavjud bo‘lsa, onlayn ta’limda muloqot virtual platformalar orqali amalga oshiriladi.

3. Ta’lim vositalari: An’anaviy ta’limda kitoblar va sinf jihozlari qo’llanilsa, onlayn ta’limda elektron resurslar va videodarslar asosiy vositalar hisoblanadi.

4. Moslashuvchanlik: An’anaviy ta’lim belgilangan jadvalga asoslangan, onlayn ta’lim esa talabaning shaxsiy sur’atiga moslashadi.

5. Ko‘nikmalarni rivojlantirish: An’anaviy ta’lim guruhiy ishlarda faol ishtirokni rag‘batlantiradi, onlayn ta’lim esa o‘z-o‘zini boshqarish va texnologik ko‘nikmalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Fikrimizcha, an’anaviy (yoki oflays) va onlayn ta’lim o‘rtasida bir qancha muhim farqlar mavjud (1-jadval).

1-jadval

Onlayn ta’lim va an’anaviy ta’lim o‘rtasida asosiy farqlar

Xususiyatlari	An’anaviy ta’lim	Onlayn ta’lim
Joylashuv	Belgilangan joyda o‘tiladi	Masofadan turib, istalgan joyda amalga oshiriladi
Muloqot turi	Jonli muloqot va yuzma-yuz aloqaga asoslanadi	Virtual platforma orqali muloqot qilinadi
Ta’lim vositalari	Kitoblar, jihozlar va doskadan foydalilanadi	Elektron resurslar, videodarslar va platformalardan foydalilanadi
Moslashuvchanlik	Belgilangan dars jadvali bo‘yicha amalga oshiriladi	Talabaning shaxsiy sur’atiga moslashadi
Ko‘nikmalarni rivojlantirish	Guruhiy ishlarda faol ishtirok qilinadi	O‘z-o‘zini boshqarish va texnologik ko‘nikmalarni rivojlantirishga erishiladi

Xulosa shuki, an’anaviy va onlayn ta’limning o‘ziga xos afzalliklari va kamchiliklari bor. Ikkalasi orasidagi tanlov individual imtiyozlarga, o‘rganish uslublariga va sharoitlarga bog‘liq. An’anaviy ta’lim o‘qituvchilar va sinfdoshlar bilan yuzma-yuz o‘rganishga imkon beradi, darhol fikr-mulohazalar bilan tuzilgan darslarni taklif qiladi va amaliy amaliy tajribalarni o‘z ichiga oladi. An’anaviy ta’lim yuzma-yuz muloqot, tuzilish va tarmoq imkoniyatlarini taklif etadi, ammo moslashuvchanlikka ega bo‘lmasligi va yuqori xarajatlarga olib kelishi mumkin.

Boshqa tomondan, onlayn ta’lim moslashuvchanlikni, qulaylikni va iqtisodiy samaradorlikni ta’minlaydi, ammo o‘z-o‘zini tarbiyalashni talab qiladi va darhol shaxsiy o‘zaro ta’sirga ega bo‘lmasligi mumkin. Onlayn ta’lim sizga xohlagan vaqtingizda va qayerda o‘qish imkonini beradi, ko‘pincha kamroq xarajat qiladi va internetda turli xil kurslarga kirish imkonini beradi. Oxir-oqibat, ta’limga eng mos yondashuv to‘g‘risida xabardor qaror qabul qilishda ushbu omillarni hisobga olish muhim sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. <https://www.geeksforgeeks.org/difference-between-traditional-and-online-education/>
2. Bhattacharya S., Murthy V., Bhattacharya Sh. The social and ethical issues of online learning during the pandemic and beyond. // Asian Journal of Business Ethics (2022), 11. - pp. 275–293.



АРХИТЕКТУРА ВА ДИЗАЙН ЙЎНАЛИШИ РИВОЖЛАНИШИ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

УДК: 725.945. 72.025.5

ТОШКЕНТНИНГ 1930 – 50 ЙИЛЛАР МЕЪМОРЧИЛИГИ

Абдуллаев Ж.С.

Тошкент Архитектура-курилиш институти (ТАҚИ)да мустақил изланувчи,
“ARCH NEO DESIGN”МЧЖ .Лойиҳалар бош архитектори
memorjamshid@gmail.com.тел: +998999875-67-65

Аннотация: Ўрта Осиёдек кенг худуд гарбида Чор ҳукумати протекторати маҳомида бир қанча муддат ҳукм сурган Бухоро амирлиги ва Хоразм хонлиги 30 - йиллар бошларига келиб, большевистик тизим томонидан уйшиширилган инқилобий харакатлар натижасида емириб ташланади. Маълумки, чор империализми истилоси боис эгаллаб олинган Кўқон хонлиги худуди Россия империясининг Туркестон губернияси деб эътироф этилади ва деярли ярим аср мобайнида фаолият юритади. 1917 йилга келиб большевистик инқилоб боис Туркестон губернияси ўрнида Туркестон совет автономияси ташкил этилади. 1924 йил 27 октябрда эса Туркестон совет автономияси негизида советлар парчалаб юборган Бухоро амирлиги ва Хоразм хонликлари асосий ўзакларидан иборат худудлар ўзаро бирлаштирилиб, худудий жиҳатдан яълит – Ўзбекистон совет республикаси ташкиллаштирилади.

Калим сўзлар: Ўзбекистон совет республикаси, пойтахт 1930 йилда Тошкент шаҳрига кўчирилган, Москва, Петербург ва Украина архитектура ўқув юртлари битирувчилари, Марказий Осиё давлат университети, политехника институти, Марказий Осиё қурилиши институти, илк шаҳарсозлик Бош режаси, кўкаламзолаштириши, шаҳарни сугории тармоги, боғлар, скверлар ҳамда сунъий кўллар, А. Икромов номидаги шаҳар боди, Навоий проспекти, Социалистик шаҳарча (Соцгородок), 1941 йилдан 2-жашон уруши, Эвакуация килинган корхоналар, Навоий театри лойиҳаси, Навоий кўчаси реконструкцияси.

АРХИТЕКТУРА ТАШКЕНТА В 1930-50 ГГ.

Ж.С.Абдуллаев

Соискатель Ташкентского архитектурно-строительного института (ТАСИ),
Главный архитектор проектов ООО “ARCH NEO DESIGN”.
memorjamshid@gmail.com.тел: +998999875-67-65

Аннотация: Бухарский эмират и Хорезмское ханство, некоторое время правившие в качестве протектората царского правительства на западе Средней Азии, были уничтожены революционными движениями, организованными большевистской системой в начале 1930-х гг. Известно, что территория Кокандского ханства, захваченная нашествием царского империализма, признана Туркестанской губернией Российской империи и действует уже почти полвека. К 1917 году в результате большевистской революции на месте Туркестанской губернии была образована Туркестанская советская автономия. 27 октября 1924 года на основе советской автономии Туркестан разделенные Советами территории Бухарского эмирата и Хорезмского ханства были территориально объединены — была образована Советская Республика Узбекистан.

Ключевые слова: Советская Республика Узбекистан, столица перенесена в Ташкент в 1930 г., выпускники Московского, Петербургского и Украинского архитектурных институтов, Среднеазиатского государственного университета, Политехнического института, Среднеазиатского строительного института, первый генеральный план градостроительства, озеленение, орошение города сеть, парки, скверы и искусственные озера, городской парк им. А. Икромова, проспект Навои, Социалистический городок (Соцгородок), 1941 г. до Великой Отечественной войны, Эвакуированные предприятия, проект Театра Навои, реконструкция улицы Навои.



J.S. Abdullayev

Competitor of the Tashkent Institute of Architecture and Construction (TASI),
Chief Project Architect. "ARCH NEO DESIGN"
memorjamshid@gmail.com.mob:+99899875-67-65

Abstract: The Emirate of Bukhara and the Khanate of Khorezm, which for some time ruled as a protectorate of the tsarist government in the west of Central Asia, were destroyed by the revolutionary movements organized by the Bolshevik system in the early 1930s. It is known that the territory of the Kokand Khanate, captured by the invasion of tsarist imperialism, is recognized as the Turkestan province of the Russian Empire and has been operating for almost half a century. By 1917, as a result of the Bolshevik revolution, the Turkestan Soviet autonomy was formed on the site of the Turkestan province. On October 27, 1924, on the basis of the Soviet autonomy of Turkestan, the territories of the Emirate of Bukhara and the Khorezm Khanate separated by the Soviets were territorially united - the Soviet Republic of Uzbekistan was formed.

Keywords: Soviet Republic of Uzbekistan, the capital was moved to Tashkent in 1930, graduates of the Moscow, St. Petersburg and Ukrainian architectural institutes, the Central Asian State University, the Polytechnic Institute, the Central Asian Construction Institute, the first master plan for urban planning, landscaping, irrigation of the city network, parks, squares and artificial lakes , city park. A. Ikromova, Navoi avenue, Socialist town (Sotsgorodok), 1941 before the Great Patriotic War, Evacuated enterprises, Navoi Theater project, reconstruction of Navoi street.

1924 йилда Ўзбекистон совет республикаси ташкил этилиши ибтиносига назар солсак, юртимизнинг худудий жиҳатдан яхлитликка келтирилишида - 1921 йилда большевистик тизим томонидан уйиштирилган "Инқилобий" жараёнлар боис емириб ташланган Бухоро амирлиги ва Хоразм хонликлари худудлари асосий ўзакларидан иборат худудлар ва уларнинг Туркистон совет автономияси негизида ўзаро бирлаштирилиши жараёнлари тадқиқот ишларида кўп холларда эътибордан четда қолади. Ваҳоданки, ушбу худуд доирасида шаҳарсозлик тенденциялари синхронлик касб этган эмас. Ўзбекистоннинг биринчи пойтахти этиб Туркистон совет автономияси таркибида бўлган ва ғарбий қисмида жойлашган Самарқанд шаҳри танланади.

Кўп ҳам ўтмай, Республика пойтахти 1930 йилда Самарқанд шаҳридан Тошкент шаҳрига кўчирилгани натижасида, пойтахт шаҳар учун меъморлар томонидан маъмурий иншоатлар учун лойиҳалар тайёрланиб, қурилиш ишлари бошлаб юборилади. Шу қаторда: "Хукумат уйи (ҳозирги Сенат биноси, аввалида эса Туркистон Генерал-губернаторнинг собиқ қароргоҳи - Оқ уй) ўрнида янги бино маъмурият қароргоҳи иншоати лойиҳасини бошлаб юборадилар" [1]. (меъмор С.Н.Полупанов) Бир вақтнинг ўзида шу манзилдаги шахримиз доминантаси сифатида бунёд этилган собор бузилиб, Собор майдони ўрнида Ленин хайкалини жойлаштириш кўзда тутилган эди. Шўролар томонидан Парадлар майдони сифатида лойиҳаланган "Қизил майдон", (ҳоз. Мустақиллик майдони) Собор майдонининг ғарбий қисмини бутунлай эгаллаган эди.

Советлар "социалистик" тизимида мафкуравий босим ўз ҳукмини мунтазам тарзда архитектуравий шакл ва силуэтига таъсир ўтказиб, Ғарб билан Шарқнинг мусобақа майдонига айланган эди. Ўзбекистонда бу масалалар билан С.Полупанов, Г.Сваричевский ва бошқа архитекторлар шуғулланган эдилар. Конструктивизм советларнинг ана шундай мусобақа майдонидаги приоритет услубига айланди. Бу услубда Ўзбекистонда ижод қилган илк меъморлардан С.Полупанов 1931 йилда Энгелс кўчасида қурилган коммуна уйини мисол қилиб келтириш мумкин. Ўша даврларда бино режаси таркибида умумий овқатланиш ва ўқиш заллари, библиотекалар ва дам олиш хоналаридан иборат коммуна уйлари шунингдек кўп секцияли 3-5 қаватли турар-жой бинолари қурила бошлади. Бу турар-жой бинолари юртимизнинг иқлими, ижтимоий ҳолати, замонавий мухандислик тармоқлари, ускуналари ва биноларни янги конструктив жиҳатларини ҳисобга олган ҳолда қурилиши амалиётда кенг қўллана бошлади. Шу йилларда қурилган турар-жой биноларининг шаклий тузилишида конструктивизм концепцияси асос қилиб олинганлигини кузатиш мумкин. Юртимиз меъморчилигида анъанавий турдаги обьектлардан ташқари ишчилар саройи, ишчилар клуби, комунна уйлари ва бошқа турдаги ўша даврга хос обьектлар эътиборга сазовордир.

Бу даврда бирин-кетин бир қанча муҳим аҳамиятга эга жамоат бинолари – Марказий телеграф



(арх. М.Гинзбург), Ўзбек давлат филармонияси (арх. И.Голошапов, А.Сидоров, А.Брилевич), Ш.Руставели кўчасида Поликлиника (арх. К.Бабиевский) қурилади. 1929 йилда эса, Ишчилар университети (меъмор Г.М.Сваричевский) биноси қурилди: “Бу бинонинг тархи жуда оддий, ўкув хоналари ўртадаги мажлислар залининг икки ёнида мутаносиб жойлашган. Карл Маркс (ҳозирги Сайилгоҳ.) кўчасидаги Коммунистик университет биноси (1927; меъмор Г.М.Бауэр, ҳозирги Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги) конструктивизм услубида қурилган. У анча мураккаб композицияга эга. 20-йиллар охири ва 30 йиллар бошларида жамоат ва маъмурий бинолар ичида аввалги Киров (ҳозирги Мустафо Камол Отатурк) кўчадаги Халқ хўжалиги олий кенгаши уйи (1928 йилда меъмор А.И.Петелин; ҳозирги босмахона) ажралиб турди. У қарийб бир квартал жойни эгаллаган бўлиб турли шаклдаги ва кўринишдаги хоналар моҳирлик билан планлаштирилган” [2].

Ўша даврларда юртимизда қурилиш ишлари жадаллашгани боис Тошкентга Москва, Питербург ва Украина архитектура ўкув юртлари битирувчилари С. Полупанов, Ф.Долгов, А.Павлов, А.Сидоров, А. Петелин, К.Бабиевский сингари ёш архитектор ва конструкторлар лойиҳалаш ишларига таклиф қилинишлари Тошкент шаҳарсозлиги ва меъморчилигини ўзига хос тарзда шаклланишига замин яратди. Ўзбекистонга келган меъморлар ҳам меъморчилигига модада бўлган конструктивизм ғоялари асосида ўз фаолиятларини бошлаб юборишади[1]. Марказ архитектуравий ўкув юртлари битирувчилари бўлганликлари сабабидан, революцион ғоя касб этган конструктивизм йўналишида ижод қилининг асос қилиб олган эдилар. Оқибатида, конструктивистлар ва рационалистлар гурухи ўз ижодий фаолиятларида социалистик хаёт тарзини янги меъморий шаклларини изланишлари рамзи сифатида асосий эътиборларини конструктивизм услубиятига қаратадилар. Ижтимоий тизим ва унинг мафкурасига мос келадиган бунёдкорлик ишларида : “Кадрлар танқислиги, айникса муҳандис-қурувчилар камчиллиги масаласи яққол намоён бўла бошлади. Шунинг учун Марказий Осиё давлат университети базасида республикадаги 1 чи техник олий даргоҳ Марказий Осиё пахта-сугориш политехника институти ташкил топди ва бу институт таркибида меъморлик бўлими очилди[1]. Ана шу даврдан бошлаб Ўзбекистонда меъморий таълим бериш жараёни йўлга қўйилди. 1930 йилга келиб, Марказий Осиё пахта-сугориш политехника институти 2 та алоҳида институтга бўлинди. Улардан бири Марказий Осиё қурилиш институти бўлиб меъморлик бўлими ана шу институт таркибида факультет сифатида шакллантирилди.



I расм. Киров номидаги маданият ва истироҳат боғи.

Профессор Г.Сваричевский, Л.Воронин, С.Колотов шунингдек ёшлар А.Петелин, К.Бабиевский, Н.Зимин каби меъморлар бу факультетни тамал тошини қўйган меъморлар ҳисобланади. Марказий Осиё институтининг илк битирувчиларидан А.Бабаханов (СССР халқ архитектори) В.Жаҳонгиров (хизмат кўрсатган қурувчи) ва бошқалар Ўзбекистон меъморчилиги ва қурилишида ўз ҳиссасини қўшган мутахассислардан эдилар.



Тошкентнинг илк шаҳарсозлик Бош режасида асосий эътибор эски шаҳарнинг реконструкциясини амалга ошириш воситасида марказ билан бирлаштириш, кўқаламзолаштириш, шаҳарни суғориш тармоғи, боғлар, скверлар ҳамда сунъий кўлларни ташкил қилишга қаратилди. Бу даврда Эски шаҳарнинг турар жой ҳудудида маданий хордик чиқариш мажмуаси, шу жумладан А. Икромов номидаги шаҳар боғи (ҳозирги “Пушкин номи билан, 1932 йилда очилган), Республика стадиони (ҳозирги “Спартак”, 1934 йилда очилган); шаҳарнинг эски ва янги шаҳар ҳудудлари марказларини меъморий яхлитликка келтириш режалаштирилди, Ф.Хўжаев номидаги (ҳозирги Навоий проспекти, 1930) автомобил йўли заминини пишитиб мустахкамлаш; Мутахассислар учун турар-жой бинолари мажмуасини қуриш ва бошқалар[1].

Хусусан, шаҳарнинг жануби-ғарб томонида тўқимачилик комбинатининг саноат корпуслари ва унга туташ ҳудудлари билан бир қаторда истиқомат қулайликларига эга булган 2, 3 ва 4 қаватли турар жой бинолари қурилиб, уни Социалистик шаҳарча (Соцгородок) деб атай бошладилар. Ахолига маданий-маиший хизмат кўрсатиш учун Тўқимачилар маданият саройи, универмаг, мактаб, болалар муассасалари, касалхона, поликлиника, қурилди. Бу ердаги қурилишлар Шота Руставели ва ҳозирги Усмон Носир кўчаларининг шаклланишига сабаб булди.

Бу давр шўро меъморчилиги шаклланишида алал оқибат конструктивизм йўналиши ҳал қилувчи таъсирга эга бўлди. Шаҳар қиёфасини бадиий ифодалашга меъморий ва фазовий композиция воситаларидан, шунингдек меъморчилик ва тасвирий санъатнинг ўзаро уйғунлашувидан фойдаланишга эришилди. Бу эса шаҳар қиёфасининг композицион яхлитлиги ва бадиий уйғунлигини таъминлашга ёрдам берди.

Маълумки, мода марказларида пайдо бўладиган ҳар қандай концепцион ўзгаришлар провинцияларда кечикиброк урфга айланади ва кечикиброк модадан чиқади. Шу боис, мазкур давр Ўтра Осиё меъморчилиги амалиётида қурилган турар-жой бинолари шаклий тузилиши конструктивизм концепцияси шаҳарсозликда узоқроқ муддат хукм сурган эди. Ваҳоланки, бу даврда конструктивизм концепцияси ижодий жараёнлари Ғарб дунёси меъморларининг ютуқларида яққолнамоёнбўлабошлади. Шубоис, советлар меъморчилигидан конструктивизмнинг узоққа бораолмаслиги аён бўла бошлади: “Бу жараён архитекторлар ижодий изланишларининг тарихий стиль ва шакллар, классик меросни ўзлаштириш интилишлари ҳамоҳанг эди” [3]. Конструктивизм услуги юртимиз шаҳарсозлигига ижодкорликдаги салоҳияти нуқтаи назаридан кўп ҳам ривож топган эмас. (Бунёд этилган конструктивизм услугидаги иншоатлардан айримлари шаҳарсозлик нуқтаи назаридан реконструкцияга, яъни “сносга” учради, борларини сақлаб қолиш шаҳrimиз меъморчилиги тарихидаги услугблар ҳилма-ҳиллигини намоён этиш жиҳатлари билан шаҳарсозлигимиз тарихида алоҳида аҳамият касб этади.)

Коммунистик мафкуравийликнинг юкори даражадаги қўринишлари асосан собиқ иттифоқнинг марказ шаҳарлари бинокорлигининг архитектуравий шакл ва силуэтида намоён бўлади. Аксинча, айтилганлардан фарқли тарзда, юртимиз шаҳарсозлигига “провинциализм”га хослик мавжудлиги хақида В.В.Курбатов ўзининг “Советская архитектура” китобида: “Ўтра Осиё республикалари пойтахтларининг шаҳарсозлиги шаклланиши, инқилобдан олдин чуқур қолоқликда бўлган Россиянинг чекка ҳудудлари шаҳарсозлиги ривожига монанд бўлган эди” [1] – дейилади. Шу билан бир қаторда оммавий қурилишларда конструктивизмнинг салбий томонлари кўрина бошлади.

Ўзбекистон шаҳарсозлигидаги эътиборли 60-йиллар воқеликлар қаторига собиқ иттифоқ тенденцияларига мос – Тбилиси, Ереван ва Баку шаҳарларидаги сингари меъморчилиқда юртимиз бинокорлигининг классик мероси билан синтезини шакллантириш интилишлари юзага келишида намоён бўлади. Ана шундай бинолар қаторига архитектор Г.Сваричевскийнинг 1928 қурилган Амударё изланиш хизматлар Бошқармаси (ҳозирда Ўз. Ф.А. Президиуми) ва 1931 йил арх. С.Полупанов томонидан лойиҳаланган “Хукумат уйи”ни мисол қилиб келтириш мумкин [1]. Ўзбекистон тарихий-меъморий мероси элементларидан, деталларидан замонавий меъморий шакллар билан уйғун тарзда фойдаланиш арх. С.Полупанов ижодига хос ҳусусиятлардан эди. Унинг лойиҳаси асосида қурилган “хукумат уйи” икки йўналиш тарихий ва замонавий меъморчиликни қоришимасига яққол мисол бўла олади.


Шаҳар кўчалари радиал-халқа тизими бинолар фасадлари масаласига келсак, шаҳарнинг олти маъмурий туманлари доирасида, бир вақтнинг ўзида бу туманлардаги магистрал кўчалар бўйлаб – турар жойлар, жамоат ва бошқа турдаги бинолар тармоғини бунёд этиш мақсади режалаштирилди. (Ва бунга тўлиқ бўлмасада, жаҳон уриши тугаганидан сўнг, 50 – 65 йилларга



келиб эришилди. Шу олти районда қурилган иншоатларнинг меъморчилиги услубияти ва даврга хослиги жиҳатидан ўзаро яхлитлик касб этади.)

1941 йилдан 2-жаҳон урушини бошлаган фашизмнинг жанговор харакатларининг навбатдаги фазаси собиқ иттифоқ худудларида бошланиб кетгач, мазкур йилларида жанг майдонларидан узоқ бўлган Тошкент шахрига жанг майдонларида қолиб кетиш хавфи бўлган кўплаб завод ва фабрикалар эвакуация қилинади, шаҳар аҳолиси қарийб 2 баробар кўпаяди ва 1 миллиондан ошиб кетади. Эвакуация килинган корхоналар жойлаштирила борилиб, саноат корхоналари ва улар учун турар-жой бинолари қурилиши учун янги ерлар ажратилди. Қурилиш материаллари етишмаслиги турар жой бинолари қаватини камайтиришга, қулайлик даражасининг пасайишига олиб келди.

Шу билан бир қаторда фашизм устидан ғалаба муқарарлигини аҳоли онгига сингдириш мақсадида, Тошкент шаҳрида уруш жараёнлари бошланишидан аввал қурилиши режалаштирилган обьектлар бунёдкорлик ишларини давом эттирилиши мухим деб топилади. Шундай иншоатлар қаторида ҳам қурилиши тўхтатилмаган Амир Алишер Навоий номидаги опера ва балет театри биноси, Муқимий номидаги мусақали драма театри биноси сингари обьектларни кўрсатиб ўтиш мумкин.



2 расм. Навоий театри майдони.

1941 йилда Ҳазрат Амир Алишер Навоий таваллудларининг 500 йиллик юбилейларини Иттифоқ доирасида кенг миқёсда нишонлаш режалаштирилган бўлиб, мазкур тадбир доирасида иттифоқ миқёсида Навоий театри лойиҳасига бўлиб, ўтган конкурс, танлов материаллари мазкур йилларда меъморларнинг ижодий изланишлари нақадар хилма-хил бўлганини яққол намоён қиласди. Танлов натижаси ҳақида айтилишича: “А.Щусев бинонинг ташқи фасадини безашда ўтган давр Марказий Осиё анъанавий меъморчилиги композицион элементларини энг яхши намуналаридан дадил фойдаланиб бадиий жиҳатдан уйғун ва бино деталларининг юксак даражада бадиий ифода этилганлиги, кириш портали мукаммал, бой ва маҳобатли очими топилганлиги, режавий тузилишда бироз чўзилган жой бўлсада, шаклларнинг мутаносиблиги ва ихчамлиги лойиҳани юксак даражада шакллантирилган” [1], - эканлиги ҳакамлар ҳайъати томонидан эътироф этилди. А.Щусев варианти муваффақиятли чиқишини сабаблари қаторида, А.Щусевнинг: “1897 йилда Самарқанддаги Ўрта асрлар маҳобатли меъморчилиги намунаси бўлган Гўри Амир мақбарасини ўлчамларини аниқлаш ишларида қатнашганлигини кўрсатиш мумкин”[4].

Ҳазрат Амир Алишер Навоий юбилейларини кенг миқёсда нишонлаш муносабати билан бошланган бунёдкорлик ишлари қаторида Навоий кўчаси реконструкцияси (арх.В. Смирнов, М. Булатов) ҳам режалаштирилганлиги эди. Мазкур лойиҳани амалга ошириш ишлари уруш йилларида бошланган ишлар 1943 йилда ҳам давом эттирилади. Аввало лойиҳа муваллифлари олдида эски ва тор (Жаркўча) кўчани кенгайтириш, шунингдек 1 қаватли уйлар ўрнига кўп қаватли социалистик шаҳар образини пайдо қиласидиган ва пировардида ансамблъ шаклланишига



хизмат қиладиган магистрал кўча яратиш масаласи турар эди.

Шунингдек лойиха муаллифлари шу кўчада курилиб бўлинган Хадра майдони чорраҳасидан Навоий кўчаси бўйлаб бошланадиган маъмурий бино, САГУнинг тарих факультети ўқув корпуси, “Ватан” кинотеатри, Курилиш техникуми бир бутун ансамбльни ташкил этган ҳолда, бунёдкорлик ишлари давомида Марказий телеграф,

“Чирчиқкурилиш” ва унинг қаршисида рус ТЮЗи ҳамда бошқа шу турдаги маъмурий биноларни жойлашган ҳолатини ҳисобга олишлари керак эди[1].

Хуоса қилиб айтганда қилиб Собик иттифок даври шаҳарсозлиги тажрибасида шаҳарларнинг асрлар давомида шаклланган меъморчилиги билан янги ташкил топган шаҳар муҳитида ўзаро бадиий уйғунлик масаласи юқори даражада ҳал этилганлигини Бухоро, Хива каби шаҳарларни мисол қилиб келтириш мумкин. Лекин афсуски Тошкент



3 расм. Навоий кўчаси.

ва Самарқанд шаҳриларида буни аксини кўриш мумкин. Агарда Тошкентда буз-буз тенденцияси давом эта борса, шаҳарсозлик тарихидаги қалрияти улуг Навоий кўчасидаги классикага монанд биноларни бузувчилар топилмайди деб ким кафолат бера олади. Шу билан бир қаторда мозийликка даҳлдор шаҳар муҳитини шакллантириш туризмни жадаллаштириш нуқтаи-назаридан ҳам катта аҳамиятга эга. Меъморий ёдгорликлар, ансамбллар ва мажмуаларни ҳозирги замон талабларига мослаштириш юртимизда туризмни жадаллаштириш билан боғлиқ муаммоларни ҳал қилиши муқаррар. Шаҳар марказларидағи реставрацион амалиёт мақсади жиҳатидан ўтмишдаги меъморчиликда қадрияти юксак иншоат ва ансамбларнинг бадиий фазилатларнинг сақланишини таъминлаш ҳамда келажак авлодлар учун шаҳарсозлик тараққиёти тарихий даврлари услублари юксалиши узвийлигини кўрсатишни ўз ичига олади.

Адабиётлар рўйхати.

1. Кадырова Т.Ф. Архитектура советского Узбекистана. М.: Стройиздат, 1987гс.39;52;53;56;63.
2. Тошкент энциклопедия. Т.: “Ўзб.миилий энциклопедияси”ДМ нашрёти. 2009й. 333-343б.
3. Курбатов В.В. Советская архитектура. М.: Просвещение. 1988 г. с.29.
4. Афанасьев К. Н. Щусев. А.В. - М., Стройиздат, 1978. - 139 с



УДК: 725.945. 72.025.5

ХХ АСР БОШЛАРИДА ТОШКЕНТИНИГ ШАҲАРСОЗЛИК ЖАРАЁНЛАРИ.

Абдуллаев Ж.С.

Тошкент Архитектура-қурилиш институти (ТАҚИ)да мустақил изланувчи,
“ARCH NEO DESIGN”МЧЖ .Лойиҳалар бош архитектори
memorjamshid@gmail.com. тел: +99899 875-67-65

Аннотация: Россиянинг колониал худудлари қаторида советлар ҳукумронлигининг илк ишларидан бошлаб, Туркистан ҳам коммунистик тизим бошқарувига ўтказилди. Шаҳарсозлик масалалари янгича ёндошувни талаб этарди. Бу даврда, янги тизим – “коммунистик гоявийлик” мағфураси жозибадорлиги сабабидан, чор ҳукумати даврида фаолият кўрсатган истеъододли архитекторларнинг аксарияти уни кўтаринки руҳда қабул қилдилар. 20-йиллардан бошлаб Тошкент учун намунавий биноларнинг янги лойиҳалари тузила бошлади. Ўзбекистон шаҳарларида ҳам аввалги иттифоқ миқёсида бўлгани сингари меъморчилик жараёнлари ва шаҳарсозлик воқеликлар синхрон кечганлиги сабабидан мақолага ёндашувни шу планда тадқиқ этишини лозим топдик. Туркистан совет автоном республикасининг биринчи пойтахти этиб Самарқанд шаҳри танланади. 1930 йилда Республика пойтахти Самарқанд шаҳридан Тошкент шаҳрига кўчирилди. Мамлакатнинг кенг миқёсдаги индустрIALIZация жараёнлари – янги саноат шаҳарларини қурилиши ва мавжудларини реконструкция қилинини мобайнида туар жойларнинг жамоат бинолари билан умумлаштирилган ҳолда лойиҳаланиши бу давр меъморчилигида ўзига хос аҳамият касб этган.

Калим сўзлар: Капиталистик тизимдан коммунистик тизимга, Туркистан совет автоном республикаси, “социалистик иқтисодиёт”, “коммунистик гоявийлик”, 1917 – 1930йиллар меъморчилиги, Янги туар жой мавзелари, 1925 йилдани шаҳар бош режаси, Конструктивизм услуги, индустрIALIZация жараёнлари, янги саноат шаҳарлари.

ГРАДОСТРОИТЕЛЬНЫЕ ПРОЦЕССЫ ТАШКЕНТА В НАЧАЛО ХХ ВЕКА

Ж.С.Абдуллаев

Соискатель Ташкентского архитектурно-строительного института (ТАСИ),
Главный архитектор проектов ООО “ARCH NEO DESIGN”.
memorjamshid@gmail.com тел: +99899 875-67-65

Аннотация: Наряду с другими колониальными территориями России с первых лет советской власти под власть коммунистического строя попал и Туркестан. Вопросы градостроительства требовали нового подхода. В этот период в силу привлекательности «коммунистической» идеологии нового строя — большинство талантливых архитекторов, работавших при царском правительстве, восприняли ее с приподнятым настроением. С 1920-х годов разрабатываются новые проекты типовых зданий для Ташкента. В связи с синхронностью архитектурных процессов и градостроительства в городах Узбекистана мы сочли необходимым изучить подход к статье именно в этом контексте. Первой столицей Туркестанской Автономной Республики был выбран город Самарканда, в 1930 году столица республики была перенесена из Самарканда в Ташкент. В период масштабной индустриализации страны - строительства новых промышленных городов и реконструкции существующих, особое значение в архитектуре этого периода приобрело оформление жилья в совокупности с общественными зданиями.

Ключевые слова: От капиталистического строя к коммунистическому строю, Туркестанская ССР, «социалистическая экономика», «коммунистическая идеология», архитектура 1917-1930-х годов, новые жилые массивы, генплан города 1925 года, конструктивизм, процессы индустриализации, новые промышленные города.



URBAN PLANNING PROCESSES IN TASHKENT AT THE BEGINNING OF THE 20TH CENTURY

J.S. Abdullayev

Competitor of the Tashkent Institute of Architecture and Construction (TASI),
Chief Project Architect. "ARCH NEO DESIGN"
memorjamshid@gmail.com.mob: +99899 875-67-65

Abstract : Along with other colonial territories of Russia, from the first years of Soviet power, Turkestan also fell under the rule of the communist system. Urban planning issues required a new approach. During this period, due to the attractiveness of the "communist" ideology of the new system, most of the talented architects who worked under the tsarist government perceived it with high spirits. Since the 1920s, new projects of typical buildings for Tashkent have been developed. Due to the synchronism of architectural processes and urban planning in the cities of Uzbekistan, we considered it necessary to study the approach to the article in this context. The city of Samarkand was chosen as the first capital of the Turkestan Autonomous Republic, in 1930 the capital of the republic was transferred from Samarkand to Tashkent. During the period of large-scale industrialization of the country - the construction of new industrial cities and the reconstruction of existing ones, the design of housing in conjunction with public buildings acquired particular importance in the architecture of this period.

Keywords: From the capitalist system to the communist system, the Turkestan SSR, "socialist economy", "communist ideology", architecture of 1917-1930s, new residential areas, general plan of the city of 1925, constructivism, industrialization processes, new industrial cities.

1917 йил октябрида Россия империяси хукмронлиги ҳудудларида юз берган руслар "большевистик" инқилоб мазкур жамиятни бир рельсдан, бошқасига – капиталистик тизимдан коммунистик тизимга буриб юборди. Ва империалистик Россиянинг колониал ҳудудлари қаторида советлар хукмронлигининг илк йилларидан бошлаб, Туркистан ҳам коммунистик тизим бошқарувига ўтказилди. 1918 йил 30 апрелда ташкил топган Туркистан совет автоном республикаси таркиби Чор Россияси сабиқ губернияси ҳудудлари тўлиқлигича киритилган эди. Халқ манфаатлари баҳонасида инқилоб доҳийлари томонидан кўчмас мулкка эгалик хукуқи – ер, уй-жой, саноат ва қазилма бойликлар давлат мулки деб эълон қилинади ва жамиятда иқтисодиётни тиклашнинг фундаменти сифатида коммунистик мафкура асос қилиб белгиланган эди. Сабиқ Чор Россиясининг барча ҳудудларида бошланиб кетган фуқаролар уруши шўролар мамлакатини иқтисодий жиҳатдан ночор ахволга олиб келди: "Фуқаролар уруши давридаги иқтисодий қийинчиликлар сабабли қурилишлар тор қўламда олиб борилган" [1]. Ва "социалистик иқтисодиёт" ва ҳалқ хўжалигини қайта тиклаш учун бир қанча йиллар зарур бўлди.

Коммунистик ғоявийлик оқибатида сабиқ иттилоғнинг юзлаб шаҳарларидағи мавжуд бўлган чор Россияси "атоқли шахслари" номларига берилган атамалар ўчирилади, ўрнатилган хайкаллар қўпориб ташланади. Ва олиб ташланган атамалар ўрнига коммунистик мафкура доҳийлари, қатағон ташкилотчилари, садоқатли коммунистлар номлари қўйилади, ҳамда уларга хайкаллар ўрнатилади. Шу қатори, Ўзбекистонда ҳам инқилобдан кейинги йилларда революцион байрамлар ўтказиш масканига айланган "Инқилоб хиёбонидаги" чоризмнинг Туркистондаги мустамлакачилик сиёсати рамзи бўлган генерал К.П.фон Кауфманга қўйилган хайкал ўрнига "жаҳон пролетариати доҳийси Карл Маркс бўюсти" ўрнатилади. Бу, юртимиз шаҳарларининг бош майдонлари, туманлари, завод ва фабрикалари, проспектларининг Ўзбекистонга ҳеч бир алоқаси йўқ шахслар номлари билан аталишининг ибтидоси эди.

Кўчмас мулкка эгалик хукуқи – ер, уй-жой, саноат ва қазилма бойликлар давлат мулки деб эълон қилиниши боис, ҳалқ хўжалиги соҳалари давлат томонидан режалаштирилишини талаб этарди. Ўз ўрнида саноат ва қишлоқ хўжалигини ривожлантириш, аҳолини жойлаштириш муаммолари шаҳарсозлик масалаларида ҳам янгича ёндошув зарурияти келтириб чиқарди. Бу даврда, янги тизим – "коммунистик ғоявийлик" мафкураси жозибадорлиги сабабидан, чор ҳукумати даврида фаолият кўрсатган истеъдодли архитекторларнинг аксарияти уни кўтаринки рухда қабул қилдилар ва янги жамият талабларига мос бунёдкорлик фаолиятларини бошлаб юбордилар: "20-йиллардан Тошкент учун намунавий биноларнинг янги лойиҳалари тузила



бошлади. Бу иш учун иттифоқ марказларидан атоқли меъморлар таклиф қилинди. Хусусан 1921 йили меъмор Янчевский университет учун бино комплекси лойихасини, ака-ука А.А.Веснин ва Л.А.Веснинлар физика институти биноси лойихасини яратди. Миллий анъаналарга таянган холда маҳаллий материаллардан фойдаланишни кўзлаб, иктисодий жиҳатдан тежамли бинолар лойихалари ишланди” [2]. Ўз навбатида, юртимиз шаҳарсозлигида ҳам Туркистон губернияси даври мобайнида фаолият юритган архитектор ва конструкторлар коммунистик жамият талабларига мос бунёдкорлик фаолиятини юрита бошладилар. Улар орасида Туркистон губерниясида фаолият юритган архитектор ва конструкторлар: “Г.М.Сваричевский, А.Гильгин, Л.Воронин, Ф.Смирнов, Л.Сильченков ва бошқалар Республикада илк шаҳарсозлик инфраструктурасини шаклланишида фаолиятлари бекиёс бўлган [3].

Советлар бошқарувидаги кенг худуд тарихий жараёнлари иттифоқ марказий шаҳарлари меъморчилиги тенденциялариға монандлик касб этганлиги боис, Ўзбекистон шаҳарларида ҳам меъморчилик жараёнлари ва шаҳарсозлик воқеликлар синхрон кечганлиги сабабидан мақолага ёндашувни шу планда тадқиқ этишни лозим топдик. Юртимизнинг шаҳарсозлик тарихий жараёнлари худди аввалги тадқиқотлар каби даврий муддатлар кесимида тадқиқ этилаши мақсадга мувофиқ.

Биринчиси –1917 - 1930 йиллар бошлари. Тошкентнинг Туркистон губернияси маркази мақоми мобайнида ҳукм сурган Модерн услубининг шаҳарсозлигимиздаги жараёнлари қанчалик жадал кечган ва қатор ёдгорликларни мерос қилиб қолдирган бўлса, қисқа муддатда ўз якунини топди. (Тадқиқотчилар таъкидлашларича, Фарбий Европа ва Америкада модага айланган конструктивизмнинг илк намоёндалари: “ Америкада – Райт, Фарбий Европада - Огюс Перре, Петер Беренс, Отто Вагнер, Адолф Лосс каби меъморлар эски жамиятнинг архитектурасини кириб қолган тупикдан чиқариш йўлида изланишлари боис, ҳозир биз кўриб турган замонавий конструктивизмга олиб келди” [3], - дейишади.) Модерн услубининг асосий постулати бўлган функционализм негизида шаклланган – конструктивизм янги жамият меъморчилигида алоҳида аҳамият касб эта бошлади: “Шаҳар меъморлигига хос услубий йўналишни назарда тутган конструктивизм тенденцияси Тошкент меъморлари ижодий фаолиятларида ҳам намоён бўла бошлади.

Янги тузум долзарб вазифалари қаторида: “Янги турар жой мавзеларини яратиш, ишчилар турадиган жойларни реконструкция қилиш ва Тошкент бош режасини яратиш масаласи турар эди. Бу бош режа 1925 й. Г.М.Сваричевский ва Л.Н.Воронин раҳбарлигида тузилди. Режада шаҳар марказини ўзгартиргмаган холда вокзал орти қисмини янги кварталларга ажратиш кўзда тутилган” [4].

Конструктивизм услуби ўзининг авангардга хослик жиҳатлари боис, коммунистик мағкуравийликнинг илк йилларида революцион моҳият касб этган ва большевистик ғоя доҳийлари олқишига сазовор бўлган эди. Бу даврда Тошкент шаҳрида бунёд этилган янги кварталлар ва иншоатлар мазкур услугга хосликни намоён этади. Шўролар ўзларининг мағкуравийлик постулатлари шаклланиши илк даврида рангтасвир авангардини қанчалик қутлаган бўлсалар, архитектурада ҳам конструктивизмни ҳам жадал ўзлаштириб олдилар. Шу ўринда, конструктивизм йўналишида ижод қилган меъморлар шўролар даври меъморчилигига мос замонавий архитектура формалари рамзини кўрган эдилар.

Советларнинг Ўрта Осиёдаги ҳукумронлиги илк йилларида ташкил топган Туркистон совет автоном республикасининг биринчи пойтахти этиб Самарқанд шаҳри танланади. Аммо, кўп ҳам ўтмай чор ҳукумати протекторати мақомида бўлган Бухоро амирлиги ва Хоразм ҳонликлари ҳам емириб ташланади. Оқибатида, советлар парчалаб юборган – Туркистон (чор империализми истилосига қадар – Кўқон ҳонлиги), Бухоро амирлиги ва Хоразм ҳонлигининг асосий ўзагидан иборат худудлар ўзаро бирлаштирилиб, 1924 йил 27 октябрда худудий жиҳатдан яхлит – Ўзбекистон совет республикаси ташкиллаштирилади. Шу даврдан бошлаб, “социалистик” иқтисодиёт ва ҳалқ хўжалигини тиклаб олиш баробарда бир қанча муҳим аҳамиятга эга жамоат бинолари – Марказий телеграф (арх. М.Гинзбург), Ўзбек давлат филармонияси (арх. И.Голошапов, А.Сидоров, А.Брилевич), Ш.Руставели кўчасида Поликлиника (арх. К.Бабиевский) қурилди [2].



1 расм. Марказий телеграф.



2 расм. Ш.Руставели кўчасида поликлиника.

1929 й. ишчилар университети (меъмор Г.М.Сваричевский) биноси қурилди: “Бу бинонинг тархи жуда оддий, ўкув хоналари ўртадаги мажлислар залининг икки ёнида мутаносиб жойлашган. Карл Маркс (ҳозирги Сайилгоҳ.) кўчасидаги Коммунистик университет биноси (1927; меъмор Г.М.Бауэр, ҳозирги Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги) конструктивизм услубида қурилган. У анча мураккаб композицияга эга. 20-йиллар охири ва 30-й.лар бошларида жамоат ва маъмурий бинолар ичida аввалги Киров (ҳозирги Мустафо Камол Отатурк) кўчадаги Халқ хўжалиги олий кенгаши уйи (1928; меъмор А.И.Петелин; ҳозирги босмахона) ажralиб туради. У қарийб бир квартал жойни эгаллаган, турли шаклдаги ва кўринишдаги хоналар моҳирлик билан режалаштирилган” [1].

1930 йилда Республика пойтахти Самарқанд шаҳридан Тошкент шаҳрига кўчирилди. Меъморлар Республика пойтахти кўчирилгандан кейин маъмурият қароргоҳи сифатида қурила бошлаган: “Хукумат уйи (ҳозирги Сенат биноси ўрнида) биноси Генерал-губернаторнинг собиқ қароргоҳи (Оқ уй) ўрнида янги бино лойиҳасини бошлаб юборадилар” [2] (меъмор С.Н.Полупанов). Шу ердаги собор иншоати бузилиб, майдонни реконструкция килиш ва Ленин хайкалини ўрнатиш ҳам кўзда тутилган эди. Хукумат уйи Оқ уй худудини асосий жойларини ўз ичига олди ва Собор майдони (кейинчалик Кизил майдон, ҳозирги Мустақиллик майдони) нинг ғарбий қисмини бутунлай эгаллади.



3 расм. Коммунистик университет биноси (ҳозирда Ўзбекистон Рес. Адлия вазирлиги).



Бу даврда Ўзбекистонда Москва, Питербург ва Украина архитектура ўқув юртлари битириувчилари С. Полупанов, Ф.Долгов, А.Павлов, А.Сидоров, А. Петелин, К.Бабиевский сингари ёш архитектор ва конструкторлар ўз фаолиятларини бошлаб юборишади [2]. Ўзбекистонга келган меъморлар ижодида совет меъморчилигига модада бўлган конструктивизм фоялари ўз аксини топади, шуни алоҳида таъкидлаш лозимки бу йўналишни ривожланишида мухандислар ҳам етакчи ўринларни эгаллаганликлари эътиборга лойик. Кейинчалик меъморлар конструктивизм йўналишида ижод қилишнинг асоси сифатида функционал услубларни қамраб оладилар. Ўша даврларда конструктивистлар ва рационалистлар социалистик хаётнинг янги меъморий шаклларини излашга асосий эъти боларини қаратадилар. Ўзбекистонда бу масалалар билан С.Полупанов, Г.Сваричевский ва бошқа архитекторлар шуғулландилар. Бинолар режаси таркибида умумий овқатланиш заллари, ўқиш заллари, библиотекалар, дам олиш хоналаридан иборат коммуна уйлари курила бошлади.

Хулоса қилиб айтганда, юртимизда ҳам иттифоқ доирасида олиб борилаётган индустрIALIZация жараёнлари – янги саноат шаҳарларини курилиши ва мавжудларини реконструкция қилиниши мобайнида турар жойларнинг жамоат бинолари билан умумлаштирилган ҳолда лойиҳаланиши бу давр меъморчилигига ўзига хос аҳамият касб этган. Шунингдек турар жой мавзеларини аҳоли дам олиши ва ҳордиқ чиқариши учун қўкаламзорлаштириш ва ободонлаштиришга катта эътибор қаратилган. Юртимиз шаҳарсозлигидаги бунёдкорлик жараёнлари шўролар яхлит худуд меъморчилиги доирасида юз берадиган воқеликлардаги сингари – саноат корхоналари эҳтиёжлари ва қишлоқ хўжалигини ривожлантириш, аҳолини уй-жой билан таъминлаш каби шаҳарсозлик муаммоларини хал қилиш масаласини кўндаланг қўйган эди.

Адабиётлар рўйхати:

1. Тошкент энциклопедия. Т.: “Ўзб.милий энциклопедияси”ДМ нашрёти. 2009й. 333-343б.
2. Кадырова Т.Ф. Архитектура советского Узбекистана. М.:Стройиздат.,1987г.
3. Москва. Памятники архитектуры 1830 - 1860 –х годов. М.:Искусство. 1977г. с. 16.
4. Аскаров Ш.Д. Реконструктивные концепции на рубеже XIX вв. в архитектуре Средней Азии./ Строительство и архитектура Узбекистана. 1976, № 9. с.27. /



ТЕХНИКА ВА ТЕХНОЛОГИЯ СОҲАСИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

ОПТИК КИРИШ ТАРМОҚЛАРИНИ МОНИТОРИНГ ТИЗИМИ ВА УСУЛИ

Ускенбаева Дилфузада Шухрат қизи
Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги
Тошкент ахборот технологиялари
университети ассистенти
Ўзбекистон Тошкент ш.
Телефон: +998(97)746-81-89
dilfuzauskenbayeva@gmail.com


Анотация: Ҳозирги кунда юқори тезликдаги интернетга талаб ортиб бораотгани ва фойдаланувчилар сонинг кўпайиши шароитида оптик уланиш тармовларини самарили бошкариши ва мониторинг қилиши хизматлар сифатини таъминлаш муҳим ахамияти ва хусусиятлари қисқача баён этилган.

Калим сўзлар: Оптик кириши тармоғи, пассив оптик тармоқлар (PON) мониторинг тизими, TWDM- PON, маълумотларни йигини усуллари.

Оптик кириш тармоқлари юқори тезликдаги интернет ва маълумотларни узатиш учун асосий технологиядир. Оптик толалар маълумотларни сониясига бир неча гигабитгача бўлган тезлиқда узатишга кодир шунингдек оптик кабеллар чидамлилиги ва ишаҷлилгини тамиnlайди. Оптик тармоқлар бир вақтнинг ўзида бир нечта хизматларни қўллаб кувватлайди. [1]

Оптик кириш тармоқлари қўйидагича тавсифланади :фаол оптик тармоқ (AON). ва пассив оптик тармоқлар (PON). Оптик кириш тармоқларниң энг кўп тарқалган архитектуралидан бири PON бўлиб абоненет томонидан фаол усулга эхтиёж сезмасдан бир толани бир нечта абонентларга бўлиш имконини беради. [2]

PON технологияси узоқ узатиш масофаси, юқори тармоқ кенлиги кучли шовқинга қарши қобиляти ва паст техника харажатларининг афзаликларига эга. PON тармоғи асосан уч кисмдан иборат: OLT (Оптик линия терминали), ONU (оптик тармоқ бирлиги) ва ODN(Оптик тарқатиш тармоғи).






1. PON топологияси.

OLT PON ва хизмат кўрсатувчи провайдерининг асосий тармоғи ўртасидаги интерфейсни таъминлайди. Шунингдек қуидагиларни ўз ичага олади:

- Fas Ethernet орқали IP трафик Gigabit Ethernet, ёки 10 Gigabit Ethernet;
- SDH/SONET каби стандарт TDM интерфейслари;
- ATM UNI155-622MBIT/s. [3]

PON умумий тармоқ ҳисобланиб OLT барча ONUлар томонидан кўринадиган қуий окимдаги трафикнинг ягона окимини юборади. Ҳар бир ONU фақат унга тегишли бўлган пакетларнинг мазмунини ўқиди.



2. TDM –PON архитектураси.

PON архитектуралари кўплаб тадқиқот гурухлари томонидан кўлланилди.

TDM (вақтга бўлиниш мултиплексацияси) ва WDM (тўлқин узунлиги бўлиниши мултиплексацияси) кейинчалик ушбу архитектураларнинг асосий тушунчалари маълум микдордаги мижозларга хизмат кўрсатиш учун ишлатиладиган RN бўйича таснифланади.

WDM- PON ностандарт пассив оптик тармоқ технологияси ҳисобланади. WDM- PON ананавий мисга асосоланган кириш тармоқларига нисбатан бир қанча афзаликларга эга юқори тармоқли кенглиги яхшилнаган маҳфийлик ва яхши миқёсийлилик чунки ҳар бир ONU ўз тулқин узунлигини олади ҳамда MAC қатлами соддалаштирилган яний OLT ва ONU ўртасидаги нуқтадан нуқтага уланиш тўлқин узунлиги доменида амалга оширилади. [4]

TWDM- PON пассив оптик тармоқнинг кейинги авлоди учун илгор ёнимдир. Пассив оптик компонентлари қўп каналли узатишни ўз ичига кенг доирадаги иловаларга эга. TWDM бу оптик тармоқларда маълумотларни узтиш қуввати самарадорлигини ошириш учун ишлатиладиган технология. У иккита мултиплекслаш усулини бирлаштирилади: вақт ва тўлқин узунлиги.

TWDM- PON афзаликлари қуидагилардан иборат:

- TWDM кўпроқ маълумотларни битта оптик тола орқали узатиш имконини беради.
- Вақт ва тўлқин узунлиги бўйича мултиплекслашнинг комбинатцияси мавжуд инфратузилмадан янада самарали фойдаланиш имконини беради.
- TWDM тизимлари ўзгарувчан тармоқли кенглиги талабларига мослаша олади.
- Турли соҳаларда жумладан телекоммуникациялар, маълумотлар маркази ва янги авлод тармоқларида маълумотлар узатишнинг тезлиги ва ишочлигини талаб қиласиган иолваларни топади. [5]

TWDM юқори техник ва самарали маълумотларни узтиш имконини берувчи оптик тармоқларни ривожлантиришда муҳим қадамдир. Ушбу технология ўсиб бораётган маълумотлар хажми ва юқори тезликдаги тармоқларга бўлган этиёж шароитиди тоборо долзарб бўлиб бормоқда.

Оптик кириш тармоқларининг тармоқ ҳолатини ишлаш ва хизмат кўрстаиш сифатини мониторинг қилишнинг турли усуллари ва воситаларини ўз ичага олади:

- Эляф кучайтиргичлар
- Бит тезлигини чекловлари



- Оптик уланишлар
- Йўналишнинг хилма-хиллиги
- Поларизация хилма-хиллиги
- Автоматлаштириш
- Мувофиқ алоқа. [6]

Оптик кириш тармоклари интернет ва бошқа алоқа хизматларида юқори тезликдан фойдаланишини таъминлашда асосий рўйл ўйнайди. Ушбу тармоқларнинг самарали мониторинги уларнинг ишоччилиги унумдрлилиги ва хизмат қўрсатиш сифатини сақлаб қолишига ёрдам беради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати :

1. Андрэ Жирар. Руководство по технологии и тестированию систем WDM. Пер. с англ. – М.: EXPO, 2001.
2. Соломенчук В.Д. Принципы построения оптической транспортной сети. – Киев: ЦПО, 2009.
3. Соломенчук В.Д. Оборудование мультисервисных транспортных платформ ONS15454. – Киев: ЦПО, 2009.
4. L. G. Kazovsky, W.-T. Shaw, D. Gutierrez, N. Cheng, and S.-W. Wong, “Next- Generation Optical Access Networks,” *J. Light. Technol.*, 2007.
- 5.C. F. Lam, *Passive Optical Networks: Principles and Practice*. Boston: Elsevier Inc, 2007.
6. Cheng and F. Effenberger, “WDM PON: systems and technologies,” *Proc. 36th Eur. Conf. on Opt. Commu. (ECOC)*, Torino, Italy, 2010.



**ФИЗИКА-МАТЕМАТИКА ФАНЛАРИ ЮТУҚЛАРИ ЙЎЛИДАГИ
ТАДҚИҚОТЛАР**

VEKTOR MAYDONLAR. GRADIYENT MAYDONLAR.

PhD, доцент **М.И. Охунбаев**,
ТУИТ muzaffarohunboyev@gmail.com

Assistent **Xurramov A.X.**,
ТУИТ azizzurramov@gmail.com

Annotatsiya:

Talabalarda vektor maydonlar va gradiyent maydonlar tushunchalarini shakllantirish, ularning xossalari va fizik-geometrik mazmunini o'rgatish, egri chiziqli integrallarni hisoblash usullarini egallash hamda ularni amaliy va nazariy masalalarda to'g'ri qo'llay olish ko'nikmalarini rivojlantirish xususiyatlarini o'rghanish orqali mavzuning amaliy ahamiyatini yoritish.

Kalit so'zlar:

Vektor maydon, gradiyent maydon, skalyr maydon, gradient operatori (∇), potensial funksiyasi.

Skalyar maydon. Sath chiziqlari.


R^2 -tekislikdagi nuqtaga bitta son mos qo'yadigan funksiyaga **skalyar funksiya** deyiladi.

$$f: R^2 \rightarrow R, ya'ni f: (x, y) \rightarrow u$$

Agar biror bir sohaning har bir M nuqtasiga qandaydir u son mos qo'yilgan bo'lsa, u holda ikki o'zgaruvchining **skalyar funksiyasi** yoki **skalyar maydon** berilgan deyiladi.

1-Misol. $f(x, y) = x^2 + y^2$ -funksiya bilan berilgan skalyar maydonni aniqlang

Nº	(x, y)	$x^2 + y^2$
1	(0,0)	0
2	(1,0)	1
3	(0,1)	1
4	(2,2)	8
5	(2,1)	5
6	(1,2)	5
7	(3,2)	13





Sath chiziqlari – $z=f(x,y)$ sirtni turli balandliklardagi kesimlaridir, bu kesimlar $z=c$ tekisliklar bilan amalga oshiriladi, keyin XOY tekislikka proyeksiyalanadi.

Ta’rif. $Z=f(x,y)$ funksiyaning sath chizig‘i deb, XOY tekislikdagi $f(x,y)=C$ chiziqqa aytiladi, bu chiziqning har bir nuqtasida z funksiya o‘zgarmas qiymat qabul qiladi. Shunday qilib, sath chizig‘i –sirtni qanday ekanligini uch o‘lchamli chizmasiz aniqlash imkonini beradi.

2-Misol. $z = (x - 2)^2 + (y - 1)^2$ funksiya bilan aniqlanadigan sath chiziqlari topilsin.

Yechilishi. $(x - 2)^2 + (y - 1)^2 = z \Rightarrow z = 0 \Rightarrow (x - 2)^2 + (y - 1)^2 = 0 \Rightarrow$

$\Rightarrow x = 2, y = 1$ –aylana markazini beradi, $z < 0$ -bo‘lishi mumkin emas, $z = 1 \Rightarrow$

$(x - 2)^2 + (y - 1)^2 = 1$ –markazi $(2,1)$ nuqtada radiusi 1 ga teng bo‘lgan aylana bo‘ladi va hokazo konsentrik aylanalarga ega bo‘lamiz. Sirtning o‘zi uchi $(2,1)$ nuqtada bo‘lgan Z o‘qi bo‘yicha yuqoriga qaragan parabolik silindrni tashkil etadi.

Sath sirtlari – bu $w=f(x,y,z)$ sirtni turli balandliklardagi kesimlaridir, bu kesimlar $w=c$ sirtlar bilan amalga oshiriladi, keyin R^3 -fazoga proyeksiyalanadi.

Fazoning har bir M nuqtasida u skalyar kattalikning son qiymati aniqlangan qismiga (yoki butun fazoga) *skalyar maydon* deyiladi.

Agar u kattalik t vaqtga bog‘liq bo‘lmasa, bu kattalik bilan aniqlangan maydonga *statsionar maydon*, aks holda *nostatsionar maydon* deyiladi.

Stasionar maydonda u kattalik faqat M nuqtaning fazodagi o‘rniga bog‘liq bo‘ladi va $u = u(M)$ kabi belgilanadi. Bunda $u = u(M)$ funksiyaga *maydon funksiyasi* deyiladi. \mathbb{R}^3 fazoning $Oxyz$ koordinatalar sistemasida $u = u(x, y, z)$ bo‘ladi.

Skalyar maydonning geometrik tasviri sath sirtlari hisoblanadi. Fazoning $u = u(x, y, z)$ maydon funksiyasi o‘zgarmas C qiymatga teng bo‘ladigan barcha nuqtalari to‘plamiga skalyar maydonning *sath sirti* deyiladi. Sath sirti $u(x, y, z) = C$ tenglama bilan aniqlanadi.


Vektor maydon. Sath sirtlari.

Umumiy holda, vektor maydon – bu funksiya bo‘lib, aniqlanish sohasi \mathbb{R}^2



(yoki \mathbb{R}^3) dagi nuqtalar to‘plami, qiymatlar sohasi esa V_2 (yoki V_3) vektorlar to‘plami hisoblanadi.

1] Ta’rif 1. Aytaylik $D \in \mathbb{R}^2$ tekislikdagi yassi soha bo‘lsin. D sohaning har bir (x, y) nuqtasiga $\vec{F}(x, y)$ ikki o‘lchovli vektor mos qo‘yadigan \vec{F} funksiyaga \mathbb{R}^2 dagi vektor maydon deb aytiladi.




1-rasm. \mathbb{R}^2 dagi vektor maydon

Vektor maydonni tasvirlashning eng yaxshi usuli - (x, y) nuqtada boshlanadigan $\vec{F}(x, y)$ vektorni ifodalaydigan strelkani chizishdan iborat. Albatta, bu ishni barcha (x, y) nuqtalar uchun qilib chiqishni iloji yo‘q, lekin D sohaning bir nechta reprezentativ nuqtalar uchun bu ish qilib chiqilsa, 1-rasmida ko‘rsatilganidek vektor maydon haqida boshlang‘ich tasavvurga ega bo‘lishimiz mumkin. $\vec{F}(x, y)$ ikki o‘lchovli vektor bo‘lganligi uchun, uni tashkil etuvchi P va Q funksiyalar terminida yozishimiz mumkin:

$$\vec{F}(x, y) = P(x, y) \cdot \vec{i} + Q(x, y) \cdot \vec{j} = \langle P(x, y), Q(x, y) \rangle$$

yoki, qisqacha,

$$\vec{F} = P \cdot \vec{i} + Q \cdot \vec{j}$$



2-rasm. \mathbb{R}^3 dagi vektor maydon

E’tibor bering, P va Q funksiyalar ikki o‘zgaruvchining skalyar funksiyasi bo‘lib, ayrim hollarda ularni vektor maydonlardan farqlash uchun skalyar maydonlar ham deyiladi.


2] Ta’rif 2. Aytaylik $E \subset \mathbb{R}^3$ uch o‘lchovli fazoning to‘plam ostisi bo‘lsin. E sohaning har bir (x, y, z) nuqtasiga $\vec{F}(x, y, z)$ uch o‘lchovli vektor mos qo‘yadigan \vec{F} funksiyaga \mathbb{R}^3 dagi vektor maydon deb aytiladi.

\mathbb{R}^3 dagi \vec{F} vektor maydon 2-rasmida ko‘rsatilgan. $\vec{F}(x, y, z)$ uch o‘lchovli vektor bo‘lganligi uchun, uni tashkil etuvchilari P, Q va R funksiyalar terminida yozishimiz mumkin:

$$\vec{F}(x, y, z) = P(x, y, z) \cdot \vec{i} + Q(x, y, z) \cdot \vec{j} + R(x, y, z) \cdot \vec{k}$$



Vektor funksiyalarda aniqlanganidek, vektor maydon uzluksizligini aniqlashimiz mumkin va \vec{F} uzluksiz bo‘lishi uchun uning \vec{F} funksiyani tashkil etuvchilari P, Q va R funksiyalar faqat va faqat uzluksiz bo‘lgandagina o‘rinli bo‘lishini isbotlash mumkin.




2-MISOL. \mathbb{R}^3 uch o‘lchovli fazoda $\vec{F}(x, y, z) = z \cdot \vec{k}$ formula bilan berilgan vektor maydonni chizing.

Yechilishi. 3-rasmda sxema keltirilgan. E’tibor bering barcha vektorlar vertikal bo‘lib, XOY tekisligidan tepada yuqoriga yoki undan pastda quyiga yo‘nalgan. XOY tekisligidan uzoqlashgan sari miqdor kattalashaveradi.


2-misoldagi vektor maydonni formula sodda bo‘lgani uchun qo‘lda chizish imkonи bo‘ldi. Ammo aksariyat hollarda uch o‘lchamli fazoda vektor maydonni chizish amaliy jihatdan imkonи yo‘q, shunning uchun ham grafik chizadigan kompyuter algebrasi tizimlariga murojaat qilishga to‘g‘ri keladi.

4,5 va 6-rasmlarda vektor maydonlar rasmlari ko‘rsatilgan. 4 va 5-rasmlardagi vektor maydonlar o‘xshash formulalarga ega, lekin 5-rasmdagi barcha vektorlar OY o‘qining manfiy yo‘nalishi bo‘yicha ko‘rsatilgan, chunki barcha y komponentalar -2 ga teng. Agar 6-rasmdagi vektor maydon tezlik maydoni deb talqin berilsa, u holda yuqoridan qaralganda zarracha z o‘qi bo‘yicha yuqoriga ko‘tarilib, soat strelkasi yo‘nalishi bo‘yicha z o‘qi atrofida aylanishini anglatadi.




$$F(x, y, z) = y \cdot \vec{i} + z \cdot \vec{j} + x \cdot \vec{k}$$

Funksiya yo‘nalishi bo‘yicha harakatlanayotgan vektorlar maydoni



$$F(x, y, z) = y \cdot \vec{i} - 2 \cdot \vec{j} + x \cdot \vec{k}$$

Funksiya yo‘nalishi bo‘yicha harakatlanayotgan vektorlar maydoni



$$F(x, y, z) = \frac{y}{z} \cdot \vec{i} - \frac{x}{z} \cdot \vec{j} + \frac{z}{4} \cdot \vec{k}$$

Funksiya yo‘nalishi bo‘yicha harakatlanayotgan vektorlar maydoni

Vektor maydonlarning vektor chiziqlari.



Vektor maydonlarning asosiy xarakteristikalaridan biri bu – vektor chiziqlardir.

Ta’rif. Har bir nuqtasida o’tkazilgan urinma vektor maydonga kolinear bo‘ladigan chiziqga vektor maydonning **vektor chizig‘i** deyiladi.

$\vec{a} = P \cdot \vec{i} + Q \cdot \vec{j} + R \cdot \vec{k}$ vektor maydon uchun vektor chiziqlar quyidagi tenglikdan aniqlanadi (differensial tenglamalar sistemasidan):

$$\frac{dx}{P} = \frac{dy}{Q} = \frac{dz}{R}$$

Bunday tenglamalarni yechishda proporsiyaning quyidagicha xossalardan foydalanish maqsadga muvofiq:

Agar $\frac{a}{b} = \frac{c}{d}$, bo‘lsa, u holda $\frac{a}{b} = \frac{c}{d} = \frac{\lambda \cdot a + \mu \cdot b}{\lambda \cdot b + \mu \cdot d}$

Misol. Quyida berilgan bektor maydonning vektor chiziqlari topilsin:

$$\vec{a} = (z - y) \cdot \vec{i} + (x - z) \cdot \vec{j} + (y - x) \cdot \vec{k}$$

Vektor chiziqlar aniqlanadigan tenglamalarni yozamiz:

$$\frac{dx}{z - y} = \frac{dy}{x - z} = \frac{dz}{y - z}$$

Proporsiya xossasini e’tiborga olib, birinchi kasrni x ga, ikkinchi kasrni y ga, uchinchi kasrni z ga ko‘paytirib surat va maxrajlarni qo‘shamiz:

$$\begin{aligned} \frac{dx}{z - y} &= \frac{dy}{x - z} = \frac{dz}{y - z} = \frac{xdx + ydy + zdz}{(xz - xy) + (xy - zy) + (yz - xz)} \\ &= \frac{xdx + ydy + zdz}{0} \end{aligned}$$

bundan $xdx + ydy + zdz = 0 \Rightarrow \frac{1}{2}d(x^2 + y^2 + z^2) = 0$ yoki $x^2 + y^2 + z^2 = C_1^2$

yuqoridagi tenglamalardan:

$$\begin{aligned} \frac{dx}{z - y} &= \frac{dy}{x - z} = \frac{dz}{y - z} = \frac{dx + dy}{-y + x} \Rightarrow \frac{dz}{y - z} = \frac{dx + dy}{-y + x} \Rightarrow -dz = dx + dy \\ &\Rightarrow x + y + z = C_2 \end{aligned}$$

Shunday qilib, berilgan vektor maydonning vektor chiziqlari: $x^2 + y^2 + z^2 = C_1^2$ sferalar va $x + y + z = C_2$ tekisliklarni kesishmalaridan iborat bo‘ladi.



Gradiyent maydon

Agar f ikki o‘zgaruvchili skalyar funksiya bo‘lsa, u holda uning gradiyenti ∇f (yoki grad f) quyidagicha aniqlanadi:

$$\nabla f(x, y) = f'_x(x, y) \cdot \vec{i} + f'_y(x, y) \cdot \vec{j}$$

demak, ∇f haqiqatda \mathbb{R}^2 tekislikda vektor maydon hisoblanadi va **gradiyent vektor maydon** deyiladi. Mos ravishda, agar f – uch o‘zgaruvchining skalyar funksiyasi bo‘lsa, u holda uning gradiyenti \mathbb{R}^3 fazoda vektor maydonni hosil qiladi va quyidagicha formula bilan aniqlanadi:

$$\nabla f(x, y, z) = f'_x(x, y, z) \cdot \vec{i} + f'_y(x, y, z) \cdot \vec{j} + f'_z(x, y, z) \cdot \vec{k}$$

7-MISOL. $f(x, y) = x^2y - y^3$ funksiya bilan aniqlangan gradiyentning vektor maydoni topilsin. F ning kontur kartasi bilan birgalikda gradiyentning vektor maydonini yasang. Ular qanday bog‘langan?


Yechilishi. Gradiyentning vektor maydoni quyidagicha formula bila beriladi:

$$\nabla f(x, y) = \frac{\partial f}{\partial x} \cdot \vec{i} + \frac{\partial f}{\partial y} \cdot \vec{j} = 2xy \cdot \vec{i} + (x^2 - 3y^2) \cdot \vec{j}$$

7-rasmda $f(x, y)$ funksiya kontur kartasi bilan gradiyentning vektor maydoni ko‘rsatilgan. E’tibor bering, gradiyent vektorlari sath egri chiziqlariga perpendikulyar, sath egri chiziqlari bir-biriga yaqin bo‘lganda gradiyent vektorlari uzunroq, sath egri chiziqlari bir-biridan uzoqroq boo‘lganda gradiyent vektorlari kaltaroq. Bu gradiyent vektor uzunligi f funksiyadan yo‘nalish bo‘yicha hosilaning miqdoriga teng ekanligi bilan bog‘liq bo‘lib, yaqin joylashgan sath egri chiziqlari funksiya tikka grafikka ega ekanligidan dalolat beradi

Agar shunday skalyar funksiya f mavjud bo‘lsaki, $\vec{F} = \nabla f$ bo‘lsa, ya’ni vektor maydon biror bir skalyar funksiyaning gradiyenti bo‘lsa, u holda F vektor maydonga potensial vektor maydon deyiladi. Bunday holda f ga \vec{F} vektor maydon uchun potensial funksiya deyiladi.

Har qanday vektor maydon ham konservativ bo‘lavermaydi, lekin fizikada aynan



7-rasm.
 $f(x, y) = x^2y - y^3$ funksiya
kontur kartasi bilan gradiyentning
vektor maydoni grafigi



shunday maydonlar yuzaga keladi. Masalan, 4-misoldagi \vec{F} gravitatsion maydon potensial vektor maydon hisoblanadi, chunki agar f funksiyani quyidagicha aniqlasak:

$$f(x, y, z) = \frac{mMG}{\sqrt{x^2 + y^2 + z^2}}$$

Gradiyent

$$\begin{aligned}\nabla f(x, y, z) &= \frac{\partial f}{\partial x} \cdot \vec{i} + \frac{\partial f}{\partial y} \cdot \vec{j} + \frac{\partial f}{\partial z} \cdot \vec{k} = \\ &= \frac{-mMGx}{(x^2 + y^2 + z^2)^{3/2}} \cdot \vec{i} + \frac{-mM Gy}{(x^2 + y^2 + z^2)^{3/2}} \cdot \vec{j} \\ &\quad + \frac{-mMGz}{(x^2 + y^2 + z^2)^{3/2}} \cdot \vec{k} = \vec{F}(x, y, z)\end{aligned}$$

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. James Stewart, “Calculus” 7-edition, Brooks / Cole USA, I-part, 2012, pp 1380
2. James Stewart “Calculus (8-edition)”, Cengage Learning / USA, II-part, 2016, pp-1459
3. Claudio Canuto, Anita Tabacco “Mathematical Analysis”, Italy, Springer, I-part, 2008, II-part, 2010.
4. W.WL. Chen “Introduction to Fourier Series”, London, Chapter 1-8, 2004, 2013.
5. W.WL. Chen “Fundamentals of Analysis”, London, Chapter 1-10, 1983, 2008.
6. N.M. Jabborov, «Oliy matematika». 1-2 qism. Qarshi, 2010.
7. Raxmatov R., Tadjibayeva Sh.E., Shoimardonov S.K. Oliy matematika. 1 jild. 2017.



БИОМЕДИЦИНА ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

HAMSHIRALIK JARAYONI VA HAMSHIRALIK TASHXISI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK

**G'iyo sova Sevara Frunze qizi,
Ravshanova Umeda Hamidovna,**
Buxoro Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoa
salomatligi texnikumi katta o'qituvchilari.

Annotasiya: Ushbu maqola zamonaviy hamshiralikdagi bemorlarni parvarish qilishni ko'rib chiqadi. Individual yondashuvning ahamiyati muhokama qilinadi. Hamshira ishining muhim qismi bemorning muammolarini aniqlash va tasniflashdir. Shartli ravishda ularni real hayotda mavjud bo'lganlar va hali mavjud bo'lman, ammo yaqin kelajakda paydo bo'lishi mumkin bo'lgnalarga bo'lish mumkin. Mavjud muammolar hozirgi vaqtida bemorni bezovta qilmoqda, shuning uchun ularni darhol hal qilish kerak. Klinika xodimlari yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni oldini olish uchun profilaktika choralarini ko'rishlari kerak. Maqolada bemorni parvarish qilishning ahamiyati ham muhokama qilinadi. qabul qilish uchun individual yondashuvni amalga oshirishning asosiy usullari va amaliy misollarini o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: fizik tekshiruv, Psixologik muammolar, Bemorning ehtiyojlari, Potentsial asoratlar.

Hamshiralik diagnostikasi - bemorning haqiqiy va mumkin bo'lgan muammolarini tahlil qilish va uning sog'lig'i holati to'g'risida hamshira tomonidan tuzilgan va qabul qilingan standartlarga muvofiq tuzilgan xulosa. Hamshira tomonidan qo'yilgan tashxisga ko'ra, bemorni davolash jarayoniga hamshiraning keyingi aralashuvi to'g'risida qaror qabul qilinadi.

Hamshiralik jarayoni bemorning ehtiyojlarini aniqlash uchun o'ylangan harakatlar rejasidir. U bir necha bosqichlardan iborat bo'lib, birinchisi bemorning umumiy holatini aniqlashdir. Ushbu bosqichda hamshira qon bosimi, tana harorati, vazni va boshqa jarayonlarni o'lchashni o'z ichiga olgan fizik tekshiruvni amalga oshiradi. Psixologik muammolarni aniqlash uchun bemor bilan ishonchli munosabatlar o'rnatiladi.

Ikkinci qadam tiklanishni oldini oluvchi mavjud va potentsial muammolarni aniqlash va hamshiralik tashxisini qo'yishdir. Buning uchun hamshiraning vakolati doirasida favqulodda qaror qabul qilishni talab qiladigan asosiy ustuvorliklar aniqlanadi. Uchinchi bosqichda hamshiralalar guruhining ish rejasi tuziladi, bemorning ahvolini engillashtirish uchun tibbiy tadbirlarni o'tkazish ketma-ketligi, usullari va usullari aniqlanadi. To'rtinchi bosqich tuzilgan rejani amalga oshirishdan iborat bo'lib, barcha rejalashtirilgan tadbirlarni amalga oshirishni ta'minlaydi. Besinchi bosqichda, agar kerak bo'lsa, bemor va uning oila a'zolarining fikrini hisobga olgan holda, hamshiralik aralashuvining samaradorligi aniqlanadi.bemorni parvarishlash rejasi tuzatilmoqda.

Bemor ehtiyojlari bo'yicha tadqiqot

Bemor muammolari va hamshiralik tashxisi o'rtasida aniq bog'liqlik bor. Uni joylashtirishdan oldin hamshira bemorning barcha ehtiyojlarini aniqlashi va bemorning kasallikka munosabati haqida klinik xulosani shakkantirishi kerak. Reaksiya nafaqat kasallik bilan, balki klinikada qolish sharoitlari, jismoniy holat (yutishning buzilishi, siyidik o'g'irlab ketish, mustaqillikning yo'qligi), psixologik yoki ruhiy noqulaylik, shaxsiy holatlar bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin.

Bemorning ehtiyojlarini o'rganib chiqqandan so'ng va hamshiralik amaliyoti standartlariga amal qilgan holda, hamshira muayyan bemorga g'amxo'rlik qilish rejasisini tuzadi, bu uning harakatlariga motivatsiyani ko'rsatadi.

Bemor muammolari tasnifi

Bemorga hamshiralik tashxisini qo'yishda bir vaqtning o'zida ikkita guruhdan iborat bir qator muammolar aniqlanadi: haqiqatda mavjud va kasallikni davolash uchun choralar ko'rilmasa, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar. Mavjud muammolar orasida, birinchi navbatda, shoshilinch tibbiy yordam zarur bo'lgan ustuvor, hayot uchun xavf tug'dirmaydigan oraliq va kasallik bilan hech qanday aloqasi bo'lman ikkilamchi muammolar ajralib turadi.



Potentsial asoratlar qatoriga yotqizilgan bemorlarda bosim yarasi, dori-darmonlarni qabul qilish natijasida yuzaga keladigan nojo‘ya ta’sirlar, anevrizma yorilishi tufayli qon ketishi bilan bog‘liq xavflar kiradi.qon tomirlari, quşish yoki bo’shashgan axlat bilan tananing suvsizlanishi va boshqalar. Muhim masalalar aniqlangach, hamshiralik aralashuvini rejalashtirish va amalga oshirish boshlanadi.

Hamshiralik diagnostikasining asosiy maqsadi bemorning azobini engillashtirish va davolash jarayonida hamshira ta’minlay oladigan maksimal qulaylikni yaratishdir. Davolash jarayoniga hamshiralik aralashuvi uch toifaga bo’linadi:

- mustaqil faoliyat kasbiy mahorat bilan bog‘liq bo‘lgan va shifokorning roziligini talab qilmaydigan harakatlarni bajarishni nazarda tutadi (bemorga o‘z-o‘zini parvarish qilish qoidalarini o‘rgatish, bemorga g‘amxo‘rlik qilish bo‘yicha qarindoshlariga tavsiyalar berish va h.k.);
- bog‘liq bo‘lgan faoliyat shifokor tomonidan belgilab qo‘yilgan muolajalarni amalga oshirishni o‘z ichiga oladi (in’ektsiya, diagnostika tekshiruviga tayyorgarlik);
- o‘zaro bog‘liq faoliyat hamshiraning shifokor va bemorning qarindoshlari bilan hamkorligidir.

Bajarilgan barcha harakatlar tegishli hujjatlarda qayd etiladi, unga ko’ra hamshiralik faoliyati keyinchalik baholanadi.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. Shukurov H.I., Qanoatov S.Q. «Jamoada hamshiralik ishi», Toshkent, 2017 yil
2. Gadayev A., Ziyayeva M. va To’rakulova R. “Terapiya” “Yosh avlod matbaa” 2022 yil.
- 3 Hakimho`jayeva S., D. Nabiyeva “Tibbiyot kasbiga kirish” “Yosh avlod matbaa” 2022 yil.
4. Гиясова Р., Мирзаева С. ”Сестринский уход за больными с инфекционными заболеваниями” Ташкент, изд-во “IlmZiyo”, 2015 год.
5. Ziyaeva M., Rizaeva O. «Bolalarda hamshiralik parvarishi», Toshkent, 2016 yil.
6. Ziyaeva. M., Xodjasheva M. «Kattalarda hamshiralik parvarishi», Toshkent «Niso poligraf», 2014 y.
7. Zokirova K., To’xtamatova D.O’, MirzabaevaS.A. «Hamshiralik ishi asoslari», Toshkent «IlmZiyo», 2012 y.



NOS3 ГЕНИ С-786Т ПОЛИМОРФИЗМИНИНГ ҚАНДЛИ ДИАБЕТ БИЛАН ОҒРИГАН БЕМОРЛАРДА ОЁҚЛАРНИНГ ЙИРИНГЛИ-НЕКРОТИК ХАСТАЛИКЛАРИ РИВОЖЛАНИШИ ВА КЛИНИК КЕЧИШИДАГИ РОЛИНИ БАХОЛАШ

Назаров И.Р., Мусашайхов Х.Т., Мусашайхов У.Х.
Андижон давлат тиббиёт институти

Долзарблиги. Қандли диабет билан оғриган беморлар орасида оёқларнинг йирингли-некротик хасталикларининг тарқалиши 25% гача етиб, жарроҳлик аралашувини талаб қилади ва кўпинча турли даражадаги ампутацияларга олиб келади. КДда ОЙНХ ни даволашдаги сезиларли ютуқларга қарамай, юқори ампутациялар фоизи ҳамон юқорилигича қолмоқда. Оёқларда деструктив жараёнларнинг шаклланиши ва кечишига генетик мойилликнинг эҳтимолини ҳисобга олган ҳолда, организмдаги генетик бузилишларни ўрганиш ОЙНХ ривожланиш хавфини ва клиник кечишими ўз вақтида башорат қилиш, КД билан оғриган беморларда юзага келиши мумкин бўлган асоратларнинг олдини олишда алоҳида аҳамият касб этади.

Тадқиқотнинг мақсади. Оёқларнинг йирингли-некротик хасталиги мавжуд қандли диабети бор беморлар гурухида жарроҳлик ва бундай хасталиги бўлмаган гурухда консерватив даво ўтказган беморлар ўртасида ўрганилаётган генетик маркерларнинг тарқалиш частотаси натижаларининг қиёсий тахлилини ўтказишдан иборат.

Материаллар ва усуллар. Мазкур тадқиқот иши Андижон давлат тиббиёт институтининг клиник базаларида ва AKFA Medline University Hospital хусусий шифохонасида стационар шароитда даволанаётган беморлар ўртасида амалга оширилди. Тадқиқотни амалга ошириш учун жами 201 нафар шахс жалб этилди. Кузатув жараёнига 103 нафар асосий гурух беморлари ҳамда 98 нафар шартли-соғлом шахслар жалб этилган.

Натижалар ва муҳокама. КД ОЙНХ мавжуд беморлар гурухида NOS3 гени С-786Т полиморфизми генотипларининг ассоциацияси аниқланишини таҳлили шуни кўрсатди, С/С мутант генотиплар полиморфизми ассоциацияси 15.5% ҳолатда кузатилди, С/Т гетерозигот генотиплар эса – 37.9% ҳамда Т/Т ижобий генотиплар 46.6% ҳолатда аниқланди. Бу вақтда, КД ОЙНХ сиз беморлар гурухида С/С мутант генотиплар полиморфизми ассоциациясининг аниқланиши 8.9% ни, С/Т генотиплари гетерозигот вариантларининг аниқланиши 28.9% ни, Т/Т ижобий генотиплар аниқланиши эса мос равища 62.2% ни ташкил этди.

Оператив даво ўтказилган беморларнинг 17.6% да NOS3 генининг С-786Т полиморфизмининг нохуш С/С генотипи қайд этилди. Шу билан бирга, ушбу генотип мос равища 82.4% ҳолатларда ушбу гурух беморлари орасида кузатилмади.

Аммо, оператив даво қўлланилган беморлардан фарқли ўлароқ консерватив даво ўтказган беморлар гурухида ушбу салбий С/С генотипи аниқланмади.

Ушбу С/Т гетерозигот генотипнинг учраш частотасидаги фарқлар ўрганилаётган гурухлар орасида ишончли қийматларга етиб бормаган бўлсада, оператив даво ўтказган беморлар гурухида консерватив даво муолажалари қўлланилаган беморларга нисбатан 4.2 марта юқори бўлишига тенденция кузатилган ($\chi^2=1.9$; P=0.2; OR=4.2; 95%CI:0.47–37.5).

Бундан фарқли ўлароқ, ёввойи Т/Т генотипи оператив даво муолажалари ўтказган беморлар орасида консерватив даволанган беморларга нисбатан сезиларли равища кам учраган ва 41.2% қарши 85.7% ни ташкил этган ($\chi^2=4.9$; P=0.03; OR=0.1; 95%CI:0.013–1.04).

Шундай қилиб, NOS3 генининг С-786Т полиморфизмининг гетерозигот С/Т ва мутант С/С генотиплари мавжудлиги қандли диабети бор беморларда оёқларнинг йирингли-некротик хасталиги ривожланиш хавфини оширади ҳамда клиник кечишими оғирлаштиради, яъни ушбу беморлар гурухларида йирингли-некротик жараёнларнинг ривожланиши жадаллигининг аник прогностик маркерлари бўлиб хизмат қилиши мумкин.



HOMILADOR AYOLLARDA II VA III TRIMESTRDAGI O'TKIR RINOSINUSITNING TASHXISLASH VA DAVOLASH XUSUSIYATLARI

Bakieva Shahlo Hamidullayevna

Otorinolaringolog t.f.d.: professor

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi

Otorinolaringologiya kafedrasи

Telefon: +998(90) 328 48 90

Tag'oymurotova Shahzoda Baxtiyor qizi

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi

Otorinolaringologiya fakulteti 2-kurs magistri

Telefon : +998(90) 914 96 11

drshahzodadostonbek@gmail.com

Annotatsiya

O'tkir rinosinusit - burun yo'llari va paranasal sinuslarning shilliq qavatining yallig'lanishi, qisqa vaqt ichida (4 haftagacha) rivojlanadi. Homiladorlik paytida ayolning tanasi stressni boshdan kechiradi va immunitet tizimi o'sayotgan homilani himoya qilish uchun qayta quriladi. Ushbu o'zgarishlar homilador onalarni infektsiyalarga, shu jumladan o'tkir rinosinusitga nisbatan ko'proq zaiflashishi mumkin. Ushbu tezis biz homiladorlik davrida o'tkir rinosinusitning asosiy sabablari va oldini olish xususiyatlarini ko'rib chiqamiz, shuningdek, ona va bolaning sog'lig'ini saqlash uchun bir qator foydali tavsiyalarni beramiz.

Kalit so'zlar

Virusli infektsiyalar, bakterial flora, allergik reaktsiyalar, gormonal o'zgarishlar, allergenlar , namlik, immunitet, sovuq havo , gigiyena.

Kirish

Oddiy sharoitlarda tana yuqumli agentlarga samarali qarshilik ko'rsatadi, ammo homiladorlik paytida homilaga zarar bermaslik uchun himoya mexanizmlari o'zgaradi. Bu tez-tez yoki og'ir respirator infektsiyalarga olib kelishi mumkin.

O'tkir rinosinusitning sabablari

1. Virusli infektsiyalar:

2. Bakterial flora:

3. Allergik reaktsiyalar:

4. Gormonal o'zgarishlar:

O'tkir rinosinusitning oldini olish

Homiladorlik paytida yuqori nafas yo'llarining kasalliklarini oldini olish uchun bir qator profilaktika choralariga riyoq qilish tavsiya etiladi:

1.Muntazam qo'l yuvish- o'zingizni ko'pchilik virusli infektsiyalardan himoya qilishning eng oddiy va eng samarali usuli hisoblanadi.

2.Kasal odamlar bilan aloqa qilishdan saqlanish.

3.Immunitetni saqlash: to'g'ri ovqatlanish, yetarli miqdorda vitamin va minerallar, o'rtacha jismoniy faoliyat (toza havoda yurish, homilador ayollar uchun maxsus gimnastika).

4.Sovuqning birinchi belgilari paydo bo'lganda burunni o'z vaqtida davolash, shifokorga tashrifni kechiktirmaslik.

5.Havoni namlash.

6.Allergenlarga ta'sir qilishni cheklash.

Xulosalar va tavsiyalar

Homiladorlik davrida o'tkir rinosinusitning asosiy sabablari - bu, ayniqsa, immunitetning pasayishi va homilaning rivojlanishi natijasida bo'ladigan fiziologik o'zgarishlar. Oldini olish uchun esa, yuqumli kasalliklardan saqlanish, qo'shimcha vitaminlar bilan ta'minlanish, immunitetni mustahkamlash va o'tkir rinosinusitga olib keladigan omillarni bartaraf etish muhim.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Dzieciolowska-Baran E., Teul-Swiniarska I., Gawlikowska-Sroka A., et al. Rhinitis as a cause of respiratory disorders during pregnancy // Adv Exp Med Biol. 2013. Vol. 755. 2. P. 213–220. doi:10.1007/978-94-007-4546-9_27

2. Нормальная беременность : клинические рекомендации / Минздрав РФ. 2020.



Mirkhodjayeva Dilobar Davronbekovna

Renessans ta'lif universiteti. t.f.f.d., dotsent

Sanayev Ermat Shermatovich

Toshkent kimyo-texnologiya institute. t.f.f.d., dotsent

Maqolada gidroprik sharoitda donning unib chiqish samaradorligi muhokama qilindi. Eksperimentlar o'tkazildi va unib chiqqan donning sifat ko'rsatkichlari bo'yicha bir qator ma'lumotlar olindi. Ugan donni ichimliklarga kiritish imkoniyati ko'rib chiqildi.

Kalit so'zlar: gidroprik, unib chiqish, don, sharbatlar, funktsional ichimliklar, bug'doy.

ИЗУЧЕНИЕ КАЧЕСТВЕННЫХ ХАРАКТЕРИСТИК ПРОРОСТКОВ ПШЕНИЦЫ ДЛЯ РАЗРАБОТКИ ФУНКЦИОНАЛЬНОГО НАПИТКА

В статье рассматривается эффективность проращивания зерна на гидропонной установке. Были проведены эксперименты и получен ряд данных качественных характеристик пророщенного зерна. Рассмотрена возможность внесения пророщенного зерна в напитки.

Ключевые слова: гидропоника, проращивание, зерно, соки, функциональные напитки, пшеница.

STUDYING THE QUALITATIVE CHARACTERISTICS OF WHEATSPROUTS FOR THE DEVELOPMENT OF A FUNCTIONAL DRINK

The article discusses the efficiency of grain germination in a hydroponic plant. Experiments were carried out and a number of data on the qualitative characteristics of germinated grain were obtained. The possibility of adding sprouted grain to drinks is considered.

Key words: hydroponics, germination, grains, juices, functional drinks, wheat.

Kirish. Hozirgi vaqtning dolzarb muammosi oziq-ovqatni zarur ozuqaviy komponentlar bilan ta'minlashdir [5]. Ushbu komponentlardan biri ugan bug'doy donlari hisoblanadi.

Rossiyada gidroprik kaning rivojlanishi kichik maydonda ko'katlar, sabzavotlar, gullar va rezavorlar yetishtirilishi mumkin bo'lgan "kichik fermer xo'jaliklariga" qiziqish ortib borishi bilan bog'liq. Gidroprik an'anaviy o'stirish usullariga nisbatan madaniy o'simliklardan yuqori hosil olish uchun asos yaratadi [2, 3].

Don ekinlarining, xususan, bug'doyning gidroprik unib chiqishi kraxmalni saxarifikatsiya qilish, eruvchan azotli birikmalar (aminokislotalar), B vitaminlari va E vitamini miqdorini oshirish orqali uning ozuqaviy qiymatini oshirish uchun amalga oshiriladi. Shuningdek, unib chiqqan donlarda kaltsiy, magniyning so'rilihiga to'sqinlik qiluvchi va butun don tarkibida mavjud fitatlar yo'q qilinadi.

Ugan bug'doydan foydalanish mahsulotlarni yuqorida biologik faol moddalar bilan boyitish imkonini beradi [4, 6].

Maqsad va vazifalar. Ishdan maqsad "Yuka" navli bug'doyini undirish va vitaminlashtilgan meva-sabzavot ichimligini boyitish uchun sifat ko'rsatkichlarini baholashdan iborat.

Bug'doy doni unib chiqqandan so'ng barcha zarur xususiyatlarni olganligi sababli bug'doy donini gidroprik sharoitda undirib, so'ngra unib chiqqan bug'doy ekstrakti qo'shilgan meva-sabzavot xomashyosi asosida funktsional ichimlik ishlab chiqarish vazifalari qo'yildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tajriba natijasida quyidagi ma'lumotlar aniqlandi va olindi: unib chiqishgacha bo'lgan don namligining massa ulushi, unib chiqish energiyasi, unib chiqishi, unib chiqishdan oldingi va keyingi don og'irligi, ko'chatlar va nihollarning uzunligi.

Natijalar va muhokama. Tasdiqlangan unib chiqish usuli bo'yicha taqdim etilgan namunalar soni 3 tani tashkil etdi. Dastlab donni sterilizatsiya qiluvchi eritmalar bilan ishlov berish shartlari va o'rnatishda unib chiqish sharoitlari (harorat, vaqt, yorug'lik) tanlab olindi. Undirish usuli quyidagilarni o'z ichiga oladi: donni aralashmalardan tozalash, 18-25 °C haroratda oqova suv ostida yuvish va anolit sterilizatsiya eritmasi, tanlangan parametrlarga muvofiq gidroprik sharoitda unib chiqishi [1]. Bug'doy donining unib chiqishi natijalari 1-jadvalda keltirilgan.



1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib, o'rganilayotgan bug'doy navining unib chiqqunga qadar namligining massa ulushi 13,2-13,3% ni tashkil qiladi, degan xulosaga kelish mumkin. Unish energiyasi 90,3-91,1%, unib chiqishi 91,8% dan 92,5% gacha. Undirish natijasida har bir namunaning massasi 142,77-144,91 g ga oshadi, bu 57,9-58,3% ni tashkil qiladi. Ko'chatlar uzunligi 18-27 mm, kurtaklar uzunligi 3-15 mm gacha o'rnatildi.

1-jadval - Bug'doy donlarining unib chiqishi bo'yicha olingan ma'lumotlar

Ko'rsatkichlar	Namuna №1	Namuna №2	Namuna №3	Aniqlash usuli
Unishdan oldin don namligining massa ulushi, %	13,2±1,0	13,3±1,0	13,2±1,0	GOST 13586.5-2015
Unish energiyasi, %	90,3±1,0	91,1±1,0	90,8±1,0	GOST 10968-88
Unib chiqishi, %	91,8±1,0	92,5±1,0	92,2±1,0	GOST 12038-84
Donning unib chiqishdan oldingi vazni, г	200,0	200,0	200,0	tortish
Donning unib chiqqandan keyingi vazni, г	342,77	344,91	343,88	tortish
Ko'chat uzunligi, mm	20±3	21±3	20±3	o'lchov
Kurtaklar uzunligi, mm	10±6	8±6	9±6	o'lchov

Vitaminlashtilgan ichimlikni boyitish uchun unib chiqqan donlardan ekstrakt olindi, ularning biokimyoviy xususiyatlari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval – Unib chiqqan bug'doy ekstraktining biokimyoviy ko'rsatkichlari:

Ko'rsatkichlar	Tarkib	Aniqlash usuli
Suv, g	47,75	GOST 13586.5-2015
Kuldorlik, g	0,96	GOST 10847-74
Oqsil, g	7,49	GOST 10846-91
Yog', g	1,27	
Uglevod, g	41,43	GOST 10845-98
Oziqa tolasi, g	1,1	GOST R 54014-2010
Energetik qiymati, kkal	198,0	GOST R 53861-2010

Hulosa va tavsiyalar. Bug'doy donining unib chiqishida ijobiy va barqaror natjalarga erishildi, uni unib chiqish darajasi (92,5%) va unib chiqish energiyasi (91,1%) ko'rsatib turibdi. Olingan qiymatlar ishlab chiqarilgan ekstraktning yuqori hosildorligini ta'minlaydi, bu esa ishlab chiqilgan vitaminlangan o'simlik ichimligining rentabelligini ta'minlaydi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Анискина, М. В. Подбор оптимального способа стерилизации зерна для получения гидропонного зеленого корма. / М.В. Анискина, А.Н. Гнеуш, О.В. Кошаева, В.Н. Шевкопляс // Advances in Agricultural and Biological Sciences. – 2018. – Т. 4. – № 1. – С. 19-26.
2. Алиев Э. А. Выращивание растений в гидропонных теплицах / Э. А. Алиев. – Киев: Урожай, 1985. – 100 с.
3. Бентли М. Промышленная гидропоника. / М. Бентли. – Москва: Изд- во Колос, 1965. – 819 с.
4. Жарикова О.В. Экологизация производства озимой пшеницы при помощи использования биопрепаратов. / О.В. Жарикова, С.С. Авдеенко // Проблемы технического сервиса в АПК: сб. науч. тр. – Кинель: РИОСамарского ГАУ, 2020. – С. 203-208.
5. Mirxodjayeva D.D., Nizamov.D.B., Sanayev.E.Sh., Mardanov.N.R., Umarov.A.T. O'zbekiston agrar fani xabarnomasi Ilmiy-amaliy jurnal № 3 (15) 2024 // P.- 9-14



Содержание

ХУҚУҚ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

Умбаров Хуршид Саматович

ИЛГАРИ СУДЛАНГАН ШАХСЛАРНИНГ КРИМИНОЛОГИК ТАВСИФИ ВА
ПРОФИЛАКТИКАСИ 5

Dildora Anvarovna Anvarova

ONALIK – KONSTITUTSIYAVIY INSTITUT..... 13

Дилдора Анваровна Анварова

ЎЗБЕКИСТОНДА ОНАЛИК МУХОФАЗА ҚИЛИШНИНГ КОНСТИТУЦИЯЙИ-
ХУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ 16

Abdimalikov Bekniyoz Iljos o‘g‘li

O‘ZBEKISTONDA EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA’MINLASH VA BARQAROR
RIVOJLANISH: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA STRATEGIK CHORA-TADBIRLAR.. 18

ФАЛСАФА ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

Tagayev Kamol Kamilovich

LOYIHALASHTIRISHGA SINERGETIK YONDASHUV..... 21

Djalilov Baxtiyor Xidaevich

JAMIYAT TARAQQIYOTI VA SHAXS KAMOLOTIDA MADANIYATNING O‘RNI VA
AHAMIYATI 23

Rajabov Alisher Po‘latovich, Maximova Zulfiya Mexmonovna

GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLAR ONGIDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI
SHAKLLANTIRISH ZARURATI 25

Sultanov Og‘abek Sultan o‘g‘li

G‘ARB FALSAFASIDA IJTIMOIY MAS’ULIYATGA DOIR ILMIY QARASHLAR VA
ULARNING JAMIYAT HAYOTIDA AKS ETISHI 28

Danabayev Xurshid Napasovich

O‘ZBEK XALQI MILLIY SPORT O‘YINLARINING FALSAFIY MAZMUN-MOHİYATI 30

ЖУРНАЛИСТИКА ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

Jartibaeva Biybisara Kuwanishbay qizi

SUN’IY INTELLEKT DAVRIDA INSONIYAT: AXLOQIY VA FALSAFIY QARASHLAR 33

Abdyujanova Vazira Xusan qizi

MATN YARATISH VA TAHRIRLASHDA SUN’IY INTELLEKT IMKONIYATI 36

ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

Mamatova Farog‘at Komil qizi, Ro‘ziyeva Nasiba Kenjayevna

“GAKNING TARJIMA NAZARIYASI VA AMALIYOTI” 38

Muxiddinova Durdonha Odilovna

ULUG‘BEK HAMDAM HIKOYALARIDAGI INDIVIDUAL O‘XSHATISHLAR..... 40

Xakimbayeva Aziza Qalandarovna

AN’ANAVIY VA ZAMONAVIY TA’LIM SOHALARIDA TAHLILIIY SOLISHTIRISH
METODINING AHAMIYATI 42

Xakimbayeva Ozoda Kalandarovna

TOPONIMIKADA AGRONIMLARNING NAZARIY TAHLILI..... 44



Zakirova Go‘zal Soyibjonovna

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA SALOMLASHISH BIRLIKALARINING
LINGVOPRAGMATIK TAHLILI VA MADANIYATLARARO FARQLARI 46

Sadikova Dildora Nizomovna

DEN BRAUNNING “FARISHTALAR VA IBLISLAR” ASARIDA RAMZLARNING GIPO-
GIPERTEKSTUAL TADQIQI 49

Sadullayeva Shoxida

DIPLOMATIK YOZISHMALARDA QO’LLANILADIGAN DIPLOMATIK
TERMINOLOGIYANING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI 52

АДАБИЁТ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

Inomjon Mamatov

BADIY ASARLARDA QUSHLAR OBRAZI (ORNITONIMLAR) VA ULARNING USLUBIY
XUSUSIYATLARI 55

ИҚТИСОД ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

Yaqubova Xurshidabonu Davron qizi

ELEKTRON SAVDONI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI 57

Гадаев Бобуржон Хасанович

БАНКНИНГ МОЛИЯВИЙ АКТИVLARI VA УЛАРНИНГ БАНК
ФАОЛИЯТИДАГИ ЎРНИ 60

Иброимов Азизжон Аламжонович

КАПИТАЛ БОЗОРИДА МОЛИЯВИЙ РЕСУРСЛАРНИ ЖАЛБ ҚИЛИШ ВОСИТАЛАРИ 62

Нурилдин Исмоилов

ДАВЛАТ МОЛИЯВИЙ НАЗОРАТИНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ
АСОСЛАРИ 64

Мамиров Мухаммад Тоирович

ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ ФОЙДА ТАҚСИМОТИДА ФОЙДАЛАНИЛАДИГАН АХБОРОТ
МАНБАЛАРИ 66

Наврӯзбек Озодов

МОДЕРНИЗАЦИЯ ШАРОИТИДА МИЛЛИЙ ИҚТИСОДИЁТНИ ДАВЛАТ ТОМОНИДАН
ТАРТИБГА СОЛИНИШI 68

Сотволдиев Дилмурод Анваржон ўғли

МАҲАЛЛИЙ БЮДЖЕТНИНГ ҚЎШИМЧА ДАРОМАДЛАРИНИ ШАКЛАНТИРИШ
МАСАЛАЛАРИ 70

Хожиев Шоҳруз Ҳаётзода

МАҲАЛЛИЙ БЮДЖЕТЛАРНИ РЕЖАЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ 72

Salayeva Dilrabo Abdullayevna

XORAZM VILOYATIDA XALQARO TURIZM XIZMATLARIDAN
FOYDALANISH HOLATI 74

Shavkatov Shaxzod

TO‘QIMACHILIK KORXONALARIDA STRATEGIK BOSHQARISH JIHATLARI 78

Sharopov Nurmuhammad Bobirovich

YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISHDA DAVLAT BOSHQARUVINING STRATEGIK
VAZIFALARI 80

Yuldasheva Dilsora

MINTAQAVIY IQTISODIYOTIDA TARKIBIY O’ZGARISHLAR 83



ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

Rajabov Alisher Po'latovich

O'QUV MASHG'ULOTLARINI TASHKILLASHTIRISHDA PEDAGOGIK
TEXNOLOGIYALARINI O'RNI 85

No'monjonova Begoyim Shuhratovna, Kh. M. Urinboeva

TASK BASED LANGUAGE TEACHING (TBLT) AND ITS IMPACT ON LANGUAGE
ACQUISITION 87

Abdullayeva Sabohat G'ayratullayevna

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARING NUTQ BOYLIGINI OSHIRISHDA
ERTAKLARNING AHAMIYATI 89

Ashirova Oydin Rashid qizi, Nurjonova Shoira Hamdamovna

O'QUVCHILARDA STRESS VA ASABIYLIKNI KAMAYTIRISH BO'YICHA AMALIY
MASHG'ULOTLAR 91

Jumamuratova Sevara Saparbaeva

TIL TA'LIMIDA RAQAMLI RESURSLARNI JORIY QILISHNING O'ZIGA XOSLIGI 92

Quvondiqov Shamshodjon Husniddin o'g'li

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING MATEMATIK
TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING
AHAMIYATI 94

Abdusalomova Madinaxon Toxirjon qizi, Ro'ziyeva Durdona Baxtiyorjon qizi

TA'LIM TASHKILOTIDA INKLYUZIV MUHITNI LOYIHALASH 96

Sindarova Nargiza Abdumajidovna

CHET TIL LINGVISTIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA KOMMUNIKATIV VA
DIFFERENSIAL YONDASHUV TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILI
SIFATIDA 99

Urinboyeva Sarvinoz G'ayratjon qizi

ILMIY MATNLARDA EKSPRESSIVLIK VA EMOTSIONALLIKNI MUHIM
JIHATLARI 101

Sulaymonova Yoqutxon, Kh. M. Urinboeva

INDEPENDENT LEARNING AND LEARNER AUTONOMY IN
LANGUAGE LEARNING 105

Xudayberganova Gulnora Tuxtabayevna 107

AN'ANAVIY VA ONLAYN TA'LIM O'RTASIDAGI FARQLAR 107

АРХИТЕКТУРА ВА ДИЗАЙН ЙЎНАЛИШИ РИВОЖЛАНИШИ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

Абдуллаев Ж.С.

ТОШКЕНТНИНГ 1930 – 50 ЙИЛЛАР МЕЪМОРЧИЛИГИ 109

Абдуллаев Ж.С.

XX аср бошларида Тошкентнинг шаҳарсозлик жараёнлари. 115

ТЕХНИКА ВА ТЕХНОЛОГИЯ СОҲАСИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

Ускенбаева Дилфуза Шухрат қизи

ОПТИК КИРИШ ТАРМОҚЛАРИНИ МОНИТОРИНГ ТИЗИМИ ВА УСУЛИ 120

ФИЗИКА-МАТЕМАТИКА ФАНЛАРИ ЮТУҚЛАРИ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

М.И. Охунбаев, Xurramov A.X

VEKTOR MAYDONLAR. GRADIYENT MAYDONLAR. 123



БИОМЕДИЦИНА ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ
ТАДҚИҚОТЛАР

G’iyosova Sevra Frunze qizi, Ravshanova Umeda Hamidovna HAMSHIRALIK JARAYONI VA HAMSHIRALIK TASHXISI O’RTASIDAGI BOG’LIQLIK	130
Назаров И.Р., Мусашайхов Х.Т., Мусашайхов У.Х. NOS3 ГЕНИ С-786Т ПОЛИМОРФИЗМИНИНГ ҚАНДЛИ ДИАБЕТ БИЛАН ОФРИГАН БЕМОРЛАРДА ОЁҚЛАРНИНГ ЙИРИНГЛИ-НЕКРОТИК ХАСТАЛИКЛАРИ РИВОЖЛАНИШИ ВА КЛИНИК КЕЧИШИДАГИ РОЛИНИ БАХОЛАШ	132
Bakieva Shahlo Hamidullayevna, Tag’oymurotova Shahzoda Baxtiyor qizi HOMILADOR AYOLLARDA II VA III TRIMESTRDAGI O’TKIR RINOSINUSITNING TASHXISLASH VA DAVOLASH XUSUSIYATLARI.....	133
Mirkhodjayeva Dilobar Davronbekovna, Sanayev Ermat Shermatovich FUNKSIONAL ICHIMLIKNI ISHLAB CHIQISH UCHUN UNGAN BUG’DOYNING SIFAT XUSUSIYATLARINI O’RGANISH.	134

TADQIQOT.UZ
ТОМОНИДАН ТАШКИЛ ЭТИЛГАН

"ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАР" МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА
76-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

(2-қисм)

Маъсул муҳаррир: Файзиев Шоҳруд Фармонович
Мусахҳих: Файзиев Фарруҳ Фармонович
Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Эълон қилиш муддати: 31.05.2025